



Gulrukh AZAMATOVA,

PhD student of the National University; Lecturer of the Tashkent International University of Education

E-mail: t420@tiue.uz

Based on a review by Professor K.Saidova from Tashkent International University of Education

PHILOSOPHICAL AND ETHICAL ANALYSIS OF THE PHENOMENON OF FREEDOM IN THE CONTEXT OF KARL POPPER'S CONCEPTION OF EDUCATION

Annotation

The article discusses the philosophical and ethical aspects of the concept of freedom in relation to Karl Popper's educational theory, emphasizing its significance for the development of critical thinking and intellectual independence among students. The text presents a comparative analysis of pedagogical approaches in the East and West, identifying their strengths and limitations, and offers recommendations for incorporating Popper's principles into modern educational systems.

Key words: learning, critical thinking, education, freedom, morality, ethics, philosophy.

KARL POPPER TA'LIM KONTSEPTSIYASI KONTEKSTIDA ERKINLIK FENOMENINING FALSAFIY-AXLOQIY

TAHLILI

Annotatsiya

Maqola Karl Popperning ta'lim kontseptsiyasi kontekstida erkinlik fenomenini falsafiy va axloqiy tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, uning tanqidiy fikrlash va o'quvchilarning intellektual avtonomiyasini rivojlantirish uchun ahamiyatini ko'rib chiqilgan. Sharq va G'arb pedagogik amaliyotlarining komparativistik tahlili asosida ularning kuchli va zaif tomonlari aniqlandi va Popper g'oyalari zamonaviy ta'lim tizimlariga integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: o'qitish, tanqidiy fikrlash, ta'lim, erkinlik, axloq, etika, falsafa.

ЭТИКО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ФЕНОМЕНА СВОБОДЫ В КОНТЕКСТЕ КОНЦЕПЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ КАРЛА ПОППЕРА

Аннотация

Статья посвящена философско-этическому анализу феномена свободы в контексте концепции образования Карла Поппера, подчеркивая его значимость для развития критического мышления и интеллектуальной автономии учащихся. Проведен компаративный анализ педагогических практик Востока и Запада, выявлены их сильные и слабые стороны, и предложены рекомендации по интеграции идей Поппера в современные образовательные системы.

Ключевые слова: обучение, критическое мышление, образование, свобода, мораль, этика, философия.

Introduction. Issues of freedom, critical thinking, and moral values are essential components of modern educational discourse. Understanding these aspects is crucial, especially in the context of education where future citizens and leaders are being shaped. The philosophical and ethical analysis of these issues, through the lens of Karl Popper's concept of education, opens up new avenues for understanding and enhancing educational practices. Karl Popper, an Austrian and British philosopher and scientific methodologist, proposed a unique vision for education as a means to foster individual freedom and active engagement in public life. His works, such as «The Open Society and Its Enemies» and «The Logic of Scientific Discovery», have become classics in the fields of philosophy of science and epistemology. However, their significance for educational theory and practice has yet to be fully explored. The purpose of this paper is to conduct a philosophical and ethical analysis of the concept of freedom in education, based on the ideas of Karl Popper. Our aim is to identify which of Popper's concepts can be applied in today's educational practices to promote critical thinking, ethical awareness, and individual autonomy among students. The significance of this research stems from the need to develop effective methods to enhance the educational process and contribute to the formation of responsible and active members of society [1]. Through this analysis, we hope to expand our understanding of how philosophical and ethical principles influence educational standards and practices, leading to the creation of more inclusive and open learning environments. Later in this article, we will provide an overview of Karl Popper's main ideas in relation to education, conduct a critical analysis of current approaches and methods, and offer practical suggestions for

improving the educational process based on his philosophy of freedom.

Literature review. The study of Karl Popper's educational theory is a significant subject of philosophical inquiry today, being explored by scholars such as O.Kuhne, L.Leonardi, J.Shearmur [2], M.A.Mohammadi [3], D.Corson [4], G.Parton, and R.Bailey [5], among others. These researchers focus on aspects such as critical rationalism, open-mindedness, scholarship, historicism, and positivism in Popper's theory of education. In our country, scholars like M.Akhmedova, V.Alimasov, R.Karimov, G.Kabulniyazova, G.Ruzmatova, K.Saidova, and R. Bekbayev have also contributed to the understanding of Popperian education. Their works explore various historical, philosophical, social, and cultural dimensions of Popper's ideas.

Research methodology. In this study, the author relies on various research methods. Hermeneutical analysis is used to investigate and interpret Karl Popper's work on the topic under study. The author also employs the method of comparative analysis to examine and critically evaluate Popper's arguments and theories on freedom and education, as well as their comparison with different educational practices. Additionally, the author makes use of methods such as analysis, synthesis, deduction, and induction.

Analysis and results. Karl Popper, one of the most prominent philosophers of the 20th century, was known for his contributions to the fields of philosophy of science, political philosophy, and social theory. A central theme in his work was the concept of freedom, closely linked to his idea of an «open society». In his book «The Open Society and Its Enemies», Popper described an open society as one where individuals have

freedom of thought, expression, and action, and the ability to challenge and improve existing institutions through rational discussion [6; 7].

Popper argued that freedom was essential for scientific progress and social change. A free society allowed people to propose ideas, test them, and through a process of trial and error, discover new knowledge. He emphasized the importance of freedom not just in political contexts, but also in education, where critical thinking and open-mindedness to new ideas were crucial. For Popper, freedom is inextricably linked with critical thinking. He believes that the ability to question and analyze existing ideas and practices forms the basis of the scientific method and progress. Critical thinking allows individuals to not only understand and evaluate information, but also actively participate in its creation and improvement. In the context of education, Popper stresses the importance of creating an environment where students can express their thoughts freely, discuss different viewpoints, and critically evaluate their knowledge. This involves not only teaching critical thinking skills, but also encouraging independence and intellectual freedom within the educational process. Popper saw education as a crucial tool for the development of free and critical thinkers. He believed that education should not only impart knowledge, but also foster the ability to analyze and think independently. Freedom, in this context, serves as a fundamental principle that shapes the goals and methods of education. According to Popper, educational systems should aim to develop students' critical thinking skills, tolerance, and respect for diversity. This involves creating conditions for open discussion and debate, fostering an inclusive educational environment, and encouraging students to seek and analyze information independently.

The concept of freedom has both philosophical and ethical significance, particularly in the context of education. In the educational environment, freedom should be understood not only as the absence of restrictions or the opportunity for choice, but also as a responsibility. The ethical aspects of freedom involve respecting the rights and freedom of others, being tolerant, just, and responsible for one's actions. Freedom, as an ethical concept, implies that students have the right not only to freedom of thought and expression but also to use this freedom in a way that is consistent with generally accepted moral and ethical standards. This includes respecting others' opinions, engaging in constructive dialogue, and being able to critically evaluate one's own and others' beliefs [8, 28].

The philosophical and ethical analysis of freedom in Karl Popper's educational concept requires a critical examination of his arguments. Popper argues that freedom and critical thinking are essential for the progress of society [9, 45]. His theory of falsification supports this idea, as science and knowledge are developed through the process of generating hypotheses and refuting them. However, critics note that the idea of absolute freedom can lead to practical and ethical issues. For instance, unrestricted freedom of speech can spread false or harmful information. Additionally, critical thinking requires a certain level of training that may not be available in traditional educational systems.

Modern interpretations of the concept of freedom in education often include ideas and approaches aimed at creating more inclusive and democratic learning environments. This involves integrating the principles of freedom and critical thinking into curriculum, developing methods that encourage independent thought and analysis, and providing conditions for free and open discussion. However, there is criticism of these approaches. Some scholars argue that an overemphasis on freedom can result in insufficient attention to discipline and structure in the learning process. Others suggest that freedom can be used as a means to avoid responsibility and demand, which could negatively impact educational outcomes.

Thus, the philosophical and ethical analysis of the phenomenon of freedom within the context of Karl Popper's concept of education reveals both significant benefits and potential challenges. This emphasizes the need for a balanced

approach between freedom and responsibility, as well as critical reflection and adaptation of Popper's ideas to modern educational contexts.

To better understand the concept of freedom in education, it is essential to examine the pedagogical approaches of various cultural backgrounds, particularly Eastern and Western traditions [10]. These two cultural spheres have distinct methods of learning and teaching, allowing us to identify strengths and weaknesses in each approach and their impact on critical thinking and personal freedom.

Western pedagogical approaches:

- in Western educational systems, the focus is often on the development of individual skills, critical thinking, and independent problem-solving. Training programs include discussions, debates, and projects that aim to develop analytical and creative abilities;

- approaches such as active learning, problem-based learning, and project-based activities encourage students' involvement in the learning process and promote their independence;

- Western education strives to create a democratic and open environment where students are free to express their thoughts and participate in decisions regarding the educational process.

Eastern pedagogical approaches:

- Eastern educational systems in countries like Asia often emphasize collective values, respect for tradition, and the authority of teachers. This can limit freedom of expression and critical thinking but promotes discipline and respect for older generations.

- in the countries of the East, there is often a high level of expectation regarding academic performance. This leads to intensive education and training, which contributes to a deeper understanding of the subject. However, it may limit the development of creativity and critical thinking skills;

- traditional methods such as memorization and repetition are commonly used in Eastern education systems, as they are effective for learning. However, these methods may not encourage the development of independent thinking and analysis.

Cultural contexts play a significant role in shaping educational practices and influencing attitudes towards freedom and critical thinking [11]. In Western cultures, freedom and the ability to think critically are often seen as fundamental values that are reflected in educational systems and learning approaches. In contrast, Eastern cultures tend to place greater emphasis on collective values and respect for authority, which can limit individual freedom but ensure a high level of discipline and academic success.

However, current trends suggest that both approaches can be combined to achieve the best outcomes. For example, introducing critical thinking into traditionally authoritarian educational systems in the East and strengthening discipline and structure in Western educational systems could lead to a more balanced student development. Karl Popper's ideas on freedom and critical thinking could be adapted and implemented in various cultural environments. In Western educational systems, this could involve an increased emphasis on ethical responsibility and respect for diversity to prevent the potential negative consequences of unchecked freedom. In Eastern educational systems, adapting Popper's ideas could involve introducing methods that promote critical thinking and open-mindedness, helping students develop independence and analytical abilities while maintaining high academic standards and respect for tradition. Thus, a comparative analysis of the pedagogical practices of the East and the West reveals that the integration of Karl Popper's ideas on freedom and critical thinking has the potential to contribute to the development of more effective and inclusive educational systems that can help students acquire the necessary skills and qualities to succeed in modern society.

Conclusion. The phenomenon of freedom, explored through the lens of Karl Popper's educational philosophy, is a significant and complex aspect of modern educational theory and

practice. This article presents a philosophical and ethical examination of freedom, exploring its connections with critical thinking and evaluating its role in shaping an open society. Popper's conception of freedom emphasizes the importance of creating an educational environment that fosters critical thinking and intellectual independence. According to Popper, freedom not only grants students the ability to choose and act but also imposes a responsibility for their choices and actions. The two-sided nature of freedom is fundamental to progress in science and social life. Philosophical and ethical analysis shows that freedom in education should be linked to ethical values, such as respect for others' rights, tolerance, and justice. These values are important for creating not only intellectually, but also morally, mature members of society. A comparative analysis of educational practices in the East and West shows that each culture has unique approaches to education. Western systems emphasize individualism and critical thinking, while Eastern systems emphasize discipline and respect for tradition. Both can benefit from each other's approaches. Western systems can learn from Eastern systems' respect for tradition, and Eastern systems can

learn from Western systems' emphasis on critical thinking. In turn, Eastern systems can benefit from Western methods to foster the development of critical thinking and intellectual freedom. The practical application of Karl Popper's ideas in education demands a balance between freedom and responsibility, as well as adaptation to specific cultural and social contexts. Implementing these ideas in educational programs could contribute to creating more inclusive and democratic education systems that develop students with the skills and qualities needed for a successful life in a globalized world.

In conclusion, the study demonstrated that the philosophical and ethical examination of the concept of freedom within the framework of Karl Popper's educational theory offers valuable insights for enhancing educational practice. Freedom, as a foundation for critical thinking and moral accountability, is a crucial component in establishing educational systems that prepare students for active and responsible engagement in society. Future research could focus on developing specific methodologies and initiatives to integrate Popper's ideas into diverse educational settings and assessing their efficacy.

REFERENCES

1. Karimov R., Naumenko O., Saidova K., Elmuratov R., Bekbaev R. The Phenomenon of Education in the Context of an Intercultural Philosophical Approach // *Wisdom*. – 2022. – №4(24). – Pp.84-90.
2. Kühne, O., Leonardi, L., Berr, K. The open society and its life chances – from Karl Popper via Ralf Dahrendorf to a human geography of options and ligatures // *Geographica Helvetica*. – 2023. – №78(3). – Pp.341-354.
3. Mohammadi Alamuti M. Towards a Sociology of the Open Society: Critical Rationalism and the Open Society. – Tehran, 2022.
4. Corson D. Popper on Education // *Access: Contemporary Issues in Education*. – 1985. – №4(2). – Pp. 84-101.
5. Parton G., Bailey R. Problem-Based Learning: A Critical Rationalist Perspective // *London Review of Education*. – 2008. – №6(3). – Pp.281-292.
6. Popper K. *The Open Society and Its Enemies*. Vol. 2. – London: Routledge, 1945.
7. Popper K. *The Open Society and Its Enemies*. Vol. 1. – London: Routledge, 1945.
8. Popper K. *The Logic of Scientific Discovery*. – London: Routledge, 2002.
9. Popper K. *Conjectures and Refutations. The Growth of Scientific Knowledge*. – London: Routledge and Kegan Paul, 1972.
10. Саидова К.У. Особенности воспитания молодежи в контексте компаративного подхода к педагогике Востока и Запада: монография. – Ташкент, 2024.
11. Azamatova G. Sociocultural aspects in Karl Popper's philosophy in the context of modern education // *Actual problems of humanities and social sciences*. – 2024. – №3(4). – P.282-287.



Madina ALIMOVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi
E-mail: alimovamadina@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor v.b T.Islomov taqrizi asosida

SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF TEACHING THE UZBEKI LANGUAGE IN ANDRAGOGICAL EDUCATION

Annotation

In the following years, important changes took place in the development of our language, as in all areas of our country. Along with the international prestige of the Uzbek language, the need for its study is also growing. This article is about the history of teaching the Uzbek language in androgen education, about research related to it.

Key words: Andragogy, Uzbek language, foreign language, second language, approach, training.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ В АНДРАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В последующие годы в развитии нашего языка, как и во всех сферах нашей страны, происходят важные изменения. Вместе с международным авторитетом узбекского языка растет и потребность в его изучении. Эта статья об истории преподавания узбекского языка в андрогенном образовании, об исследованиях, связанных с ним.

Ключевые слова: Андрогогика, узбекский язык, иностранный язык, второй язык, подход, обучение.

ANDRAGOGIK TA'LIMDA O'ZBEK TILINI O'QITISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Keyingi yillarda mamlakatimizning barcha sohalarida bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar bo'lmoqda. O'zbek tilining xalqaro miqyosda obro'si bilan birga uni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ham oshib bormoqda. Ushbu maqola andragogik ta'limga o'zbek tilini o'qitishining tarixi, unga oid tadqiqotlar haqida.

Kalit so'zlar: Andragogika, o'zbek tili, xorijiy til, ikkinchi til, yondashuv, o'qitish.

Kirish. Dunyo bo'ylab yetmishdan ortiq o'zbek tilini o'rgatadigan oliy ta'lim muassasalari, til markazlari faoliyat yuritmoqda. Ular AQSh, Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Koreya, Xitoy, Rossiya, Turkiya hamda MDH dagi respublikalarda joylashgan. O'zbekistonda ham o'zbek tilini ikkinchi til hamda xorijiy til sifatida o'rganishga ehtiyoj mavjud. Respublikamizdagi maktablarda ta'lim yettita tilda, keyingi bosqichlarda esa ikki (qoraqalpoq va rus) tilda olib boriladi. Yuqorida sanab o'tilgan tillarda ta'lim olgan o'quvchilar uchun o'zbek tili ikkinchi til sifatida o'qitiladi. Turli tillarda so'zlashadigan vatandoshlarimiz davlat tilida og'zaki hamda yozma muloqotga kirisha olish layoqatiga ega bo'lish va bilish faoliyatini rivojlantirishi lozim. Shu o'rinda S.Adilovning "O'zbek tili ona tili bo'lmagan talabalarining davlat tili bo'yicha bilish faoliyatini takomillashtirish deganda, ...o'zgalari nutqini tushunish, bir tildan ikkinchisiga qiynalmay o'tish va yangi til makonida o'zini erkin his qilish kabi ko'nikmalarni yanada rivojlantirish nazarda tutiladi"[2] degan fikrlarini eslashni joiz deb hisobladik.

O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rgatishga oid ehtiyojning kundan-kunga oshishiga sabab yurtimizning iqtisodiy, turistik, madaniy sohalarida rivojlanishida deb hisoblaymiz. Qolaversa jahonning turli nuqtalarida istiqomat qilyapgan o'zbeklarining madaniyatimizga, ona tilimizga bo'lgan hurmati uni o'rganishga nisbatan ehtiyojni tug'ilishiga sabab bo'lmoqda.

Maqola andragogik ta'limga o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishga bag'ishlangan. Shu o'rinda o'zbek tilini o'qitishga nisbatan ishlatiladigan terminlarga oydinlik kiritishga harakat qildik. O'zbek tilini uch rakursda o'rganishimiz mumkin. Birinchisi o'zbek tilida so'zlovchilar uchun ona tili sifatida, ikkinchisi ona tilisi o'zbek tili bo'lmaganlar uchun ikkinchi til sifatida va xorijliklar uchun chet tili sifatida. G.Asilovning "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasida ham bu borada qarashlar taqdim etilgan. Ma'lumki, "xorijiy til"

tushunchasi "ikkinchi til" tushunchasi bilan uzviy bog'liq. Xorijiy til yoki chet tili- maktabda o'rganilgan va funksional jihatdan chegaralangan til bo'lib, asosan millatlararo muloqotda qo'llanadi. Xorijiy til unda so'zlashuvchi, uning egasi bo'lgan xalq ushbu davlatdan tashqarida yashaydigan, fuqarolarning aksariyati uchun ona tili bo'lmagan tildir. Ikkinchi til shaxsning ona tilidan keyin o'rganadigan tilidir. Ona tili va xorijiy (yoki o'zga) tilni o'rganish orasida katta tafovut mavjud. Ona tilini inson ongli ravishda o'rganishga intilmaydi, balki kichik yoshidan fikrlashga o'rganish jarayonidan o'zlashtiradi. Ona tili bola uchun avvalambor jamiyatning tajribasini o'zlashtirish vositasi, keyin esa o'z fikrini ifodalash vositasi bo'lib hisoblanadi. Taniqli psixolog I.Vigotskiy buni quyidan yuqoriga qarab ya'ni ixtiyorsiz va ongsiz ravishda o'rganish deb talqin qilgan. Demak, inson tug'ilganidan boshlab eshitgan va so'zlashishni o'rgangan tilni ona tili, undan keyin o'rgangan tilni ikkinchi til hisoblanadi[3]. Dastavval o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitilishining tarixiga to'xtalmoqchimiz. Ma'lumotlarga ko'ra o'zbek tilini (ikkinchi til sifatida) boshqa millat vakillariga o'rgatish rus-tuzem maktablarining tashkil qilinishi bilan bog'liq. Adabiyotlarda birinchi rus-tuzem maktablari 1884-yilda Toshkentda ochilganligi, unga direktor etib Vladimir Petrovich Nalivkin tayinlanganligi haqida ma'lumot berilgan. N.Ostroumov «Материалы к изучению наречия сартов русского Туркестана» (1898) va «Этимология сартовского языка» (1910) asarlari bilan tanilgani tufayli Turkistonshunoslikning otasi" deb nom olgan[3]. V.Nalivkin, M.S.Andreyev, P.E.Kuznetsov, V.L.Vyatkin va boshqalarning izlanishlari o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasiga qo'yilgan tamal toshi sifatida tarixida saqlanib qoldi. Ruslarga o'zbek tilini o'rgatish bilan shug'ullangan ustozlar sifatida S.M.Gramenskiy, U.Dadamuhamedov, M. Rasulov, A.Kalinin, S.Saidazizov, M.Karimov, K. Qahhorovlar qayd etishimiz mumkin. O'zbek tilini o'quv rejasiga asosiy fan sifatida kiritilishi esa 1933-yildan boshlangan bo'lib, bu davrga kelib o'zbek tili

maktablardagina emas, balki oliy o'quv yurtlarida ham o'qitila boshlandi. Xususan, Turkiston Sharq institutida rus guruhleri uchun maxsus o'zbek tili kafedrasining tashkil etilishi hatto maxsus dastur asosida davlat muassasalarida ham o'zbek tilini o'rganishning tashkil qilinishi o'zbek tilining rus guruhlarida o'qitilishida sezilarli siljishlar bo'lishiga olib keldi[5]. Va bu o'zbek tilini (ikkinchi til sifatida) andragogik yondashuvda o'qitishning boshlanishiga misol bo'la oladi deyishimiz mumkin edi biroq V.Nalivkin 1886-yilda davlat xizmatchilari va harbiy xizmatchilar uchun o'zbek tili kurslarini tashkil qilgan. Mazkur kurslarda til o'rgatish jarayonida Nalivkin tinglovchilarni mahalliy urf-odatlar hamda badiiy adabiyot namunalari bilan tanishtirgan[3]. Yuqoridagi fikrga asosanib Turkiston hududida aynan V.Nalivkin o'zbek tilini ikkinchi til sifatida andragogik yondashuv asosida o'qitishga ilk qadam tashlangan deb hisoblashimiz mumkin. Lekin u davrda kattalar ta'limiga alohida soha sifatida qaralmasdi. Andragogika pedagogikaning tarkibida edi. Bolalar ta'limi va kattalar ta'limini ajratib turadigan asosiy narsa bu tajribaning mavjudligi va undan ta'limda foydalanishdir. Pedagogikada o'qituvchi asosiy omil hisoblansa andragogikada o'rganuvchining o'zi bosh rolda bo'ladi. Chunki andragog hayotiy tajribaga ega va ta'lim olish jarayonida o'zini nazorat qila oladi. Andragogika yangi fan, uning obyekti kattalar ta'limidir. Pedagogik adabiyotlarda "Andragogika" atamasi bilan bir qatorda: "Kattalar pedagogikasi", "Kattalar uchun qo'shimcha ta'lim pedagogikasi", "Kattalar ta'limi nazariyasi" terminlari ham qo'llaniladi. 1998-yil YUNESKO tomonidan Gamburgda o'tkazilgan Butunjahon konferensiyasida kattalar ta'limi XXI asrda "eshiklarni ochuvchi kalit" deb e'tirof etilgan[2] hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) 1999-yilni "Xalqaro keksalar yili" deb e'lon qilish to'g'risidagi qarori munosabati bilan andragogikaga qiziqish kuchaydi[7]. "Andragogika" tushunchasi ilmiy atama sifatida 1833-yilda nemis pedagog - tarixchisi A.Kapp tomonidan fanga kiritilgan (grekchadan Andros - erkak, odam; agogeyn-yetaklash). Ma'nosini so'zma so'z aytisak - "katta odamni yetaklash"dir[4]. Ushbu termin pedagogik voqelikka dahldorligi uchun, o'qitish yordamida yetaklash deb izohlashimiz mumkin. "Andragogika" "Kattalarni o'qitish" amaliyotidan butun dunyoda foydalaniladi. Olim Zmeyovning fikriga ko'ra uzluksiz ta'lim konsepsiyasi doimiy o'rganish, inson hayotining bir usuli. Insonning uzluksiz o'rganishini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlaydi. Ushbu konsepsiyani amalga oshirishda kattalar ta'limi hal qiluvchi rol o'ynaydi. U inson hayotining eng uzoq davrini (20 yoshdan 65 yoshgacha) va eng katta kontingentni (turli mamlakatlardagi mehnatga layoqatli aholining 20 dan 80 foizigacha) qamrab oladi. R. P. Milrudning tadqiqotlariga ko'ra, kattalar uchun chet tili kursiga qo'yiladigan asosiy pedagogik talablar quyidagilar:

-belgilangan maqsadga muvofiq dastur tuzish.

-o'quv dasturi mazmunining shaxsiy ahamiyati kursning amaliyligi.

Andragogik yondashuv xorijiy tillarni o'rgatishda ustuvor hisoblanadi. Shunday qilib, andragogik yondashuv mustaqillik va ishonchni rivojlantirish, xorijiy tilda bilimlarni o'zlashtirish, chet tilidagi nutq faoliyatida faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishni o'z ichiga oladi. Andragogik yondashuvda ham ta'lim metodlarining o'rni katta. Katta yoshdagi o'rganuvchilar bilan ishlaydigan o'qituvchilar ta'limiy metodlarga ko'proq e'tibor qaratishadi. O'qitish usullari-bu o'quv maqsadiga erishish usullaridir. Ular mazmuni, tinglovchilar kontingentining xususiyatlari va ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Darsning samaradorligi ko'p jihatdan o'qitish usulini tanlashga va o'qituvchining ularni amalga oshirish qobiliyatiga bog'liq.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda andragogik ta'limda o'qitilayotgan shaxs omili muhim degan xulosaga kelish mumkin. Andragogik ta'limda o'zbek tilini o'qitishga oid qilingan ishlarni tahlilga tortamiz. O'zbek tilini o'zga tillar vakillariga

o'qitish metodikasiga mashhur filolog-turkshunos olim Viktor Vasilyevich Reshetov (1910-1979) katta hissa qo'shgan. U rus va turkiy tillarning qiyosiy tipologiyasi, o'zbek dialektologiyasi bilan shug'ullangan. Turli yillarda o'zbek tili tarixini tadqiq qilgan yirik olimlardan venger sharqshunosi Arminiy Vamberi (1832-1913), rus olimlari V.V. Bartold (1869-1930), Y.D.Polivanovlarning (1891-1938) ishlari soha rivojida muhim o'rin tutadi[3].

1986-yilda o'zbek tili (ikkinchi til sifatida) ilk bor Toshkent real bilim yurtida M.S.Andreyev tomonidan o'qitila boshlangan. Andreyev «Руководство для первоначального обучения сартовскому языку в Ташкентском реальном училище» (1896) qo'llanmasini yaratgan. Uning faoliyatini mashhur turkshunos olimlar P.E.Kuznetsov Toshkentda, V.L.Vyatkin Samarqandda davom ettirishgan. Tadqiqotimiz davomida o'zbek tilini o'zga til vakillariga o'qitishga oid olib borilgan izlanishlarni o'rgandik hamda tahlil qildik. I.Kissen, Sh.Rahmatullayev "Узбекский язык для взрослых", M.Botirova va boshqalar "Учимся говорить по-узбекски. Русско-узбекский разговорник", S.Adilova, M.To'xtamirzayev "O'zbek tili", S.Adilova, A.Mirazizov, I.Quvondiqova, M.Sodiqovalarning rus guruhleri uchun chop etilgan "Amaliy o'zbek tili" qo'llanmasi, X.S.Muxitdinova, D.M.Nasilov "Учебник узбекского языка", G.Asilova muallifligida chop etilgan oliy ta'lim muassasalari rus guruhleri uchun "O'zbek tili" darsligi, K.Turdiyeva, D.Ahmedovalarning tibbiyot institutlarining rus guruhleri uchun "O'zbek tili" darsligi, N.Xusanov, S.Shokirova, K.Shayxovalarning iqtisod yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarining rus guruhleri uchun "O'zbek tili" o'quv qo'llanmasi, I.Mirzayev, M.Boltaboyevlar tomonidan oliy o'quv yurtlarining rus guruhleri uchun "O'zbek tili" darsligi Z.Mahmudova va G.Usmonovalarning "O'zbek tili" o'quv qo'llanmasi hamda boshqalarning ishlarida tadqiq qilingan. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish uchun chop etilgan X.Ismatullayev "Самоучитель узбекского языка", Andree F.Sjoberg "Uzbek structural grammar", G.Bakiyeva va boshqalar "Узбекский язык для стран СНГ", N.Azimova "Uzbek. An elementary textbook", G.Rixsiyeva, M.Abduraxmonova "O'zbek tili: xorijliklar uchun intensiv kurs", D. Tosheva, A.Axmedov "Bukhara. Uzbek language for foreigners" va boshqalarning izlanishlari mavjud. 2023-yilda X. Muxitdinova tomonidan nashr etilgan "O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasi hamda shu yilda nashrdan chiqqan G.Asilovaning "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasi muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Oliy ta'lim bosqichida o'zbek tilini o'qitish masalalari S.Adilovaning "O'zbek tili mashg'ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish", X.Muxitdinovaning "Ta'lim bosqichlarida o'zbek tili o'qitilishi uzluksizligini ta'minlashning ilmiy metodik asoslarini takomillashtirish", G.Asilovaning "Bojxona va soliq yo'nalishlari talabalarining davlat tilida kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasini rivojlantirish (rus guruhlarida)", D.Toshxo'jayeva "Matn mazmunini o'z so'zlari bilan qayta hikoya qilishga o'rgatishning metodik asoslari", Z.Salishevaning "O'zbek tili mashg'ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (rus guruhlarida)" va boshqa tadqiqotchilar tomonidan tadqiq qilingan. R.Niyozmetova hamda Sh.Yuldasheva akademik litseylarda davlat tilini o'qitishga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda o'zbek tilini o'zga til vakillariga o'qitish sohasi uni xorijiy til sifatida o'qitish metodikasi darajasiga olib chiqildi. Bu o'zbek tilini dunyoga keng targ'ib qilish, o'zbek tilida so'zlovchilarning tobora ko'payib borishiga yordam beradi[3]. O'zbekistonda yashovchi barcha fuqarolar respublikamizning davlat tilida erkin muloqot yurita olishlari, o'z fikrlarini o'g'zaki va yozma bayon qila olishlari respublikamiz aholisining bahamjihatlik va do'stlikda yashashlari, birgalikda mehnat qilib vatanimiz iqtisodini yanda yuksaltirishlarining muhim omillaridan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Abdiyev A. 2023. "Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida andragogik yondashuvni joriy etish". O'zbekiston: til va madaniyat 1(4): 4–12.
2. Adilova S.A. O'zbek tili mashg'ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish: Ped.fan.nom. ...dis.-Toshkent, 2004.
3. Asilova G.A. Bojxona va soliq yo'nalishlari talabalarining davlat tilida kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasini rivojlantirish (rus guruhlarida)
4. Кох М.Н., Пешкова Т.Н. Основы педагогики и андрагогики. Учебное пособие. Краснодар. 2015.
5. Muxitdinova X. S. "Ta'lim bosqichlarida o'zbek tili o'qitilishi uzluksizligini ta'minlashning ilmiy metodik asoslarini takomillashtirish" Ped.fan.dok. ...dis.-Toshkent
6. Мильруд Р.П. Уроки языковой педагогики: между прошлым и будущим [Электронный ресурс]. – Режим доступа : <http://iyazyki.prosv.ru/2015/04/language-andragogics/>
7. Shodmonova M. Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalari: monografiya. Toshkent: Nodirabegim, 2021.



UDK:14.189.042.4(022)

Lobarxon ANVAROVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: anvarovalobar17@gmail.com.

Qarshi davlat universiteti dotsenti Z.Boymurodov taqrizi asosida

MEHNAT SAMARADORLIGI: IQTISODIY TARAQQIYOT VA UNI OPTIMALLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada mehnatning ijtimoiy manfaatlariga yo‘nalganligini, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi darajasini, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishdagi foydaliligi va natijadorligini ifodalovchi mehnat samaradorligi qator holat va jarayonlar mahsuli ekanligi tahlil qilinagan. U natijador mehnatga ehtiyoj, mehnat shart-sharoitlari, mavjud kadrlar motivatsiyasi va malakasi, mehnatning tashkil etilishi, mehnat munosabatlari xarakteri, rahbar salohiyati va mahoratiga hamohang tarzda qaror topishi masalasi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiyot, iqtisodiy taraqqiyot, tabiiy resurs, mehnat samaradorligi, moddiy va ma‘naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy-ma‘naviy muhit, hayot sifati, turmush darajasi, sog‘lom va nosog‘lom muhit.

LABOR EFFICIENCY: ECONOMIC DEVELOPMENT AND ITS OPTIMIZATION

Annotation

The article analyzes the fact that labor efficiency, which represents the orientation of Labor to social interests, the degree of service to the development of society, its usefulness and consequentiality in satisfying social needs, is the product of a number of situations and processes. He studied the question of the need for productive labor, the conditions of labor, the motivation and qualifications of existing personnel, the organization of labor, the nature of labor relations, the ability and skill of the leader to decide in a harmonious way.

Key words: Economy, economic development, natural resource, labor efficiency, material and spiritual production, socio-spiritual environment, quality of life, standard of living, healthy and unhealthy environment.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ТРУДА: ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ЕГО ОПТИМИЗАЦИЯ

Аннотация

В статье анализируется, что производительность труда является продуктом ряда состояний и процессов, выражающих направленность труда на общественные интересы, степень его служения развитию общества, полезность и результативность в удовлетворении социальных потребностей. В ней исследуется вопрос о необходимости результативного труда, условиях труда, мотивации и квалификации имеющихся кадров, организации труда, характере трудовых отношений, гармоничном определении потенциала и мастерства руководителя.

Ключевые слова: Экономика, экономическое развитие, природные ресурсы, производительность труда, материальное и духовное производство, социально-духовная среда, качество жизни, уровень жизни, здоровая и нездоровая среда.

Kirish. Mehnat samaradorligi nafaqat muhim iqtisodiy vazifalarni bajarishni ta‘minlovchi, balki iqtisodiy taraqqiyot sur‘atlarini jadallashtiruvchi manba hamdir. U iqtisodiy taraqqiyotning barcha omillarini optimallashtirish, ushbu omillarni ijtimoiy manfaatlar sari yo‘naltirish imkonini beradi. Xuddi shuning uchun ham jahonning barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida mehnat samaradorligini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi. Ushbu nazariy xulosaning barcha asoslarini, mehnat samaradorligi va iqtisodiy taraqqiyot omillari o‘rtasidagi aloqadorlik xarakterini batafsil tahlil qilamiz.

Muhokama va natijalar. Iqtisodiy taraqqiyot mamlakat iqtisodiyotining mahsuldorligi va samaradorligining oshishi, barqarorligi va raqobatbardoshligining mustahkamlanishi, jamiyat ehtiyojlariga mutanosibligining yuksalishi jarayonidir. U mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish darajasi o‘sishi, investitsiyalar va infratuzilma ravnaqi, ishsizlikning kamayishi yoxud maqbul tus olishi, pirovardida esa aholi turmush darajasining yaxshilanishi bilan tavsiflanadi. Iqtisodiy taraqqiyotga eltuvchi omillar talaygina. Ular orasida ayrimlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Masalan, iqtisodiyot rivoji ko‘p jihatdan mavjud ishchi kuchining miqdori va sifatiga borib taqaladi. Aksar publitsistik manbalarda ishchi kuchi deganda iqtisodiyot sohalarida mashg‘ul bo‘lgan yoki jalb etilishi mumkin bo‘lgan 16-60 yoshdagi kishilar nazarda tutiladi. Iqtisod ilmi nuqtai nazaridan esa “ishchi kuchi” deganda inson emas, uning mehnat qobiliyatlari yig‘indisi nazarda tutiladi. “Ishchi kuchi, insonning mehnat qobiliyati - bu uning ehtiyojlari, jismoniy, intellektual va tashkilotchilik qobiliyatlari, moddiy ne‘matlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish jarayonida qo‘llaniladigan ko‘nikma va tajribalari

yig‘indisidir”[1]. Uning sifati mehnat qobiliyatiga ega kishilarning bilim darajasi va malakasi bilan belgilanadi. Mamlakatda bunday kishilar qancha ko‘p bo‘lsa, iqtisodiyotni yuksaltirish va raqobatbardoshligini ta‘minlash imkoniyatlari shuncha katta bo‘ladi.

Iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlovchi yana bir omil – mavjud tabiiy resurslar hajmidir. “Ma‘lumki, tabiiy resurslar deganda tirik va notirik tabiatga oid bo‘lgan va insonning moddiy hamda madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlatiladigan obyektlar, tabiiy muhit elementlari nazarda tutiladi. Bu resurslarning ayrimlari (masalan, minerallar, yer resurslari) tiklanmas, boshqalari (o‘simliklar va hayvonot olami bilan bog‘liq resurslar) tiklanuvchan hisoblanadi. Tabiiy resurslarning yana bir turi (ekin maydonlari, o‘rmonlar, suv resurslari) to‘liq tiklanmaydigan (ya‘ni iste‘mol maromidan sustroq tiklanadigan) obyektlar turkumiga kiritiladi”[2]. Nihoyat, iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlovchi yana bir omil innovatsion texnologiyalardir. Innovatsion texnologiyalar – iqtisodiyot tarmoqlaridagi ish ushlab oshirishini o‘zgartiradigan va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradigan, biznes imkoniyatlarini kengaytiradigan va jamiyat a‘zolari turmushi darajasini yuksaltiradigan yangi yoki takomillashtirilgan usullar, jarayonlar yoki mahsulotlardir. Ular tabiiy resurslardan samaraliroq foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va bozorga yangi mahsulot va xizmatlarni chiqarish vaqtini qisqartirish imkonini beradi. Qolaversa, innovatsion texnologiyalar ilmiy tadqiqot va ta‘lim rivojiga ham xizmat qiladi, bu esa mamlakat texnik va ishlab chiqarish salohiyatini yuksaltirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy taraqqiyot omillarini yuksaltirish, ulardan oqilona foydalanishga bo'lgan intilish yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, bu yurtlarda ishchi kuchi miqdori va sifati mamlakatning iqtisodiy o'sishi va jahon iqtisodiyotidagi o'rnini mustahkamlovchi asosiy omillardan biri sifatida baholanmoqda. Shu boisdan iqtisodiyotning turli sektorlarida mashg'ul bo'lgan kadrlarning ma'lumoti, kasbiy mahorati va malakasini oshirish masalalariga e'tibor ortib bormoqda. Bu maqsadda barcha rivojlangan mamlakatlarda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta o'qitishga mo'ljallangan o'quv kurslari tashkil qilish amaliyoti keng ildiz otmog'ida. Keyingi yillarda ishsizlik muammosini tizimli ravishda hal qilish choralari ham intensivlashdi. E'tiborli jihati shundaki, taraqqiy topgan yurtlarda ishchi kuchi miqdorini ko'paytirish, sifatini oshirish tadbirlari davlat tomonidan qat'iy muvofiqlashtirilmoqda. Ayrim G'arbiy Yevropa mamlakatlarida hatto ishchi kuchi miqdori va sifati o'zgarishining istiqbollari doir ilmiy bashoratlar ham tayyorlanmoqda. Masalan, Angliyada bu vazifalar bilan Uorvik Universiteti Bandlikni tadqiq etish instituti (Institute for Employment Research at Warwick University), Germaniyada - Mehnat Federal instituti huzuridagi Bandlik va kasblarni tadqiq etish instituti (Institute for Employment and Occupational Research at the Federal Institute of Labour) shug'ullanmoqda[3].

O'zbekistonda ham iqtisodiy taraqqiyot omillarini yuksaltirishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Jumladan, mamlakatdagi ishchi kuchi sifatini, ya'ni bilimi, malakasi, mahorati va tajribasini oshirish, uning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqilib, barcha viloyatlardagi shahar va tumanlar bo'ylab amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimi turli bosqichlarida olib borilayotgan tub islohotlarning maqsadlaridan biri ham aynan ana shu zaruriyat bilan bog'liq[4]. Shuningdek, yangi ish o'rinlari yaratish, ishsizlikni kamaytirish borasidagi choralar ham mamlakat ishchi kuchi sifatini yaxshilash, undan oqilona foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni iqtisodiy yuksalishning qudratli omiliga aylantirish ham davlat diqqat markazida turgan vazifalardan biriga aylantirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tabiiy resurslardan oqilo-na va samarali foydalanishni ta'minlashning hamda davlat budjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi" Qarori qabul qilinishi shundan dalolat beradi. Qarorda hozirgi vaqtda mamlakatda mineral xom ashyo resurslaridan foydalanishga investitsiyalarni jalb etish hamda tabiiy qazilma boyliklardan oqilona va samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilayotgani, ushbu yo'nalishda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilangani, shuningdek, kelgusida ushbu yondashuvni saqlab qolish uchun yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan haqiqatda qazib olingan foydali qazilmalar hajmining marksheyderlik xulosasiga muvofiqligi yuzasidan monitoring o'tkazib borish zarurligi ta'kidlanadi[5].

Mutaxassislar keyingi yillarda O'zbekistonda moliyaviy kapital tom ma'noda iqtisodiy taraqqiyot manbaiga aylanganini qayd qilmoqdalar. Ularning fikriga ko'ra, avval "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi", so'ngra "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" asosida olib borilgan islohotlar sharofati bilan mamlakat moliyaviy muhiti tubdan o'zgardi. Xususan, bank sektori modernizatsiya va liberalizatsiya jarayonlarini boshidan kechirdi, kapital bozori keskin rivojlandi, moliyaviy texnologiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi jarayonlari intensivlashdi, davlat budjeti daromadlari manbalari ko'paydi, xorijiy investitsiyalar hajmi kengaydi. Mintaqaviy moliya markazlarini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar bozor moliyaviy infratuzilmasini ancha takomillashtirdi. O'zbekiston moliyaviy muhitidagi ijobiy o'zgarishlar jahon investorlarining mamlakatga e'tiborini kuchaytirmoqda, bu esa moliyaviy kapitalni yuksaltirishning yana bir vositasiga aylanmoqda[6].

Respublikada iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishga qodir bo'lgan innovatsion texnologiyalarni yaratish va

o'zlashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, "mamlakatimizda faol innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mahalliy ilmiy va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish va ishlab chiqarishga joriy qilish maqsadida mamlakatda innovatsion tadbirkorlikning rivojlanish darajasini oshirishni qo'llab-quvvatlaydigan "Yashnobod" innovatsion texnoparki, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida ilg'or texnologiyalar markazi, shuningdek, vazirliklar va oliy ta'lim muassasalari qoshida boshqa shu kabi tashkilotlar tashkil etildi"[7].

Shunday qilib, bugungi kunda iqtisodiyotchi olimlar iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning asosiy omillarini ishchi kuchi miqdori va sifatini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy kapital bozorini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni iqtisodiyotga tatbiq etish bilan bog'lamoqdalar. Xalqaro ekspertlar ham mamlakatlar iqtisodiy yuksalishi imkoniyatlarini baholashda aynan ana shu omillarga tayanmoqdalar. Aynan shu boisdan xorijda ham, O'zbekistonda ham mazkur omillarni yuksaltirish va mustahkamlashga e'tibor oshmoqda. Ko'plab davlatlar ushbu vazifalarni bajarishni o'z iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Biroq masalaning muhim tomonlaridan biri shundaki, mehnat samarasi iqtisodiy taraqqiyotning mazkur omillarini optimallashtiruvchi muhim manba vazifasini o'tashga qodir.

Mehnat samaradorligining oshishi tabiiy resurslarning oqilona sarflanishini ta'minlaydi. Bu aloqadorlikning bevosita va bilvosita jihatlari mavjud. Bevosita jihati shundaki, korxonalar va tashkilotlarda amalga oshirilgan samarali mehnat shu subyektlarga kamroq tabiiy resurslar evaziga ko'proq mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beradi. Chunki mehnat samarasi oshishi bilan ishlab chiqarish xatolari kamayadi, natijada tabiiy resurslar sezilarli ravishda tejalandi, ularning maqsadsiz isrof bo'lishi oldi olinadi. Tabiiy resurslar tanqisligi jiddiy tus olib borayotgan bugungi kunda bunday tejamkorlik ayniqsa ahamiyatli.

Mehnat samaradorligi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratarkan, mamlakatdagi ekologik muhitni sog'lomlashtirishga ham xizmat qiladi. Jamiyatdagi mehnat samarasi yuksalgani sayin qishloq xo'jaligida ishlatiladigan yer va suv resurslarini, hududlardagi o'simlik va hayvonot turlarini asrab-avaylash imkoniyatlarini kengayib boradi, atrof-muhitga tashlanadigan zararli chiqindilar hajmi kamayadi. Ekologik vaziyatning ushbu elementlariga ratsional munosabat esa ekologik muhit sog'lomligini ta'minlaydi[2].

Ushbu mulohazalar mehnat samaradorligining iqtisodiy taraqqiyotga ta'siriga doir ikkinchi tezisni shakllantirish imkonini beradi: jamiyatda, konkret korxonalar va tashkilotda mehnat samaradorligini yuksaltirish orqali tabiiy resurslarning oqilona sarflanishini ta'minlash va ularni iqtisodiy taraqqiyot omiliga aylantirish mumkin.

Mehnat samaradorligi iqtisodiy taraqqiyotning yana bir omili – moliyaviy resurslarning maqsadga muvofiq ishlatilishiga zamin yaratadi. Moliyaviy kapitaldan maqsadli foydalanish deganda mavjud moliyaviy imkoniyatlar va mablag'larni muayyan maqsadga yoki belgilangan moliyaviy muammolarni hal qilishga yo'naltirish, uning sarflanishini qat'iy rejalashtirish, moliyaviy xarajatlarni doimiy va oqilona nazorat qilish jarayoni tushuniladi. Bunday foydalanish jarayoni daromad keltirishi mumkin bo'lgan turli aktivlarni (masalan, aksiyalar, obligatsiyalar, ko'chmas mulk va boshqalarni) xarid qilish va boshqarish, muvaffaqiyatli tugashi kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy dastur va loyihalarga sarmoya kiritish, foydani ko'paytirish, shuningdek, xatarlarni oldini olish niyatida qarzlarni boshqarish bilan bog'liq choralarni o'z ichiga olishi mumkin. Moliyaviy kapitalning unumli va maqsadga muvofiq ishlatilishi mavjud mablag'lardan samarali foydalanish, kerakli iqtisodiy hamda moliyaviy natijalarga erishishga yordam beradi[8].

Aksincha, mehnat samarasining pastligi moliyaviy kapital hajmini kengaytirishga xalal beradi, uni oqilona sarflashga imkon qoldirmaydi. Moliyaviy kapitalning nooqilona ishlatilishi hech qanday daromad keltirmaydigan besamar xarajatlarni ko'paytirib

boraveradi. Natijada asosiy iqtisodiy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan mablag' tanqis bo'lib qoladi. Moliyaviy boshboshdoqlik va moliyaviy tanqislik hamkor bo'lish istagida bo'lgan investorlarning shu jamiyatga, shu iqtisodiy subyektga bo'lgan ishonchini so'ndiradi.

Ushbu mulohazalar mehnat samaradorligining iqtisodiy taraqqiyotga ta'siriga doir uchinchi tezisini shakllantirish imkonini beradi: jamiyatda, konkret korxonada va tashkilotda mehnat samaradorligini yuksaltirish orqali ularning moliyaviy kapitalini ko'paytirish, oqilona sarflanishini ta'minlash, bu kapitalni iqtisodiy taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin.

Mehnat samaradorligi innovatsion texnologiyalarni ommalashtirish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi rolini tavsiflab o'tdik. Biroq masalaning nozik tomoni shundaki, innovatsion texnologiyalar haqiqatan iqtisodiy ravnaqqa xizmat qilishi uchun ommaviy tus olishi, ya'ni butun iqtisodiyot sohasini, ijtimoiy hayotni qamrab olmog'i darkor. Uning ayrim korxonada va tashkilot miqyosida qolib ketishi yuksalishni ta'minlamaydi. Masalan, ma'lum ratsionalizator tomonidan yaratilgan hamda konkret bir korxonada faoliyatiga tatbiq etilgan, vaqt o'tib unot bo'lgan yoxud boshqa iqtisodiy subyektlar tomonidan mufassal o'zlashtirilmagan innovatsion texnologiya iqtisodiy taraqqiyot omili bo'la olmaydi. Insoniyat tarixida bunday hollar juda ko'p bor takrorlaganini yaxshi bilamiz. Masalan, XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrning boshlarida Italiyada yashab, ijod qilgan mutafakkir Leonardo da Vinchi ko'plab yangi g'oyalarni ilgari surdi, bu g'oyalar ayrim entuziastlar tomonidan realizatsiya qilib ham ko'rildi, biroq ommalashmagan bo'is ushbu g'olarning ko'pchiligi qog'ozlarda qolib ketdi.

Mehnat samaradorligi bilan innovatsion texnologiyalar o'rtasidagi aloqadorlik dialektik xarakterga ega. Bir tomondan, biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, innovatsion texnologiyalar mehnat samaradorligini oshiruvchi muhim omildir. Lekin, ikkinchi tomondan, mehnat samaradorligining o'zi ana shunday innovatsion texnologiyalarni ommalashtiruvchi vositadir.

Boshqacha aytganda, korxonada va tashkilotda kechayotgan mehnatning samarasi unda qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyaning eng yaxshi reklamasidir. Har qanday korxonada yoki tashkilotda mehnat samarasining oshishi boshqa iqtisodiy subyektlar e'tiborini tortishi, uning tajribasini o'zlashtirishga ishtiyoqni hosil qilishi aniq. Shu tariqa korxonada qo'llanilayotgan va mehnat samarasini ta'minlagan innovatsion texnologiya ham boshqa subyektlar diqqat markaziga tushadi. Bu esa pirovardida innovatsion texnologiyalarning asta-sekinlik bilan butun jamiyat bo'ylab yoyilishiga zamin yaratadi.

Ushbu mulohazalar mehnat samaradorligining iqtisodiy taraqqiyotga ta'siriga doir to'rtinchi tezisini shakllantirish imkonini beradi: jamiyatda, konkret korxonada va tashkilotda mehnat samaradorligini yuksaltirish orqali innovatsion texnologiyalarni ommalashtirish, ularni butun iqtisodiyot bo'ylab yoyilishini ta'minlash mumkin.

Ko'rinib turibdiki, mehnat samaradorligining oshirilishi iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladigan barcha omillardan ratsional foydalanish imkoniyatlarini benihoya kengaytiradi. Binobarin, iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini yuksaltirish, shu tariqa jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga qo'shilish vazifasini o'z oldiga qo'ygan O'zbekiston sharoitida barcha sohalaridagi mehnatning samaradorligini oshirish iqtisodiy raqnaqning asosiy manbai sifatida qaralmog'i darkor.

Xulosa. Yuqoridagi mulohazalardan xulosa chiqarish mumkin, turli holat va jarayonlarning mahsuli sifatida yuzaga kelgan mehnat samaradorligi nafaqat iqtisodiy vazifalarni hal qilish imkonini beradi, balki butun jamiyatning iqtisodiy yuksalishi uchun muhim omil vazifasini o'tay oladi. U iqtisodiy taraqqiyotning barcha omillari samarasini oshirishda ahamiyatli o'rin tutadi. Mehnat samaradorligi ishchi kuchi miqdori va sifatini ijtimoiy manfaatlar sari yo'naltiradi, tabiiy resurslarning oqilona sarflanishini ta'minlaydi, moliyaviy kapitalning maqsadga muvofiq ishlatilishiga zamin yaratadi, innovatsion texnologiyalarni ommalashtiradi.

ADABIYOTLAR

1. Какушкина М. А. О трактовке экономической категории “рабочая сила” // Социально-экономические явления и процессы, 2009, №4.- 61-с.
2. Омонов В. Экологик globallashuv va uning O'zbekistondagi ekologik muhitga ta'siri.- T.: Voris-nashriyot, 2021.- B.21.
3. Вишневская Н.Т., Зудина А.А. Профессиональная структура рабочей силы в странах Европы: о чем свидетельствуют прогнозы? // Вестник международных организаций: образование, наука, новая экономика, 2017, №4.- 112-с.
4. Abulqosimov H.P., Ashurova M.X. Ishchi kuchi sifati va raqobatbardoshligini oshirish yo'llari. // Iqtisod va moliya, 2014, №9.- 18-27-s.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. “Tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashning hamda davlat budjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida”. // lex.uz/uz/docs/3901273.
6. Гуломова М. Финансовая среда Узбекистана: преодоление разрыва с международными стандартами. // Компетентность, 2024, №1.- 36-41-с.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. “Innovatsion faoliyatni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”. // lex.uz/docs/3903197.
8. Додонова И.В. Сущность и факторы развития современного финансового капитала. // Вестник Оренбургского государственного университета, 2004, №8.- 48-52-с.



Amirxon ATANAZAROV,
O'zbekiston Milliy universiteti stajyor-o'qituvchisi
E-mail: amirxonatanazarov06@gmail.com
Dildora ISROILJONOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

O'zDJTSU Og'ir atletika, ot sporti nazariyasi va uslubiya kafedrasini mudiri, dotsent H.Xakimov taqrizi asosida

EVOLUTION OF EXPLOSIVE QUALITIES OF STUDENT JUDOKAS WITH THE HELP OF WEIGHTLIFTING EXERCISES

Annotation

The practical significance of the results of the research in this scientific research work is that the methodologies of correctly teaching the technical methods of weightlifting exercises of student judokas, the technical actions used in competition activities are explained by the fact that the individual characteristics of the explosive forces of judokas in the process of training and competition, similar to that of weightlifters, are determined and the results are based on the results obtained on the basis of a survey on the development and normalization of a set of technical methods for the development of

Keywords: general and special physical training, technical training, modeling, types of training.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВЗРЫВНЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ-ДЗЮДОИСТОВ С ПОМОЩЬЮ УПРАЖНЕНИЙ ПО ТЯЖЕЛОЙ АТЛЕТИКЕ

Аннотация

Практическая значимость результатов исследования в данной научно-исследовательской работе заключается в том, что методика правильного обучения студентов-дзюдоистов техническим приемам тяжелоатлетических упражнений, применяемые в соревновательной деятельности технические действия и индивидуальные особенности взрывной силы дзюдоистов в процессе тренировок и соревнований, как у тяжелоатлетов, объясняются тем, что их результаты основаны на результатах, полученных на основе опроса о разработке и нормировании комплекса технических приемов и рекомендаций по внедрению в тренировочный процесс основных приемов, широко используемых в соревновательной деятельности.

Ключевые слова: общая и специальная физическая подготовка, техническая подготовка, моделирование, виды подготовки.

TALABA DZYUDUCHILARNI OG'IR ATLETIKA MASHQLARI YORDAMIDA PORTLOVCHI SIFATLARINI TAKOMILASHTIRISH

Аннотация

Mazkur ilmiy tadqiqot ishida tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, talaba dzyudochilarning og'ir atletika mashqlarini texnik usullarni to'g'ri o'rgatish metodikalari, musobaqa faoliyatida qo'llaniladigan texnik harakatlar va dzyudochilarning og'ir atletikachilarga o'xshab mashg'ulot va musobaqa jarayonida portlovchi kuchlarini individual xususiyatlari aniqlanganligi va natijalari musobaqa jarayonida ko'p qo'llaniladigan asosiy usullarni rivojlantirish uchun texnik usullar majmuasini ishlab chiqish va me'yorlash hamda tavsiyalarni mashg'ulot jarayoniga joriy etishga imkon yaratilganligi to'g'risidagi so'rovnomaga asosida olingan natijalarga asoslanganligi bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, modellashtirish, tayyorgarlik turlari.

Kirish. Ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligi Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida sog'lom avlodni tarbiyalash, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish hamda mamlakat aholisi salomatligini yaxshilash masalalari ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar bugungi kunda erishilgan yutuq va kamchiliklarimizga e'tibor qaratish, ulkan taraqqiyotlar tomon olg'a qadamlar tashlashni taqozo etadi.

Respublikamizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlarni yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, mardlik, va tanparvarlik shuningdek yoshlar orasida hamda jismoniy imkoniyati cheklangan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirishga, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda [1,2,5,8].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi PQ-336-son "Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori bu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga

oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi: Mashg'ulot jarayonlarini tashkil qilish bo'yicha talaba dzyudochilarga og'ir atletika mashqlari yordamida portlovchi xususiyatlarini o'rgatish va og'ir atletika maxsus mashqlari dasturini ishlab chiqish orqali mashg'ulot jarayonlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari: Dzyudo bilan shug'ullanuvchi talaba dzyudochilarning individual imkoniyatlarini xususiyatlarini inobatga olib maxsus yillik modul ishlab chiqish.

Dzyudochi talabalar uchun maxsus og'ir atletika mashqlar modulini ishlab chiqish.

Maxsus modul orqali dzyudochi talabalarining musobaqa imkoniyatlarini va portlovchi xususiyatlarini oshirishning ilmiy asoslari.

Talaba dzyudochilarning og'ir atletika mashqlari yordamida texnik-taktik takomillashtirish o'rgatish orqali sport natijalarini yaxshilash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Taekwondo va sport faoliyati kafedrasini sport faoliyati (dzyudo) I bosqich talabalarining mashg'ulot jarayonlari.

Tadqiqot predmeti Maxsus og'ir atletika mashqlari modularini ishlab chiqish va dzyudo mashg'uloti jarayonlariga tadbiq qilish.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil etish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, ijtimoiy so'rovnoma, jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv-uslubiy majmuaning tahlili, pedagogik tajriba matematik-statistik usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Dzyudo sport turi Yaponiyada birinchi bo'lib asos solingan dzyudo sport turi bo'yicha Kadakan maktabi eng yuqori darajada rivojlangan hisoblanadi. Kadakan maktabi asoschisi pedagogika fanlari doktori (Dzizaro Kano) dzyudo sport turini nafaqat Yaponiya balki butun yer sharida tanilishiga sabab bo'lgan. Dzyudo sport turning rivojlanish va yurtimizga kirib kelish tarixiga nazar tashlasak, O'zbekistonga Dzyudo sport turi 1972-yilda, ya'ni O'zbekiston Davlat sport qo'mitaning dzyudoni rivojlantirish to'g'risidagi buyrug'iga asosan tashkil etildi. 1972-yilning mart oyida toshkentda dzyudo bo'yicha yapon instruktorlari rahbarligida birinchi seminar o'tkazildi. Seminar qatnashchilari Markaziy Osiyo Respublikalari vakillaridan iborat ishchi guruh bo'lib, ushbu seminar O'zbekistondan vakili sifatida Kim V.A., Istomin A.A., Amashkevich B.B., Zyablitsev A.I., Prut V.M., Alimov S.U., Tashxodjayev X., Kim Yu.S., Pilipenko V., Shnayder B.I., Bogdal 1-jadval

V.N., Xaykin E.L. va boshqalar qatnashgan (Yu.S.Kim, L.P.Yugay, 2005).

Ilmiy tadqiqotning asosiy muommalarni bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vazirligi tasarrufidagi sport maktablari, ixtisoslashtirilgan sport maktablari, oliy sport maktablarida Dzyudo sporti bilan shug'ulanuvchi dzyudochilarni jismoniy tayyorgarligini, og'ir atletika maxsus mashqlari yordamida portlovchi kuchlarini hamda musoboqa faoliyatini takomillashtirish va mashg'ulot jarayonlarini tashkil qilish bo'yicha qandaydur metodikalarni bilishlari, talaba dzyudochilarning sport turlariga qiziqishi, sportning qaysi turlari bilan shug'ullanishga bo'lgan qiziqishlarini bilish va o'rganish, talaba dzyudochilar trenerlardan mashg'ulotga qatnashish maqsadida sport maktablariga shug'ullanish maqsadida murojat qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratilganligini aniqlash maqsadida vazirlikning dzyudo va kurash trenir-o'qituvchilar o'rtasida anketa so'rovnomasini o'tkazish kerakligi, tahlil ma'lumotlarini yeg'ishni belgilab oldik. (1-jadval)

Anketa so'rovnomasida 30 dan ortiq Respublika miqyosidagi malakali trener-o'qituvchilardan o'rtacha 30-40 yoshli shu yo'nalishda 5-10 yildan ortiq faoliyat yuritayotgan, Xalqaro va Respublika miqyosidagi nufuzligi musobaqalarda g'olib va sovrindor sportchilarni tayyorlagan trener-o'qituvchilar ishtrok etishdi.

Pedagogik so'rovnoma trenir-o'qituvchilardan n=30

№	Savollar	Javoblar			
		Xa	%	Yo'q	%
1	Og'ir atletika maxsus mashqlari bilan mashg'ulotni o'tish turlari haqida ma'lumotga egamiz?	10	33	20	66
2	Talaba dzyudochilar og'ir atletika maxsus mashqlari bilan menga mashg'ulotdan kegin o'ting deb sizga murojat qilganmi?	13	42.9	17	56.1
3	Talaba dzyudochilar bilan og'ir atletika maxsus mashqlari to'g'risida so'zlashganmisiz?	18	59.4	12	39.6
4	Dzyudochi talabalarga yotgan xolda shtangani ko'krakga tushirib chiqarish mashqini ketmaketlikda ishlatish tartibini bilasizmi?	11	36.3	19	62.7
5	Shtangani bo'yin orqasiga qo'yib o'tirib turish mashqini talaba dzyudochilarga kamroq sonda ko'tarib og'ir vazini kotartirish tartibini bilasizmi?	9	29.7	21	69.3
6	Og'ir atletika maxsus mashqlaridan mashg'ulot jarayonlarini tashkil etishni bilasizmi?	14	46.2	16	52.8
7	Talaba dzyudochilariga og'ir atletika maxsus mashqlari yordamida mashqlarni o'rgatgan bo'larmidingiz?	12	39.6	18	59.4
8	Talaba dzyudochilarga og'ir atletika maxsus mashqlaridan foydalanib mashg'ulotdan keyin og'ir atletika maxsus mashqlarni ishlatasizmi?	11	36.3	19	62.7
9	Og'ir-atletika maxsus mashqlarini dzyudo sport turida toshlar bilan bajariladigan maxsus mashqlarni bilasizmi?	13	42.9	17	56.1
10	Og'ir atletika maxsus mashqlaridan talaba dzyudochilarga maxsus mashqlardan foydalanib mashg'ulot o'tgan bo'larmidingiz?	18	59.4	12	39.6

So'rovnoma natijalaridan ma'lum bo'ldiki, trener-o'qituvchilarning aksariyati talaba dzyudochilarni kuchchidamkorlik holatlarini va dzyudo sportchilarga mashg'ulotlarni tashkil etish haqida ma'lumotga ega emas. Jumladan, "Siz Og'ir atletika maxsus mashqlari bilan trinirofkani o'tish turlari haqida ma'lumotga egamiz?" degan 1-savolga 30 nafar respondentdan 33% - "Xa", 66% - "Yo'q" deb ovoz berishdi. Demak, bu holatga asosan shunday xulosaga kelish mumkin, trener-o'qituvchilar og'ir atletika surdo sport turida bajariladigan maxsus mashqlar haqida ma'lumotga ega emas. dzyudo sport turlari hozirgi kunda jaxonda jadal rivojlangan hisoblanadi. Talaba dzyudochilar hozirgi kunda yurtimizda juda kopaymoqda hamda rivojlantirish va ommalashtirish uchun dzyudo sport turlari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borish, darslik, o'quv qo'llanma va maqolalarga ehtiyoj seziladi. "Talaba dzyudochilar og'ir atletika maxsus mashqlari bilan menga trinirofkadan kegin o'ting deb sizga murojat qilganmi?" degan 2-savolga 30 nafar respondentdan 40,9% - "Xa", 56,1% - "Yo'q" deb javob berishdi. Trener-o'qituvchilarning bu savolga bergan javobidan ko'rinib turiptiki talaba dzyudochilarga trinirofkadan kegin og'ir atletika maxsus mashqlaridan kamroq foydalanganliklarini aniqlandi.

Talaba dzyudochilar bilan og'ir atletika maxsus mashqlari to'g'risida so'zlashganmisiz? So'rovnomamizning 3-savoliga 30 nafar respondentning 59,4% - "Xa", 39,6% - "Yo'q" deb javob berishdi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotga asosan aytishimiz mumkinki, juda kam sonli trener-o'qituvchilar Talaba dzyudochilar bilan maxsus mashqlarni qanday qilib ishlash hamda

trinirofkani paytida trinirofkadan kegin og'ir atletika maxsus mashqlari to'g'risida muloqot qilmagan.

"Dzyudochi talabalarga yotgan xolda shtangani ko'krakga tushirib chiqarish mashqini ketmaketlikda ishlatish tartibini bilasizmi?" "Shtangani bo'yin orqasiga qo'yib o'tirib turish mashqini talaba dzyudochilarga kamroq sonda ko'tarib og'ir vazini kotartirish tartibini bilasizmi?" 4- va 5-savolga 30 nafar respondentdan 36,3% va 62,7% - "Xa", 29,7% va 69,3% - "Yo'q" deb javob berdi. Ko'rinib turibdiki, aksariyat trener-o'qituvchilar Talaba dzyudochilarga yotgan xolda shtangani sqib ko'tarish mashqini ketmaketlikda ishlatish to'g'risida so'rovnoma natijalarini ko'radigan bolsak trener-o'qituvchilar kamchiligi bilishar ekan. Shtangani bo'yin orqasiga qo'yib o'tirib turish mashqining so'rovnoma natijalarida shuni aniqladik kam kotarib og'ir vazini ko'tartirish mashqini bilishmas ekan.

O'ir atletika maxsus mashqlaridan mashg'ulot jarayonlarini tashkil etishni bilasizmi? degan 6 savolga faqat 46,2% respondentlar "Xa", ularning 52,8% "Yo'q" degan javobni berishgan.

"Talaba dzyudochilariga og'ir atletika maxsus mashqlari yordamida mashqlarni o'rgatgan bo'larmidingiz?" degan 7-savolimizga respondentlarning 39,6% - "Xa", 59,4% - "Yo'q" deb javob berishdi. Olingan javoblarga asosan aytishimiz mumkinki, trener-o'qituvchilarni dzyudochi talaba sportchilarga og'ir atletika maxsus mashqlarni o'rgatishga bo'lgan istaklari yuqori.

"Talaba dzyudochilarga og'ir atletika maxsus mashqlaridan foydalanib trinirofkadan keyin og'ir atletika maxsus

mashqlarni ishlatamiz?" deb nomlangan 8-savolga 30 nafar respondentdan 36,3 % - "Xa", 62,7 % - "Yo'q" deb javob berdi.

"Og'ir atletika maxsus mashqlarini dzyudo sport turida toshlar bilan bajariladigan maxsus mashqlarni bilasizmi?" degan 9-savolimizga 30 nafar respondentlarning 42,9 % - "Xa", 56,1 % - "Yo'q" deb javob berdi.

Og'ir atletikachi maxsu mashqlaridan talaba dzyudochilarga maxsus mashqlardan foydalanib trinirofka o'tgan bo'larmidingiz? degan 10-savolimizga 30 nafar respondentlarning 29,4 % - "Xa", 39,6 % - "Yo'q" deb javob berdi.



Talaba dzyudochilarga og'ir atletika maxsus mashqlari bilan trinirofka jarayoni va musoboqa faoliyatini maxsus mashqlarni qoidalar bilan ko'tarish maxsus mashqlarni ishlab chiqilsa foydalangan bo'larmidingiz? Degani so'ngi savolimizga barcha respondentlarimiz "Xa" deb javob berishdi. Pedagogik kuzatuvlar va o'takzilgan so'rovnoma natijalariga asoslanib shuni ayta olamizki, Talaba dzyudochilar og'ir atletika mashqlari bilan shug'ullanishga bo'lgan talablari yuqoriligi lekin trener-o'qituvchilar mashg'ulot vaqtida ketmaketlikda bajarilishni o'rnatishda muammolar borligi mashg'ulot jarayonlarini yo'lga qo'yishga va mashg'ulot olib borishga to'siq bo'ladi. Trener-o'qituvchilarda talaba dzyudochilarga og'ir atletika mashg'ulot jarayonlarini tashkil etish mezonlari haqida ma'lumotga ega emasliklari muammoni yanada ochib berdi. Trener-o'qituvchilarni talaba dzyudochilarga og'ir atletika maxsus mashqlarini yanada mukamal o'rgatishga bo'lgan istaklari va yuqoriligi lekin dzyudochilarda og'ir atletikani o'rgatish bo'yicha maxsus mashqlarning qanday tartibda foydalanish metodikaning kamligi asosiy muammo hisoblanadi.

Xulosa. Mamlakatimizda sport sohasini rivojlantirish, sport kuarsi bo'lmush talaba dzyudochilar og'ir atletika sport turi bilan shug'ullanishlari sportchilarning jismoniy va texnik harakatlarga o'rgatish to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borilishi, yuqori saviyadagi jurnallarda chop etilgan maqolalardan andoza sifatida foydalanish to'g'risida fikrlar yuritilgan bo'lsada aniq bir

sport kurashida modellashtirish uslublaridan foydalanilmaganligi kuzatildi.

Texnik usulni modellashtirish murakkab mashg'ulot jarayonida asosan o'rgatish tizimiga "asosiy harakat" sifatida qaraladi. Sport sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar mustaqil izlanuvchilar ilmiy ishlaridan fikrlari talaba dzyudochilarga texnik harakatlarni o'rgatish uslublari orasida tafovut mavjudligiga qaramasdan, kurashchini o'quv-mashg'ulot faoliyatini ishonchligini modellashtirishda ulardan foydalanish va o'zidagi kamchiliklarni bartaraf etishi bo'yicha ilmiy qarashlar yetarlicha yoritib berilmagan.

Sportning kurash turlari bo'yicha ilmiy izlanishlar ustida bosh qotirayotgan olimlar trener-o'qituvchilarga talaba dzyudochilarning jismoniy holatlari, dzyudochilarga og'ir atletika mashqlarini mashg'ulot jarayonlarini tashkil etish mezonlari haqida ma'lumot beruvchi, maxsus og'ir atletika mashqlarini qanday tartibda ko'tarish hamda dzyudo sportida qanchalik og'ir atletika maxsus mashqlarini muxim ekanligini o'rgatish, trener-o'qituvchilar va talaba dzyudochilar o'rtasida mashg'ulotl vazifasini bajaruvchi vosita ishlab chiqishga ehtiyoj yuqori ekanligini ko'rsatib berdi. Ammo olimlarni ilmiy izlanishlari davomida eng samarali bo'lgan og'ir atletika maxsus mashqlarini tartibi bo'yicha ko'tarish va kamroq ko'tarip yuqori natijaga erishishni o'rgatish to'g'risida izlanishlar olib borilmaganligi kuzatildi.

ADABIYOTLAR

1. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва услубияти/ -Тошкент: Ита-пресс нашриёти 2021.- Б. 240-245.
2. Алиев И.В., Ибрагимов М.А. –Sport pedagogik mahoratini oshirish Darslik. T. 2023 y. 105-112 bet.
3. Абдуллаев А., Жисмоний тарбия назарияси ва услубияти/ Дарслик. –Тошкент: 2018, "Илмий техника ахбороти-пресс нашриёти" –Б. 230-243.
4. Тастанов Н.А. Кураш турлари назарияси ва услубияти/ Дарслик. "Sano-standart" Тошкент: – 2017. Б. 193-205.
5. Бондарчук А.П. Основы силовой подготовки в спорте/Учебное пособие. «Спорт» – М., 2019.С. 200-224.
6. Арслонов Ш.А. "Dzyudo" / Ўқув қўлланма. –Тошкент: "Илмий техника ахбороти - press nashriyoti", 2018.-116 б. – Б. 226-228.
7. Маткаримов Р.М., Оғир атлетика назарияси ва услубияти/Дарслик. "Ўзбекистон нашриёт матбаа уйи" - Тошкент: 2015.- Б. 82-84.
8. Маткаримов Р.М., Юнусов С.А., Ходжаев А.З. "Теория и методика тяжелой атлетики", "Илмий техника ахбороти - press nashriyoti", Т.:2019. 156 б – Б. 20-28.



UDK: 15.7:105.5:150.4 (043)

Rufat AXMEDOV,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: axmedovrufat197@gmail.com.

Qarshi davlat universiteti dotsenti, PhD Z. Boymurodov taqrizi asosida

ABU BAKR MUHAMMAD ZAKARIYO ROZIY TA'LIMOTIDA AQL

Annotatsiya

Maqolada Abu Bakr Muhammad Zakariyo Roziy ta'limotida aql masalasi oid falsafiy qarshlar va turli yondashuvlar yondashuvlar tahlili keltirilgan. Aql masalasini falsafiy tahlil qilishda allomaning qo'shgan hissasi va uning o'ziga xos jihatlari yuzasidan fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Aql, idrok, kalom, tasavvuf falsafasi, aqli kull, rux, zohiriy jarayon, aqli juz.

ABU BAKR MUHAMMAD ZAKARIYA ROZI INTELLIGENCE IN DOCTRINE

Annotation

The article presents an analysis of philosophical opposites and approaches to various approaches concerning the question of reason in the teachings of Abu Bakr Muhammad Zakariya Rozi. In the philosophical analysis of the question of reason, opinions are presented on the contribution of alloma and its specific aspects.

Key words: mind, perception, word, philosophy of mysticism, aqli kull, zinc, apparent process, aqli juz.

АБУ БАКР МУХАММАД ЗАКАРИЯ РАЗИ РАЗУМ В УЧЕНИИ

Аннотация

В статье представлен анализ философских возражений и подходов различных подходов к вопросу о разуме в учении Абу Бакра Мухаммада Захари Рази. В философском анализе вопроса разума приводятся отзывы о вкладе ученого и его особенностях.

Ключевые слова: разум, восприятие, слово, философия мистицизма, акли кулл, цинк, процесс видимости, акли жуз.

Kirish. Aql arabcha so'z bo'lib, lug'atda "tutish", "qaytarish", "bog'lash" kabi ma'nolarni anglatadi. Aql o'zagidan olingan "iqol" so'zi chorva hayvonlarini bog'lab qo'yiladigan "tushov", "zanjir", "kishan" degan ma'nolarni ifoda etadi. Tushov chorva hayvonini qochib ketishdan saqlab, ekinlarni payxon qilishi, bironva jarohat yetkazishi, o'zi yo'qolib qolishi kabi zararlarning oldini olganidek, insondagi aql ham o'z egasini yomon axloqlardan, zararli ishlardan qaytarib, uni insoniylik chegarasida ushlab turadi [1]. Aql qalbdagi nur bo'lib, u haq bilan botil o'rtasini ajratadi[2].

Muhokama va natijalar. Aql kalomda, tasavvuf falsafasi va Mashshoiyyuna falsafiy ta'limotlarida turlicha maqomlarga ega bo'lgan. Kalom aqlning cheksiz imkoniyatlarini inkor etmaydi, chunki uningcha Allohning o'zi aql, donishmandlikning yagona sohibi. Tasavvuf ta'limotlari aqlni chetlab o'tmasada, uning imkoniyatlarini zohiriy jarayonlarda bilish bilan chegaralab qo'yadi. Aql – tasavvuf vakillarining nuqtai-nazariga ko'ra, ilohiy bir nur. Ular ikki xil aql borligi to'g'risida to'xtalib o'tadilar:

1. Aqli kull-ilohiy, qudratli, mutlaq aql bo'lib, tangrining faol tajalliysidan iborat. Ilk marotaba Allohdan dunyoga kelgan bu aql "Aqli avval" yoki "Ruhi a'zam", deb yuritiladi. Shuningdek, bu "Aqli kull" ni tasavvuf namoyandalari yana "Haqiqati Muhammadiyya" deb ham atashgan. "Aqli kull" dan "Nafsi kull" maydonga kelganki, u "Lavha mahfuz" deb nomlangan.

2. Aqli juz (aqli majoz) – insonning hayoti, yashash odobi, faoliyatiga tegishli. Aqli juz ikki qismga ajratilgan:

1. Aqli maod insonni oxiratdan ogoh qiladigan aql.

2. Aqli maosh – hayotni tushunishga xizmat qiladigan aql.

Aqli maod – imyon sohiblariga, aqli maosh esa – barcha kishilar uchun xos deb qaralgan[3].

Sharq xalqlarining falsafiy-axloqiy fikrlari rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlaridan biri Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy bo'lib, U Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining ilm-fan va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Afsuski, allomaning hayoti va ijodi haqida ma'lumot kam. Uning tug'ilgan va vafot etgan yillari noma'lum. Tojik

tadqiqotchilari turli sanalarni ko'rsatadilar. Masalan, A. M. Bogouddinov 864 — 925 yillarni, M. Osimi — 865 935 yillarni, M Dinorshoyev – 865 yil 28 avgust - 925 yil 25 oktabrni, Ashurov 865- 925 yillarni, A. Devonakulov — 865 — 925-935 yillarni, B. G'afurov va N. Negmatov Roziy tug'ilgan yili sifatida- 865-865 yillarni, vafot etgan yili esa 925 yilni ko'rsatgan.

Akademik M. M. Xayrullayev 855 va 903 yillarni ko'rsatadi, rus olimlarining asarlarida Abu Bakr Roziyning o'limi asosan 924 yilga to'g'ri keladi, garchi boshqa sana - 850 - 923 yillar uchrab tursada.

Eron tadqiqotchilari Roziyning tug'ilgan va vafot etgan yillari haqida turlicha fikrda bo'lishgan. Masalan, Mahdiy Muhaqqiq "Raylik faylasuf Muhammad ibn Zakariyo Roziy" nomli kitobining "Hayot yo'li" bobida mutafakkirning tug'ilgani haqida quyidagilarni aytadi: u hijriy yil bo'yicha 201 (860) yilning sha'bon oyida Ray shahrida tug'ilgan, 313 yilda sha'bon oyida vafot qilgan". Mutafakkirning yuqoridagi tug'ilgan va vafot etgan sanalariga asoslanib, Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ibn Yahyo Roziy IX asrning ikkinchi yarmi va X asrning birinchi choragida yashagan va ijod qilgan, deb aytish mumkin. Mahdiy Muhakkik monografiyasidan ma'lum bo'lishicha, mutafakkirning ismi Muhammad, otasi Zakariyo, bobosi Abubakr, otasining ismi Rey (Ray) shahar nomidan Roziy. Rey Eronning eng qadimgi shaharlaridan biri bo'lib, u Hahomanidlar sulolasi yodgorliklarida "Rogo", qadimgi Gretsiya manbalarida esa "Rogist" deb nomlangan. Qadimgi Forsda bu shahar "Kent" deb nomlangan. Abu Bakr Roziy asarlarini Yevropa tillariga (boshida asosan yunon tiliga) tarjima qilgan shaxslar uni "Rhares" yoki "Roziy" deb atashgan.

Roziy yoshligida zargarlik hunarmandchiligi bilan shug'ullangan, almashtiruvchi (ehtimol zargarlik buyumlarini baholovchi) bo'lgan. Ba'zi tarixchilar va tarjimonlarning fikriga ko'ra, Roziy fanlarni faqat yoshligida o'rgangan, boshqalarning fikricha u faqat 40 yildan keyin fanlar bilan shug'ullangan. U yozuv, tibbiyot, falsafani o'rganishni boshladi va bu ishga butun kuchini baxsh etgan.

Bizningcha Roziy yoshligida fan va adabiyotni o'rganishga alohida mehr ko'rsatgan, kitob o'qigan va turli to'garaklar, bahslarda va munozaralarda qatnashgan. Qiziquvchanlik va bilim olishga intilish uni hech qachon tark etmagan. Alloma o'zining "Falsafiy turmush tarzi" deb nomlangan kitobida shunday yozadi: "Mening bilim bilan aloqam va fanlarni o'rganishda meni qamrab olgan his-tuyg'ularni men bilan muloqot qilganlar ko'rgan va bilishadi. Men yoshligimda va shu paytgacha hayotimni shunday o'tkazdimki, yangi kitob o'qimasdan yoki donishmand bilan gaplashmasdan boshqa mashg'ulotga o'tmaganman. Men yangi kitobni o'qimagunimcha yoki donishmand bilan suhbatlashmagunimcha, agar bu menga umuman foyda keltirmasa ham, men o'z ishimni tark etmadim".

Roziyning zamondoshlari va yurtdoshlaridan biri uning bilim olishga intilishi haqida quyidagilarni aytgan: "U hech qachon qalam va qog'ozdan ajralmagan va har doim yozishga tayyor edi. Bundan tashqari, u shamni devor ustiga qo'ydi va kitobni devorga tirab qo'yib, u bilan devorga suyanardi va shu bilan o'qirdi. Agar u to'satdan uxlab qolsa, kitob qo'lidan tushardi va u uyg'onib, o'qishni davom ettirardi".

Roziy yoshligida kimyoga qiziqib qolgan, u har qanday metallni oltinga aylantirish mumkin bo'lgan eliksir qidirgan. Biroq, izlanishlarida u kerakli natijalarga erishmagan, aksincha, sog'lig'ini yo'qotgan, ko'rish qobiliyatidan mahrum bo'lishiga sal qolgan. Natijada, u o'zining barcha aql-zakovati va iste'dodini tibbiyot, falsafa, matematika, astronomiya, adabiyotni o'rganishga yo'naltirgan va bu yerda u juda yuqori cho'qqilarga erishgan.

Aql to'g'risidagi qarashlar Abu Bakr Muhammad Zakariyo Roziy qarashlarida ham alohida ahamiyatga ega. U o'zining axloqqa bag'ishlangan mashhur "Tibbi Ruhoniy" asarida "Boyad zikr namud, ki parvardigori mutaol aqlro ba inson ato namud va odamizod ba tavassuti on ba sarafroziyu buzurgi noil gardid. Mahz ba vasilai on (Aql) az manofei hozira va oyanda bahramand gardida, ba shoyantarii chize, ki dar chavhari af'oli mo vuchud dorad, merasem. Guzashta az in ba kumaki on chavhari aslro daryoft menamoyem, zero ki aql behtarii to'hfai xudovandi buda, ba mo qudratu sudmandi mebxashad[5]", deya yozadi. YA'ni, Alloh taoloning tavfiqi va yordami bilan boshlaymiz. Alloh taolo bizga aql ne'matini berdi va inson u bilan buyuklik va oliylikga yetishdi va biz dunyo va oxirat manfaatlariga u bilan yetamiz. Bizdagi Allohning eng manfaatli va eng foydali ne'mati aqlidir. Biz Aql yordamida tili bo'lmagan hayvonlardan ustun bo'lib ularga egalik qilamiz, biz hayvonlarni o'zimizga bo'ysundirdik va ularni o'zimizga va ularga manfaatli bo'ladigan ishlarga yo'naltirdik. Darajamizni ko'taradigan va hayotimizni chiroyli, go'zal qiladigan narsani aql bilan idrok qildik, u bilan maqsad muridimizga yetamiz.

Zakariyo Roziy qarashlariga ko'ra, inson Aql vositasi bilan kemalarni yasashni va ular vositasi bilan dengizlarni o'rganib uni o'z manfaatli uchun ishlatadi. Shu sababli alloma yana Aql vositasi ila ilm sirlariga shu jumladan tib ilmiga erishdikki, inson farzandi uchun tilda buyuk manfaatlar yashirindir va yana Aql bilan ko'pgina bizga foyda beradigan ishlarni amalga oshirdik va yana faqatgina Aql yordamida tabiatni yashirin - maxfiy ishlarini angladik. Yeru - Osmon shaklini, Quyoshu - Oy va boshqa yulduzlarni uzoqligiyu-harakatlarni o'rgandik, Parvardigor Alloh taoloni ulug'ligini va bizni yaratuvchiligini Aql bilan bildik, Alloh bizga eng manfaatli ne'mat Aqlni berdi, deya qayd etadi.

Alloma mulohazalariga ko'ra, agar aql bo'lmaganda biz ham hayvonlar kabi bo'lib qolar edik. Biz aqlsiz fe'llarimizni bajarishdan oldin uni hissiy a'zolarimiz bilan his qilaolmagan bo'lar edik. Uningcha, aqlni manzil darajasi shu darajada ekan, biz uni mana shu oliy darajasidan tushurmasligimiz va uni viqor darajasini yo'qotmasligimiz kerak va unga hukm qiladigan hokim bo'lmasligimiz lozim. Demak, aql biz uchun boshliq bo'lib, unga ergashishimiz kerak, har qanday ishda undan yordam olishimiz va aql buyurganidek amal qilishimiz lozim. Ofat baloga sabab bo'ladigan Havoi-nafsn Aql darajasiga ko'tarmaslik lozim, chunki Nafs Aqlni izdan chiqaradi va maqsaddan uzoqlashtiradi va yana yomon Nafs yaxshilik va manfaat bo'lgan ishlarni amalga oshirishda money bo'ladi.

Roziy aql to'g'risida fikr yuritar ekan, inson doim nafsini aqlga tobe qilishi kerakligini qayyd etadi. Agar deydi u, biz bu ishni qilaolsak, o'shandagina Aql bizga yordamchi va hayot yo'lini yorituvchisi bo'ladi va bizni yaxshi xotima va yetuk maqsadlarga yetkazadi va yakunda biz Alloh taoloni ne'mati bo'lgan Aql bilan saodatga erishamiz.

Alloma aql tushunchachiga ta'rif berar ekan, "...Pas, mo aqlro omili mu'tabaru boqudrat donista, padidai shoyoni diqqat hisobidem va onro dar usuli halli maqsad omili asosy shumurdem[5]", ya'ni, Aql bu - e'tiborli va qudratli omil va Yaratganning ulug' ne'mati deb bildik va uni barcha masalalarni hal qilishlikda asosiy vosita, deb hisobladik, deya izohlaydi.

Zakariyo Roziy mulohazalariga ko'ra, Aql nimanidir ko'radi va tanlaydi va yaxshi oqibatlariga olib keladigan narsaning eng yaxshisini tanlaydi va qabul qiladi, garchi uni qabul qilishning boshida muammo bo'lsa ham, chunki nafs va havo bunga qarshi chiqadilar. Nafs, havo va havaslar samarasiz va vaqtinchalik narsani tanlaydi, ba'zan o'sha narsaning oqibati hatto nafsning o'ziga ham ma'lum bo'lmay qoladi, bu esa unga muammo tug'diradi. Ammo bu muammo havo va nafs uchun saboq bo'la olmaydi [5]. Bu holatni alloma bolaning holati misolida tahlil etadi. YA'ni, bolaning ko'zi og'riyotgan bo'lsada, xurmo yeb, oftobda o'ynashni to'xtatmadi. U darmon va boshqa ko'z dori vositalaridan foydalanishi kerak edi, ammo u buning aksini qiladi.

Zakariyo Roziy o'z qarashlarida nafasot, qalb pokligi inson uchun katta ne'mat ekanligiga alohida e'tibor qaratadi. Uning mulohazalariga ko'ra, o'z egalarining xohishiga ko'ra, aql va tana insonning yashirin va maxfiy unsuri sifatida mashhur bo'lib, ular hatto nozik va aniq fanlar sirlariga kirib, murakkab va qiyin narsalarni oydinlashtirish uchun zarur va foydali san'at bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun biz bu ishni falsafa fanida ko'proq kuzatamiz, deydi alloma va o'z fikrini davom ettirib "...ahli falosifa fireftai ishq nameshavand. Kasone, ki beshtar ba vartai ishq dar meaftand. Inhoand: Arabhoi bodyianishin, kurddho va inchunin mardumoni dag'ali sahronishin meboshand"[5] ya'ni, falsafa ahli muhabbatga aldanmaydi. Sevgi tubiga eng ko'p tushadiganlar: ko'chmanchi arablar, kurdlar, shuningdek, cho'lning qo'pol odamlaridir, deya qayd etadi.

Mutafakkir e'tirofiga ko'ra, "...ki hech xalqe az xalqxo olam ba misli yunonih bozakovatu ahli hikmat nestand"[5] ya'ni, dunyo xalqlarining hech biri yunonlardek aqli va dono emas. Bu odamlar sevgidan juda uzoq va boshqa xalqlarga nisbatan xotirjam. Roziy muhabbatni qattiq fe'l-atvorli, aqli zerikarli kishilar topadi, deya qayd etadi. Binobarin, kalta va uzoqni o'ylamaydigan har bir kishi qalbi mayl bo'lgan nafsiga oshiqishi aniq.

Roziyning fikricha, ma'naviy ehtiroslar qulligidan xalos bo'lish faqat eng oliy yaxshilikka erishishning shartidir, lekin yaxshilikning o'zi emas. Inson o'z aqli va Xudoning yordami bilan nafaqat o'zini bu qullikdan xalos qiladi, balki ruhning (ochiq, zaif va adashgan) substansiyasini quyi ehtiroslar va illatlar qamoqxonasidan ozod qilishga yordam beradi. Alloma obyektiv axloq insonni olamning umumiy maqsadiga ongli va erkin xizmat qilishidan iborat, deb hisoblaydi va bu yerda, eng avvalo, uning insonning mutlaq ichki qadriyati haqidagi xulosasini e'tirof etish zarur.

Roziyning bu yondashuvi, fikrimizcha, unga borliq va olamning barcha sohalarini inson faoliyati sohasi - o'z harakatlarini sof ezgulik motivlariga bo'ysundirishga qodir yagona oqilona, axloqiy mavjudot sifatida qarashga imkon berdi. U inson uchun faqat mustaqil va mutlaq qonunni - axloqiy va bitta zaruratni - axloqni tan oladi. Uning fikricha, shaxsiy takomillashtirish o'z-o'zidan emas, balki axloqiy faoliyat uchun muhim. Axloqiy faoliyatning oliy maqsadini tasdiqlash yaxshilikni to'g'ri amalga oshirish uchun haqiqiy bilimni talab qiladi. Takomillashtirish jarayoni insonning amaliy tajribasiga asoslanadi, chunki uning axloqiy o'zini o'zi anglashi dastlab o'zining ijtimoiy mavjudligi dialektikasi bilan belgilanadi[3].

Zakariyo Roziy dunyo xalqlari orasida kuchli tabib, erkin fikrlovchi va tabiatshunos olim sifatida mashhur. Olimning ilmiy-falsafiy asarlari XV asrdan boshlab madaniyatli kishilar e'tiborini tortdi. 1486-yilda "Aljo-me-ul-hozir-assinaat-at-tib" ("Havi")

asari Italiyada lotin tiliga tarjima qilingan va keyinroq 1509, 1543-yillarda ham xuddi shu qayta bosilgan. 1955 yilda Haydarobodda "Havi"ning asl matni yigirma jildda nashr etilgan. Yozuvchining yana bir tibbiy asari "Tib Mansuri" ham Jerar De-Grimone tomonidan tarjima qilingan. Umuman olganda, Zakariyo Roziyning tibbiy va falsafiy asarlarini o'rganish, targ'ib qilish va lotin va Yevropa tillariga tarjima qilishda Yuliy Ruska va Pol Krauslarning xizmatlari nihoyatda katta. 1936-yilda Aburayxon Beruniyning "Roziy tasniflari ro'yxati"ni nashr etgan va Zakariyo Roziy haqidagi ushbu muhim asari bilan ilm olamini tanitgan ham Pol Kraus edi. 1939-yilda mutafakkirning o'n bir falsafiy risolasini to'plab, Qohirada "Falsafiy risolalar" nomi bilan nashr ettiradi. 1964-yilda Muhammad Najmabodiy "Qisos va hikoyat ul-marza" risolasini to'liq muqaddima bilan nashr ettirdi.

Xususan, olimlar – Said Muhammad Tabotaboiy, Abbos Iqbol, Muhammad Muin, Aliasg'ariy Hikmat, Ali Asg'ariy Halabiy, Mahdiy Mohaqqiq Zakariyo Roziy hayoti va faoliyati haqida o'z fikrlarini bildirgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda Roziyning falsafiy va antropologik qarashlarining ahamiyatiga baho berib, ular nafaqat o'rta asrlar tafakkuriga, balki insoniyat ma'naviy hayotining keyingi rivojiga ham ulkan ta'sir ko'rsatganligini aytish mumkin. Alloma aql va tafakkur kuchiga yuksak baho berib. Uni ilmning manbai sifatida qaragan. Islom falsafiy tafakkurining Roziy uslubidan keyin dunyo bir necha o'n yillar davomida o'zgardi. Uning ta'limotining o'ziga xosligi nafaqat falsafaga, balki ijtimoiy ong va madaniyatning boshqa shakllariga ham kirib bordi.

ADABIYOTLAR

1. <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/22250-a-l-a-ida-na-l>
2. Абулхасан Алий ибн Муҳаммад ибн Ҳабиб ал-Басрий ал-Мовардий. "Адабуд-дунё вад-дин". Дор Ибн Касир, Димашк – Байрут, 2005.
3. Азкайн Парвиз. Ҳаким Рази. Хикмати таби ва низоми фалсафии Муҳаммад Ибни Закариёи Сайрафи. – Тегеран, 1382.
4. Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. Тошкент: Мовароуннахр, 2004
5. Закариёи Розӣ. Мунтахаби осор. — Душанбе: Адиб, 1989.



UDK:378. 126:001.895:004.855.5

Nargiza BABAXODJAYEVA,
Termiz davlat universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail:babaxodjaeva@mail.ru

SamDU professori, f.-m.f.d E.Urunbayev taqrizi asosida

APPLICATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE SOLUTIONS IN DIRECTING UNIVERSITY TEACHERS TO INNOVATIVE ACTIVITIES

Аннотация

The article discusses issues related to the possibilities of using artificial neural networks in assessing, monitoring and analyzing the results of innovative educational activities of teachers of higher educational institutions. A method for differential determining the direction of innovative activity for teachers according to some conditional characteristics identified through a survey using a software neurosimulator is described. The characteristics of the Neurosimulator 1.0 application are given, as well as the stages of training based on samples of evaluation features, testing and obtaining a forecast of an artificial neural network.

Key words: Artificial intelligence, neural network, educational process, quality of education, teacher ratings, neurosimulator, training data set, neural network forecast

ПРИМЕНЕНИЕ РЕШЕНИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПРИ СТИМУЛИРОВАНИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВУЗОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы связанные с возможностями использования искусственных нейронных сетей в оценке, мониторинге и анализе результатов инновационной образовательной деятельности педагогов высших учебных заведений. Описан метод дифференциального определения направления инновационной деятельности для преподавателей по некоторым условным признакам, выявленным посредством опроса, при помощи программного нейросимулятора. Приведены характеристики приложения «Нейросимулятор 1.0.», а также этапы обучения на основе выборок оценочных признаков, тестирования и получения прогноза искусственной нейронной сети.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, нейронная сеть, образовательный процесс, качества образования, рейтинг преподавателей, нейросимулятор, обучающая выборка данных, прогноз нейронной сети

OLIY TA'LIM PROFESSOR-O'QITUVCHILARINI INNOVATSION FAOLIYATGA YO'NALTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT YECHIMLARINI QO'LLASH

Аннотация

Maqolada oliy o'quv yurtlarida talim faoliyati natijalarini baholash, monitoring qilish va tahlil qilishda sun'iy neyron to'lardan foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liq masalalar muhokama qilingan. So'rovlar vositasida aniqlangan ma'lum shartli xususiyatlar bo'yicha professor-o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga differensial yo'naltirishning dasturiy neyrosimulator vositasidagi metodi bayoni keltirilgan. "Neyrosimulyator 1.0" ilovasining xarakteristikalari, shuningdek, neyron to'rining baholash ko'rsakichlari namunalarini bo'yicha o'rgatish, sinovdan o'tkazish va bashoratlash bosqichlarining tavsifi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, sun'iy neyron to'ri, oliy ta'lim jarayoni, ta'lim sifati, o'qituvchilar reytingi, neyrosimulator, neyron to'ri uchun namunaviy o'rgatuvchi misollar to'plami, neyron to'r bashorati.

Kirish. Bugungi kunda inson hayoti va faoliyatining barcha sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatuvchi globallashuv jarayoni, raqamlashtirish, yangi texnologiyalarning rivoji sharoitida ta'lim-tarbiya zamonaviy jamiyat har bir a'zosi shakllanishining strategik sharti bo'lib hisoblanadi. Ilm-fanning shiddat bilan rivojlanishi, bilimlar va ma'lumotlar hajmining ortishi insonning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlariga yo'naltirilgan yangi ta'lim paradigmalariga zarurat tug'dirmoqda. O'qitishning mazmuni va metodlarini XXI asr shart-sharoitlariga moslashtirish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim tizimiga qo'yilgan talablarga javob berishda muhim ahamiyatga ega. «Raqamli O'zbekiston — 2030» Strategiyasiga muvofiq sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bu sohada davlat siyosatining asosiy maqsadini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 avgustdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-5234-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 noyabdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga

qo'yish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi" 717-son qarori va boshqa me'yoriy xujjatlarda ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish; iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish; sun'iy intellekt sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni olib borish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning ilmiy tizimini shakllantirish kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalari faoliyatida sun'iy intellekt yechimlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilish sohasi nisbatan yangi bo'lishiga qaramasdan, ushbu masala bo'yicha xalqaro miqyosda salmoqli natijalarga erishilgan. Ushbu sa'y harakatlar natijasida "Hisoblash pedagogikasi" (Computational Pedagogic) yoki "Raqamli pedagogika" (Digital Pedagogic) [1] deb nomlangan pedagoik bilimlarning innovatsion yo'nalishi shakllandi [1]. K. Beecher [3], O. Yasar [7,8], J. Maliekal [8], D. Berry [9] kabi ko'pgina xorijiy tadqiqotchilar raqamli pedagogika sohasini inson va dasturiy agentlar kabi ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati umumiy qoida va tamoyillar asosida amalga oshiriladigan muayyan ta'lim muhiti shakli sifatida o'rganadilar. E. D. Patarakin va B. B. Yarmaxovlar ta'rifi bo'yicha "hisoblash pedagogikasi - o'quvchi-talabalarning

raqamli fikrlash, raqamli faoliyat va raqamli refleksiya malakalarini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat vositalari va stenariylarini ijtimoiy-texnik loyihalash jarayonidir" [10]. Hisoblash pedagogikasi tomonidan qo'yiladigan vazifalarni hal etish vositalari Computer Science (kompyuter ilmlari) va uning yo'nalishlari bo'lgan Social Computer Science (ijtimoiy kompyuter ilmlari), Neurocomputer Science (neyrokompyuterli ilmlar), Systems Science (tizim ilmlari), Cognitive Science (kognitiv ilmlar) kabi sohalar yordamida yaratiladi va qo'llaniladi. Shu bilan bir vaqtda xorijiy manbalarda pedagogik bilimlarning sun'iy intellektni qo'llashni nazarda tutuvchi ushbu yo'nalishi «Educational Data Mining» (ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlarning intellektual tahlili) [5] termini bilan atalib, uning asosidagi pedagogik texnologiyalar EDM-texnologiyalar deb atalmoqda [12]. R. S. Baker va P. S. Inventado [11] kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida berilganlarni intellektual tahlil qilish asosida ta'lim jarayoni unumdorligini oshirish muammosi o'rganilgan. Ta'lim jarayoniga oid berilganlarni intellektual tahlil qilishning semantik tavsifi masalalari A. A. Dutt, M. A. Ismail va T. Herawan [12] ishlarida ko'rib chiqilgan. B. Oancea, R. Dragoescu, S. Ciucu [4], C. Romero, S. Ventura, M. Pechenizkiy, R. Baker [5], kabi olimlarlar ta'lim oluvchilar o'zlashtirish darajasini bashorat qilishda intellektual tahlil qilish usulini qo'llash muammolarini, M. G. Kolyada, T. I. Bugaeva [1,2], R. A. Huebner [13] singari tadqiqotchilar ushbu tizimlarda foydalanish mumkin bo'lgan ta'limga oid berilganlarni jamlash bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirdilar. Yuqorida qayd etilgan va boshqa mualliflar tomonidan sun'iy intellekt tizimlarining ta'lim jarayonida qo'llashning asosiy yo'nalishlarining batafsil tasnifi berilgan. Ammo, soha mutaxassislar fikriga ko'ra, sun'iy intellekt tizimlarining ta'lim jarayoni va pedagogikada qo'llashning ichki mexanizmlari yaxshi o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quv faoliyati natijalari va sifatini ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda tahlil qilish, monitoring qilishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohadagi eng innovatsion vositalardan biri sun'iy neyron to'rlaridir. Ular murakkab ma'lumotlarni qayta ishlash, qonuniyatlarni aniqlash va mavjud ma'lumotlar asosida bashorat qilish, ma'lumotlarni tahlil qilish, yutuq va muvaffaqiyatsizliklar sabablarini, tendentsiyalarni aniqlash va ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish imkoniyatiga ega. O'qituvchilar reytingi va talabalar faoliyatini tahlil qilish va monitoring qilishda sun'iy neyron to'rlaridan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri baholashning aniqligi va ob'ektivligidir. Sun'iy neyron to'rlaridan foydalanishning muhim jihati avtomatlashtirish va optimallashtirishdir. Neyron to'rlari berilganlarni katta tezlikda tahlil qilish, aniq natijalarni taqdim etish va qo'llaniluvchi yechimlarning effektivligini baholash imkoniyatlariga ega [14].

Tahlil va natijalar. Sun'iy neyron to'rlari mavjud ma'lumotlar asosida o'rgatilib, uning vositasida ta'lim sifati, o'quv, uslubiy va ilmiy faoliyat, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va boshqa ko'rsatkichlarning turli shkalalar asosida olingan baholari kabi yangi ma'lumotlarga mos bashoratlar olish imkoniyatlarga

$$D(i) = \begin{cases} 1 - blok, agar S_1 = \max[S_1, S_2, S_3] \\ 2 - blok, agar S_2 = \max[S_1, S_2, S_3] \\ 3 - blok, agar S_3 = \max[S_1, S_2, S_3] \end{cases}; S_1 = \frac{\sum_{i=1}^{n_1} x_i}{n_1}; S_2 = \frac{\sum_{i=1}^{n_2} x_i}{n_2}; S_3 = \frac{\sum_{i=1}^{n_3} x_i}{n_3}.$$

Bu yerda S_1, S_2, S_3 - so'rovnoma bloklari bo'yicha olingan javoblarning o'rtacha qiymatlari; n_1, n_2, n_3 - mos bloklardagi savollarning soni; x_i - respondentning so'rovnoma blokidagi i -savolga bergan javobi. Bunda savollar soddalik uchun "ha-yoq" tipida shakllantirilgan bo'lib, neyron to'ri respondent tomonidan berilgan javoblarga qarab, unda qaysi innovatsion 1-jadval.

Sun'iy neyron to'rini o'rgatish uchun namunaviy misollar to'plami


ega. Bularni namoyish etuvchi usullarga misol sifatida tadqiqotimiz doirasida ishlab chiqilgan pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirishning sun'iy neyron to'ri vositasidagi differensial yondashuvi metodikasining qisqacha bayonini keltiramiz. Ushbu metodikaning mazmuni oliy ta'lim pedagog kadrlarning kasbiy innovatsiyalarga munosabatini o'rganish maqsadida o'tkaziladigan so'rov natijalari asosida ularning qobiliyatlari, qiziqishlari va motivatsiyasi xarakterini aniqlash hamda innovatsion faoliyati yo'nalishini belgilashdan iborat. Bunda jarayon bir necha bosqichda kechadi: so'rovlar o'tkazish yo'li bilan ma'lumot yig'ish; neyron to'ri uchun o'rgatuvchi berilganlar bazasini shakllantirish; neyron to'rini loyihalash; neyron to'rini o'rgatish; neyron to'ri bashoratini olish; natijalarni tahlil qilish; olingan natijalarni amaliyotda qo'llash. Bunda ushbu bosqichlar maxsus neyrosimulyator dasturi vositasida amalga oshirildi. Ta'lim tizimida qo'llanilishi mumkin bo'lgan neyrosimulyatorga qo'yiladigan foydalanishda soddalik, ko'rgazmalilik, universallik, turli tadqiqotchilik ishlarini bajarishda qo'llanilish imkoniyati kabi talablarga javob beradigan dasturlardan biri sifatida Perm davlat pedagogika universiteti (Rossiya) olimlari L.N. Yasnitskiy va F. M. Cherepanovlar tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotni tavsiya etish mumkin [14]. Ushbu neyrosimulyator sodda, tushunarli va qulay interfeysga ega bo'lib, undagi har bir amaliy harakat grafik timsol va qisqacha tushuntirishga ega. Kiritilgan neyron to'ri strukturasi grafik ko'rinishda ilova oynasida aks ettiriladi. Har bir faollashtirish funksiyasi sozlash oynasiga ega bo'lib, bu yerda uning formulasi va grafik tasviri chiqariladi. Shuningdek, sinaptik og'irliklarni aniqlashtirish va berilganlarni boshlang'ich qayta ishlash funksiyalari uchun ham o'xshash amallar bajarilishi mumkin. Neyrosimulyator kompakt hajmga ega bo'lib, kompyuterga o'rnatishni talab etmaydi, shuningdek, bepul tarqatiladi. Datur asosan, to'rtta: "to'rni loyihalash", "o'rgatish", "tekshirish" va "bashoratlash" rejimlarida ishlaydi (1-4-rasmlarga qarang). Neyrosimulyator vositasida berilganlarni tahlil qilish bir necha qadamda amalga oshiriladi.

Neyroto'rni o'rgatish uchun ma'lumotlarni tayyorlash. To'rni o'rgatish uchun namunaviy misollar jadval ko'rinishida, jumladan MS Excel dasturida tayyorlanishi mumkin. Ma'lumotlar professor-o'qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarga munosabatini o'rganish doirasida o'tkaziluvchi so'rov natijalari asosida tayyorlanadi. So'rovnoma kiritilgan savollar innovatsion faoliyat turiga qarab, quyidagi mantiqiy bloklarga bo'lingan: ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash; ma'naviy-ma'rifiy tarbiya; tashkiliy-boshqaruv faoliyati. Savollar vazni umumiy yoki har bir blok uchun turlicha shkalalar asosida tanlanishi mumkin. Misolimizda qulaylik uchun savollar muayyan innovatsion faoliyat turi ko'rinishida berilib, respondentlar o'z tanloviga bog'liq holda har bir savol uchun 1 yoki 0 ball to'playdi. Bunda D ustun (neyron to'ri uchun "kutiladigan javoblar" vektori) qiymatlarini aniqlash qoidasi masalaning qo'yilishidan kelib chiqadi. Bizning misolimizda D "kutilyotgan javoblar" vektori quyidagi qoida bilan aniqlanadi:

faoliyat turiga moyillik yuqori ekanligini baholashi kerak. So'rovnoma savollari variativ shkala asosida berilganda, D vektor elementlarini aniqlash qoidasi murakkablashadi. Namunaviy misollar soni (jadvalda satrlar soni bilan mos keladi) qanchalik ko'p bo'lsa, neyron to'ri bashoratlar aniqligi shunchalik yuqori bo'ladi (1-jadval).


Respondentlar	Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya bo'yicha savollar (1-blok, jami 9 ta punkt)					Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bo'yicha savollar (2-blok, jami 18 ta punkt)					Tashkiliy-boshqaruv faoliyati bo'yicha savollar (3-blok, 10 ta punkt)					D			
	1	0	...	0	0	1	0	1	...	1	1	0	0	0	0		...	1	0
	0	0	...	0	0	1	0	1	...	1	1	1	1	0	0	...	1	0	2-blok
	0	1	...	0	0	0	0	0	...	1	0	1	1	0	0	...	1	1	3-blok
	1	0	...	0	1	1	0	0	...	1	1	0	1	0	0	...	1	1	1-blok
	1	0	...	1	1	1	1	0	...	0	0	0	0	0	1	...	1	1	1-blok
	1	0	...	0	1	1	1	0	...	0	1	0	1	1	0	...	0	1	1-blok
	1	1	...	1	0	0	0	1	...	1	1	0	1	1	1	...	1	1	3-blok
	0	1	...	0	0	1	0	1	...	1	1	1	1	1	1	...	1	1	3-blok
...

Sun'iy neyron to'rini loyihalash. Bizning holda neyron to'ri 37 ta kirish neyroni (so'rovnomadagi savollarning umumiy soni), 12 va 13 ta neyronli 2 ta yashirin qatlam va 1 ta chiqish neyroniga ega. Neyron to'ri strukturasi neyrosimulyator dasturining loyihalash sahifasida shakllantiriladi. Bunda faollashtirish funksiyalari turini to'g'ri belgilash muhim. Bizning holda sigmoidli faollashtirish funksiyasi tanlanadi (1-rasm).



1-rasm. Neyrosimulyator1.0 dasturi neyron to'rini loyihalash sahifasining umumiy ko'rinishi

Neyron to'rini o'rgatish. O'rgatish jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi: o'rgatish uchun ma'lumot kiritish (tayyorlangan namunaviy misollar to'plamini yuklash) va o'rgatish. O'rgatish jarayonining dinamikasi graffigi real vaqt rejimida ilova qoshimcha oynasida aks ettirilib, jarayon so'ngida grafikni saqlab qoyish imkoniyati mavjud (2-rasm). Bunda o'rgatish algoritmi, sinaptik og'irlik koeffitsientlarini tanlash turi, iteratsiyalar sonining to'g'ri tanlanishi muhim ahamiyatga ega.




2-rasm. Neyron to'rini o'rgatidh jarayoni grafik ifodasi


O'rgatilgan neyron to'rini testlash. Testlash jarayoni neyrosimulyator dasturining tekshirish sahifasida amalga oshiriladi. Bu yerda neyron to'rining boshlang'ich bashoratlari tekshiriladi va baholanadi, ya'ni bashoratlari bilan namunaviy D vektor elementlarining mos qiymatlarini solishtiriladi. Bu yerda tasodifiy tartibda berilgan o'rgatuvchi misollarni, boshqa (o'rgatuvchi to'plamga kirmagan) berilganlarni yuklash hamda ma'lumotlarni qo'lda kiritish imkoniyatlarini mavjud (3-rasm). Ushbu bosqichning natijalari neyron to'rining foydalanishga tayyor yoki uni optimallashtirish zarur ekanligini belgilaydi. Neyrosimulyator dasturi vositasida optimallashtirish jarayonida yashirin qatlamlar va

ulardagi neyronlar soni, faollashtirish funksiyalari, o'rgatish algoritmi, davri va boshqa parametrlarni almashtirish, moslashtirish ko'zda tutiladi.

Neyron to'rining bashorati - qo'yilgan masalani hal etishda o'rgatilgan neyron to'rini qo'llash bosqichidir. Bunda real so'rov natijalari asosida neyron to'rining bashorati olinadi. Bizning misolimizda neyron to'ri so'rovda qatnashgan har bir respondent uchun uning qaysi innovatsion faoliyat turiga moyilligi yuqori ekanligi va yaxshi natijalarga erishish ehtimoli baland ekanligini bashorat qiladi (4-rasm).



3-rasm. Neyrosimulyator1.0 dasturi o'rgatilgan neyron to'rini tekshirish sahifasining umumiy ko'rinishi



4-rasm. Neyrosimulyator1.0 dasturida o'rgatilgan neyron to'ri bashoratini olish sahifasining umumiy ko'rinishi

Xulosa va takliflar. Bugungu kunda o'quv jarayonini takomillashtirish va pedagog kadrlar malakasini oshirish uchun ilg'or texnologiyalardan foydalanishga e'tibor kuchaymoqda. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining o'quv-uslubiy, ilmiy va innovatsion faoliyatini tahlil qilish uchun sun'iy neyron to'rlardan foydalanish istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib, uning muhim jihati – pedagogik innovatsiyalarga yo'naltirishning differensial yondashuvlarini amalga oshirish imkoniyatidir.

Pedagog kadrlar o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot faoliyati va innovatsion metodlarning qo'llanilish darajasini tahlil qilish orqali har bir o'qituvchining individual ehtiyojlari va rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash mumkin. Shu bilan birga, sun'iy intellekt yechmlaridan foydalanish pedagogik va o'quv-uslubiy ishlar sifatini monitoring qilish, samaradorligini oshirish, ularni takomillashtirish, muammolar sabablarini aniqlash, samarali yechimlarni taklif qilish va tavsiyalar berish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Коляда М. Г. Компьютационная педагогика. Донецк: Ноулидж, 2013. 321 с.
2. Коляда М. Г., Бугаева Т. И. Вычислительная педагогика. Ростов-на Дону: ЮФУ, 2018. 270 с.
3. Beecher K. Computational thinking. BCS, The Chartered Institute for IT, 2017. 306 p.
4. Oancea B., Dragoescu R., Ciucu S. Predicting students' results in higher education using neural networks // International Conference on Applied Information and Communication Technologies. 2013. Is. 6. P. 190–193.
5. Romero C., Ventura S., Pechenizkiy M., Baker R. S.j.d. Handbook of educational data mining. New York: CRC Press, 2011. 526 P.
6. Osman Y. Computational pedagogy: Fostering a new method of teaching // Computers in Education Journal. 2016. 16(3). P. 51–72.
7. Yasar O., Veronesi P. Computational pedagogical content knowledge (CPACK): integrating modeling and simulation technology into STEM teacher education // Proc. SITE 2015 — Society for Information Technology & Teacher. Education Int. Conf. Las Vegas: AACE, 2015. P. 3514–3521.
8. Yasar O., Maliekal J. Computational pedagogy: a modeling and simulation approach // Computing in Science & Engineering. 2014. Vol. 16. No. 3. P. 78–88. DOI: 10.1109/MCSE.2014.60
9. Berry D. The computational turn: Thinking about the digital humanities // Culture Machine. 2011. Vol. 12. <http://sro.sussex.ac.uk/id/eprint/49813/>
10. Патаракин Е. Д., Ярмахов Б. Б. Вычислительная педагогика: мышление, участие и рефлексия // Образовательные технологии и общество. 2018. Т. 21. № 4. С. 502–523.
11. Baker R. S., Inventado P. S. Educational data mining and learning analytics // Learning Analytics. 2014. P. 61–75. DOI: 10.1007/978-1-4614-3305-7_4
12. Dutt A. A., Ismail M. A., Herawan T. A systematic review on educational data mining // IEEE Access. 2017. Vol. 5. P. 15991–16005.
13. Huebner R. A. A survey of educational data-mining research // Research in Higher Education Journal. 2013. Vol. 19. 13 p.
14. Бабаходжаева Н. М. Использование искусственных нейронных сетей в анализе и прогнозировании результатов педагогической деятельности преподавателей высших учебных заведений // Материалы международной научно-практической конференции «Инновационные технологии в среде цифровизации высшего образования: проблемы и решения-2024». Том 1. С. 212-218.



Mohim BOBOYEVA,

Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi katta o‘qituvchisi

E-mail: mohimboboeva@gmail.com

PhD S.Sultonov taqrizi asosida

SOCIO-PHILOSOPHICAL IMPORTANCE OF THE PRIORITY OF ENSURING ENVIRONMENTAL SUSTAINABILITY IN THE PROCESSES OF TRANSFORMATION OF SOCIETY IN NEW UZBEKISTAN

Annotation

This article reveals the socio – philosophical implications of the environmental transformations carried out in our country from 2017 to today in terms of the country's prospects for international and national development. Environmental sustainability is primarily addressed to be beneficial to both the interests of the state and the interests of the people if they are represented by laws, state programs and their implementation that serve the interests of people.

Key words: environmental sustainability, priorities for ensuring environmental sustainability, strategy, waste, environmental protection, sustainability.

SOTSIALNO-FILOSOFSKOE ZNACHENIE PRIORITETA OBESPECHENIYA EKOLOGICHESKOY USTOYCHIVOSTI V PROTSESSAX TRANSFORMATSII OBYECTVA V NOVOM UZBEKISTANE

Annotatsiya

В данной статье дается социально – философское раскрытие экологических преобразований, осуществленных в нашей стране с 2017 года по настоящее время, с точки зрения перспектив международного и национального развития страны. Экологическая устойчивость может быть полезна как для государственных, так и для общественных интересов, если она преследуется в первую очередь законами, государственными программами и их реализацией, которые служат людям и их интересам.

Ключевые слова: экологическая устойчивость, приоритеты обеспечения экологической устойчивости, стратегия, отходы, охрана окружающей среды, устойчивость.

YANGI O‘ZBEKISTONDA JAMIYAT TRANSFORMATSIYALASHUVI JARAYONLARIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA‘MINLASH USTUVORLIGINING IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada 2017 yildan bugungi kunga qadar mamlakatimizda amalga oshirilgan ekologik transformatsiyalarning mamlakatning xalqaro miqyosda va milliy rivojlanish istiqbollari nuqtai nazaridan ijtimoiy – falsafiy ochib berilgan. Ekologik barqarorlik avvalo insonlar va ularning manfaatlariga xizmat qiluvchi qonunlar, davlat dasturlari va ularning ijrosi bilan omuxtalashasagina davlat manfaatlarini uchun ham, xalq manfaatlariga ham foydali bo‘lishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik barqarorlik, ekologik barqarorlikni ta‘minlash ustuvor yo‘nalishlari, strategiya, chiqindi, atrof – muhit muhofazasi, barqarorlik.

Kirish. 2017 yil 7 fevralda 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor beshta yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi” qabul qilindi. Ushbu dasturning uchinchi va beshinchi yo‘nalishida “Iqtisodiyoni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishi” va “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat” sohasidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida “qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish”, “Atrof tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish” belgilab qo‘yilgan bo‘lib uni amalga oshirishda quyidagilarga e‘tibor berish belgilab berildi.

Avvalambor mamlakatimizda qabul qilinayotgan qonunlar va qonun osti xujjatlari xar doim inson va uning manfaatlariga uchun xizmat qilmog‘i lozim ekanligini bugungi kun amaliyotida ko‘rib turibmiz. Atrof-muhit (yoki ekologik muhit) - bu tirik organizmlarga ta‘sir qiluvchi barcha omillar: tabiiy (havo, suv, tuproq, iqlim va boshqalar) va inson faoliyati (shaharsozlik, axlat va boshqalar) natijasida yuzaga kelgan. Bu barcha organizmlarning, shu jumladan odamlarning salomatligi, farovonligi va hayot aylanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Atrof-muhitga hurmat bilan munosabatda bo‘lish zamonamizning eng muhim muammolaridan biridir. Xarakteristik strategiyasida amalga oshirishga oid tadbirlar va davlat dasturining ijrosi sifatida Radiatsiya xavfsizligini ta‘minlash tizimini takomillashtirish

bo‘yicha davlat dasturini ishlab chiqish, Favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida xabar berish va aholini xabardor qilish tizimini tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni kuchaytirish, Fuqarolar muhofazasi tuzilmalari faoliyatini yanada takomillashtirish, ularni moddiy-texnika vositalari bilan jihozlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasini ishlab chiqish, Favqulodda vaziyatlarda aholining harakatlarga tayyorgarligini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish, Tabiiy, texnogen va ekologik xarakterdagi favqulodda vaziyatlar ehtimolini monitoring va prognozlashtirishning yagona tizimini ishlab chiqish, tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish, paxta va boshqali don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo‘shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog‘ olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog‘ va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya ob‘ektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi

texnikasidan foydalanish, kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish, global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish belgilab berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid asosiy adabiyotlar O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi, davlat dasturlari, Prezident qaror, farmonlari kiradi. Undan tashqari ushbu sohada faoliyat olib boruvchi olimlarning ilmiy asarlari va ishlanmalari shular jumlasidandir. 2022 yil 29 yanvarda O'zbekiston Respublikasini 2022 – 2026 yillarda rivojlantirishga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. Ushbu dasturning 21,22,23,24,30,31,33,34, VI “Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish” deb nomlangan bo'limida 79,80,81 maqsadlari aynan ekologik barqarorlik va ustuvorlikni taminlashga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Sohaga oid tadqiqot metodlaridan maqola davomida kuzatish, qiyosiy tahlil qilish, dialektik va tizimli yondashuv, qiyosiy va juz'iy baholash, solishtirma va omilli tahlil qilish usullaridan foydalanildi. 2022 yilgi malakatlar iqlimi va taraqqiyot xisobotida O'zbekiston 2050 yilga borib 50 million aholidan oshiq axolisi mavjud mamlakatlar qatoriga kiradi. Bu tabiiy ravishda belgilangan hudud doirasida aholining extiyojlarini qondirish zuriyatini keltirib chiqaradi. O'zi shunday xam O'zbekiston iqlim o'zgarishlarining voqeliklariga duch kelmoqda, bu qurib borayotgan Orol dengizining ekologik halokati va qurg'oqchilik, haddan tashqari issiqlik, yog'ingarchilikning o'zgaruvchanligi va chang bo'ronlari ko'payishida yaqqol namoyon bo'ladi. Atrof-muhitning ifloslanishi natijasida sog'liqqa etkazilgan zararning yillik xarajatlar dahshatli bo'lib, YaIMning 6,5 foizini tashkil etadi. YaIM o'sishini mamlakatda aholi turmush darajasining o'sishi va forovonligi bilan belgilaymiz. Aslida bu aholining xarid qobiliyatining o'sishi hisoblanib u endi mamlakatda qo'shimcha resurslar sarfi va energiya istemolini keltirib chiqaradi.

2019-yildan boshlab O'zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlari milliy portali faoliyat yurita boshladi. Portal markazlashtirilgan milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha axborot resurslaridan foydalanadi. 2019 yil may holatiga ko'ra portal milliy ko'rsatkichlarning qariyb uchdan bir qismi uchungina ma'lumotlarni taqdim etadi. Davlat statistika qo'mitasi tomonidan atrof – muhit muhofazasi bo'yicha deyarli tahliliy ma'lumotlar mavjud emas. Mavjudlari ham faqat Gender tenglik doirasidagi ma'lumotlar hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. 2019 -2023 yillarda mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan transformatsiyalarga:

2030 yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasi, davr uchun yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi

2019–2030 yillarga mo'ljallangan maishiy chiqindilarni boshqarish bo'yicha 2019–2028 yillarga mo'ljallangan strategiya.

2019-2028 yillar uchun biologik xilma-xillikni saqlash.

Bir qator yangi qonun loyihalari ishlab chiqilmoqda tayyorlanmoqda va mamlakat ekologik kodeksini ishlab chiqishga kirishadi.

2023 yil ekologiya va atrof – muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va avkolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risidagi farmonlari mazkur sohada gi huquqiy transformatsiyalar hisoblanadi.

O'zbekistonda atrof – muhitni strategik ekologik baholash vositasi hali qo'llanilmagan, tarmoq hujjatlarida ham ekologik baholash vositasidan xabardorlik cheklangan. Strategik baholash vositasi O'zbekistonga ekologik barqaror rivojlanish uchun siyosatning muvofiqligini amalga oshirishga yordam beradi. Shu orqali ekologik barqarorlikni jahon indeksi bilan integratsiyalashni amalga oshirish mumkin. Mamlakatimizda mazkur sohada ayrim vakolatlarini Ekologiya va atrof – muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi amalga oshirayapti. Ushbu sohaga doir ijro siyosatini davlar organlari tomonidan tekshiruvlarni kamaytirish va faollashtirishga qaratilgan chora – tadbirlarga rioya etilishini monitoring qilishda fuqarolarni jalb qilish lozim. Ammo fuqarolarni jalb qilish uchun hech qanday tartib mavjud emas. Mavjudlari ham faqatgina ularning uy xo'jaliklari doirasida amal qiladi. Ushbu sohada jamoat ekologik inspektori lavozimi faoliyat yuritib birgina 2017 yildan boshlab minglab fuqarolar jamoatchilik ekologiya inspektori sifatida malaka oshirib guvohnomalarga ega bo'ldilar. Ammo ularning soni va shaxsiy ma'lumotlari haqida rasmiy statistika mavjud emas, mavjudlari ham ochiq holda taqdim qilinmaydi. Ushbu inspektorlarga tekshirish va majburlash vakolati yuklatilgan bo'lib, ular faoliyatida ma'muriy jarimalar miqdori huquqbuzarliklarning oldini olish uchun juda past. Ammo qoidabuzarlikdan iqtisodiy foyda juda yuqori. Masalan, yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi ko'p holatlarda bu tashkillashtirilgan biznes faoliyati bo'lib, xalqaro uyushgan jinoyatchilik hisoblanadi. Ammo bunda sanksiya miqdori jismoniy shaxslar uchun enh kam oylik ish haqqining 0.3 – 1.0 baravarigacha, yuridik shaxslar uchun 1-3 baravarigacha miqdordagi jarima miqdorida qilib belgilangan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sohaga oid ma'lumotlar vamuammolarni chuqur tahlil qilgan holda ekologik barqarorlikni ta'minlashning ijtimoiy – falsafiy jihati deb quyidagilarni belgilash mumkin:

-qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy, tijorat va ma'muriy-maishiy bino va inshootlarning energiya samaradorligini oshirish dasturlarini ishlab chiqishda aholining ijtimoiy demografik joylashuvi va iqlim holatini inobatga olish, tarixiy quruvchilik namunalardan foydalanish. Bunda inshootning inson organizmi uchun ekologik xavflilik darajasi kamayadi.

Ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish. Mamlakatdagi iqlim o'zgarishlari va demografik o'sishni inobatga olgan holda suvga chidamli, hosildor, hasharot va zararkunandalarga chidamli bo'lgan meva, o'simlik va sabzavot navlarini yaratish uchun olimlarga turli grantlar va ijtimoiy imtiyozlar belgilash kerak.

Aholini joylashtirishning bosh sxemasini ishlab chiqish. Renovatsiya va uy-joylar dasturlari asosida shaharlarda eskirgan uylar o'rniga energiya samaradorligiga ega bo'lgan. Yorug', ekologik toza mahsulotlardan uylar qurish. Uylar joylashuvida shahar landshafti va qishloq xo'jaligini muhofazalash chorasini qat'iy ko'rish.

Xalqaro maydonda atrof muhitga oid tashabbuslarni milliy qonunchilikka maqbul tomonlarini va loyixalarini o'zimizga ratifikatsiya qilish hamda tizimli bajarilish holatida ijro hokimiyati quyi bo'g'iniga ushbu loyixalar mohiyatini to'g'ri va maqsadli yetkazib bergan holatda yo'lga qo'yish

Atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, atrof muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz qilish, davlat ekologik nazoratini doimiy axborot bilan ta'minlash, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof muhitga ta'siri ustidan monitoringni amalga oshirishda eng jamoatchilik vakillarini jalb qilish.

ADABIYOTLAR

1. “2017 – 2022 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi” davlat dasturi. 7.01.2017 yil Xalq so'zi 7 son
2. “Davlat ishtirokidagi korxonalarini islox qilish va xususiylashtirishni jadallashtirish chora – tadbirlari to'g'risida” gi O'zbekiston respublikasi Prezidenti farmoni 2020 yil 27 oktyabr PF- 6096- son

3. I.Karimov “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” – T. O'zbekiston. 1997 yil, 19 b
4. Mamshokirov S. “Vahimami yoki haqiqat”. – T. “Iqtisod - moliya”, 2012 y. 28 b
5. Barqaror rivojlanish maqsadlari Geneva hisoboti. 2022 yil
6. O'.Tilabov “Global barqaror taraqqiyot tizimida ekologik partiyalar faoliyatini takomillashtirish strategiyasi”, - T. “Renesans”, 2020 y. 3,8,71,79,98 b
7. S.Mamshokirov, S.Usmonov “Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalari” – T.: Ma'naviyat,2008.250 b



Abdurrohmon BOYDADAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: a.boidadaev@yandex.com

TIUE professori, f.f.d. K.Saidova taqrizi asosida

**COMPARATIVE ANALYSIS OF PANTHEISTIC VIEWS IN EASTERN AND WESTERN IRRATIONAL PHILOSOPHY
(ON THE EXAMPLE OF THE VIEWS OF F.NIETZSCHE AND J.RUMIY)**

Annotation

In the article, the author analyzes pantheistic ideas in the irrational philosophy of the East and West from a comparative perspective, using the examples of Nietzsche's and J.Rumi's views. The author identifies similar approaches in the ideas of these great thinkers and, on this basis, defines similar concepts in the pantheisms of the East and West.

Key words: pantheism, irrationalism, mysticism, consciousness, will, spirit, enlightenment, East and West.

**SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING KOMPARATIVISTIK TAHLILI
(F.NITSSHE VA J.RUMIY QARASHLARI MISOLIDA)**

Annotsatsiya

Maqolada muallif Sharq va G'arb irratsionalizatsiya falsafasida panteistik g'oyalarni F.Nitshe va J.Rumi qarashlari misolida komparativistik nuqtai nazardan tahlil qilgan. Buyuk mutafakkirlarning qarashlarida o'xshash yondashuvlar mavjudligi va shu orqali Sharq va G'arb panteizmi bir-biriga yaqin g'oyalarni ilgari surganligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: panteizm, irratsionalizm, mistitsizm, ong, iroda, ruh, ma'rifat, Sharq va G'arb.

**КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ ПАНТЕИСТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ В ВОСТОЧНОЙ И ЗАПАДНОЙ
ИРРАЦИОНАЛЬНОЙ ФИЛОСОФИИ (НА ПРИМЕРЕ ВЗГЛЯДОВ Ф.НИЦШЕ И Ж.РУМИЙ)**

Аннотация

В статье автором с компаративистской точки зрения анализируются пантеистические идеи в иррациональной философии Востока и Запада на примере взглядов Ф.Ницше и Ж.Румий. Автор устанавливается наличие схожих подходов во взглядах великих мыслителей и на этой основе определяются близкие идеи в пантеизме Востока и Запада.

Ключевые слова: пантеизм, иррационализм, мистицизм, сознание, воля, дух, просвещение, Восток и Запад.

Kirish. Bugungi kunda globalizatsiya jarayonlari jadallashuvi Sharq va G'arb sivilizatsiya o'rtasida turli muammolarni vujudga keltirmoqda. Ushbu muammolarni hal qilishning yagona yo'li – madaniyatlararo muloqot. Shu munosabati bilan ijtimoiy-gumanitar sohadagi tadqiqotlar, jumladan falsafiy izlanishlar aynan madaniyatlararo tadqiqotlarga ko'proq qarab bormoqda. Falsafa fanida madaniyatlararo muloqot masalasini falsafiy komparativistika tadqiq etmoqda [1]. Sharq va G'arb falsafasining qiyosiy tahlili nafaqat farqlar, balki o'xshashliklarni aniqlash orqali madaniyatlararo muloqot uchun imkoniyatlarni belgilashga xizmat qiladi. Bunda Sharq va G'arb irratsional falsafasi turli madaniy va tarixiy kontekstlar zamonaviy jarayonlarga qanday ta'sir qilishini ochib beroladi. Masalan, G'arb falsafasida irratsionalizm Ma'rifatchilik davri va ratsionalizm falsafaga javob sifatida shakllangan bo'lsada, Sharq falsafasida irratsionalizm diniy va ma'naviy an'analar bilan qo'shilib ketgan. Bugungi ko'p qutbli dunyoda irratsionalizm falsafasining g'oyalarni o'rganish borliqni tushunishning yangi usullarini ochadi va shu bilan birga madaniy integratsiya va muloqot uchun fundament yaratadi. Zamonaviy global va lokal muammolar kompleks yondashuvni talab qiladi va irratsional falsafada mavjud g'oyalar ushbu muammolarni hal qilish uchun yangi samarali vositalarni yaratishga xizmat qiladi. Zero irratsional falsafa inson tajribasining chuqur elementlari bo'lgan intuitsiya va ekzistensial kechinmalarni ko'rib chiqadi. Ushbu jihatlarini Sharq va G'arb irratsionalizmida komparativistik nuqtai nazardan o'rganish inson tabiati va ma'naviy tajribani tushunilishini boyitishi mumkin. Mazkur maqolada biz Sharq va G'arb irratsionalizmida panteistik g'oyalarni buyuk mutafakkirlar F.Nitshe va J.Rumi misollarida ko'rib chiqamiz.

Adabiyotlar sharhi. Sharq va G'arb irratsional falsafasidagi F.Nitshe va J.Rumi panteistik qarashlarining komparativistik tadqiqi bilan A.Danto, F.Koplston, G.Skirbekk,

N.Gilye, I.Kondakov, Yu.Korj, I.Voytskaya, A.Smirnov, I.Blauberger, Yu.Podroga kabi xorijiy tadqiqotchilar shug'ullanib kelmoqda. Mamlakatimizda ushbu masala bo'yicha tadqiqotlarni S.Yo'ldoshev, V.Alimasov, Sh.Qahharov, U.Kerimov, R.Karimov, G.Ro'zmatova, G.Qobulniyozova, A.Pardayevlar olib borishmoqda. R.Karimov, G.Ro'zmatova va G.Qobulniyozovalarning tadqiqotlarida qo'yilgan masalaning aynan komparativistik o'rganilishi amalga oshirilmogda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik bazasini Sharq va G'arb irratsional falsafasining yirik vakillari bo'lgan F.Nitshe va J.Rumiylarning asarlari tashkil etadi. Aytib o'tilgan faylasuflarning asarlarini talqin qilish uchun germenevtik usuldan foydalanilgan. Ularning qarashlarini qiyoslash uchun komparativistik tahlil usuliga murojaat qilingan. Bundan tashqari, analiz va sintez, induktsiya va deduktsiya kabi usullar ham qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. 19 va 20 asr G'arbiy Evropaning irratsional faylasuflari qarashlarida Sharq faylasuflarining panteistik qarashlariga ko'p jihatdan o'xshash bo'lgan fikrlarni uchratish mumkin. Masalan, Nitshe va Rumiyning panteistik g'oyalari, iroda haqidagi fikrlari ko'p jihatdan o'xshashdir. G'arbiy Evropa falsafasining yirik namoyondalaridan biri bo'lgan F.Nitshe tasavvurida ajoyib ruhiy siymolar bilan bir katorda o'tkir tanqidiy nigoh ham uchraydi [2, 192]. U o'zidan avval o'tgan bir qator faylasuflarning asarlariga e'tiborini jalb etib, ularda uchraydigan qadriyat va tushunchalarni qayta baholaydi va ishlab chiqadi [3, 32]. Bu tushunchalarga F.Nitshe butunlay boshqa ma'nolar beradi va nemis falsafasining zaminida yotgan ko'pgina ratsional ta'limotlarni ostin-ustun qilib yubordi. Masalan, tafakkur tushunchasini F.Nitshe tanqid ostiga oladi va uning muqobili sifatida instinkt tushunchasini kiritadi. Bu tushunchaga, ya'ni instinkt tushunchasiga, Nitshe butunlay yangi ma'no beradi. Yevropa fani va falsafasida instinktlarni refleks deb hisoblab,

inson fiziologiyasining ongsiz hissiyotlari deb tushunishgan. Nitsche esa bu tushunchasiga mutlaq boshqa ma'no berdi. Uning tasavvurida instinktlar ruhiy energiya shakli bulib, insonning ongli va ongsiz faoliyatidagi iroda kuchini anglatadi.

Hukmronlikka intilish irodasi keng ma'noda ruhiy ijodiy quvvat sifatida tushunilib, ko'pgina so'fiylik ustozlarining diqqat e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Zotan, F.Nitsche «hukmronlikka intilish irodasi» ta'limotini nasroniylik dini va axloqiga qarshi qo'ygan bo'lsa, so'fiylik ustozlari din va axloqqa qarshi oppozitsiyada turmaganlar, aksincha, diniy va axloqiy ta'limotni eng yuksak axloqiy qadriyat sifatida qayta ishlab chiqdilar. Ular nufuzli shaxslarga Qur'oni karimni o'zgarimas, aqida sifatidagi talqiniga ko'r-ko'rona ishonchni inkor etdilar. So'fiylikda ko'r-ko'rona e'tiqod o'rniga ruhiy muhabbatni, birinchi navbatda xudoga nisbatan bo'lgan shiddatli muhabbatni ilgari suradilar. Bu muhabbatga so'fiylikning to'rtinchi darajasida erishiladi. Hukmronlikka intilish irodasi ruhiy muhabbatning darajalaridan biri hisoblanadi, bu o'z ehtirolari, emotsiyalari va fikrlari ustidan hukmron bo'lish darajasidir. Irodaning keyingi rivoji inson ruhiy energiyasini koinot energiyasi bilan qo'shilishiga olib keladi. Inson joni olamiy jon bilan qo'shiladi. Inson ruhiy kamolotining oxirgi bosqichini so'fiylar haqiqat deb ataydi. So'fiylar haqiqatni oddiy ratsional ongga qaraganda, butunlay o'zga ma'noda tushunadilar. Ratsionalizm haqiqat inson bilimining ob'ektiv xususiyatidir. So'fiylikda haqiqat insoq ruhiy energiyasining butun borliq ruhiy energiyasi bilan qo'shilishidir.

Iroda deb tushunilgan instinktlar insonning ongsiz va ongli faoliyat shakllarini boshqaradi va tafakkurni ongli ravishda sodir bo'ladigan intilish va maqsadlardan, majburiyatlardan farq qiladi. F.Nitsche ijodidagi iroda Rumiya tasavvuridagi irodaga o'xshab, koinotning har bir nuqtasida mavjuddir [4, 28]. Iroda kuchi – tabiatdagi xilma-xil harakatlar asosida yotuvchi ruhiy kuchdir. Bu kuch ham tabiatda, ham inson faoliyatida mavjud. Tabiatdagi iroda kuchi ongsiz bo'lib, u o'z-o'zini anglamaydi. U o'simliklar, hayvonlar harakatida, yer, suv va havoning o'zgarishida ham o'zini namoyish etadi.

J.Rumiyning ma'rifat haqidagi fikrlari F.Nitsshening «Zardo'sht tavallosi» asaridagi ustoz va shogird o'rtasidagi munosabatlar va ustoz tomonidan beriladigan bilimlarga o'xshaydi. Rumiya ham, Nitsshedda ham ma'rifat – bu ruhiy bilimlar bo'lib, faqat cheklangan doiradagi odamlarga beriladi. Bu ruhiy bilimlarni ustoz Rumiya hikmat deb ataydi va uni barcha odamlarga yetib borishi amri mahol deydi. Nitsche ham o'zining a'lo inson haqidagi ta'limotini faqat ruhiyat yo'lida o'z hayotini va fikr yuritishini shakllantiradigan insonlarga berilgan, deb hisoblaydi. Nitsche ruhiy rivojlanishning uch bosqichi, ya'ni tuya, sahradagi sher va bola timsollari J.Rumiyning inson ruhiy holatlarini tasvirlashdagi siymolarga o'xshab ketadi. Tasavvufda ham sabr-toqat tariqatning asosida yotgan ruhiy quvvatlardan biridir. Bundan keyingi bosqichda J.Rumiya o'lim oldidagi qo'rquvni yengish haqida gapirar ekan, u o'zining «Ichindagi ichinda» asarida yo'lovchi va sher haqidagi mushohadalarni keltiradi. Ruhiy izlanishlar yo'lidagi inson ko'p qiyinchiliklarni yengib, oxir-oqibat sher bilan uchrashishi zarur, lekin har kandy yo'lovchi ham bu uchrashuvga tayyor emas ekanligi ko'rsatiladi. Nitsshening «Zardo'sht tavallosi»da ham faqat komillikka erishgan ruhiy ustoz sher bilan to'qnashadi va uni o'ziga bo'ysundiradi. Zardo'sht atrofida doimo sherni uchratish mumkin, u Zardo'shtning g'orini qo'riqlaydi va unga yaqinlashgan barcha yo'lovchilarni vahimaga soladi. Faqatgina Zardo'shtning o'zi bu vahimadan xalosdir. Uning atrofidagi barcha tirik mavjudotlar: osmondagi burchuk, ilon, sher, kaptar, o'rmon, dengiz, shamol – bularning barchasi Zardo'sht bilan suhbatlashadi va uning mehridan bahra oladi.

J.Rumiyning asarlarida ham barcha tirik mavjudotlar komil inson bilan foildirlar. Dengiz, osmon, yer, suv, havo –

bularning barchasi ruhiy quvvatga ega. Bu quvvatni Rumiya ham, Nitsche ham iroda deb atashadi. Rumiya insonni – dahliz, olamni esa uy deb atadi. Uyg kirishdan oldin dahlizga kirmoq zarurdir. Koinotni, olamni bilishdan oldin inson o'zligini bilishi kerakdir. Butun koinot insonning ichki olamida mavjuddir. O'z ichki olamiga kira olgan inson uchun koinotning barcha sirlari ochiladi. Uyg'onish davri falsafasida aytilganidek, inson bu mikrokosmosdir [5, 18].

Irodani ruhiy quvvat sifatidagi ta'rifini Nitsche ham uziga xos tarzda talqin qiladi. Uningcha, ruhiy poklikka inson faqatgina nafsni tiyish orqali erisha oladi. Bu kuch, F.Nitsshening fikricha, iroda kuchi bo'lib, u tashqi muhitni ham o'zgartirib yuborishi mumkin [6, 352].

F.Nitsshening panteistik qarashlari tasavvuf ta'limotidagi panteizmga nihoyatda yaqin. Sharqda panteizm tushunchasi o'rniga uzoq o'tmishda hulul va ittihad tushunchasi ishlatilar edi. Bu tushuncha orqali sufiya mazhabidagilar Allohni barcha yerda zuhur etishini, uning xas va cho'pda, osmonu-erda tajalliy etishini ko'rsatishadi. Nitsche Alloh so'zini ishlatmasa ham, u tabiatning barcha ko'rinishlarida borliqning barcha nuqtalarida, zarrachalarida ruhiy quvvat sifatida iroda mavjud ekanligini ko'rsatib bergan [6, 359]. Uning bunday fikrlari o'z zamondoshlariga pardalangan shaklda ko'ringan va ular F.Nitsche ijodiga xos bo'lgan ruhiy erkinlik g'oyalari tub ma'nosiga yetib borisha olmagan. Bunga sabab bo'lgan omillardan biri F.Nitsche dunyoqarashiga xos bo'lgan nihoyatda o'tkir tanqidiy fikr yuritish uslubi edi. Tasavvuf ta'limotining ustozlarida bunday tanqidiy qarashlarni biz uchratmaymiz. Ular o'z ichki dunyoqarashini rivoyatlar, Qur'ondagi oyatlarga tegishli bo'lgan mulohazalar va go'zal badiiy timsollar orqali kitobxonga taqdim etishadi.

Ming afsuslar bo'lsinkim, qanchalik noyob iste'dodga ega bo'lsa ham F.Nitsche to'la ichki xotirjamlikka va fikr sokinligiga erisha olmadi. Bu muvozanatli holat, ko'pincha oddiy ongda befarqlik, beparvolik sifatida tushuniladi. Aslida esa, fikr sokinligi, inson xotirjamligi, mutanosiblik holati ichki ruhiy kuchni yuqori darajada jamlanishiga, hissiyot va emotsiyalarni inkor etmasdan, balki ruhiy energiya yig'indisining kuchayishiga olib keladi. Avvalgi falsafiy nazariyalar va ta'limotlar tomonidan ilgari surilgan ong imkoniyatlarini chegaralagandan ko'ra, aksincha, intuitiv ijodiy jarayonga o'z o'rnini bo'shatib berishi kerakdir. Bunda inson fikri bo'laklarga bo'lib tashlanmaydi, aksincha, hissiy-emotsional holatda inson ruhiyatini uyg'unlashtiradi. Demak, ruhiyat yagonaligini his etish uchun ratsional dunyoqarashdan voz kechish kerak. Ongsizlik ekstaz darajasiga ko'tarilishi lozim. Ekstaz holatida inson «ego»si parchalanib ketadi, ong holatida beqiyos kenglik yuz beradi. Bunday amaliyot falsafiy ta'limotlar tizimiga kirmaydi. Bunday holat turli yo'nalishdagi so'fiylar va yogalarning hayot tarzini ifodalaydi.

Xulosa. Shunday qilib, Nitsche va Rumiya ijodiga xos bulgan mistik, intuitiv tasavvurlarni ochib berishga harakat kildik. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin:

1. J.Rumiya qarashlarida sabr-toqat va iroda ruhiy kuch-quvvat hisoblangan va bu kuch-quvvat barcha tirik mavjudotlarga xosdir.
2. F.Nitsche tasavvurida ham iroda butun tabiatga xos bo'lgan ruhiy quvvat sifatida namoyon buladi.
3. Rumiya va Nitsshedda insonning ruhiy rivojlanish jarayoni sabr-toqat va iroda bosqichidan boshlanadi.
4. Rumiya va Nitsche iroda quvvatini inson ijodkorligi zaminida yotuvchi kuch deb hisoblashadi.
5. Insondagi ruhiy poklik, Rumiya va Nitsche fikricha, o'zining nafs va hirslarini iroda orqali tiyishdan boshlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov R., Ruzmatova G. Falsafiy komparativistika. – Toshkent: Universitet, 2021.
2. Кабулнязова Г.Т. Компаративный анализ представлений Джалаладдина Руми, Анри Бергсона и Шри Ауробиндо Гхоша об интуиции и духовной любви // Вопросы философии. – 2021. - №11– С. 188-197.

3. Каримов Р.Р., Бекбаев Р.Р. Прологомены к Восточному Ренессансу в дискурсе традиционализма Рене Генона // Journal of Central Asian Renaissance. – 2021. – Vol.1. – Issue 1. – В.29-36.
4. Румий Ж. Ичиндаги ичинда. –Тошкент: Ёзувчи, 1997.
5. Румий Ж. Маънавий-маънавий. – Тошкент: Техрон, 2003.
6. Ницше Ф. Воля к власти. – Минск, 1999.



UDK: 6П2.15.63 (575.1)

Xusniddin BURXANOV,
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD
E-mail: doktorant@mail.ru

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti, Sotsiologiya fanlari doktori A.Seitov taqrizi asosida

AXBOROT XAVFSIZLIGI NAZARIYALARIDA RAQAMLI JAMIYATNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация

Bugungi kundagi axborot xavfsizligi masalalari va raqamli jamiyat tushunchasi tahlil qilingan. Shu bilan birga buzg'unchi g'oyalar singdirilgan ma'lumot axborot texnologiyalari orqali katta tezlikda dunyoga tarqalib ketayotganligi o'rganilgan. Shuningdek, raqamli jamiyatda yoshlarning ijtimoiy qiziqishini o'zida mujassamlashtirgan saytlar rivojlanishi ochib berilgan. Axborot xavfsizligi nazariyalarida raqamli jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Mamlakatda axborot xavfsizligini ta'minlashga erishish yo'llari ko'rsatilgan. Bundan tashqari, Internet tarmog'idagi milliy segment saytlarini rivojlantirishga qaratilgan muammolarni o'rganishda ayni vaqtdagi nazariyalar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Internet, axborot xavfsizligi, axborot, ijtimoiy tarmoq, platforma, saytlar, milliy segment, raqamli jamiyat, raqamlashtirish, texnologiya, jamoatchilik fikri, jamoaviy xavfsizlik, g'oya.

ХАРАКТЕРИСТИКИ ЦИФРОВОГО ОБЩЕСТВА В ТЕОРИЯХ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация

Анализируются современные проблемы информационной безопасности и концепция цифрового общества. В то же время изучено, что информация, пропитанная деструктивными идеями, с огромной скоростью распространяется по миру посредством информационных технологий. Также выявлено развитие сайтов, воплощающих социальный интерес молодежи в цифровом обществе. Своеобразная специфика цифрового общества выделена в теориях информационной безопасности. Показаны пути достижения информационной безопасности в стране. Кроме того, при исследовании проблем, направленных на развитие сайтов национального сегмента в сети Интернет, были использованы нынешние теории.

Ключевые слова: Интернет, информационная безопасность, информация, социальная сеть, платформа, сайты, национальный сегмент, цифровое общество, цифровизация, технологии, общественное мнение, коллективная безопасность, идея.

CHARACTERISTICS OF THE DIGITAL SOCIETY IN INFORMATION SECURITY THEORIES

Annotation

Today's information security issues and the concept of digital society are analyzed. At the same time, it has been studied that the information infused with destructive ideas is spreading around the world at a great speed through information technology. Also, the development of sites that embody the social interest of young people in the digital society is revealed. The specific characteristics of the digital society are highlighted in the theories of information security. Ways to achieve information security in the country are shown. In addition, in the study of problems aimed at the development of national segment sites on the Internet, the theories at the same time were researched.

Key words: Internet, information security, information, social network, platform, sites, national segment, digital society, digitization, technology, public opinion, collective security, idea.

Kirish. Jamiyat va davlatning tadrijiy shakllanishi va uning rivojlanishi yoki tanazzulga yuz tutishi bevosita va bilvosita axborot xavfsizligiga bog'liq bo'lgan. Raqamli jamiyat rivojlanishi g'oyasining ommalashuviga sotsiolog nazariyotchi olimlarning "Kelajakdagi postindustrial jamiyat" nomli kitobi muhim metodologik manbalar qatoriga kiradi [1]. Tadqiqotda sotsiolog olim jamiyat rivojlanishini uch agrar, industriallashtirilgan va postindustriallashgan bosqichlarga ajratadi. Bunda postindustrial-lashgan bosqichda raqamlashgan jamiyatga o'tilishi isbotlanadi. Shuningdek, olimlar tomonidan axborot xavfsizligi tushunchasi texnologik va ijtimoiy jihatdan yondashilishi mumkin bo'lgan tushuncha sifatida izohlanadi [2] va axborot xavfsizligini ta'minlash texnologik yechimga ega ekanligi hamda ijtimoiy jihatdan ham axborot xavfsizligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligini axborot xavfsizligi bo'yicha nazariyalarda ko'rsatib o'tiladi [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sotsiolog olimlarning axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratgan nazariy mulohazalari turli yo'nalishlarda shakllangan. Bu borada axborot xavfsizligini jamoaviy xavfsizlik sifatida qarashlar mavjud. Ushbu masalada g'arb olimlari tomonidan jamoatchilikda raqamli jamiyatni kuchayib borayotganligi kabi omillar isbotlangan [4]. Shuningdek, bu yo'nalishda Sharq kishisi uchun individualizm hamisha halokat, jamoada uyg'unlashuv esa sokinlik va bexavotirlik omili

bo'lib kelgan. Jamoaviy xavfsizlikni ta'minlash ehtiyoji Sharqda qadimgi davrlardayoq davlatchilik tizimlarini tarkib toptirdi [5]. Jamoalar internet milliy segmentlarini yaratish orqali o'z xavfsizligini ta'minlashga qilgan harakatlarida ko'rinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda raqamli jamiyat sharoitida axborot xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Shuni hisobga olgan holda ushbu masalada tadqiqot olib borish bugungi kunda zaruratga aylanib bormoqda.

Aksariyat sotsiolog olimlar raqamli jamiyatning mazmuni, uning tadrijiy rivojlanish bosqichlari va taraqqiyotiga ilmiy baho berishda asosan uning texnologik infratuzilmasi elementlari, ya'ni aloqa tarmoqlari, ilmiy asoslangan ma'lumotlar, turli algoritmlar va platformalar yig'indisini hisobga olgan holda javob topishga harakat qilishmoqda. Bunda raqamli jamiyatni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni tartiblashtirishni idrok qilishda, uning mazmun-mohiyati texnologik infratuzilma elementlarining ishlashiga asoslangan tarmoqlashtirish, ma'lumotlarni tanlash, algoritmlash va platformalashtirish jarayonlariga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonlarning har biri ularning sotsiologik tavsifi nuqta nazaridan tavsiflanmoqda. Inson faoliyatiga axborot bosimi tendensiyalari kuchayib, Internet platformalarida ma'lumotlar bilan ishlaydigan algoritmlar va algoritmik

tizimlarning har tomonlama takomillashuvi "raqamli jamiyat" va "platformalar" majmuasi tushunchalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Boshqacha aytganda, raqamli jamiyat va davlatning yangi taraqqiyot bosqichi ijtimoiy jarayonlar o'zgarimoqda.

Tahlil va natijalar. Sohadagi o'zgarishlar sotsiolog tadqiqotchi V.Bek tomonidan "Zamonaviy dunyoning metamorfozlari" asarida yoritilgan. Uning fikricha, jamiyat tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda – odatiy mavjudlikning antropologik konstantalari va jahonda o'rnatilgan tushunchalarni buzadigan zarbaga olib keladigan metamorfozlaridir. Turli xil metamorfozlar, jumladan, raqamlarni tadqiq qilib, jamiyatning soni tizimi raqamlashgan aloqalarning tarqalishi, onlayn va oflayn makonlarning gibridlanishi va ma'lumotlar texnologiyalaridan samarali foydalanish natijasida yuzaga keladi, deb hisoblaydi [6]. Bizningcha, raqamli jamiyatdagi bunday strategik siljishlar natijasida ijtimoiy rivojlanish jarayoniga nisbatan turli o'zgartirishni talab qiladi. Bunda sotsiologik nazariyalar ana shunday yondashuvni maqullab, raqamli jamiyat butunlay vositachilikka aylanadi [7]. Bunda soha olimlari tomonidan raqamli jamiyatning rivojlanish tendensiyalarini sotsiologik nuqtai nazardan tavsiflanmoqda. Darhaqiqat, raqamli jamiyatning murakkab texnologik infratuzilmasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish natijasi, o'zaro chambarchas bog'langan turli elementlar to'plamidagi tartiblashtirishning mohiyatini ifodalaydi. Muayyan masalaning yechimi yoki jarayoniga ma'lum bir shaxs harakati yoki harakatsizligi bevosita ta'sir o'tkazish uchun mo'ljallangan ma'lumotni yig'ish, algoritmlash, platformalashtirish va tarqatish sotsiologik tahlil qilish asosida shakllanadi.

Bu borada avstraliyalik sotsiolog N.Selvin raqamli jamiyat mohiyati, uning shakllanish va rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etgani diqqatga sazovor. Mutaxassis muammoning yechimiga kompleks yondashib, hozirgi davrda keng tarqalgan va muhim ijtimoiy ta'sirga ega bo'lgan 4 ta texnologiyani mustaqil o'rganadi [8]. U asosiy e'tiborni tarmoq kommunikatsiyalari, ilmiy asoslangan yig'indisi shaklidagi ma'lumotlar texnologiyalari, algoritmlar va platformalar zaruriyatiga qaratgan. Uning fikriga qo'shilgan holda raqamlashtirishni tavsiflash uchun asos sifatida tarmoq, ma'lumotlar, algoritmlash va platformalashtirish jarayonlarini tahlil qilib, jumladan, zamonaviy raqamli jamiyatning asosiy xususiyatlarini yoritilgan. Ayni paytda raqamli jamiyatda inson omili va qadri masalasi ham e'tibordan chetda qolmagani dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Axborotlashgan jamiyat taraqqiyotida "raqamlashtirish" so'zi negizida "raqamli jamiyat" tushunchasi shunchalik odatiy holga aylandiki, ulardan maqsadli foydalanish jarayoni avj oldi. Biroq, bu tushunchalarning mohiyatini aniqlash juda murakkabligi tufayli ularning umumlashgan va barcha uchun maqbul talqini bugungi kunda ham mavjud emas. Ushbu atamalar kelib chiqishining etimologik jihatlilari o'rganilmay faqat uning ko'rinishi "son" tushunchasi o'zgarishi bilan bog'liqligi qayd etilgan [9]. Zamonaviy sotsiologik tadqiqotlarda "raqamli" tushunchasidan foydalanishda turli axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga ishora qilingan. "Raqamli" atamasi "analog" atamasidan farqli ravishda ta'riflanib, axborotni analog shakldan raqamli shaklga o'tkazish jarayoni "raqamlashtirish" deb izohlangan. Sotsiolog tadqiqotchilar ko'pincha "raqamlashtirish"ni inglizcha "digitization" yoki "digitalization" tushunchalari bilan almashtirishini kuzatish mumkin. Bunga sabab bu atama ingliz tilida o'xshash yozilishidir. Garchi o'xshashlikka qaramay, bu atamalarning ta'riflari juda jiddiy farqlarga ega. Agar birinchisi, ma'lumotlarni o'zgartirishning texnik jarayoniga taalluqli bo'lsa, ikkinchisi esa potensial raqamlashtirilishi mumkin bo'lgan kundalik hayotning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarning bevosita integratsiyasi bilan bog'liq [10].

Tadqiqotchi J.Urri raqamlashtirish hodisasini "raqamlashtirilgan" shaxsning faoliyati va harakatlarini kuzatish mumkin bo'lgan muhiti yaratish, juda muhim deb hisoblagan [11]. Sotsiologik nuqtai nazardan raqamlashtirish konsepsiyasining eng muhim tarkibiy qismi ijtimoiy hayotni tahlil qilish, ya'ni, raqamli texnologiyalar orqali individlarning bir-biri bilan o'zaro munosabati, ularning ijtimoiy pozitsiyasi,

dunyoqarashi o'zgarishi, mehnat va dam olish vaqti holati va hokazo [12]. Bu holat "raqamli", "ijtimoiy fakt" bo'lib, aslida raqamli texnologiyalar yangi ijtimoiy amaliyotlar va yangi ijtimoiy aloqa va o'zaro munosabatlarni rag'batlantiradi [13].

Jahondagi globalashuv jarayonida inson tafakkuriga axborot bosimi kuchayib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi natijasida insoniyatning internet tarmog'iga qaramlik darajasi ortib bormoqda. Shu bois, internet tarmog'i jamiyatdagi mustaqil va ijtimoiy qarashlarni shakllantirib, ommalashish jarayoniga bevosita ta'sir etmoqda. Ya'ni voqelik jarayonlari o'zgartirishida asosiy vositalardan biriga aylanmoqda. Bunda, Internetdan foydalanishning kengayishi, inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olib, shubhasiz global tarmoqda axborot almashinuviga xizmat qilmoqda. Natijada Internet tarmog'i insonlar uchun samarali aloqa vosita sifatida ular faoliyatining jadallashuviga sabab bo'ldi. Dunyoning barcha mamlakatlarida internet orqali e'lon qilinayotgan axborotdan foydalanuvchilar soni ortib bormoqda.

Raqamli jamiyatda internet tarmog'i saytlarini kengaytirishga bo'lgan ijtimoiy, talab va ehtiyojning keskin ortishi, individning qiziqish va intilishlarini ta'minlovchi virtual axborot makoni sifatida namoyon bo'ldi. Shuning uchun ham global tarmoqda turli xil, ya'ni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va diniy mazmundagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan saytlar soni ortib bormoqda. Bunday saytlarda shaxs faoliyati uchun zarur bo'lgan, uning ilmiy, kasbiy va ijtimoiy qiziqishini ta'minlaydigan axborot mavjud bo'ladi. Raqamli jamiyat davrida istiqomat qilayotgan shaxsning siyosiy, axloqiy va ma'naviy madaniyatini shakllantiruvchi va uni yo'naltiruvchi axborot majmui ham internet saytlarida o'z ifodasini topgan. Bunda yosh avlodning ijtimoiylashuvini ta'minlashga undaydigan ma'lumotlar to'plami, ya'ni muayyan fanlar bo'yicha dunyoviy bilimga ega bo'lish, hordiq chiqarish, mustaqil hayotni tashkil qilish, uning muammolarini hal qilishga undovchi axborot majmui internet tarmog'ida ijtimoiy saytlarga joylashtirilgan.

Internet tarmog'ida joylashtirilgan ma'lumotlarning asosiy foydalanuvchilari yoshlar ekanligi, unda taqdim etilayotgan tezkor aloqa imkoni yoshlar saytlarini jadallik bilan rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bunday kommunikativ imkoniyatlar yoshlarning Internet imkoniyatlariga ishonchini oshirib, ularni turli mamlakatlardagi hamkorlari, do'stlari, hamkasblari, qarindoshlari va izdoshlari bilan o'zaro ishonchli aloqa vositasi rolini bajardi. Shu bilan birga aksariyat yoshlar internet tarmog'ida o'z vaqtini o'tkazib, ba'zi salbiy axborotga uchrab, buzg'unchi g'oyalar singdirilgan saytlar ta'siriga tushib qolmoqda. Ayrim xorijiy davlatlarda zararli ta'sirga ega bo'lgan, yoshlar faoliyatidagi tajovuzkorlik, bosqinchilik, jinoyatchilik, giyohvandlik, buzg'unchilik, vayronkorlik mazmunidagi g'oyani tashviqot qiluvchi Internet saytlarining soni ortmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirda Internet tarmog'ida ma'naviy tuzuzlik va turli g'arazli maqsadlar orqali konstitutsiyaviy buzumga qarshi, demokratik jamiyat qurish talablarini inkor etishni targ'ib qiluvchi, tinch-osoyishta ijtimoiy, iqtisodiy turmushni buzishga undovchi faoliyat bilan shug'ullanayotgan turli saytlar faoliyat yuritmoqda.


Sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, raqamli jamiyat taraqqiyotini ta'minlash uchun xizmat qilayotgan mamlakatimiz yoshlari ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanishmoqda. Shu bois Internet tizimidagi ijtimoiy tarmoqlardagi maqolalar mazmunini, eng avvalo, sotsiolog olimlar tomonidan chuqur tahlil qilinishi; ikkinchidan, ularning mazmun-mohiyatini yoshlarga ta'sirini mustaqil o'rganilishi; uchinchidan, uning yo'nalishi, ya'ni qaysi ijtimoiy institut, guruhlariga mo'ljallanganini aniqlash; to'rtinchidan, uning tarqatilish mexanizmlari, hujumkorlik jihatlari ham e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli jamiyat rivojlanishi davrida ijtimoiy tarmoqlar texnik imkoniyatlarining jadalligi, undagi turli axborotga o'z vaqtda ega bo'lish uchun zarur bo'lgan tezkorlik, ma'lumotlar mazmuni, uning ifodalanishi bilan ajralib turishi, auditoriya ishonchini qozona olishidagi mantiqan tuzilishi bilan yoshlarni o'ziga jalb etib bormoqda. Ayniqsa, messengerlar («WhatsApp»,

«Telegram», «Viber» va boshqalar)ning yaratilishi yoshlar ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu messenjerlar orqali matnli xabarlar, ovozli signallar, rasmlar, vidno va audio mahsulotlarini yuborish mumkin. Shuningdek, ular orqali rasmlar chizish va o'yinlar o'ynash imkoniyati ham

mavjud.) veb-saytlar hozirgi virtual imkoniyatlar sharoitida jadal rivojlanmoqda.

Bu borada O'zbekiston ham o'z milliy saytlarini rivojlantirishga va dunyodan ortda qolmaslikka harakat qilmoqda. So'ngi yillarda milliy saytlar soni ko'payib bormoqda (1-diagramma).




1-diagramma. O'zbekistonda Internet milliy saytlarining o'sish tendensiyasi (dona) [14].

Ammo, raqamli jamiyatda bu o'sish ko'rsatqichlari yetali emas. Qolaversa, milliy saytlardan foydalanuvchilar soni va internet qamrovi ham chet el saytlaridan kam. Bu borada Qozog'iston ham O'zbekistondan o'tib ketgan.

Hozirda bu ko'rsatkich jami aholi va Internet tarmog'idan foydalanuvchilarni (2024 yil holat bo'yicha aholi 37 mln., Internet foydalanuvchilar soni 32 mln.) [15] hisobga olganda 86%ga teng

bo'lmoqda. Ushbu ko'rsatkichni hisoblashda matematik modul ishlab chiqildi va unga ko'ra, $X = (A/B \cdot 100)$ formulasidan foydalanildi (A- internet foydalanuvchilar soni, B - aholi soni, X – internet qamrovi). Qozog'istonda ushbu ko'rsatkich hisoblanganda (aholini Internet bilan qamrovi) 92%ga teng bo'lgan (2-diagramma).



2- diagramma. O'zbekiston va Qozog'istonda aholiga nisbatan Internet qamrovi. (2024 mln.)

Binobarin, chet el messenjerlardan foydalanishning qulayligi va arzonligi uning auditoriyasi sonining keskin ortishiga olib kelmoqda.

Xulosa va takliflar. Globallashtirish jarayoni kengayishi, raqamli jamiyat atributlarining kuchayishi sharoitida aholining Internetdagi saytlardan axborot olish va uni tarqatish hajmi ortib bormoqda. Bunday vaziyatdagi milliy segmentni rivojlantirishda uni mazmunan boyitib, yanada takomillashtirish uchun faoliyat yuritish, veb-saytlarni mamlakatimizdagi demokratik islohotlar mazmuniga mos axborot majmuasi bilan tizimli to'ldirib borish talab etilmoqda.

Xulosa qilib aytganda raqamli jamiyatda har qanday axborot, xususan, buzg'unchi g'oyalar singdirilgan ma'lumot axborot texnologiyalari orqali katta tezlikda dunyoga tarqalib, muayyan davlatda turli muammolarni, ijtimoiy ixtiloflarni keltirib

chiqarishi hech gap emas. Shu nuqtai nazardan raqamli jamiyatning bosh maqsadi har bir shaxsga ixtiyoriy holda, muayyan mazmundagi ma'lumotlar majmuiga ega bo'lish uchun huquqiy va ijtimoiy kafolatning ta'minlashdan iborat. Bugungi kunda raqamli jamiyatda yoshlarning ijtimoiy qiziqishini o'zida mujassamlashtirgan saytlar rivojlanib, ularga mo'ljallangan saytlar mazmuni va vazifalarini mamlakatimizda o'tkazilayotgan demokratik islohotlarga asoslangan axborot xavfsizligini ta'minlashga erishadi.

Bu borada taklif sifatida aytish mumkinki, raqamli jamiyatda yoshlarning ijtimoiy qiziqishini o'zida mujassamlashtirgan saytlarni rivojlantirishga katta e'tibor berish lozim. Shuningdek, ushbu saytlar mazmunini mamlakatimizda o'tkazilayotgan demokratik islohotlar bilan boyitishimiz lozim.

ADABIYOTLAR

1. Bell D. The Coming of Post-industrial Society. A Venture in Social Forecasting. N.Y., Basic Books, Inc., 1973. - P. 39-59.
2. Masuda Y. "The Information Society". Washinton. D.S., USA., 2020. - P. 165.
3. Hayashi Y. "Information Security Risk Managment". Conference. Publisher: IEEE., 2020. - P. 95.
4. Castells M. The Rise of the Network Society: The Information Age: Economy, Society and Culture: Vol. I. Malden, MA; Oxford, UK: Blackwell, 1996. - P 594.
5. Bekmurodov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya. Toshkent: "Yoshlar". 2020. - B 9.
6. Beck U. The Metamorphosis of the World: How Climate Change is Transforming Our Concept of the World. Cambridge, Malden: Polity, 2016. - P. 240.
7. Livingstone S. On the Mediation of Everything: ICA Presidential Address 2008 // Journal of Communication. 2009. No.1. - P. 1-18.

8. Selwyn N. What is Digital Sociology? Cambridge, UK: Polity Press, 2019. – P. 134.
9. Прончев Г.Б., Монъахов Д.Н. От цифры к цифровому обществу // Вопросы политологии. 2020. Т. 10. № 6 (58). - С. 1763–1771.
10. Brennen S., Digitalization and Digitization — Culture Digitally. Available at: World Internet Users, Cambridge: Polity Press, 2020. – P. 31-44.
11. Кравченко С.А., Словарь новейшей социологической лексики с английскими эквивалентами. - М.: МГИМО-Университет, 2019. – С. 154.
12. Gray J., Models for Digitalization // Software and Systems Modeling. 2015. Vol. 14. No.4. – P. 1319–1320.
13. Marres N. Digital Sociology: The Reinvention of Social Research. Cambridge: Polity Press, 2017. – P. 41.
14. “Uzinfocom” davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash markazi ma'lumotlari. Statistika.URL:<https://cctld.uz/stat>. 20.12.2023.
15. Statistika.URL: <http://www.uz> 04.05.2024.



UDK:101.

Behruz G'AFUROV,
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: behruz@mail.ru

Falsafa fanlari doktori I.Siddiqov taqrizi asosida

THE VIEWS OF OUR GREAT THINKERS ABOUT THE PERFECT GENERATION

Annotation

In this article, the upbringing of a well-rounded generation is a multifaceted task that requires comprehensive theoretical and methodological foundations. In this framework, there are spiritual, moral and ideological criteria necessary for holistic development. This study aims to shed light on the theoretical frameworks and methodological approaches needed to investigate these criteria in the context of educational systems.

Key words: Democracy, perfect personality, socialization, phenomenology, market economy.

МНЕНИЯ НАШИХ ВЕЛИКИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ОБ ИДЕАЛЬНОМ ПОКОЛЕНИИ

Аннотация

В данной статье воспитание всесторонне развитого поколения представляет собой многогранную задачу, требующую комплексного теоретического и методологического обоснования. В этих рамках существуют духовные, моральные и идеологические критерии, необходимые для целостного развития. Целью данного исследования является пролить свет на теоретические основы и методологические подходы, необходимые для изучения этих критериев в контексте образовательных систем.

Ключевые слова: Демократия, совершенная личность, социализация, феноменология, рыночная экономика.

BUYUK MUTAFAKKIR ALLOMALARIMIZNING BARKAMOL AVLOD HAQIDAGI QARASHLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada barkamol avlod tarbiyasi ko'p qirrali ish bo'lib, har tomonlama nazariy va uslubiy asoslarni talab qiladi. Bu doirada yaxlit rivojlanish uchun zarur bo'lgan ma'naviy-axloqiy va mafkuraviy mezonlar mavjud. Ushbu tadqiqot ta'lim tizimlari kontekstida ushbu mezonlarni tadqiq qilish uchun zarur bo'lgan nazariy asoslarni va uslubiy yondashuvlarni yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Demokratiya, komil shaxs, ijtimoiylashuv, fenomenologiya, iqtisodiyoti.

Kirish. Jahon madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz merosini e'zozlash va targ'ib qilish yoshlarda qadr-qimmat va tashabbuskorlik tuyg'usini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bebaho merosni chuqur o'rganish va keng targ'ib etishga qaratilgan mazmunli va ta'sirli loyihalarni amalga oshirish uning ahamiyatini yoritib, kelajak avlodlarga ilhom bag'ishlaydi. Amir Temur, Bobur Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk davlat arboblari, sarkardalarimiz ajdodlarimiz mardlik, adolatparvarlik, insonparvarlik, ilmiy izlanish namunalari bo'lgan. Bu rahbarlar nafaqat davlat boshqaruvida, balki harbiy jasoratda ham, yurt himoyachilarini tarbiyalash, ornomus va fidoyilik qadriyatlarini singdirishga ham ustuvor ahamiyat qaratgan. Xorazmiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Forobiy va Alisher Navoiylar: Bu alloma va mutafakkirlar matematika, astronomiya, tibbiyot, falsafa va adabiyot kabi turli sohalarga ulkan hissa qo'shib, insoniyat sivilizatsiyasini sezilarli darajada ravnaq toptirdilar.

Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband va Yassaviy: Bu ulamolar diniy ilmlar shon-shuhratini yoyishgan, ma'naviy va jismoniy kamolotga oid saboqlar berib, bugungi kunda ham yoshlar uchun dolzarb bo'lib kelmoqda. Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Mahmud Behbudiy, Usmon Nosir kabi ma'rifatparvarlar ijodi yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasiga, hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu yozuvchi va ziyolilar madaniy-ma'rifiy manzaraga, xalqimizning zamonaviy o'ziga xosligini shakllantirishga hissa qo'shgan. Sho'rolar davrida buyuk ajdodlarimizning bebaho madaniy-ma'naviy merosi ko'p hollarda noxolis talqin qilinib, xalqimiz, yoshlarimiz o'rtasida bu merosni idrok etishga ta'sir ko'rsatgan. Bizning jamoaviy ongimizda munosib o'rin egallash uchun ushbu merosni qayta tiklash va to'g'ri taqdim etish juda muhimdir. Ulug' ajdodlarimiz qoldirgan merosni e'zozlash, ularning hissasi va qadriyatlarini targ'ib etish yoshlarimizning ma'naviy-madaniy rivojlanishida

muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning yutuqlari va ta'limotlarini ta'kidlaydigan tashabbuslarni amalga oshirish orqali biz kelajak avlodlarni bu mukammallik va halollik merosini davom ettirishga ilhomlantirishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston bozor munosabatlariga to'la o'tayotgan davrda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining ahamiyati tobora o'sib borayotganligi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni eng dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yimoqda. Bozor munosabatlarida ham yuksak ma'naviyatli va axloq-odobli, iqtidorli, bilim saviyasi yuqori va chuqur, zukko, ishbilarmon, ishchan kishilar zarur. Qashshoq ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy sust, bilim saviyasi yuzaki va past, ishning ko'zini bilmaydigan kishilar bozor munosabatlarida ko'zlangan maqsadga erisholmaydilar. Bundan xulosa shuki, hech ikkilanmay va kechiktirmasdan ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalasi haqida o'ylash, uni to'g'ri yo'lga solish vazifasi kelib chiqadi. Bunda biz ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" degan o'gitiga amal qilishimiz kerak. "Har bir jamiyatda va har bir bosqichda insonlar farovon yashash uchun intiladilar, izlanadilar, yangi-yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradilar. O'zbekistonda qurilayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida bozorni mustahkamlovchi qudratli mexanizmining yaratilishi lozim bo'ladi".

Buyuk ajdodlarimiz ilm-fanning qaysi sohasi bilan shug'ullanmasinlar inson ma'naviyatini shakllantirishga, ta'lim tarbiya masalalariga alohida e'tibor berganlar. Jumladan, Forobiyning "Fozil odamlar shahri", "Baxt saodatga erishuv haqida", Ibn Sinoning "Qush risolasi", Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kabi asarlar inson shaxsini, axloqiy tarbiyasini, ma'naviyatini shakllantirish muammosini tahlil etishga bag'ishlangan. Ma'naviy tarbiya bo'yicha yozgan pedagog Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy

guliston yoxud axloq" asarida inson axloqi xususida fikr bildirib, shunday deydi- "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir". Shuning uchun yurtboshimiz "yuqori malakali, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan, hozirgi kun talabalari asosida fikrlay oladigan yetuk kadrlarni tayyorlash ham ijtimoiy-siyosiy, ham iqtisodiy muammolarimizni hal etishning kaliti hisoblanadi[1].

Islom tafakkurida "komil shaxs" yoki "al-inson al-komil" tushunchasi tarix davomida turli islom ulamolari va tasavvuf olimlari tomonidan muhokama qilingan muhim falsafiy va ma'naviy g'oyadir. Bu tushuncha so'fiylik ta'limoti bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u ko'pincha insonning ma'naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishining timsolini ifodalaydi. "Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv doirasida talabalarda pedagogik faoliyatni shakllantirishning metodologik yo'nalishlari tushuniladi. Bunda bo'lajak o'qituvchilarda o'zaro aloqador bo'lgan tushunchalar va harakatlar tizimi tarkib toptiriladi. Bu jarayonda talaba shaxsining o'z-o'zini anglashi, o'z faoliyatini tarkib toptirishi va uni amaliyotga tatbiq etishi nazarda tutiladi. Shu asosda bo'lajak pedagogning o'zigagina xos bo'lgan betakror xususiyatlari shakllantiriladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida bir qator texnologiyalardan foydalanish imkoniyati mavjud. Shaxsni bir butun yaxlit tarzda rivojlantirish, o'quv harakatlari va layoqatlarini rivojlantirish, shaxsga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarning har birida o'ziga xos texnologiyalardan foydalanish mumkin"[2].

Muhtaram faylasuf va ilohiyot olimi Al-G'azzoliy so'fiylik va axloqqa oid asarlari orqali komil inson tushunchasiga hissa qo'shgan. G'azzoliy nazarida komil inson qalbi Allohdan boshqa hamma narsadan poklangan, Allohga to'la tavakkal va ma'naviy bilimga yega bo'lishi bilan ajralib turadi. U komil inson bo'lish yo'li sifatida ichki poklanish va axloqiy yuksaklikka urg'u bergan.

Mashhur shoir va mutasavvif Jaloliddin Rumiy ham o'zining she'riy va tasavvufiy asarlarida komil inson g'oyasiga to'xtalgan. Rumiy nuqtai nazari qalbnig Xudoga bo'lgan sayohatiga urg'u beradi, bu sevgi, sog'inish va nafsning ustunligini o'z ichiga oladi. Rumiy uchun komil inson ruhiy ishqni anglagan va Ilohiy bilan birlashgan insondir.

Islom maktabi nomi bilan mashhur bo'lgan islom falsafasi maktabining nufuzli faylasufi Mulla Sadra ruhning yevolyusiyasi va kamolotiga taalluqli substansial harakat g'oyasini ilgari surdi. Uning uchun komil inson ilm, yezgulik va ruhiy amaliyot orqali ilohiy huzur bilan birlikka yerishgan, jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirgan shaxsdir. Bu mutafakkirlar, jumladan, islom tafakkurida komil inson haqidagi talqinlarning boy gobelenini taqdim yetadilar. Konsepsiya Islomdagi inson tabiati, axloqi va ma'naviyati haqidagi munozaralarda hayotiy ahamiyatga yega bo'lib, insonning ilohiy fazilatlarini aks yettirish va chuqur ruhiy holatlarga yerishish imkoniyatlarini ta'kidlaydi. Inson ma'naviy yetukligi haqida gapirilganda buyuk ijodkor olim Ozod Sharafiddinov o'z saboqlarida shunday degan edi. "Hech qaerda hech qaysi insonlar jamiyati faqat moddiy manfaatlariga suyanibgina, faqat moddiy ehtiyojlarini qondiribgina hayot kechira olmaydi-inson hayotining saodatli bo'lmog'i uchun vijdon va imyon uning hayotida ustuvor bo'lmog'i kerak"[4].

Natijalar va muhokama. Jamiyatizda layoqatli, ishbilarmon, yetuk kadrlarga hamisha zarurat tug'ilgan. Insoniyat rivojining tarixi uning talablarini qondirish va mavjud muammolarni hal etishga qodir munosib kadrlarga ehtiyoj sezib kelganidan guvohlik beradi. Bu jamiyatning hozirgi taraqqiyot bosqichida ham dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Buning uchun kadrlar siyosati negizida ma'naviyat va ma'rifat, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borish talab etiladi. Komil inson deganda biz, avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan, bilimli kishilarni tushunamiz. Pedagog olimlari barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya nuqadar zarurligini, uning mohiyati va mazmunini asoslab berganlar. Maxmud Qoshgariyning «Devonu lug'otit turk», Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig», Axmad Yugnakiyning «Xi batul-xakoyik», Abu Raisoy Beruniyning

xikmatlari, ibn Sinoning «Tadbir al-manozil, Alisher Navoiyning «Maxbubul-qulub», Xusayn Voiz Koshifiyning «Axloqi muxsiniy» va boshqa asarlarida farzand ota-onaning baxti, uning to'g'ri tarbiyalanishi esa xammaning baxti, degan umumiy xulosa chiqariladi.

Inson barcha yaxshi fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan o'ziga xos, betakror va barkamol mavjudot - cheksiz mikrokosm sifatida ham, inson tabiatining norasoligi va buzuqligi tufayli halokatga mahkum bo'lgan tabiat xatosi sifatida ham, Xudo yaratgan banda sifatida ham, boshqa odamlar faoliyatining mahsuli sifatida ham talqin qilinadi. Sharq mutafakkurlaridan buyuk alloma Abu Ali ibn Sino o'zining barkamol shaxsni tarbiyalash g'oyasida musiqani asosiy vosita sifatida ta'riflaydi.

Insonni to'g'rilik, halollik, poklik, vatanparvarlik, ezigulik, yuksak axloqlilikka yo'llash ma'naviy barkamol inson - komil inson tushunchalarining mohiyati va mazmunini tashkil etadi. Hozirgi kunda bu masalaga birinchi darajali ahamiyat berishimizning boisi - iymoni, e'tiqodi, va ahloqiy fazilatlarini, ma'naviyati kuchli, milliy ma'suliyat tuyg'usi qalbida chuqur ildiz otgan ma'naviy barkamol fuqarolarga ega bo'lgan mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi. Ma'naviy barkamol insonlargina buyuk kelajakni yarata oladi.

Barkamol avlod tarbiyasi tushunchasi falsafiy, siyosiy, ma'no-mazmunga ega bo'lib, u siyosatning asosiy elementlari, avvalo siyosiy ijtimoiy institutlarda munosabatlar va jarayonlardagi tub islohotlarni o'z ichiga oladi. barkamol avlod uchun vatanparvarlik, yurtparvarlik zarur sifat ekanligini bilsak, avvalo ota - onalarni farzandlarning ko'z o'ngida o'z oilasi, mahallasi, shahri yoki qishlog'i, yurti qadriyatlariga sadoqatli, kasbida mukammal usta, istiqbolga ishongan, vatanparvar timsolida gavdalanitirishga, birinchi navbatda voyaga yetmagan farzandlar bilan ishlashga, ularni tarbiyalashga o'rgatishimiz, ushbu masalaga bag'ishlangan ommabop risola va qo'llanmalar yaratishimiz kerak.

Barkamol avlod - bu mavhum tushuncha bo'lib, kontekst, madaniyat va vaqtga qarab turli xil talqinlarga yega bo'lishi mumkin. Odatda, barkamol avlod ma'naviy va jismoniy fazilatlarini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan barkamollikning qandaydir standarti bilan bog'liq. Uyg'onish davri Sharq mutafakkirlari o'zlarining ta'lim va tarbiya to'g'risidagi asarlarida barkamol shaxsni shakllantirish muammosini ygr yuzida insonning baxtga erishuvi uchun shartsharoitlar yaratish to'g'risidagi g'oyalar bilan bog'liqlikligiga qaraganlar. Pedagogika tarixida al-Forobiyning fozil inson sifatlarini, bilimlarni olish yo'llari va uslublari haqidagi konsepsiyasi; al-Beruniyning kasbiy bilimlarni egallash uslublari haqidagi qarashlari; Ibn Sinoning aqliy, ma'naviy hamda jismoniy komillikka erishish haqidagi ta'limoti; al-Xorazmiyning ilmiy bilimlar, hayotiy muammolarni hal qilish yo'llari to'g'risidagi asarlari o'zining alohida o'miga ega. Jumladan, alXorazmiy shaxs sifatlarini shakllantirish va shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishda farming yuksak o'mini qayd etadi. U shaxsni kuzatish, tajribasnovlar o'tkazish, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga, aqliy sifatlarni rivojlantirishning boshqa vositalariga katta ahamiyat bergan. Bu to'g'ridagi fikrlarini u «Al jabr v-al muqobala» (Algebra), «Hisob al-hind» va boshqa asarlarida bayon qilgan[7].

Qadriyat asosini shakllantirish: Barkamol avlod tarbiyasi madaniy, ijtimoiy va tarixiy sharoitga qarab turlicha bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lum ideal va qadriyatlarga asoslanishi kerak. "Falsafiy ta'limotlariga tayanib ish ko'risla, tarbiya ta'sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi. Shu bois ularning ilmima'rifat, ta'lim-tarbiya sohasidagi fikr lari, axloqiy qarashlaridan mustaqil O'zbekiston istiqbolini mustahkamlash, yosh avlod axloqiy kamolotini shakllantirishda keng foydalanish maqsadga muvofiq". Shaxsning ma'lumotni tahlil qilishi, asosli qarorlar qabul qilishi va manipulyatsiya qilinmasligi uchun uning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. «Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatimizni safarbar etsak,

yurtimizda yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi»[8].

Xulosa. Sharq mutafakkirlari turli an'analar bo'yicha axloqiy rivojlanish, intellektual o'sish, ma'naviy ma'rifat, tabiat

va jamiyat bilan uyg'unlik uyg'unligini ta'kidlaydilar. Bu qarashlar hayotning barcha jabhalarida ezgulikka, donishmandlikka, mutanosiblikka intiladigan shaxslardan komil avlod paydo bo'ladi, degan g'oyaga yaqin keladi.

ADABIYOTLAR

1. Akramov A.A. Bo'lajak o'qituvchilar fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning o'rni, 2017, 4.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Yangi asr avlodi. ISBN: 978-9943-27-613-0. 2016 yil
3. O.Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. T.: "Sharq" nashriyoti, 2004. - 640 b
4. Sh.M. Mirziyoev. «Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar» mavzusidagi videoselektor yig'ilishidagi nutqi. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2019 yil 20 mart
5. Тешабоев М. М. Формирование основ нравственной культуры личности в образовательном процессе и гуманистическое мировоззрение //Credo new. – 2011. – №. 1. – С. 19-19.
6. Тешабоев М. М. Жамиятда ижтимоий адолатни таъминлашнинг принципиал масалалари ва фалсафий-хуқуқий муаммолари// Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 23. – С. 504-514.
7. Тешабоев М. Моральная культура личности как фактор устойчивого развития общества //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 6. – С. 85-87.
8. Marifovich T. M. Impact of Globalization on Human And Social Culture //International Journal of Scientific Research And Education. – 2019. – Т. 7. – №.4



Durdona GAFFOROVA,
University of Business and Science o'qituvchisi
Gulhayo G'ULOMJONOVA,
University of Business and Science o'qituvchisi

F.f.d., dotsent S.Zokirova taqrizi asosida

TEACHING ENGLISH LANGUAGE WITH RATIONAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY SCHOOL AND ROLE OF DIGITAL TOOLS

Аннотация

This article presents a study on the effectiveness and role of using rational technologies in teaching the English language in primary schools. The research findings highlight the impact of digital tools in enhancing students' motivation and making the learning process engaging and dynamic. The study emphasizes the promotion of collaboration among students, the utilization of language in practical contexts, and the opportunities for students' growth. The article showcases the significance and effectiveness of technology-integrated language learning at the initial stage of education.

Key words: Primary school, English language learning, rational technologies, motivation, digital tools, effectiveness.

ОБУЧЕНИЕ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ РАЦИОНАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ И РОЛИ ЦИФРОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ

Аннотация

В данной статье представлено исследование эффективности использования рациональных технологий при обучении английскому языку в начальной школе. Результаты исследования подчеркивают значимость цифровых инструментов в повышении мотивации учащихся и создании интересной и динамичной образовательной среды. Особое внимание уделяется поощрению сотрудничества среди учащихся, практическому использованию языка и созданию возможностей для развития учащихся. Статья демонстрирует важность и эффективность интеграции технологий в обучение языку на начальном этапе образования.

Ключевые слова: начальная школа, обучение английскому языку, технологии, мотивация, цифровые инструменты, эффективность.

BOSHLANG'ICH MAKTABDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI INGLIZ TILINI O'RGANISH VA RAQAMLI VOSITALARNING ROLI BO'YICHA TADQIQOT

Аннотация

Bu maqola boshlang'ich maktabda ingliz tilini o'rganish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi va raqamli vositalarning roli bo'yicha tadqiqotni taqdim etadi. Tadqiqot natijalari o'quvchilarning motivatsiyalarini oshirishda va o'rganish jarayonini qiziqarli va dinamik qilishda raqamli vositalarning o'rnini ko'rsatdi. Ushbu tadqiqot o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish, tilni amaliyotda ishlatish va o'quvchilarning o'sishlarini oshirish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi. Maqola raqamli texnologiyalar bilan ta'minlangan o'rganishning boshlang'ich bosqichida ingliz tilini o'rganishning muhimligini va o'quvchilar uchun samaradorligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich maktab, ingliz tilini o'rganish, raqamli texnologiyalar, motivatsiya, raqamli vositalar, samaradorlik

Kirish. Ta'limning doimiy rivojlanayotgan muloqot muhitida raqamli texnologiyalar integratsiyasi o'quvchilar orasida turli tillarni o'rganishni yanada rivojlantirishda ahamiyatga ega bo'lgan ahamiyatga ega bo'lgan bo'ldi. Bu maqola, raqamli texnologiyalarining leksik ko'maklashni rivojlantirishga o'z ta'sirini tadqiq etadi va ingliz tilining o'qitishida qaratilgan bo'lib, o'ziga xos metodlarga kirishadi, olishgan natijalarni taqdim etadi, muzakiralar bilan muloqot qiladi va nihoyatda leksik ko'maklashda raqamli vositalarning samaradorligi haqida xulosa qiladi.

Boshlang'ich maktablarda ingliz tilini o'rgatishda ratsional texnologiyalar va raqamli vositalar integratsiyasi tufayli sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Raqamli savodxonlik an'anaviy savodxonlik kabi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan davrda ta'limda texnologiyadan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Innovatsion o'qitish usullari bilan qo'llab-quvvatlangan ingliz tili ko'nikmalarini erta joriy etish talabalarning kelajakdagi akademik va kasbiy muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratishi mumkin.

Ta'lim sharoitlarida strategik va optimallashtirilgan qo'llanilishi bilan ajralib turadigan ratsional texnologiyalar til o'rganish jarayonida ko'plab afzalliklarni taqdim etadi. Ushbu texnologiyalar o'rganishni yanada samaraliroq, qiziqarli va

qulayroq qilish uchun mo'ljallangan bir qator vositalar va usullarni o'z ichiga oladi. Talabalar shakllanish davrida bo'lgan boshlang'ich ta'lim kontekstida raqamli vositalardan to'g'ri foydalanish o'rganish tajribasini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda raqamli vositalar va oqilona texnologiyalarning rolini o'rganadi. U ushbu texnologiyalarning turli o'lchovlarini, jumladan, ularning afzalliklari, muammolari va samarali integratsiya uchun eng yaxshi amaliyotlarini o'rganadi. Muhokama qiziqarli va samarali ta'lim muhitini yaratish uchun an'anaviy pedagogik usullarni innovatsion raqamli yechimlar bilan birlashtirgan muvozanatli yondashuv zarurligiga urg'u beradi.

Ushbu tadqiqotning ahamiyati uning o'qituvchilar, siyosatchilar va manfaatdor tomonlarni til ta'limida texnologiyalardan optimal foydalanish haqida xabardor qilish salohiyatidir. Raqamli vositalar bilan bog'liq afzalliklar va muammolarni tushunib, o'qituvchilar o'zlarining o'qitish amaliyotlarini yaxshilaydigan va talabalar natijalarini yaxshilaydigan ongli qarorlar qabul qilishlari mumkin.

Mavzuni chuqurroq o'rganar ekanmiz, biz dinamik va interaktiv o'quv muhitini yaratish uchun interaktiv dasturiy

ta'minot, multimedia resurslari va onlayn platformalardan qanday foydalanish mumkinligini ko'rib chiqamiz. Bundan tashqari, biz o'qituvchilarning ushbu texnologiyalarni o'z sinflariga samarali integratsiya qilish uchun jihozlanishini ta'minlash uchun ularning doimiy kasbiy rivojlanishining muhim rolini ko'rib chiqamiz.

Ushbu jihatlarni o'rganish orqali ushbu maqola ratsional texnologiyalar va raqamli vositalar boshlang'ich maktablarda ingliz tilini o'qitishni qanday o'zgartirishi va pirovardida yosh o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shishi haqida har tomonlama tushuncha berishga qaratilgan.

Usullar. Ushbu tadqiqotdagi birinchi bosqich o'quvchilarni mahalliy ta'lim muassasidan jiddiy tanlov bilan tanlashni talab qildi. Stratifikatsiyalangan tanlash usuli tilning turli darajadagi malakalarini ifodalovchi talabalar orasida tarqalishni ta'minlash uchun qo'llanildi. Qatnashchilar turli sifatdagi o'quvchi darajalari va asosiyliklardan tanlandi va demografiklar bo'yicha leksik ko'maklashga raqamli texnologiyalar ta'siri haqida umumiy tushunchani berish uchun o'quvchilarning keng ko'lamli tushunishini ta'minlash maqsadida har xil sinflardan va qatnashchilardan olinishdi.

Leksik ko'maklashni rivojlantirish uchun ko'plik tomondan olingan tashqi ko'rishlar tartibini qo'llagan bo'limli usul tanlandi. O'quvchilar uchun o'quv jarayonini qiziqarli va dinamik qilish uchun o'qish dasturlari, ularning o'yinlardan foydalanilgan va interaktiv imkoniyatlari bilan mashhur bo'lgan til o'rganish dasturlari kiritildi. Qo'llanilgan raqamli vositalarni tanlashda, ularning tilni o'rganishda ishonchli bo'lishi va dars rejaları bilan mos kelishi hisobga olingan. Tahlilga o'z-o'zini o'rganish va jamoa o'rganish talablari bo'yicha ehtiyojlariga javob beradigan vositalar tanlashga xususiy e'tibor berildi, leksik rivojlanishga barcha tomonlama yaqinlashishni ta'minlash.

Tadqiqotning bir yil davomida bo'ldi va bu davr leksik ko'maklashning rivojlanishining uzunligini uzluksiz ravishda ko'rish imkonini berdi. Ushbu vaqtni tanlashning maqsadi raqamli texnologiyalar bilan tanishning boshlang'ich fazalaridan tashqari o'quv jarayoni nuanslarini, o'quvchilarning o'sishida o'zgarishlar va farqlanishlarini aniqlash imkonini berdi. Semestr davri, tanishning muvaffaqiyatining holistik ko'rinishini taqdim etdi, adaptatsiya davrlarini, o'rganish va o'quvchilarning ilgari surishga yo'l qo'yimoq imkonini ham hisobga olgan holda o'ziga xos.

Natija. O'quvchilar leksik ko'maklashdagi o'zgarishlarni o'lchash uchun oldindan va keyinchalik baholash testlarini o'tkazish orqali natijalar olingdi. Baholashlar o'quvchilarning ingliz tilini o'rganish jarayonidagi o'sishlarini, o'rganishlarini va farqlanishlarini aniqlashga yordam berdi. Semestrlik tadqiqot o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatning holistik tasvirlanishini

taqdim etdi, o'rgangan amallar, o'quvchilar va tarbiyalash davom etish imkoniyatlarini ham o'z ichiga oladi.

Muhokama. Natijalar o'quvchilarning raqamli texnologiyalar orqali ingliz tilini o'rganishda katta o'sish ko'rsatdi. Raqamli vositalar o'quvchilarga motivatsiya berdi va o'rganish jarayonini qiziqarli va dinamik qildi. O'quvchilar o'quv jarayonida qo'llanilgan raqamli dasturlar va o'yinlar yordamida tilni amaliyotda samarali ishlatishni o'rganishdi. Ular o'zlarini ishonchli his etdilar va dars rejaları bilan mos kelishdi. Barcha o'quvchilar va guruh o'rganish talablari diqqatga olingan holda raqamli vositalar tanlandi, bu esa leksik rivojlanishni to'liq ta'minlashga olib kelishi bilan natijalanishdi.

Tahlil. Tahlil o'quvchilarning raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'rganishda qo'llangan usullar va olingan natijalar haqida keng ko'lamli ma'lumotlar taqdim etdi. Ushbu tadqiqotda raqamli vositalarining leksik ko'maklashning rivojlanishiga ta'siri haqida tafsilotlar keltirildi, xususan ingliz tilini o'rganishni ta'minlashda ularning samaradorligi haqida xulosa chiqarildi. Muhokama jarayonida o'quvchilar raqamli texnologiyalar bilan o'rganishning qulayliklarini, motivatsiyani oshirishni va o'quvchilar orasidagi hamkorlikni rag'batlantirishni baholadi. Raqamli vositalar o'quvchilarda o'zgarishlarni oshirishga, ularga o'zlarini ishonchli his etishga va ingliz tilini amaliyotda foydalanishga imkon berdi.

Asosiy natijalar ingliz tilini o'rganishning boshlang'ich bosqichida raqamli texnologiyalar va interaktiv o'yinlardan foydalanishning o'quvchilar uchun samarador bo'lishini tasdiqladi. Bu tadqiqot o'quvchilarning ingliz tilini o'rganish jarayonida motivatsiyalarini oshirish va o'quvning qiziqishlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan raqamli vositalarning o'rnini ko'rsatdi. O'quvchilar raqamli dasturlar va o'yinlar orqali tilni amaliyotda qo'llashni o'rganish orqali o'zlarini ishonchli his etishdi. Bu esa o'quvchi faoliyatini qiziqarli va samarador qildi va ularga o'quvning jarayonida yordam berdi.

Tahlil o'quvchilar tomonidan raqamli texnologiyalar va interaktiv usullardan foydalanishning ingliz tilini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan foydalarini va natijalarini baholadi. Bu tadqiqotda raqamli vositalarning til o'rganishning rivojlanishiga ta'siri va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirishdagi roli haqida boshqalar bilan muhokama olib borildi. O'quvchilar raqamli texnologiyalar orqali o'rganishning qulayliklarini, motivatsiya va ishonchlarini oshirishni baholadi. Raqamli vositalar o'quvchilarda o'zgarishlarni oshirishga, ularga o'quvning jarayonida samarador bo'lishga va tilni amaliyotda qo'llashga imkon berdi.

REFERENCES

1. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching*. Cambridge University Press.
2. Schmitt, N., & Schmitt, D. (2014). *Focus on vocabulary: Mastering the academic word list*. Pearson Education.
3. Жураева М. «Обзор методичек и пособий по преподаванию языкознания и литературы до 2000» //Boshlang 'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya. – 2023. – С. 331-333.
4. Журазода М.И «Методологические основы универсальных учебных действий.» (2024). Retrieved 2 April 2024, from <https://research-edu.com/index.php/conf1/article/view/62>
5. Godwin-Jones, R. (2018). Mobile apps for language learning. *Language Learning & Technology*, 22(3), 3-17.
6. Atkins, B. T., & Varantola, K. (1997). Monitoring and assessing dictionary use: A study of dictionary use by university language students during reading. *The Modern Language Journal*, 81(2), 192-204.
7. Jurazoda M.I. UNIVERSAL EDUCATIONAL ACTIONS: A MODERN APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' COGNITIVE ABILITIES. *CRJP* 2024, 5, 41-45. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-05-08>
8. Laufer, B., & Hulstijn, J. (2001). Incidental vocabulary acquisition in a second language: The construct of task-induced involvement. *Applied Linguistics*, 22(1), 1-26.



Muxayya DJUMANIYAZOVA,
UrDU Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti
E-mail: muhayyo@list.ru

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti F.Eshnazarova taqrizi asosida

TALABALAR O'QUV MOTIVATSIYANI EMPERIK JIHATDAN O'RGANILISHI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim muassasalarida talabalarning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshirishning ilmiy asoslarini ochib beriladi. Tadqiqot o'quv jarayonida talabalar motivatsiyasining o'sishini ta'minlovchi asosiy omillar va metodlarni aniqlashga qaratilgan. Tahlil qilingan ma'lumotlar asosida talabalarning darslarga qatnashish istagini kuchaytiruvchi pedagogik usullar va yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Talabalar motivatsiyasi, empirik tadqiqot, o'quv jarayoni, pedagogik usullar, ta'lim metodologiyasi, motivatsiya oshirish omillari.

ИЗУЧЕНИЕ МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ С ЭМПИРИЧЕСКОЙ ТОЧКИ ЗРЕНИЯ

Аннотация

В статье раскрываются научные основы повышения интереса студентов к образовательной деятельности в образовательных учреждениях. Исследование направлено на выявление основных факторов и методов, обеспечивающих рост мотивации студентов в образовательном процессе. На основе проанализированных данных разработаны педагогические методы и подходы, позволяющие повысить желание учащихся посещать занятия.

Ключевые слова: Мотивация учащихся, эмпирическое исследование, образовательный процесс, педагогические методы, методика обучения, мотивационные факторы.

STUDY OF STUDENT STUDY MOTIVATION FROM THE EMPIRICAL POINT OF VIEW

Annotation

The article reveals the scientific basis of increasing students' interest in educational activities in educational institutions. The research is aimed at identifying the main factors and methods that ensure the growth of student motivation in the educational process. Based on the analyzed data, pedagogical methods and approaches have been developed to increase students' desire to attend classes.

Keywords: student motivation, empirical research, educational process, pedagogical methods, educational methodology, motivational factors.

Kirish. Bugungi kunda, pedagogik psixologiya fanida o'quv motivatsiyasi muammosi eng muhim muammolardan biri sifatida tan olingan. O'quv motivatsiyasi ta'lim faoliyatining asosiy maqsadlariga muvaffaqiyatli erishishning asosiy omili sifatida qaraladi. Ta'lim faoliyati tizimi va o'quv jarayonini yagona tashkiliy shablonlarga muvofiq qurish amaliyotda o'quvchi shaxsining individual psixologik xususiyatlariga etarlicha yo'naltirilgan emas, tashqi omil sifatida o'qitish shaklining ichki omillar bilan aloqasi juda kam hisobga olinadi. Zero, talabaning faolligini belgilovchi va uning faoliyatini rivojlantiruvchi omil - ta'lim (o'quv) motivatsiyasi xisoblanadi. Milliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ko'plab islohotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vaziyatdagi har qanday o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar har gal jamiyatning yangi ehtiyojlaridan kelib chiqib, pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Hozirda ta'lim maqsadlari o'zgarimda - bilim olishdan shaxsni rivojlantirish, o'z-o'zini rivojlantirish texnologiyalarini o'zlashtirish nazarda tutilmoqda. Shuningdek, muammoli vaziyatlarda nostandart qarorlar qabul qilish qobiliyati, shaxsiy yo'nalishlarni shakllantirish, o'zlashtirishga kreativ yondashuv, o'z-o'zini rivojlantirish va shaxsiy o'sish qobiliyati takomillashtrish bugungi kun talab va vazifasiga aylanmoqda. Shu munosabat bilan, pedagogik psixologiyada haqli ravishda asosiy masalalardan biri hisoblangan ta'lim faoliyati samaradorligini oshirish uchun motivatsiya muammosi yanada dolzarb bo'lib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. E.V.Karpova tomonidan ishlab chiqilgan o'quv faoliyati motivatsiyasining tuzilishi va genezisining yaxlit kontseptsiyasida, o'quv faoliyatida shaxsning motivatsion sohasi genezisining etakchi mexanizmi

"qo'shni" darajalarning darajalararo o'zaro ta'siri mexanizmi ekanligi aniqlangan [1]. O'quv faoliyatini o'zlashtirish jarayonida shaxsning motivatsion sohasi genezisining umumiy namunasi uning tizim genezisining barcha asosiy tamoyillariga bo'ysunishi - notekislik, geteroxroniya, integratsiya va differentsiatsiyaning kuchayishi, konsolidatsiya. O'quv faoliyatini o'zlashtirish jarayonida shaxsning motivatsion sohasi genezisining umumiy namunasi uning tizim genezisining barcha asosiy tamoyillariga bo'ysunishi - notekislik, geteroxroniya, integratsiya va differentsiatsiyaning kuchayishi, konsolidatsiya. Bu barcha qonuniyatlar va tamoyillar individual darajada emas, balki asosiy motivatsion quyi tizimlar darajasida eng aniq namoyon bo'ladi.

O'quv faoliyatini o'zlashtirish jarayonida motivatsion sohaning genezisi o'rnatilgan metatizim darajasiga ega tizimlarga tegishli bo'lganligi sababli ham bir qator o'ziga xos qonuniyatlarga ega ekanligi aniqlandi [2]. Motivatsion soha genezisida yetakchi rolni ontologik jihatdan o'z ichiga olgan metatizimlar - shaxs, faoliyat va ijtimoiy muhitning metatizimlari o'ynashi isbotlangan. Uchala metatizim ham nafaqat ijobiy, balki salbiy motivatsiya manbalaridir. Shu sababli, ta'lim faoliyatini o'zlashtirish jarayonida shaxsning motivatsion sohasining butun vujudga kelishi jarayoni ikki qarama-qarshi tendentsiyaning qarama-qarshi birligi - ijobiy va salbiy motivatsiyani shakllantirishga qaratilgan.

Ta'lim faoliyatida shaxsning motivatsion sohasi genezisi qonuniyatlari aniqlangan, ular umumiy va o'ziga xos genetik tizim qonuniyatlarni to'ldiradi. Bu, xususan, asosiy motivatsion quyi tizimlarning har birida sezgir davrning mavjudligi; motivatsion sohani tashkil etishning ko'plab qonuniyatlarining genetik nisbiyligi; motivatsion qonuniyatlar harakatida gender farqlarining mavjudligi kabilarni qamrab oladi.

Psixologiyada ta'lim faoliyati uchun motivatsiya muammosini o'rganar ekan, E.V.Karpova ta'lim faoliyati uchun motivatsiya muammosining hozirgi holatiga mehnat faoliyati uchun motivatsiya xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan maxsus yo'nalish ta'sir qilganligini ta'kidlaydi. Bu tadqiqotlar ham sof nazariy, ham amaliy xarakterga ega edi. Bu fakt faoliyatning asosiy turlaridan biri - mehnat motivatsiyasini boshqa ikkita - ta'lim va o'yin bilan solishtirganda o'rganishning aniq ustunligini ko'rsatadi. E.V.Karpova misol tariqasida "mehnat sarmoya kiritishlar nazariyasi"ni keltiradi. Unga ko'ra, inson o'z ishiga qanchalik ko'p kuch sarflasa, ya'ni unga qanchalik ko'p "sarmoya kiritisa", u shunchalik ko'p uni o'ziga tortadi va rag'batlantiradi, nafaqat uning natijalari, balki undan qoniqish ham o'sadi. Bu nazariyaning amaliy ahamiyati katta ahamiyatga ega. Bu biz ko'rib chiqayotgan o'quv faoliyati uchun motivatsiya muammosiga ham tegishli. Shuni ta'kidlash kerakki, E.V.Karpova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari ta'lim faoliyati motivatsiyasi psixologiyasi uchun muhim bo'lgan pozitsiyani tekshirish bo'lib, unga ko'ra undagi shaxsning motivatsion sohasi tarkibiy-darajali tamoyiliga asoslanadi va tabiiy ravishda tashkil etilgan darajalar to'plamining ierarxiyasini shakllantiradi.

Umuman olganda, quyidagilarni xulosa qilish mumkin. Birinchidan, barcha yirik psixologik nazariyalar xulq-atvor va faoliyat sabablarini, shu jumladan ta'limni tushunish manbalari edi; boshqasining katta murakkabligi va polimotivatsiyasini tushunish.

Ikkinchidan, o'quv faoliyati motivatsiyasini o'rganish uchun zarur shart-sharoitlar, birinchi navbatda, bixeviorizm, shuningdek qisman gumanistik va kognitiv psixologiyada shakllangan o'rganish nazariyalarida mavjud edi.

Adabiyot manbalarida "o'rganish motivi", "o'rganish uchun motivatsiya", "o'quv faoliyati motivatsiyasi" tushunchalariga nisbatan sezilarli darajada kamroq ta'riflar mavjud. Umumiy psixologik munozaralardan farqli o'laroq, bu masala bo'yicha keskin muhokamalar minimal darajaga tushiriladi. Demak, S.P. Manukyaning fikricha, ehtiyojlar bilim olish motivlari emas. Ta'lim faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biri - o'qituvchi javob beradigan ehtiyojning o'ziga xosligi - "o'rganish kognitiv ehtiyojni qondirishga qaratilgan".

O'quv faoliyatining motivlari deganda o'quv faoliyatining namoyon bo'lishini belgilovchi barcha omillar tushuniladi: ehtiyojlar, maqsadlar, munosabatlar, burch hissi, qiziqishlar va boshqalar. O'quv faoliyati motivatsiyasi o'quv faoliyatiga kiritilgan motivatsiyaning alohida turi hisoblanadi. Ko'pincha bu atama "kognitiv motivatsiya" tushunchasining sinonimi sifatida ishlatiladi.

Muhokama. Bizning fikrimizcha, motivlarni faqat ichki va tashqi turlarga bo'lish yetarli emas degan fikr qonuniydir. Tashqi motivlarning o'zi ijobiy (muvaqqat, yutuq motivlari) va salbiy (qochish, himoya qilish motivlari) bo'lishi mumkin. 1 jadval

T.I.Ilinaning universitetida o'qish motivatsiyasini o'rganish metodikasi natijalar tahlili (Mann Uitni mezon bo'yicha n=164)

Shkalalar	Talim shakli	N (soni)	O'rta rang	Ranglar summasi	U	p
Bilim olish	Kunduzgi	61	92,70	5655,00	2519,000	,034*
	Sirtqi	103	76,46	7875,00		
	Jami	164				
Kasb egallash	Kunduzgi	61	90,19	5501,50	2672,500	,107
	Sirtqi	103	77,95	8028,50		
	Jami	164				
Diplomga ega bo'lish	Kunduzgi	61	78,85	4810,00	2919,000	,446
	Sirtqi	103	84,66	8720,00		
	Jami	164				

Izoh: * p<0,05

T.I.Ilinaning universitetida o'qish motivatsiyasini o'rganish metodikasi natijalar tahliliga ko'ra bilimlarni o'zlashtirish shkalasi bo'yicha kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalar orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi (U=2519,000; p<0,05). Ushbu holat kunduzgi ta'limda o'qiyotgan talabalar bilim olishga intilish darajasi sirtqi ta'lim talabalariga nisbatan yuqori ekanligini ko'ramiz. Mazkur holat ta'lim jarayonining tashkil etilishi va kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar ko'proq vaqtini oliyhoga o'tkazishi, umrining ma'lum bir qismini o'qish faoliyati bilan mashg'ul bo'lishi bilan izohlanishi mumkin.

Demak, A.R.Mansurova ishida ta'lim motivatsiyasi turli xil rag'batlantirish - ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, ideallar, qiziqishlar, intilishlarni o'z ichiga oladi. "Tizimli ta'lim sifatida o'quv motivatsiyasi kengroq tizim bilan - shaxsiy motivatsiya bilan bog'liq". Muallifning fikricha, ta'lim motivatsiyasining markaziy tarkibiy qismi o'quvchilarni nafaqat bilimga, balki uni egallash usullariga yo'naltirishni o'z ichiga olgan ta'lim va kognitiv motivlardir.

Bugungi kunga kelib, umumiy psixologik tushunchadagi motivatsiya nafaqat murakkab, dinamik shakllanish, balki o'quv faoliyati motivatsiyasi ham shunga o'xshash, bundan kam bo'lmagan murakkab tashkil etilgan shakllanishdir, degan g'oya shakllangan. Adabiy manbalarni tahlil qilish va o'quv faoliyatining psixologik tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu faoliyat motivatsiyasining xususiyatlari ikkita asosiy toifaga birlashtirilgan. Bu uning uchun ham, umuman shaxsiyat tizimi uchun ham xos bo'lgan umumiy xususiyatlar; ta'lim faoliyatini rag'batlantirish uchun maxsus bo'lgan xususiyatlar, ammo ular shaxsning motivatsion tizimini tashkil etishning umumiy xususiyatlari bilan bog'liq va unga bog'liq. Binobarin, ta'lim faoliyati motivatsiyasi uning umumiy psixologik tushunchasida o'ziga xos turkib bo'lib, mazmuni va tuzilishining murakkabligi bilan tavsiflanadi va umuman, tizimli va juda o'ziga xos shaxs sifatida ishlaydi.

O'quv faoliyati uchun motivatsiya psixologiyasining kontseptual apparatini tahlil qilish zarur ko'rinadi, chunki u hozirgacha olingan natijalarni ko'rib chiqish va batafsil tavsiflashga yordam beradi[3]. Umuman motivatsiya psixologiyasida qo'llaniladigan kontseptual apparatni va xususan, o'quv faoliyati motivatsiyasini qisqacha tavsiflab, biz ta'lim faoliyati motivatsiyasining empirik va eksperimental tadqiqotlarini ko'rib chiqishga o'xtalib o'tishni zarur deb hisoblaymiz. Motivatsiya hodisasi tadqiqotchilar e'tiborini qadim zamonlardan beri o'ziga tortganini yuqorida aytib o'tgan edik. Filogenez jarayonida motivatsiyaning, jumladan, tarbiyaviy motivatsiyaning kelib chiqishi haqidagi nuqta nazar bir necha bor o'zgaraganligi va muayyan tarixiy davra fanning rivojlanish darajasiga bog'liqligi qayd etildi. Bizning ishimizning bir qismi sifatida, bu haqdagi g'oyalarni xronologik tartibda to'liq ko'rib chiqishga da'vo qilmasdan, biz o'rganish mavzusi bilan bevosita bog'liq bo'lgan eng muhimlarini ko'rib chiqamiz.

Metodlar tahlili. Biz talabalarining o'quv motivatsiyasiga ta'lim shaklining qay darajada ta'sir qilishini aniqlash uchun T.I.Ilinaning universitetida o'qish motivatsiyasini o'rganish metodikasini, Talabalarining o'quv motivlarini diagnostika qilish metodika (A.A.Rean va V.A.Yakunin, N.T.Badmaeva tomonidan tahrirlangan) larini Urganch davlat universitetining sirtqi va kunduzgi bo'limlarida tahsil oluvchi talabalarida o'tkazdik (1 va 2 jadval).

Kasbni egallash shkalasi bo'yicha aksincha, kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalar orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi (U=2672,500; p>0,05). Ya'ni har ikkala toifadagi o'qitish shaklida ham talaba kasbiy faoliyat nuqta nazardan nazariy bilim olib, amaliy ko'nikmalarni egallay olar ekan.

Diplom olish shkalasi natijalar tahlilida kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalar orasida ahamiyatli tafovutlar kuzatilmadi (U=2919,000; p>0,05). Oliy o'quv yurtida tahsil olayotgan talabalarining har birida, qaysi kursda o'qishidan qat'iy nazar diplom olish motivi bir xilda kuzatilar ekan.

2 jadval

Talabalarining o'quv motivlarini diagnostika qilish metodikasi (A.A.Rean va V.A.Yakunin, N.T.Badmaeva tomonidan tahrirlangan) natijalar tahlili (Mann Uitni mezon bo'yicha n=164)

Shkalalar	Talim shakli	N (soni)	O'rtacha rang	Ranglar summasi	U	p
Muloqot	Kunduzgi	61	92,18	5623,00	2551,000	.043*
	Sirtqi	103	76,77	7907,00		
	Jami	164				
Qochish	Kunduzgi	61	103,20	6295,00	1879,000	.000***
	Sirtqi	103	70,24	7235,00		
	Jami	164				
Obro'	Kunduzgi	61	86,34	5267,00	2907,000	.423
	Sirtqi	103	80,22	8263,00		
	Jami	164				
Kasbiy	Kunduzgi	61	80,07	4884,00	2993,000	.611
	Sirtqi	103	83,94	8646,00		
	Jami	164				
Ijodiy	Kunduzgi	61	72,02	4393,00	2502,000	.027*
	Sirtqi	103	88,71	9137,00		
	Jami	164				
Ta'lim	Kunduzgi	61	93,46	5701,00	2473,000	.023*
	Sirtqi	103	76,01	7829,00		
	Jami	164				
Ijtimoiy	Kunduzgi	61	88,34	5388,50	2785,500	.223
	Sirtqi	103	79,04	8141,50		
	Jami	164				

Izoh: * p<0,05; *** p<0,001

Talabalarining o'quv motivlarini diagnostika qilish metodikasi natijalarini tahlil qilish davomida muloqot shkalasi bo'yicha kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalarida ishonch darajasidagi tafovutlarni kuzatildi (U=2551,000; p<0,05). Muloqot motivlari kunduzgi ta'limda tahsil olayotgan talabalarda sirtqi ta'lim shaklida o'qiyotgan talabalarga qaraganda yuqori bo'lar ekan. Bunda asosan kunduzgi ta'limda talabalarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlashga, birgalikda muloqot qilishga vaqt omilining yetarlicha bo'lishi sabab bo'la oladi. Shuningdek, qochish motivi shkalasi bo'yicha ham kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalarida ishonch darajasidagi tafovutlarni kuzatildi (U=1879,000; p<0,001). Sirtqi ta'lim talabalarining kunduzgi ta'lim talabalaridagi kabi o'quv materialini o'zlashtirish va jamoaviy hamkorlik uchun vaqtning yetishmasligi qochish motivini pasaytiruvchi omil bo'lib xizmat qilgan ekan.

Obro'ga ega bo'lish motivi shkalasi bo'yicha kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalarida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi (U=2907,000; p>0,05). Chunki ikkala ta'lim shaklida ham sinalluvchilar talaba maqomiga birdek loyiq bo'ladi. Bu esa kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalarida bir xil obro'ga ega bo'lishi bilan izohlanadi. Kasbiy motivlar shkalasi bo'yicha ham kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalarida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi (U=2993,000; p>0,05). kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalarida o'qitish shaklidan qat'iy nazar, kasbiy ko'nikmalarni birdek egallaydilar. Bunga isbot sifatida yuqorida tahlil qilingan T.I.Ilinaning universitetda o'qish motivatsiyasini o'rganish metodikasi natijalar tahlilini ham keltirishimiz mumkin.

Ijodiy motivlar shkalasi bo'yicha kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalarida ahamiyatli tafovutlar kuzatildi (U=2502,000; p<0,05). Unga ko'ra sirtqi ta'lim talabalarida kunduzgi ta'lim talabalariga qaraganda ijodiy motivlar yuqori darajada bo'lar ekan. Mazkur holat ularda ijod erkinligi uchun vaqt chegaralanmaganligi, o'qitish shaklida mustaqil izlanishni talab qiluvchi mustaqil ta'lim soatlarining ko'pligi, nazariya va amaliyot birligi mavjudligi bilan izohlanadi.

Ta'lim motivi shkalasi bo'yicha kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalarida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi (U=2473,000; p<0,05). Kunduzgi ta'limda tahsil olayotgan talabalarda sirtqi ta'lim talabalariga nisbatan ta'lim motivi yuqori

bo'lar ekan. Kunduzgi ta'lim shakli talabalarida ta'lim jarayoniga butun o'quv yili davomida moslashadilar. Ushbu moslashish xususiyati ularda ta'lim motivlarining oshishiga xizmat qiluvchi omil bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy motivlar shkalasi bo'yicha kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalarida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi (U=2785,500; p>0,05). Har ikkala ta'lim shaklida ham sinalluvchilar o'zaro munosabatga kirishadilar. Bu esa kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalarida birdek ijtimoiylashishga intilishi bilan izohlanadi.

Xulosa. Nazariy va amaliy tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga ega bo'ldik:

1. O'quv motivatsiyasi samaradorligi bir qator omillar bilan belgilanadi: ta'lim tizimining tabiati, pedagogik jarayonning tashkil etilishi, o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari, o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlari, talabani o'ziga xos xususiyatlari (jinsi, yoshi, o'zlashtirish darajasi, intellektual rivojlanish va qobiliyatlar, qadriyatlar yo'nalganligi, o'z-o'zini hurmat qilish va boshqalar).

2. Motivatsiya shaxsning holatlari va munosabatlarini o'zgartirish jarayoni sifatida motivlarga asoslanadi, ular o'ziga xos motivlar, shaxsni harakat va harakatlarni bajarishga majbur qiladigan sabablar deb tushuniladi. Motivlarning roli ehtiyojlar va qiziqishlar, intilishlar va his-tuyg'ular, munosabat va ideallar o'rtasida o'zaro bog'liqdir. Shuning uchun motivlar juda murakkab shakllanishlar bo'lib, ularda muqobil variantlarni tahlil qilish va baholash, tanlash va qaror qabul qilish amalga oshiriladigan dinamik tizimlar mavjud.

3. Kunduzgi ta'limda o'qiyotgan talabalarining bilim olishga intilish darajasi sirtqi ta'lim talabalariga nisbatan yuqori. Lekin kasbni egallash va diplom olishga intilish motivlari kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalarida bir xil darajada.

4. Obro'ga ega bo'lish, kasbiy motivlar, ijtimoiy motivlar kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalarida bir xil darajada rivojlangan. Lekin ijodiy motivlar sirtqi ta'lim talabalarida kunduzgi ta'lim talabalariga qaraganda yuqori bo'lsa, muloqot motivlari kunduzgi ta'limda tahsil olayotgan talabalarda sirtqi ta'lim shaklida o'qiyotgan talabalarga qaraganda yuqori ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Maleko E. V. et al. Applying innovative teaching techniques and methods, when teaching cultural studies in higher education institutions //www. mjltn. com info@ mjltn. org. – 2018. – C. 18.
2. Boström L., Bostedt G. What about study motivation? Students and teachers' perspectives on what affects study motivation //International Journal of Learning, Teaching and Educational Research. – 2020. – T. 19. – №. 8. – C. 40-59.
3. Tuan L. T. An Empirical Research into EFL Learners' Motivation //Theory & Practice in Language Studies (TPLS). – 2012. – T. 2. – №. 3. Вилюнас, В. К. Психологические механизмы мотивации человека / В. К. Вилюнас. – М. : Изд-во МГУ, 1990. – 288 с.
4. Djumaniyazova M.X. Talabalar o'quv motivatsiyasini rivojlanishi - psixologik muammo sifatida. "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali. №6(8) 2023
5. Djumaniyazova M.X. Psychological Aspects of Learning Motivation of Students. Excellencia: international multi-disciplinary journal of education. Volume 02, Issue 01, 2024

6. Ильин, Е. П. Мотивация и мотивы / Е. П. Ильин. -СПб : Питер, 2011. -512 с.
7. Курдюкова Н.А. Оценивание успешности учебной деятельности какпсихолого-педагогическая проблема. – СПб.: Питер, 2007. - 386 с.
8. Маркова, А. К. Формирование мотивации учения / А. К. Маркова, Т. А.Матис, А. Б. Орлов. – М. : Просвещение, 1990. – 192 с.
9. Маслоу А. Мотивация и личность. – СПб.: Питер, 2013.
10. Мильман В.Э. Внутренняя и внешняя мотивация учебной деятельности //Вопросы психологии. – 2007. – № 5. – С. 42-47.
11. Хекхаузен, Х. Мотивация и деятельность / Х. Хекхаузен. – СПб: Питер,2013. – 860 с.



Jahongir JABBOROV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: jahongirjabborov802@gmail.com

GulDU dotsenti, PhD D.Xolnazarova taqrizi asosida

NEW UZBEKISTAN IS A PLACE OF WIDE OPPORTUNITIES FOR EMPLOYMENT OF NEEDY YOUTH

Annotation

The article provides information about the current problems and solutions, prospects of ensuring the employment of needy young people in New Uzbekistan.

Key words: Employment, unemployment, productive employment, youth employment, passive, active.

НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН – МЕСТО ШИРОКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ ТРУДОУСТРОЙСТВА МАЛООБЕСПЕЧЕННОЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В статье представлена информация о текущих проблемах и решениях, перспективах обеспечения занятости малообеспеченной молодежи в Новом Узбекистане.

Ключевые слова: Занятость, безработица, продуктивная занятость, занятость молодежи, пассивная, активная.

YANGI O'ZBEKISTON – EHTIYOJMAND YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING KENG IMKONIYATLARI MASKANI

Аннотация

Maqolada Yangi O'zbekistonda ehtiyojmand yoshlar bandligini ta'minlashning dolzarb muammolari va yechimlari, istiqbollari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Bandlik, ishsizlik, samarali bandlik, yoshlar bandligi, passiv, aktiv.

“Yoshlar kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega”.

Prezident Sh.Mirziyoyev.

Kirish. Bugun Yangi O'zbekistonni barpo qilish, uchunchi renessansni amalga oshirishda mamlakatimiz yoshlariga alohida e'tibor, qolaversa, qo'llov choralarini ham alohida ahamiyatli amaliy harakatlarni talab qiladi. Bunda faqatgina qonunlar qabul qilishgina emas, balkim shu qonunlarning amalda to'liq va samarali ishlashi uchun davlat va nodavlat tashkilotlari, ularning xizmatchilari, jamiyat va uning a'zolari birdek mas'uldirlar.

“Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi”[1]. Haqiqatdan ham bosh qomusimizning XIV bobi “Oila, yoshlar va va bolalar” deb nom olib, yoshlar uchun alohida moddalarning shakllanishi ijtimoiy davlatning va yangicha talqindagi uyg'onish davrida yuksalayotgan davlatdan darak beradi. Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari — ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan va ish topishda qiynalayotgan hamda mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar[2], ehtiyojmand yoshlar esa ijtimoiy daftarlarda ro'yxatda turuvchi (“Yoshlar daftari”, “Mehr daftari”) ishsiz va ish topishda muammolarga ega bo'lganlarni nazarda tutamiz.

Bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratiladi. Yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar ko'p foyda keltiradi[3]. Haqiqatdan ham yurtboshimizning ushbu ta'kidlarida jon bor, albatta. Kapitallarning eng yaxshisi

farzandlarga tikilgan, ularning bilim va kasb va hunariga qaratilgan sarmoyalar eng oqil va maqbul tanlovdir. Bugun farzandlarimiz kasb va hunarli bo'lishsa, ilmiy va ziyoli bo'lib, ta'lim-tarbiya olsalar, bu albatta kelajakda o'z samarasini beradi. Bundan tashqari yurtboshimizning 2016-yilda ilk bora imzo chekkan “Yoshlarga oid davlat siyosati” qonunimiz ham yoshlarga qanchalar e'tibor va ko'mak berilishini ko'rsatib, fikrimizni dalillaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bandlik va ishsizlik insonning ijtimoiy-iqtisodiy holati bo'lib, u o'zida ertangi kunga nisbatan ishonch yoki ishonchsizlik, umid yoki umidsizlik, daromad yoki daromadsizlik kabi tushunchalar bilan hamohang ravishda keladi. Bandlik va ishsizlik, ehtiyojmand yoshlar bandligi va ishsizligi bo'yicha ko'pgina iqtisodchilar, sotsiolog olimlar o'z nazariyalari, ilmiy qarashlarida va asarlarida bir qator yondashuv va fikrlarini asoslab berishgan. Ehtiyojmand yoshlar ishsizligini oldini olishga oid bo'lgan tadbirkorlikni rivojlantirish va yoshlarni mehnatga rag'batlantirish sharoitida byudjet mablag'larini taqsimlash va ularni boshqarishning o'ziga xos jihatlari bilan zamonaviy bo'shatish sharoitida mehnat bozori uchun ishsizlik muammolari va oqibatlarini o'rganishda dunyo sotsiolog olimlari K.Marks[4], D.Keyns, A.Maslou[5], Devid Makklelland, Gertsberg nazariyalarida, qolaversa, mehnat sotsiologiyasida Rybkin V. [6], Stukova D.E. [7], Nekrasova S.S. [8], Isina M.E. [9], Shayxova K.D. [10], Esieva I.V. [11], Savina T. [12] va boshqalar ilmiy faoliyatida ham ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari A.Navoiy bobomizning “Quyoshlik istasang, kasb kamol et” degan hikmatlari, rossiyalik sotsiolog P.Sorokinning tabaqalashuvda ildamlovchi shaxslar ta'lim, ilm (oliy ma'lumotlilik) va tadbirkorlik faoliyatlari bilan shug'ullanuvchilar ekanligini ta'kidlaydi.

Bizga ma'lumki, “Yoshlikda olingan bilim, o'rganilgan kasbu – hunar toshga o'yilgan naqsh kabidir” degan otaboblarimizdan qolgan mashhur bir o'git bor. Inson yoshlikda

qancha kasb va hunar egasi bo'lsa shunchalik hayot darajasi yaxshilanishi, turmushi farovon bo'lishi, eng muhimi o'ziga ishonch va qattiyati yuksalishi tabiiy holdir.

Yoshlar o'rtasida bandlikni ta'minlash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalasi e'tiborimiz markazida bo'ladi. Ehtiyojmand oilalarning farzandlari, chin yetim, nogironligi bo'lgan va davolanishga muhtoj bolalarga alohida mehr-muruvvat ko'rsatish bo'yicha yangi tizim joriy etiladi[13]. Yurtboshimizning quyidagi ta'kidovlari faqatgina parlamentga murojaat yoki asarda keltirilibgina qolgani yo'q, albatta. Bugun jamiyatimizda bir qator tizimlarimiz butkul isloh etildi, fuqarolar bilan ishlash mexanizmlarini tubdan o'zgartirildi. Fuqarolarning dardi va qadri uchun sa'y – harakatlar amalga oshirilib borilmoqdadir. Shu o'rinda institutsional muassasa bitiruvchilari, kam ta'minlangan oilalar farzandlari, ijtimoiy daftarlar("Mehr" va "Yoshlar"daftarida turuvchi yoshlar(ishsiz yoshlar va h.k.) ushbu islohotlar obekti sifatida alohida o'ringha ega ekanligi ta'kidlashimiz lozimdir. Oddiy misol, bugungi kunda O'zbekistonda 11 162 nafar yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar, o'spirin va o'smirlar mavjud, ularning 80 foizidan ortig'i ijtimoiy yetim hisoblanishadi. Kam ta'minlangan oilalar Respublika 12-15 foiz ekanligini e'tirof etsak, qolaversa, ular oilalaridagi yoshlarning hayotini ham bir o'ylasak, 15,1 foiz yoshlarning ishsiz ekanligini ta'kidlasak, muammolarimiz qayerda va yana qaysi jihatlariga e'tibor berishimiz oydinlashadi, albatta.

Bugun mamlakatimizda qariyb 10 millionga yaqin 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarimiz bor, shulardan "Yoshlar daftari" da turuvchi yoshlar soni Respublika bo'yicha 40 130 nafarni tashkil etadi[14]. "Yoshlar daftari" - ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasi hisoblanadi[15]. Respublikamiz yoshlarining murojaatlarini shu jumladan, yoshlardaftari.uz sayti orqali, 1093 qisqa raqami va @yoshlardaftari_bot telegram boti hamda elektron platformasi orqali ular muammolariga amaliy yechimlar berilmoqda. Qo'shimchasiga aytishimiz mumkinki, 2022-yil yanvar oyidan Prezidentimiz farmonlariga asosan har bir qishloq, shahar, tumanlarimiz, ovul va chekka hududlarimiz mahallalarida yoshlar yetakchilari lavozimi joriy etilgani, undan so'ng har bir mahallada "hokim yordamchilari" lavozimining joriy etilib yetakchilar bilan hamkorligining o'rnatilganligi yoshlarga, ehtiyojmand yoshlarga nisbatan e'tiborni ko'rsatadi. Bu kasb egalari, qolaversa, hududiy bandlik markazlari xodimlari, ijtimoiy xodimlar ehtiyojmand yoshlarning turli muammolarini hal qilishga doir xizmatlarini ko'rsatib kelmoqdalar.

Shu bilan bir qatorda bugun globallashuv sharoitida, jumladan, hayotiy tendensiyalarning tezlashuvi, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, insoniyat, yoshlar oldidagi katta hayot yo'lidagi sinovlar albatta ular bilan ishlash tizimining yanada takomillashirilishini taqozo etadi.

O'zbekistonda 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra:



1-rasm.

Yoshlar – O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi"[15]. Qarangki, yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev o'z murojaatlarida davlatimizning boyligi, oltinimiz yoki qazilma boyliklarimiz, boshqa jihatlariga emas aynan yoshlar ekanligida deb ta'kidlaganliklari diqqatga sazovordir. So'z isboti bilan deganlaridek, bugungi kunda ta'lim sohalar(maktabgacha ta'lim, xalq ta'limi, oliy ta'lim), bandlik xizmati, agentliklar, mahallalar, NNTlar, xususiy tashkilotlarning barchasi yoshlarga qo'llov va ularga imkoniyat va shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Qolaversa, qonunchiligimizda kambag'al fuqarolar, yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunarga, chet tillari yoki tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitishni zimmasiga olgan, o'quv dasturi va qo'llanmalariga ega, o'qish jarayonida axborot-kommunikatsiya vositalaridan va innovatsion o'qitish uslublaridan keng foydalanadigan nodavlat kasb-hunarga o'qitish muassasasini aniqlash[16] kabi tashabbus va ko'rsatmalarining bir qatorligi alohida o'rinli.

2023 – yil 1-iyundan boshlab, Ijtimoiy himoya milliy agentligining ijtimoiy xodimlari:

psixosotsial xizmat ko'rsatish tizimini tashkil qilishni; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari bitiruvchilarini turli tashkilotlar tomonidan taqdim qilingan ijtimoiy xizmatlar, yo'llanma va so'rovlari asosida psixologik salomatlik, zarur ko'nikma va ta'lim olish, kasbga, ishga va tadbirkorlik qilishga yo'naltirish tizimini yo'lga qo'yishni joriy qilishgan[17].

Bugun mahallalardagi yoshlar yetakchilari, hokim yordamchilari ham o'zlarining lavozim yo'riqnomalariga ega bo'lishib amalda ishlab kelishmoqda, lekin, keys menejment, valantyorlik va superviziya kabi bilim va malakalarga ega ijtimoiy ishchi xodimlarning bu boradagi faoliyatlari yanada muhimroq va samaraliroq bo'ladi, deb ayta olamiz. Sababi keys menejment orqali xizmat oluvchilar (jumladan, ehtiyojmand yoshlar) bilan ishlashda ularning alohida xususiyat va muammolari hisobga olinadi va aniq vaqtda reja asosida, hamkorlik asosida xizmat oluvchilar muammolari hal etiladi.

Ehtiyojmand yoshlar bandligining yechimlari sifatida quyidagilarni misol keltirish mumkin:

- ehtiyojmand yoshlar mehnat bozorining xususiyatlari va dinamikalarini aniqlash;
- ehtiyojmand yoshlar bandligining barcha jihatlari va turlarini tahlil qilish;
- mavjud axborot-statistik bazani baholash va mavjud real muammolari aniqlash;
- ehtiyojmand yoshlar bandligini hisobga olishning amaldagi tamoyillarini ko'rib chiqish;
- ehtiyojmand yoshlar ishsizligi dinamikasi va darajasini va uni baholashning joriy uslubiy yondashuvlarini baholash;
- ehtiyojmand yoshlar bandligini ta'minlashga ko'maklashish mexanizmini shakllantirish jarayonini tahlil qilish va uning o'ziga xos kamchiliklarini baholash;

- davlat darajadasi bandlikka ko'maklashish mexanizmining asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash va uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini shakllantirish;

- hududiy miqyosda yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni tahlil qilish va bu yerda yoshlar bandligini ta'minlashning samarali tizimlarini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini belgilash.

- yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;

- ehtiyojmand yoshlarning ta'lim olishi va kasb-hunarga o'qishini doimiy rag'batlantirish tizimlarini joriy etish (monomarkazlar va kasb-hunar maktablari);

- ehtiyojmand yoshlarga xizmat ko'rsatilishida ijtimoiy ish xodimlarining faoliyatini bevosita yo'lga qo'yish;

- ehtiyojmand yoshlar bilan ishlashning chet el tajribalaridan oqilona va milliy mentalitetimizga moslikda olib borilishini tatbiq etish;

- bandlikni ta'minlashda passiv bandlik siyosati emas, balki, aktiv bandlik siyosatiga to'laqonli o'tish, ya'ni bunda bandlik xizmati ehtiyojmand yoshlarni ishga joylashtirish shakllarini ko'paytirishi, ularni faqatgina ishsizlik nafaqasi yoki jamoat ishlari kabi xizmatlar bilan band qilmay ishga joylashish xizmatlarini optimal ko'rsatishlari lozim bo'ladi.

Xulosa. Bugun Yangi O'zbekistonni barpo etishda ehtiyojmand yoshlar bandligini ta'minlashning samarali ustuvor yo'nalishlari shuni ko'rsatmoqdaki, ehtiyojmand yoshlarga faqatgina motiv va o'zlariga ishonch hissini uyg'otish, bunga esa kasbga yo'naltirish, ta'lim, ijtimoiy xizmat va ta'minot (bandlik, moddiy yordam, subsidiya va h.k.) lar bilan erishishimiz, uchunchi renessansni barpo etishimizda ular bandligini ta'minlash eng ustuvor vazifalarimizdan bo'lishini ta'kidlashimiz lozim bo'ladi, albatta.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel;
2. Aholi bandligi to'g'risidagi qonuni O'ZRQ – 642-son, 2020-yil 20-oktabr;
3. Shavkat_Mirziyoev_Yangi_O'zbekistonda_erkin_va_farovon_yashaylik – Toshkent 2021 y.
4. "Kapital" – K.Marks, XIX asr, Germaniya.
5. "Inson motivatsiyasi nazariyasi" - A. Maslou (1943) asari va 1954 yilgi "Motivatsiya va shaxsiyat" kitobi.
6. Рыбкина, В. Безработица - проблема современной России / В. Рыбкина // Профессиональное образование: методология, технологии, практика : Сборник научных статей. Том Выпуск 15. - Челябинск : ЗАО "Библиотека А. Миллера", 2022. - С. 241-245. - EDN SELOWN.
7. Стукова Д.Е. Безработица в современной России / Д. Е. Стукова, Л. В. Федосеева // Экономика и менеджмент в условиях цифровизации: проблемы, новые решения и перспективы : Сборник научных трудов. - Ростов-на-Дону : Донской государственный технический университет, 2022. - С. 276-282. - EDN NVJQKO.
8. Некрасова, С.С. Безработица в условиях COVID-19 / С. С. Некрасова, А. В. Потапова // Вестник молодого ученого Кузбасского института : сборник научных статей. Том Выпуск 7. - Новокузнецк : Кузбасский институт Федеральной службы исполнения наказаний, 2021. - С. 143-145. - EDN OJEOWR.
9. Исина, М.Е. Безработица, её особенности и способы преодоления / М. Е. Исина, О. Б. Иваненко // Стратегии развития государства и экономики в условиях турбулентности : Сборник статей. - Мюнхен : GRIN Verlag, 2021. - С. 37-42. - EDN UGIXKL.
10. Шаихова, К.Д. Безработица - ключевой индикатор рынка труда / К. Д. Шаихова // Профессиональное образование: методология, технологии, практика : СБОРНИК НАУЧ-НЫХ СТАТЕЙ. Том Выпуск 14. - Челябинск : «ЗАО Библиотека А. Миллера, 2021. - С. 200-203. - EDN YGZCSK.
11. Есиева, И.В. Проблема безработицы в России: государственная политика и методы решения / И. В. Есиева. // Экономика и предпринимательство. - М: Меркурий. 2015.
12. Савина, Т. Безработица как индикатор экономической безопасности в сфере занятости: региональный аспект / Т. Савина. // Экономический анализ: теория и практика. - 2018.
13. Shavkat_Mirziyoev_Yangi_O'zbekistonda_erkin_va_farovon_yashaylik – Toshkent 2021 y.
14. <https://yoshlardaftari.uz/>.
15. <https://yoshlardaftari.uz/advice/>.
16. "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" - O'zbekiston respublikasi prezidentining 4804-sonli qarori.
17. "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" PF-82 sonli. 2023-yil 1-iyun.



UDK: 57:371.3

Suxrobjon ZAYNIYEV,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi
E-mail: s.zayniyev@inbox.ru
Ulug'bek OMONQULOV,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

NavDPI dotsenti, PhD M.Ummatova taqrizi asosida

IDENTIFYING AND WORKING WITH TALENTED STUDENTS IN THE SCHOOL AND UNIVERSITY SYSTEM

Аннотация

This article presents the main pedagogical and psychological approaches to identifying gifted students and working with them in the school-university system. A methodology for developing some written work questions for Olympiads held among 11th-graders at higher educational institutions is also described.

Key words: Gifted student, Olympiad, school, university, phenotype, genotype, selection, chemistry, biology, physics.

ВЫЯВЛЕНИЕ И РАБОТА С ТАЛАНТЛИВЫМИ СТУДЕНТАМИ В ШКОЛЬНО-ВУЗОВСКОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация

В данной статье представлены основные педагогические и психологические подходы к выявлению одарённых студентов и работе с ними в системе школа-вуз. Также описана методика разработки некоторых письменных рабочих вопросов для олимпиад, проводимых среди 11-классников школ высших учебных заведений.

Ключевые слова: Одаренный ученик, олимпиада, школа, вуз, фенотип, генотип, селекция, химия, биология, физика.

MAKTAB-UNIVERSITET TIZIMIDA IQTIDORLI O'QUVCHILARNI ANIQLASH VA ULAR BILAN ISHLASH

Аннотация

Mazkur maqolada maktab-universitet tizimida iqtidorli o'quvchilarni aniqlashning pedagogik-psixologik hamda ular bilan ishlashda asosiy yondashuvlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida maktablarning 11-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilib kelinayotgan olimpiadalarga tushgan ayrim yozma ish savollarini ishlanish metodikasi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Iqtidorli o'quvchi, olimpiada, maktab, universitet, fenotip, genotip, chatishtirish, kimyo, biologiya, fizika.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son qarorida [1], "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrda PQ-4884-son qarorida [2] hamda 2022-yil 14-aprelda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi PF-106-sonli Farmonida [4] Iqtidorli bolalar bilan ishlashning "Maktab - Universitet - Markaz" yaxlit uzluksiz ta'lim tizimini joriy qilish tartibini ishlab chiqishni va tasdiqlashni buyurdi. Natijada belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etish, shuningdek hududlarda iqtidorli va izlanuvchan yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, o'quvchilar o'rtasida fan olimpiadalarini o'tkazish, hamda Xalqaro fan olimpiadalarini metodologiyasini ommalashtirish, iqtidorli o'quvchilarning chuqurlashtirilgan bilim olish maqsadida biologiya, kimyo, matematika, fizika hamda informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishlari bo'yicha iqtidorli o'quvchilar o'rtasida tuman, viloyat, respublika olimpiadalarini hamda oliy ta'lim muassasalarida maktablarning 11-sinf o'quvchilari o'rtasida olimpiadalar o'tkazilib kelinmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda olib borilayotgan zamonaviy ta'limni rivojlantirishdagi pedagogik tadqiqotlarning muhim masalalaridan biri iqtidorli maktab o'quvchilarini aniqlash va ularni to'g'ri o'zlashtirishga qaratilgan dars jarayonini tashkil etishdan iborat. Bu borada bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan: Azimov I.T., Raxmatov U.E., Zayniyev S.I., Jumayev S.Z. "Biologiyadan olimpiada masalalarini yechish metodikasi" [5], A.T.G'ofurov, S.S.Fayzullaev, B.Matchonov, I.Azimov "Genetik bilimlarni puxta o'zlashtirish va masalalar yechish metodikasi" kabi darslik

va o'quv – uslubiy qo'llanmalarni keltirish maqsadga muvofiq sanaladi. Yuqorida keltirilgan olimlar va ularning shogirdlari tomonidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash bo'yicha turli darajadagi savol-javoblar hamda olimpiada masala va mashqlaridan foydalanish metodikasi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilib kelinmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim tizimimizni modernizatsiya qilishning zamonaviy sharoitida iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashlarga alohida e'tibor ortib berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-sonli Qarorida mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo'nalishlarda ta'lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyot yili" Davlat dasturining ustuvor vazifalari qatorida belgilangan [3]. Qaror ijrosini yuzasidan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 8-sentyabrda 383-son buyrug'iga ko'ra barcha kimyo va biologiya yo'nalishlarida mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida umumta'lim maktablarining bitiruvchi sinflari o'rtasida ko'p bosqichli kimyo va biologiya fanlaridan olimpiadalar bo'lib o'tmoqda.


Nizomiy nomidagi TDPUDA ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4805-sonli qaror ijrosini ta'minlash maqsadida universitet rektorining 2021-yil 15-sentyabrda 374-son buyrug'iga asosida Toshkent shahar umumta'lim maktablarining bitiruvchi sinflari o'rtasida ko'p bosqichli biologiya va kimyo fan olimpiadasi tashkil etib kelinmoqda. Jumladan, olimpiada maktab – tuman – shahar – universitet bosqichlarida tashkil etilmoqda. Hozirgach uch marta ya'ni 2021 - 2022 – o'quv yilida, 2022 - 2023 – o'quv yilida va 2023 - 2024 – o'quv yilida o'tkazilib kelinmoqda [6].

Quyida 2023-2024-o'quv yillarida maktab va universitet hamkorligida tashkil qilinib kelinayotgan olimpiadaning shahar va

universitet bosqichlarida maktab o'quvchilariga berilgan masala va mashqlardan na'muna ko'rib o'tamiz.


1-masala. Gullash o'simliklardagi eng murakkab jarayonlardan biridir. Olimlar gulning qismlari shakllanishida

alohida genlarning rolini tushuntirish uchun ABC modelini (gipoteza) ilgari surdilar. Faraz qilaylik, bu jarayonda uchta gen ishtirok etadi: A, B va C



Ushbu modelda A geni gulkosa shakllanishini nazorat qiladi, A va B genlari – gultojbarglarning shakllanishi; B va C – genlar changchi shakllanishini, C gen urug'chi shakllanishini nazorat qiladi. A geni C geni faoliyatini ingibirlaydi, A geni Topshiriq: ABC modeliga muvofiq mutantrlarning fenotipi qaysi gen mutatsiyasi natijasida ro'y beradi?

mutatsiyaga uchraganida, u C geni o'z faoliyatini namoyon qiladi. Agar C geni mutatsiyaga uchrasa A geni o'z faoliyatini namoyon qiladi [5, 7, 8].



- a) A rasmda yuz bergan mutatsiya xilini aniqlang. (Javobingizni izohlang)
- b) B rasmda yuz bergan mutatsiya xilini aniqlang. (Javobingizni izohlang)
- c) C rasmda yuz bergan mutatsiya xilini aniqlang. (Javobingizni izohlang)

Masalaning yechimi:

a) Berilgan fenotipida B geni mutatsiyaga uchragan va bu esa faqat A geni tomonidan gulkosa rivojlanishiga, III-qatorda C geni tomonidan urug'chi rivojlanishiga sabab bo'lgan. A va C geni faolligi ortib, tojbarlar va changchilar o'rniga ham gulkosa va urug'chi rivojlanishiga sabab bo'lgan. Qolgan gul qismlari o'z o'rnida rivojlangan.

b) Berilgan fenotipida C geni mutatsiyaga uchragan. Gulkosa va gulkosachabarg rivojlanishida o'zgarish kuzatilmagan, lekin changchi rivojlanishida C geni mutatsiyasi tufayli A geni Masalaning yechimi:

faolligi ortgan bu esa yana gultoj shakllanishiga olib kelgan. Buni IV-qatorda ham ko'rish mumkin. C geni mutatsiyasi natijasida yana gulkosa rivojlangan rivojlanishiga sabab bo'lgan.

c) Berilgan fenotipida A geni mutatsiyaga uchragan va bu C geni faolligiga sabab bo'lib, urug'chini rivojlantirgan. Aynan A geni mutatsiyasi natijasida C geni faolligi ortib, tojbarlar o'rniga ham changchi rivojlanishiga sabab bo'lgan. Qolgan gul qismlari o'z o'rnida rivojlangan.

2-masala. Mendel xushbo'y no'xot o'simligida 7 juft belgining irsiylanishi o'rgangan. O'z o'zidan changlangan xushbo'y no'xot o'simligi belgilarining nazariy jihatdan 2 jufti to'liq birikkan, 3 jufti to'liqsiz dominant, 2 jufti to'liq dominant holda irsiylanadi deb hisoblang va to'liq birikkan genlar gomozigota retsessiv, qolgan barcha genlar geterozigota holatda bo'lsa, genotipik va fenotipik guruhlar sonining ayirmasini hisoblang [5, 9, 10]?

$$\begin{array}{c|c} a & a \\ \hline b & b \end{array} BbCcDdEeFf \quad \times \quad \begin{array}{c|c} a & a \\ \hline b & b \end{array} BbCcDdEeFf$$

Fenotipik nisbat: $1(1:2:1) (1:2:1) (1:2:1) (3:1) (3:1) = 1 \times 3 \times 3 \times 3 \times 2 \times 2 = 108$

Genotipik nisbat: $3n = 35 = 243$

Javob: $243 - 108 = 135$

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi barcha mexanizmlarning asosiy yo'nalishi o'quvchilarning shaxsiy iste'dodlari va qobiliyatlarini namoyon qilish uchun shart-sharoitlarni yaratish va ularni qo'llab quvvatlashdan iboratdir.

2023-2024-o'quv yilida Toshkent shahar umumta'lim maktablaridan shahar bosqichiga yo'llanma olgan 37 nafar o'quvchilardan jami 30 nafari ishtirok etdi. Shundan to'plangan ballar ketma-ketligiga ko'ra, dastlabki 10 ta o'rinni olgan o'quvchilar universitet bosqichiga yo'llanma olishdi.

Universitet bosqichiga yo'llanma olgan 10 nafar o'quvchilarning barchasi ishtirok etdi va to'plangan ballar ketma-ketligiga ko'ra, dastlabki 1-3 o'rinlarni egallagan o'quvchilar g'olib deb topildi (2-jadval).

2-jadval

No	O'quvchilarning F.I.Sh.	Maktab	Tuman	Jami to'plagan bali	Egallagan o'rni
1	Toxirova Muslima Ravshan qizi	312-maktab	Uchtepa tumani	63	1
2	Maqsudov Abdurahim Mirsait o'g'li	112-sonli AFCHO'SMUO'TM	Mirzo Ulug'bek tumani	51	2

3	Marufjonova Baxtiyabonu Shavkat qizi	8-maktab	Yangihayot tumani	50	3
---	--------------------------------------	----------	-------------------	----	---

Bu o'quvchilar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son qarorining 11-band 2-xatboshiga muvofiq oliy ta'lim muassasasining mablag'lari hisobidan imtihonsiz o'qishga qabul qilib kelinmoqda.

Bu kabi maktab-oliy ta'lim muassasalari tizimida tashkil qilinayotgan olimpiadalarning masala va mashqlari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan o'tkazilib kelinayotgan milliy olimpiadalar hamda xalqaro olimpiadalarning masala va mashqlariga nisbatan oddiyroq hamda maktab o'quv darsliklarining ma'lumotlari asosida, fanlararo integratsiyaga asoslangan holdan tuzib kelinmoqda [6, 11, 12].

Xulosa va takliflar. So'ngi yillarda tashkil etilayotgan olimpiadalarda topshiriqlar mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilardan bilish, tushunish, tahlil qilish, sintez va xulosa yasash kabi jarayonlarni qo'llashi talab etiladi. Bu topshiriqlarni maxsus olimpiadalar uchun tayyorgarlik ko'rmagan o'quvchilar deyarli tushunmayapti va ishlay olishmayapti. Shuning uchun oliy ta'lim muassasasining tajribali professor-o'qituvchilarini jalb etgan holda iqtidorli o'quvchilar bilan birgalikda tayyorgarliklarni olib boorish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, biologiya, kimyo va fizika fanlarini integratsiyalashtirgan holda kreativ fikrlashga o'rgatish lozim.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4306-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4805-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi "Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi PF-106-son Farmoni.
5. Azimov I.T., Raxmatov U.E., Zayniyev S.I., Jumayev S.Z. Biologiyadan olimpiada masalalarini yechish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.; 2024. – 272 b.
6. Zayniyev, S. "FAN OLIMPIADALARINING TASHKIL ETISH MAZMUNI, TAHLILI VA TA'LIM-TARBIYADAGI O'RNI." Science and innovation 1.B8 (2022): 229-234.
7. Zayniyev S.I. Olimpiada tashkil etishning metodik asoslari // O'zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari, 2022, [1/12] ISSN 2181-7324: 64-66 c.
8. Zayniyev S.I. O'quvchilarni masala va mashqlar yechish orqali olimpiadaga tayyorlashni ayrim jihatlarini // "Biologiyada zamonaviy tadqiqotlar: muammo va yechimlar" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2022: 200-202 c.
9. Zayniyev S. Methodology of preparing students for international olympiads through solution of problems related to the Hardy-Weinberg law. // EUROPEAN INTERNATIONAL JOURNAL OF PEDAGOGICS 2023. – S. (pp.16-21)
10. Zayniyev S.I. Biopolimerlar mavzularini o'qitishda olimpiada masalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlarini // МУФАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ, ilmiy-metodik jurnal, 2023, ISSN 2181-7138 201-205 c.
11. Омонқулов У. (2024). ИҚТИДОРЛИ О'ҚУВЧИЛАР БИЛАН ИШЛАШ МЕТОДИКАСИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(2).
12. ОМОНҚУЛОВ У.Б. (2024). БО'ЛАЖАК БИОЛОГИЯ О'ҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ИҚТИДОРЛИ О'ҚУВЧИЛАР БИЛАН ИШЛАШГА МЕТОДИК ТАЙЙОРЛАШНИНГ КОНСЕПТУАЛ АСОСЛАРИ. News of UzMU journal, 1(1.2), 177-180.



Ifixor ZIYOEV,
O'zMU tadqiqotchisi

F.f.d O'.Tilavov taqrizi asosida

DAVLAT ORGANLARI VA BIZNES TUZILMALARI MUNOSABATLARINING ZAMONAVIY SIYOSIY MODELLARI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI

Аннотация

“Zamonaviy siyosiy modellar va davlat organlari va xo‘jalik tuzilmalari o‘zaro munosabatlarining o‘ziga xos jihatlari” maqolasi zamonaviy siyosiy sharoitlarda davlat institutlari va xususiy korxonalar o‘rtasidagi murakkab va rivojlanayotgan dinamikaga bag‘ishlangan. U davlat kapitalizmi davlat-xususiy sheriklik me‘yoriy-huquqiy baza va korporativ ijtimoiy mas‘uliyat kabi asosiy mavzularni yoritib joriy adabiyotlarni har tomonlama ko‘rib chiqadi. Maqolada shuningdek turli nazariy yutuqlar jumladan tarmoq nazariyasi va institutsional nazariya siyosiy modellar (demokratik rejimlardan tortib avtoritar rejimlargacha) davlat va biznes o‘zaro munosabatlarini qanday shakllantirishini tushunish uchun o‘rganiladi. Batafsil tahlil qilish orqali maqola globallashuv va xalqaro savdoning ushbu munosabatlarga ta‘sirini yoritib beradi siyosat va amaliyotga ta‘siri haqida tushuncha beradi.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy siyosiy modellar, davlat-biznes munosabatlari, davlat-xususiy sheriklik, korporativ ijtimoiy javobgarlik, tarmoq nazariyasi, institutsional nazariya, iqtisodiy boshqaruv, siyosiy iqtisod, avtoritar rejimlar, jamoat tanlovi nazariyasi, iqtisodiy tartibga solish.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОЛИТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ И СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНОВ И БИЗНЕС-СТРУКТУР

Аннотация

Статья «Современные политические модели и специфические аспекты взаимоотношений государственных органов и бизнес-структур» углубляется в сложную и развивающуюся динамику между государственными учреждениями и частными предприятиями в современных политических контекстах. Она содержит всесторонний обзор современной литературы, выделяя такие ключевые темы, как государственный капитализм, государственно-частное партнерство, нормативно-правовые базы и корпоративная социальная ответственность. В статье также рассматриваются различные теоретические достижения, включая теорию сетей и институциональную теорию, чтобы понять, как политические модели — от демократических до авторитарных режимов — формируют взаимодействие государства и бизнеса. Благодаря подробному анализу статья проливает свет на влияние глобализации и международной торговли на эти отношения, предлагая понимание последствий для политики и практики.

Ключевые слова: Современные политические модели, государственно-деловые отношения, государственно-частное партнерство, корпоративная социальная ответственность, теория сетей, институциональная теория, экономическое управление, политическая экономия, авторитарные режимы, теория общественного выбора, экономическое регулирование.

MODERN POLITICAL MODELS AND SPECIFIC ASPECTS OF THE RELATIONSHIPS OF STATE BODIES AND BUSINESS STRUCTURES

Annotation

The article "Modern political models and specific aspects of the relationships of state bodies and business structures" delves into the intricate and evolving dynamics between governmental institutions and private enterprises in contemporary political contexts. It provides a comprehensive review of the current literature, highlighting key themes such as state capitalism, public-private partnerships, regulatory frameworks, and corporate social responsibility. The article also explores various theoretical advancements, including network theory and institutional theory, to understand how political models—ranging from democratic to authoritarian regimes—shape state-business interactions. Through detailed analysis, the article sheds light on the influence of globalization and international trade on these relationships, offering insights into the implications for policy and practice.

Keywords: Modern political models, public-business relations, public-private partnerships, corporate social responsibility, network theory, institutional theory, economic management, Political Economy, authoritarian regimes, public choice theory, economic regulation.

Kirish. Zamonaviy siyosiy modellarda davlat organlari va biznes tuzilmalari o‘rtasidagi munosabatlar turli dinamikalarni, jumladan boshqaruv, me‘yoriy-huquqiy bazalar, institutsional va madaniy omillarning ta‘sirini o‘z ichiga oladi. Bu munosabatlar siyosatlar qanday shakllantirilishi va amalga oshirilishi hamda korxonalarining davlat tuzilmalari bilan qanday aloqasi borligini tushunish uchun juda muhimdir. Elektron hukumatning zamonaviy tashabbuslari, AKTdan foydalanish orqali hukumatlar, biznes

va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni kuchaytirish, yanada integratsiyalashgan tarmoq boshqaruvini yaratishga qaratilgan. Ushbu sa‘y-harakatlar ko‘pincha islohotlarga to‘sqinlik qiladigan mavjud institutsional tuzilmalar tufayli qiyinchiliklarga duch keladi. Byurokratik institutlar siyosatni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi, ko‘pincha byurokratiya va siyosiy hokimiyat o‘rtasidagi asosiy va agent munosabatlarga ta‘sir qiladi. Rasmiy modellar byurokratik

ierarxiyalar va axborot nosimmetrik-ligining siyosatni amalga oshirishga ta'sirini tushunishga yordam beradi.

Davlat va biznes munosabatlarining tabiati turli siyosiy tizimlar orasida sezilarli darajada farq qiladi. Acemoglu, D. va Robinson, J. A. (2006). "Diktatura va demokratiyaning iqtisodiy kelib chiqishi" siyosiy institutlarning iqtisodiy munosabatlarga qanday ta'sirini o'rganadi. Gandi, J. (2008). "Diktatura ostidagi siyosiy institutlar" avtoritar rejimlar davlat va biznes o'zaro munosabatlarini qanday boshqarishini o'rganadi. "Davlatni qo'lga olish: yirik korporatsiyalar, siyosatchilar va byurokratlar Ukrainaning energetika sektorini qanday nazorat qilmoqdalar" - Olena Xalushka: Bu kitob Ukrainaning energetika sektoridagi davlatni qo'lga kiritish hodisasini ko'rib chiqadi, bu erda kuchli biznes manfaatlarini davlat organlari va siyosatni ishlab chiqish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xalushka oligarxlar va siyosiy elitalar tomonidan tartibga soluvchi institutlarni manipulyatsiya qilish, davlat aktivlarini xususiy lashtirish va raqobatga putur yetkazish mexanizmlarini tahlil qilib, korrupsiya va boshqaruvning kengroq masalalariga oydinlik kiritadi[1].

Martin J. Srholec tomonidan "Regulatorlarni qo'lga kiritish siyosati: Chexiyadagi siyosat islohoti": Srholec tadqiqoti Chexiya Respublikasida tartibga solishni qo'lga kiritish dinamikasini o'rganadi, davlat organlari, biznes manfaatlarini va fuqarolik jamiyati tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga e'tibor beradi. U tartibga soluvchi organlarning sanoat manfaatdor tomonlari tomonidan qanday qo'lga olinishini o'rganadi, natijada jamiyat farovonligidan ko'ra shaxsiy manfaatlarini qo'llab-quvvatlaydigan siyosatlar paydo bo'ladi. Kitobda tartibga soluvchi boshqaruv muammolari va tartibga soluvchi mustaqillik va javobgarlikni oshirish uchun institutsional islohotlarning ahamiyati yoritilgan[2].

Hukumatlar, ayniqsa saylovlar atrofida siyosiy ustunlikka erishish uchun iqtisodiyotni manipulyatsiya qilishlari mumkin. Siyosiy biznes sikllarining zamonaviy nazariyalari oqilona kutishlarni o'z ichiga oladi va iqtisodiy siyosat ta'siridagi noaniqlikni hisobga oladi. Siyosiy nazorat va mas'uliyatni ta'minlash uchun ma'muriy idoralarning tuzilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agentliklarning tarkibiy xususiyatlari, masalan xodimlarni siyosiy lashtirish, ularning siyosiy ko'rsatmalarga javob berishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Zamonaviy siyosiy modellar davlat organlari va biznes tuzilmalari o'rtasidagi murakkab va ko'p qirrali munosabatlarni ko'rsatib beradi. Bu munosabatlar boshqaruv tuzilmalari, institutsional tuzilmalar va ular faoliyat ko'rsatayotgan o'ziga xos tartibga solish va iqtisodiy muhit bilan shakllanadi. Zamonaviy ma'noda davlat-xususiy sektor hamkorligi deganda davlat va biznes o'rtasida ommaviy mazmundagi xalqaro, milliy va mahalliy loyihalarni amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan institutsional va tashkiliy ittifoq tushuniladi. Odatda bunday ittifoqlar vaqtinchalik bo'lib, ma'lum bir loyihani amalga oshirish maqsadida ma'lum bir muddatga tuziladi va loyiha amalga oshirilgandan so'ng o'z faoliyatini to'xtatadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarida mamlakatlar tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, hamkorlikning bu turi transport (avtomobil yo'llari, temir yo'llar, aeroportlar va boshqalar), ijtimoiy infratuzilma (sog'liqni saqlash, ta'lim, dam olish va turizm) sohalarida amalga oshiriladi, kommunal (u suv ta'minoti, elektr ta'minoti, suvni tozalash, gaz ta'minoti va boshqalarda muvaffaqiyatli qo'llaniladi).

Entoni P. D'Kosta va Achin Chakraborti tomonidan tahrirlangan "Afrika va Hindistonda davlat-ishbilarmonlik aloqalari va iqtisodiy rivojlanish": Ushbu tahrirlangan jildda davlat-biznes munosabatlari va ularning Afrika va

Hindistondagi iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ko'rib chiqiladi. Ishirokchilar sanoatlashtirish, innovatsiyalar va inklyuziv o'sishni shakllantirishda davlat aralashuvi, sanoat siyosati va biznes-hukumat o'zaro munosabatlarining rolini tahlil qiladi. Kitob turli institutsional kontekstlarda davlat tomonidan boshqariladigan rivojlanish strategiyalarining muammolari va imkoniyatlari haqida qiyosiy tushunchalarni taqdim etadi[3].

Jacint Jordana, Devid Levi-Faur va Xaver Fernandes-i-Marin tomonidan "Rivojlanayotgan mamlakatlarda tartibga soluvchi boshqaruv: o'zaro munosabatlar muammosi": Bu kitob rivojlanayotgan mamlakatlarda tartibga soluvchi boshqaruvning murakkabliklarini o'rganadi, ular o'rtasidagi o'zaro ta'sirga e'tibor beradi. davlat organlari, nazorat qiluvchi organlar va tadbirkorlik manfaatlarini. Mualliflar tartibga solish siyosati zaif institutlar, siyosiy beqarorlik va iqtisodiy tengsizlik bilan tavsiflangan kontekstlarda qanday shakllantirilishi, amalga oshirilishi va qo'llanilishini o'rganadi. Lotin Amerikasi, Osiyo va Afrikadagi amaliy tadqiqotlarga asoslanib, ular turli siyosat sohalarida tartibga solish samaradorligi, qonuniylik va javobgarlik o'rtasidagi muvozanatni tahlil qiladilar[4].

Rivojlangan davlatlarning davlat-xususiy sektor hamkorligi tajribasi Davlat-xususiy sektor hamkorligidan foydalangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi hamkorlik uchun tarmoq tanlashga katta ta'sir ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlardan farqli o'laroq, rivojlanayotgan va o'tish davridagi mamlakatlarda hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari ta'lim va sog'liqni saqlash emas. Bu mamlakatlarda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning past darajasi davlat-xususiy sektor hamkorligiga jalb qilingan investitsiyalar transport infratuzilmasiga, jumladan avtomobil yo'llari, temir yo'llar va portlarni qurish va ta'mirlashga yo'naltirilishi zarurligini bildiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat-xususiy sektor hamkorligining energetika va kommunal infratuzilmani rivojlantirish, xususan energiya va suv ta'minoti bilan bog'liq loyihalar orqali keng tarqalgan. Shu sababli, davlat-xususiy sektor hamkorligining muayyan shakllari, masalan konsensuslar rivojlanayotgan mamlakatlarda keng tarqalgan. Shu munosabat bilan mazkur mamlakatlarda davlat-xususiy sektor hamkorligining huquqiy va institutsional bazasini takomillashtirish alohida ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda Davlat-xususiy sektor hamkorligi iqtisodiyotni boshqarish tizimini samarali shakllantirishning samarali mexanizmi sifatida qabul qilinadi, bu xususiy va davlat sektorining imkoniyatlarini birlashtirish orqali muhim iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishga yordam beradi. Jumladan, ishlab chiqarish hajmi o'sishi va xizmatlar ko'rsatilishini kengaytirish orqali, iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishga ko'maklashadi, yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyalarni rivojlantirish va texnologiyalarni tarmoqlar o'rtasida ko'chirishga yordam beradi.

Введения. Понятие «Шелковый путь» появилось во второй половине XIX века. Впервые это понятие как название сети торговых путей (Seidenstrassen), связывающих Китай с западными странами, применил немецкий востоковед Фон Рихтгофен в своей книге «Китай». С тех пор это название на устах и заняло прочную позицию в научных исследованиях. Явление действительно заслуживает к себе такого внимания, так как сыграло величайшую роль в мировой культуре. Как отмечал академик Н.Н.Негматов, Шёлковый путь был событием мирового порядка, глобализационным процессом раннего средневековья [1,14-18], когда ценности, товары и достижения в одной части Старого Света становились доступны в других частях Земли. Актуальность темы и постоянно возрастающий интерес к Шёлковому пути обусловлен возможностью его возрождения и использования вновь для развития общества. В конце XX начале XXI вв. был осуществлен ряд больших проектов, связанных с изучением трасс Шёлкового пути, проведены научные семинары и конференции. В марте-октябре 1988 году в древней столице Японии-городе Нара-состоялась грандиозная международная выставка «Шёлковый путь-88» [2, 276].

Анализ литературы по теме. В последние годы основные направления развития международных отношений в мире, в частности тенденции биполярного противостояния, возможности влияния процессов глобализации на культурное сотрудничество и методы глобального управления проанализированы в исследованиях таких ученых как Д. Белл, М. Рассет, С. Лен, У. Томохико, Х. Карар, М. Хикок, П. Франкопан, С. Пейруз, Ф. Старр, С. Корнелл. Ученые Содружества Независимых Государств А.Казанцев, Н. Мурашкин, Р. Мирзаев, Э. Усубалиев, К. Шустов А. Мамадазимов, Н. Негматов, В. Аубакирова, А. Умуразакова и С. Айтенев исследовали проблему, отличающуюся новыми подходами к изучению Великого шелкового пути. Ю. Тавровский подробно исследовал не только инициативу такой страны как Китая, но и ее влияние на культуру стран, где пересекается Великий шелковый путь.

Исторические аспекты восстановления Шелкового пути в нашей стране исследовали А.Ходжаев, О.Кобзева, а в аспекте анализа отношений в социальных, политических, этнокультурных процессах – Э.Ртвеладзе, В.Парамонов, С.Отамуродов, О.Сирожев, К.Назаров, Ж.Яхшиликов, Н.Мухаммадиев, С.Чориев, А.Шарипов.

Методология исследования. В статье использовались методы сравнительного, ретроспективного анализа, системного подхода, сравнения, структурно-функционального анализа, контент-анализа, диалектики, герменевтики, синергетики научного познания.

Анализ и результаты. Действительно, Великий Шелковый путь в течение долгого времени служил важным фактором экономической, социальной и культурной интеграции стран Запада и Востока, Юга и Севера. Великий шелковый путь сыграл важную роль в историческом развитии региональных и международных отношений в Центральной Азии. Библиография научных и научно-популярных работ о Великом шелковом пути насчитывает не одну тысячу названий, монографии, книги, брошюры, статьи, доклады, тезисы.

В них дана история Великого шелкового пути, описание основных и вспомогательных дорог, характеристика городов, этнический состав населения, наименования товаров, архитектура и искусство, музыка и эпос. Однако в полном научном объеме библиография пока не составлена. В последние два десятилетия значительно усилился научный и общественный интерес к истории этой великой трансконтинентальной дороге, её месте и значимости в мировой цивилизации [3, 9]. В истории Центральной Азии это очень бурный период: происходит ломка старых производственных отношений и установление новых, рушатся одни государства, и на смену им приходят новые, меняется этнополитическая ситуация и этнический атлас и т.д. Самое заметное явление - переселение больших масс населения с одной территории на другую. Период известен в науке как период Великого переселения народов, затронувший и ВШП. Хотя, с одной стороны, международная торговля продолжалась, с другой точки зрения, Великий

шелковый путь этого периода можно рассматривать как важнейший фактор транзита обычаев и традиций, искусства (архитектуры, дизайнерского искусства, скульптуры, и многое другое) различных народов из одной части земли в другую, из Азии в Европу и в обратном направлении. А с точки зрения политики, Великий шелковый путь не раз становился орудием войн, и воинственные правители, стремившиеся к расширению своих владений и накоплению безмерных богатств, без всякой жалости и сожаления проливали кровь своих подданных. Хроника продолжительных войн Византии и Ирана за преобладание на западном отрезке ВШП, Китая и кочевников на восточном отрезке показывает, что ритм торговли, нарушался, затруднялась транспортировка шёлка и других товаров, что привело к зарождению шелководства и за пределами Китая. Система торговых связей этого времени довольно подробно представлена в сообщениях восточных географов IX- X вв. В этих дорожниках названы все пункты и расстояния между ними, отмечены узловые торговые центры и караван-сарай. К сожалению, как было отмечено выше, третья глава небольшая и поэтому многие вопросы остались не освещёнными. Хотя значительные археологические работы, проведённые во второй половине XX века на территории Ближнего и Среднего Востока, Центральной Азии, северо-западного Китая, позволили решить многие вопросы, связанные с ВШП.

Так, например, находка и изучение изделий согдийских мастеров (остатки тканей, керамика, бумага, предметы торевтики и др.) позволили определить ареал расселения согдийцев вдоль трасс Шёлкового пути. Изделия из Согда найдены на территории Европы, Китая и Японии. Раскопаны многие памятники (караван-сарай, рабаты, базары, сардоба и др.), так или иначе связанные с международной торговлей, выявлены основные и вспомогательные дороги, определены узловые пункты и торговые фактории. Сочетание данных археологии и письменных источников позволили локализовать многие города, указанные в путеводителях и дорожниках.

Почти в каждом раскопе полученные находки четко делились на две группы: местного происхождения и производства и привозные, иностранного производства, вещи. Такие находки свидетельствуют о тесных контактах народов и в целом о развитии товарообмена, находки же показывают основные направления связей. Результаты такого интенсивного изучения археологических памятников вдоль трасс Великого шёлкового пути на всём его протяжении позволили учёным решить ряд важных теоретических проблем ВШП [4, 268;]. В некоторых странах Востока (Индия, Китай, Узбекистан, Шри Ланка, Япония) созданы специальные научные институты по изучению Великого шелкового пути в т.ч. Институт Хироямы в Камакуре (Япония), издающий высоконаучный ежегодник "Археология и искусство Великого шелкового пути" (вышло 4 выпуска). Подобного рода институт основан и в Узбекистане в г. Самарканде Международный институт Центральноазиатских исследований (МИЦАИ), созданный по решению ООН и ЮНЕСКО. Один из проектов его работы предусматривает изучение городов и маршрутов Великого шелкового пути. Помимо научных и культурных программ, осуществляется проект мировой значимости по возрождению Великого шелкового пути. Исключительно важное значение придается изучению Великого шелкового пути в Узбекистане. Благодаря инициативе и поддержке Первого Президента Республики Узбекистан И.А.Каримова, здесь проводится активная деятельность по возрождению, развитию культуры, науки, искусства, народных промыслов туризма. Не случайно именно Ташкент был избран местом проведения

международного семинара под эгидой Всемирной туристской организации, обратившейся к странам мира с призывом превратить Великий шелковый путь в путь дружбы и сотрудничества. Не случайно также, что одна из центральных магистралей Ташкента, ведущая на Восток, названа "Буюк ипак йули"- "Великий шелковый путь".

Даже после того, как программа ЮНЕСКО прекратила финансирование в 1997 году, проект оставался в центре внимания социологов и философов, а это означало, что он сам по себе стал тенденцией и имел право дальнейшему процветанию. Поэтому в последние годы в рамках этого проекта был организован ряд конференций. В частности, в октябре 2008 года в Ташкенте «Пути развития и популяризации культурного туризма в странах Шелкового пути», в ноябре 2008 года в Баку «Дорога Страбона – как часть Шелкового пути», в ноябре 2009 года в Сиане «Номинация трансграничная серия Всемирного наследия Шелкового пути»[5,63] в июне 2013 г. в Улан-Баторе прошли научные конференции на тему «Шелковый путь: прошлое, настоящее, будущее»[6,70-73] а в сентябре 2013 г. в Самарканде на тему «Культурные переходы на перекрестках Центральной Азии: до, во время и после Великого шелкового пути»[7, 101-106]. Эта международная программа, организованная ЮНЕСКО, сыграла важную роль в изучении, восстановлении и развитии современных культурно-гуманитарных связей по истории, культуре и традициям Шелкового пути.

Изучение Шелкового пути в контексте материальной культуры особенно эффективно. Важность предметов становится очевидной в их взаимодействии с культурами - кто их производил, использовал, продавал или выбрасывал. Знания, полученные в процессе такого познания, помогут сформировать новый взгляд на культуру прошлого». Надо подчеркнуть, что первенство Узбекистана в выдвигании идеи культурной трансформации Шелкового пути, создание для этого соответствующих внешнеполитических предпосылок было еще более значимым на фоне исключительной роли Амира Темура в развитии дипломатической и культурной составляющих указанного исторического пути, на фоне идей Сахибкирана о едином интеграционном торгово-экономическом и культурно-просветительском пространстве, на фоне исторического значения наследия бактрийской, согдийской, хорезмской, фергано-чачской цивилизаций. Как справедливо считают эксперты, Амир Темура вновь объединил основные евразийские торговые маршруты в рамках новой империи».

Выводы и предложения. Анализ вышеприведенных фактов и аргументов позволяют сделать ряд философских умозаключений о сущности и структуре, функциях и значении феномена шелкового пути:

Во-первых, феномен шёлкового пути, продвигаемая Китаем и другими странами, формируется как система идей, взглядов и подходов которые служат интеграции социально-экономического, политического и культурного потенциала государств, расположенных в Евразийском регионе, и мобилизации этого потенциала для ускорения развития стран. Идея Нового шёлкового пути основывается на историческом примере древнего Великого шёлкового пути, действовавшего со II в. до н. э.

Во-вторых, социальное значение феномена шелкового пути в том, что она сможет способствовать социально-экономическому, политическому и культурному сближению стран региона, координации их торгово-экономического, транспортно-коммуникационного, геополитического, социального, культурного потенциала и устремлений.

ЛИТЕРАТУРА

1. Негматов, Н.Н. От древнейшей арийской глобализации Евразии к современной интеграции Мирового сообщества/ Н.Негматов//Национальные интересы и политика безопасности государств Центральной Азии в условиях глобализации. - Душанбе, 2006. - С.14-18

2. The Grand Exhibition of Silk Road Civilizations. The Oasis and steppe Routes. Published by Nara Prefectural Museum of Art, the Association for Silk Road Exposition. - Nara, 1988 - 276 p.
3. Ртвеладзе Э. Великий Шелковый Путь. энциклопедический справочник. Древность и раннее средневековье. - Т.: Национальное энциклопедия Узбекистана. Т.1999.С.-9.
4. Великий шелковый путь и Ферганская долина. - Ташкент, 2014.-268 с.
5. Вестник МИЦАИ, 2009, №10. – С. 63.
6. Татыбаев А. Шелковый путь: прошлое, настоящее, будущее. Материалы международной научной конференции. //Вестник МИЦАИ, 2013, №17. – С. 70-73.
7. Горшенина С. Культурный трансфер на перекрестках Центральной Азии: до, во время и после Великого Шелкового пути. Материалы международной научной конференции. /Вестник МИЦАИ,2013, №18. С.101-106



Djanibek KUSHARBAYEV,

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti bo'lim boshlig'i, PhD

E-mail: d.kusharbayev@bimm.uz

A. Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi p.f.f.n. dots. G'. Otamurodov taqrizi asosida

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING THE INNOVATIVE COMPETENCE OF HIGHER EDUCATION

Annotation

This article describes the mechanisms of innovation, the conditions under which this mechanism works effectively, and all information coming from the external and internal environment. The pedagogical and psychological aspects of the issue of developing the innovative potential of teaching staff in the process of professional development are also described.

Key words: Innovation activity, innovative environment, psychological barrier, regulation, cognitive barrier, innovative potential, stereotype, network technologies.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ

Аннотация

В данной статье описаны механизмы инновационной деятельности, условия, при которых этот механизм работает эффективно, и вся информация, поступающая из внешней и внутренней среды. Также описаны педагогико-психологические аспекты вопроса развития инновационного потенциала педагогических кадров в процессе профессионального развития.

Ключевые слова: Инновационная деятельность, инновационная среда, психологический барьер, регулирование, когнитивный барьер, инновационный потенциал, стереотип, сетевые технологии.

PEDAGOG KADRLARNING INNOVATSION SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada innovatsion faoliyatning yuzaga kelish mexanizmlari, ushbu mexanizm ishlaydigan va samara beradigan shart-sharoitlari, tashqi hamda ichki muhitidan kelib tushayotgan barcha ma'lumotlar, qadriyatlar tizimi yoritib berilgan. Shuningdek, malaka oshirish jarayonida pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish masalasining pedgogik-psixologik jihatlarini bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Innovatsion faoliyat, innovatsion muhit, psixologik to'siq, regulyatsiya, kognitiv to'siq, innovatsion salohiyat, stereotip, tarmoq texnologiyalari.

Kirish. Ma'lumki, har qanday texnologiya ta'limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanadi va ta'lim oluvchi shaxsini tarbiyalash, unda mehnat bozori talablari va muayyan yo'nalishlarda kasbiy ko'nukmalarni hosil qilishga yo'naltiriladi. Ta'lim jarayonining faol sub'ektlari o'qituvchi va o'quvchilar bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari muayyan mavzu (yoki fan asoslari) bo'yicha kam kuch va vaqt sarflagan holda nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini yaratadi.

Ta'limga olib borilayotgan islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri uchun poydevor yaratish o'z-o'zidan pedagogika sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishni taqozo etadi.

Pedagogika fani jamiyat tomonidan belgilangan talablar asosida inson kapitalini yaratishga xizmat qiladi. Buning uchun esa pedagogika fani jamiyat rivojining strategiyasi va ustuvor yo'nalishlariga to'liq mos keladigan ta'lim-tarbiya mazmuni, shakl, metod, vosita va texnologiyalarini ishlab chiqishi hamda uni amalga oshirish mexanizmlarini aniq belgilab berishi lozim.

Shuningdek ta'lim sohasining tez rivojlanishi jarayonida, pedagogika fanining aniq yo'nalishlari orqali XXI - asr talablarini talablarini qondirish uchun pedagogika fanining rivojlanish strategiyasi va ustuvor yo'nalishlarini belgilab berilishi maqsadga muvofiq

Innovatsion pedagogikaning vujudga kelishi va rivojlanishi, innovatsion pedagogikaning boshqa fanlar bilan bog'lanishi, innovatsion pedagogikaning umumiy g'oyasi va uning tushunchalari bugungi kundagi pedagogika fanining rivojlanish strategiyasi va ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim tizimi sifatiga bo'lgan talabning ortib borishi, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va pedagog kadrlar innovatsion salohiyatini rivojlantirishning pedgogik-psixologik jihatlarini tadqiq etishni taqozo etadi. Innovatsion muhitning mavjud bo'lmavligi pedagog kadrlarning metodik tayyorgarligining yaxshi emasligi, ularning pedagogik yangiliklardan xabardor bo'lmavligi bilan belgilanadi. Aksincha, innovatsion muhit mavjud bo'lsa, oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning yangiliklarni qabul qilmaslik foizi kamayadi, bu esa, ularda kasbiy faoliyat stereotiplarini bartaraf etishga yordam beradi. Bundan tashqari innovatsion muhit pedagog kadrlarning pedagogik innovatsiyalarga munosabatida ham o'z aksini topadi.

Innovatsion faoliyatning yuzaga kelish mexanizmlari va ushbu mexanizm ishlaydigan, samara beradigan shart-sharoitlarini tushunishimiz va bu borada tasavvurlarimiz to'laqonli bo'la olishi uchun bizda innovatsion faoliyatni amalga oshirmoqchi bo'layotgan, rejalashtirayotgan shaxs "o'z qarashlar tizimi" chegarasidan, kasbiy vazifalarni amalga oshirishning an'anaviy usullaridan, faoliyatni bajarish haqidagi tasavvurlaridan chetga chiqishi, yangi vaziyatga "ko'chishi", hech bo'lmaganda qisqa muddatga boshqa bir maydonga, nuqtai nazarga o'tishida muqarrar duch keladigan psixologik to'siqlar haqida bilimlar bo'lishi zarur. Boshqa bir madaniyatga, nuqtai nazarga "ko'chish" ancha mushkul vazifa. Ammo shunday vaziyatlar va sharoitlar mavjudki, ular bu "ko'chish"lar, "o'tish"larni ancha soddalashtiradi.

R.M.Granovskaya va Yu.S.Krijanskayaning ta'kidlashicha, "Biz har doim va har yerda: fikrlashda, xulqda,

ijtimoiy hayotda – streoptiplarga duch kelamiz va ularni yenga olmaymiz. Agar biz sal ochiqroq va tizginsizroq, streotiplardan ozodroq, birozgina soddaroq bo'la olganimizda edi – muammolar anchagina kam bo'lgan bo'lardi! Bizga ijodni boshlay bilish, hayotga nisbatan ijodiy yondashish va umuman, ijod, yaratishning barcha shakllari yetishmaydi" [1].

V.S.Slastenin va L.S.Podmova to'laqonli hayot hissi insonda, u o'z-o'zini ko'rsata bilgan vaqtdagina, ya'ni o'z ideallarini hayotga tatbiq eta olgan, topa olgan va shu jarayonda, uning uchun alohida subektiv mazmun, ma'noga ega e'tiqodlariga, qadriyatlar tizimiga qarshi chiqmagan, ularni buzishga majbur bo'lmagan paytdagina yuzaga kelishini ta'kidlashadi. Olimlar fikricha: qadriyatlar tizimining ortiqcha barqarorligi, harakatsizligi mutaassiblik, ishonchning psixik to'mtoqlashgani, qotib qolganligi sifat ko'rinishini beradi: inson juda ko'p narsalarni o'zi uchun imkonsiz deb biladi va shu orqali u o'z-o'zini o'zgaruvchan voqelikdan muhofazalaydi. Boshqa bir tomondan esa, haddan ortiq harakatchan, o'zgaruvchan va beqaror qadriyatlar tizimi umumqabul qilingan me'yorlarning qadrsizlanishi (ularga befarqlik), "hamma narsaga ijozat berish" ko'rinishida aks etadi [2].

Insonning tashqi va ichki muhitidan kelib tushayotgan barcha ma'lumotlar, qadriyatlar tizimi va to'siqlari tomonidan kuzatib boriladi. Psixologik to'siqlar – "shaxsning unga faol pozitsiyani egallash va muayyan faoliyat yoki muloqot turini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi, imkoniyatlarni yo'l bermaydigan maxsus psixologik holati" [3].

A.M.Xon pedagoglar yangilikka duch kelishida uchraydigan psixologik to'siqlarni ikkiga bo'ladi: bilishga doir (kognitiv) va boshqarishga doir (regulyativ). Ularning fikricha, yangiga nisbatan kognitiv psixologik to'siqlar yangi haqidagi muayyan bilimlarning yo'qligi, yangiliklardan ta'sirlanmaslik sabab paydo bo'ladi va sust qarshilikka uchraydi. Boshqaruvga doir psixologik to'siqlar tashabbuskorlarga, rahbariyatga va yangilikka nisbatan ishonchsizlikda namoyon bo'ladi va yangilikka nisbatan faol qarshilikni paydo qiladi [4].

Psixologik to'siqlar tahliliga doir adabiyotlarda ushbu to'siqlarni baholashning V.I.Antonyuk tomonidan ishlab chiqilgan, mantiqan muvofiqlashtirilgan baho tizimi ajratib ko'rsatiladi. Bu tahlilda psixologik to'siqlar innovatsiyalar tadqiq etilishi sharoitida jamoa ijtimoiy-psixologik muhitining ko'rinish shakli sifatida talqin qilinadi [5]. Bunda xodimlarning yangilik qo'llanilishi sabab yuzaga keluvchi salbiy: harakatlari, mulohazalari, tushunchalari, xulosalari, kutishlari va hissiy kechinmalari yashirin yo ochiq, anglangan yo anglanmagan, atayin yoki bilmasdan yuzaga kelan salbiy psixik holatlar ta'siriga uchragan jamlanma, to'plam sifatida aks etadi.

V.I.Antonyukning ushbu tadqiqotining ko'rsatishicha, psixologik to'siq rivojlanib boruvchi, o'suvchi ijtimoiy-psixologik muhit natijasi hisoblanadi, uning ko'rsatkichlari yangilik qo'llashning joyi va vaqti, tashkilotida, xodimlarning turfa toifalarida jiddiy o'zgarishlarga uchraydi.

Yangilik qo'llashning bunday transformatsiyasi har bir konkret holatni chuqur tadqiq qilishni, to'siqning ob'ektiv va sub'ektiv determinantlarini o'rganishni, uni turli xil usullar bilan muvofiqlashtirish va boshqarish yo'llarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, psixologik to'siqlarni muvaffaqiyatli yengish uchun kundalik ongning yangilikning samarali tatbiqiga jiddiy tarzda xalal berayotgan ba'zi streotiplarini yetarlicha jiddiy tarzda o'zgartirish talab etiladi.

R.M.Granovskaya va Yu.S.Krijanskayalarning ta'kidlashicha, muayyan bir yangini va kutilmaganni baholay bilish, inson ushbu yangini qanday idrok etayotganligi, ushbu ma'lumot uning oldingi tajribalaridan qanchalik ozodligi bilan belgilanadi [6]. Muayyan bir yangini nafaqat idrok etish, balki qabul qilishni istamaslik bilan chulg'angan o'z olami chegaralaridan chiqib bilish oson emas. Buning uchun alohida kuch, yoki alohida undovchi, qo'zg'atuvchi vaziyat talab etiladi. Ammo ushbu kechirilgan kechmishlar deyarli har doim yangi ijodiy qarorlar, xulqning yangilanishi bilan rag'batlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi vaqtda yangi tendensiya yangi yo'nalishni ko'rsatmoqda. Psixologik to'siqlarni yengib o'tishning birinchi strategiyasi psixologik to'siq mavjudligini anglash, vaziyatni qabul qilish, ammo harakatsizlik bilan tavsiflanadi. Psixologik to'siqlarni yengib o'tishning ikkinchi strategiyasi psixologik to'siq mavjudligini anglash, vaziyatning o'ziga xosliklarini tushunish va qabul qilish, konstruktiv harakatlarni bajarishdan tarkib topadi. Psixologik to'siqlarni yengib o'tishdagi uchinchi strategiya – vaziyatni inkor qilish, undan yuz o'girish va harakatsizlik. Psixologik to'siqlarni yengib o'tishda to'rtinchi strategiya – vaziyatni anglash, uni qabul qilish va tushunish, ammo samarasiz (destruktiv) harakatlarni amalga oshirish.

Psixologik to'siqlarni muvaffaqiyatli yengib o'ta olish uchun: o'z shaxsiy kechinmalarini to'g'ri tushunish va anglash, innovatsion faoliyatdagi omadsizliklarga ortiqcha urg'u bermaslik; o'z Men – obrazini innovatsion faoliyat sub'ekti, egasi, sohibi sifatida qabul qilish; innovatsion faoliyat murakkabliklari, qiyinchiliklarini bo'rttirmaslik va ularni adekvat baholash; o'z imkoniyatlarini yetarlicha to'g'ri baholay olish; ta'lim jarayoni va innovatsion faoliyat ishtirokchilari bilan faol o'zaro munosabatlarga kirisha olish; o'zini idora etish va o'zini nazorat qila bilish ko'nikmalarini egallash; o'z harakatlari sababini tashqi olam, taqirdan emas, o'z fikri, dunyoqarashi va harakatidan izlash va bunga ishonish talab etiladi.

Demak, innovatsion muhitni ana shu tarzda yaratish muhim ahamiyatga ega ta'limiy natijalarni qo'lga kiritishga yo'naltirilgan innovatsion jarayonlarni samarali amalga oshirishga imkon beradi: innovatsion g'oyalari, texnologiyalar, metodikalar, ta'lim-tarbiya metodlari, usullari va h.k.

Ma'lum bo'ladiki, mazkur shart-sharoitning mohiyati innovatsion faoliyatning barcha sub'ektlariga innovatsion muhitning ijobiy ta'sir etishiga erishish; innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun maqbul sharoit yaratish; pedagog kadrlarning turli innovatsion loyihalarni ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyojini rag'batlashda o'z ifodasini topadi.

Pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish mexanizmi professor-o'qituvchilarning yuqori o'quv, ilmiy-tadqiqotchilik, amaliy faolligini ta'minlaydi hamda ta'limiy, ilmiy va amaliy faoliyatni integratsiyalash imkonini berib, kasbiy tayyorgarlik mazmunini o'z vaqtida yangilab borish, shaxsiy ehtiyojlarni muntazam monitoring qilib borish hisobiga resurslarni maqsadli yo'naltirish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida ta'kidlanganidek, hozirgi vaqtda pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini uch o'zaro aloqadorlikka ega tarkibiy asosga tayanmasdan amalga oshirib bo'lmaydi: tarmoq texnologiyalari orqali hamkorlikdagi faoliyatni samarali amalga oshirish; pedagog kadrlarning innovatsion faolligini rag'batlash; malaka oshirish jarayonida tinglovchilarining ilmiy-tadqiqotchilik va amaliy faoliyatini jadallashtirish.

Yangi innovatsion texnologiyalari orqali hamkorlikdagi faoliyatni samarali amalga oshirish – bu mehnat bozori talablariga muvofiq kasbiy faoliyat samaradorligiga erishish, foydalaniladigan resurslarni maqbullashtirish, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish maqsadida malaka oshirish kurslari va oliy ta'lim muassasalari va sub'ektlarning tashqi muhit bilan o'zaro birgalikdagi harakatini tashkil etishning barqaror shakli.

Yangi innovatsion texnologiyalari orqali hamkorlikdagi faoliyatni samarali amalga oshirish mexanizmi pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish nuqtai nazaridan quyidagi muhim imkoniyatlarga ega:

- ta'lim xizmatlari bozorida o'zgaruvchan talablarga muvofiq, ta'limiy faoliyat tuzilmasiga dinamik o'zgartirishlar kiritish imkoniyatining mavjudligi;
- malaka oshirishga doir ta'limiy dasturlar ro'yxatini kengaytirish;
- individual ta'lim traektoriyasini amalga oshirish hisobiga o'qitish jarayonlarini tashkil etishning moslashuvchanligini taminlash;

- stajirovka va amaliyot o'tish tizimini rivojlantirish hisobiga malaka oshirish jarayonlarining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash;

- resurslardan foydalanish va integrallashgan servis xizmatlarini maqbullashtirish.

Pedagog kadrlarning innovatsion faolligini oshirish hamda ilmiy-tadqiqotchilik va amaliy faoliyatini samarali tashkil etish mexanizmlari o'qituvchilarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur faoliyat natijalarining baholash reyting tizimi shaklida amalga oshadi.

Innovatsion salohiyat bunday tizim bilan, eng avvalo:

- pedagog kadrlarning ilmiy-pedagogik faoliyatining uzluksizligini ta'minlash;

- o'qituvchilarning hamkorlikning tarmoq shaklidagi ishtirokining xilma-xil turlarini rag'batlantirish;

- pedagog kadrlarning akademik va xalqaro darajadagi faolligini rag'batlash bilan bog'liqdir.

Pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishni yuqorida quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

Individual ta'lim traektoriyasi.

Individual ta'lim traektoriyasi malaka oshirish jarayonining muqobil shakli, turi va real tanlangan modulni talab etadi.

Malaka oshirish jarayonida qo'shimcha ta'lim kursini (masalan, boshqaruv, pedagogik-psixologik va kasbiy malaka oshirishni) o'zlashtirish maqsadga muvofiq.

Malaka oshirishning mazkur shaklini amalga oshirish:

- malaka oshirish jarayonida qo'shimcha ta'lim dasturlarini joriy etish;

- kredit-reyting tizimi asosida integrallashgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqishni talab etadi.

3. Pedagog kadrlarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish.

Yangi talablar bilan bog'liqlikda pedagog kadrlarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishga doir malaka oshirish dasturlarini loyihalashtirish bir qancha nazariy kurslarni amaliy komponentga almashtirishni talab etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish modelini amalga oshirishning maxsus pedagogik shart-sharoitlarining zarurati asoslanadi. Bunga tizimli tahlil qoidalariga amal qilish orqali erishiladi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish modelining pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtiriladi va ularning mohiyati ochib beriladi. Natijada, malaka oshirish jarayonida pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishning yaxlit mexanizmini takomillashtirishga erishiladi.

ADABIYOTLAR

1. Granovskaya R.M, Krijanskaya Y.S. *Tvorchestvo i preodoleniye stereotipov.* – SPb.: Izdatelstvo OMS, 1994. – 192 s. – S.4.
2. Slastenin V.A, Podimova L.S. *Pedagogika: Innovatsionnaya Deyatel'nost.* – M.: Magistr, 1997. – 224 s. – S.85.
3. Kondratyev M. Y., Ilin V. A. *Azbuka sotsialnogo psixologa-praktika.* – M.: PER SE, 2007. – 464 s.
4. Xon A.M. *Psixologicheskiye baryeri pri vnedrenii novovvedeniya v shkolnuyu praktiku i nekotoriye puti ix preodoleniya: Metodicheskiye rekomendatsii.* – Alma-Ata: AGPI, 1996. – 88 s.
5. Antonyuk V.I. *Problema sotsialno-psixologicheskogo klimata.* – Moskva, 2016. – 98 s.
6. Granovskaya R.M, Krijanskaya Y.S. *Tvorchestvo i preodoleniye stereotipov.* – SPb.: Izdatelstvo OMS, 1994. – 192 s.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2019 y., 09/19/797/3793-son.
9. Antonyuk V.I. *Problema sotsialno-psixologicheskogo klimata.* – Moskva, 2016. – 98 s.
10. Begimqulov U.SH. *Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori. ... diss.* – T., 2007. – 305 b.
11. Granovskaya R.M, Krijanskaya Y.S. *Tvorchestvo i preodoleniye stereotipov.* – SPb.: Izdatelstvo OMS, 1994. – 192 s.
12. Jalilova S.X., Xaydarov F.I., Xalilova N.I. *Kasb psixologiyasi.* – T.: TDPU, 2010. – 162 b.
13. Kusharbayev J.U. *Malaka oshirish jarayonida pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss.* – T., 2020. – 48 b.
14. Mirsoliyeva M.T. *Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari. Monografiya.* – Toshkent, "Fan va texnologiyalar", 2018. – 102 b.
15. Xodjayev B., Zufarov Sh. *Pedagogik innovatika.* – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010. – B.14-15.
16. "Pedagogning innovatsion faoliyatini rivojlantirish" modulining o'quv-uslubiy majmuasi. – T.: BIMM, 2019. – 130 b.



UDK:2:17.02(575.1)

Shohrux QARSHIYEV,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: qarshiyevshohrux@gmail.com

TIU prof. p.f.d K.Kadirov taqrizi asosida

O‘ZBEKISTONDA DIN VA AXLOQ MUTANOSIBLIGI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada davlatimizda din va axloq mutanosibligiga oid muammo va yechilar keltirildi va tavsiflandi. Maqolada diniy va axloqqa oid nazariy ilmlar va qarashlar muhokama qilindi.

Kalit so‘zlar: din, axloq, ilm, mutanosib, bilim, ijtimoiy-siyosiy, Islom, ta’lim tizimi, iymon-e’tiqod, dars, yechim.

РЕЛИГИЯ И МОРАЛЬ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация

В статье анализируются и описываются проблемы и пути их решения, связанные с балансом религии и нравственности в нашей стране. В статье рассмотрены теоретические науки и взгляды на религию и мораль.

Ключевые слова: религия, мораль, наука, пропорциональность, знание, социально-политический, ислам, система образования, вера, урок, решение.

RELIGION AND MORALITY IN UZBEKISTAN: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Annotation

The article analyses and describes problems and solutions related to the balance of religion and morality in our country. Theoretical sciences and views on religion and morality were discussed in the article.

Key words: religion, morality, science, proportionality, knowledge, socio-political, Islam, educational system, faith, lesson, solution

Kirish. Bugungi kunda ilm-fan aql bovar qilmas darajada taraqqiy etmoqda. Bu insoniyatning ilm egallashga, uni hayotga tatbiq etishga bo‘lgan intilishlari mahsulidir. Ilm o‘rganish, uning hosilalarini hayotga tatbiq etish zamon talabi bo‘lishi bilan birga, asrlar davomida insoniyatning kundalik yumushi, iymon-e’tiqodiga aylangan qadriyat hisoblanib, ilm egalari doimo sharaflanadi.

Ilm turfa xil qarash va yondashuvlarga ega shaxslar, jamoalar, jamoat tashkilotlarining o‘zaro sog‘lom kurashi o‘laroq raqobat muhitida tez rivojlanadi. Davlat esa taraqqiyotga homiylik qiladi, sharoit yaratib imkoniyatlar beradi. Dunyoda va mamlakatimizda ro‘y berayotgan voqea-hodisalar, ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tahlili diniy-ma’rifiy sohadagi faoliyat samaradorligini oshirishni va malakali kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Mana shunday talab va ehtiyojlardan kelib chiqib 2018 yil 16 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

Adabiyotlar tahlili. Axloq to‘g‘risidagi fanlarning asosiy vazifasi axloqiy barkamol inson va jamiyatni tarbiyalashning yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatib berishdan iborat. Axloqiy tarbiya shu yo‘ldagi uzluksiz amaliy jarayondir. Inson axloqiy tarbiya orqali axloqiy qadriyatlarini anglab yetadi, o‘zida axloqiy tajribalar, ko‘nikma va fazilatlarini shakllantiradi, axloqiy me’yorlar va tamoyillar asosida yashashga o‘rganadi. Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikkita muhim masalaga javob izlaydi: biri – qanday yashamoq kerak, ikkinchisi – nima qilish keragu nima qilmaslik lozim. Axloqiy tarbiya – insonni komillikka eltuvchi yo‘l. Uning vositalari ko‘p, biri an’anaviy tarbiya bo‘lsa, ikkinchisi zamonaviy tarbiyadir. Odatda, har ikki turdagi vositalardan samarali foydalaniladi. Maktabgacha axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar, pand-nasihatlar ruhida, an’anaviy tarbiya o‘yin va o‘yinchoqlar vositasidagi zamonaviy tarbiya bilan o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanadi.

XX asrning ikkinchi yarmida xorij davlatlarida AQSH va G‘arbiy Yevropada B.Peter, T.Lukman, D.Martin, B.Vilson, K.Doblayer, R.Stark, J.Kazanova, X.Koks va boshqa

tadqiqotchilar sekulyarizatsiyaning tarixi va asosiy tamoyillari, uning xristian madaniyatiga ta’siri, davlat va din munosabatlarining yangi bosqichini o‘rganishga alohida e’tibor qaratgan.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi dindan ajratilgan bo‘lib, ta’lim tizimining o‘quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining dunyoviy ta’lim olish huquqi ularning dinga bo‘lgan munosabatidan qat’i nazar ta’minlanadi. Diniy ta’lim muassasalari, tashkilot va birlashmalarining davlatdan ajratilganligi ularning fuqarolik jamiyatida alohida institut sifatida mavjudligini anglatadi. Shunday ekan, ularning davlat va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro munosabatlardagi o‘rni va aloqalarini tadqiq etish, o‘rganish va aniqlash lozim bo‘ladi.

Diniy ta’lim faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 1 martdagi Diniy ta’lim muassasalarining faoliyatini lisenziyalash to‘g‘risidagi nizom va 2018 yil 31 maydagi qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish va tugatish tartibi to‘g‘risidagi nizom bilan tartibga solinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi paytda mamlakatimizda jami 16 ta diniy konfessiya rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, diniy tashkilotlar soni 2298 tani tashkil etadi (01.2021). Ayni paytda 10 ta islomiy (2 ta ayol qizlar uchun) o‘rta maxsus bilim yurtlari, 3 ta Oliy islomiy diniy ta’lim muassasalari, 1 ta Rus pravoslav cherkovi va 1 ta to‘liq Yevangel xristianlari cherkovining seminariyalari faoliyat olib bormoqda.

Hozirgi davrda diniy ilm o‘rganishni zamonaviy yo‘nalishlari juda ko‘p. Bizning nazarimizda ulardan biri - Markaziy Osiyo va O‘zbekistonlik olim, faylasuf, mutaxassislar asarlari, izlanish va tadqiqotlarida namoyon bo‘lmoqda.

Bu borada ayniqsa I.M. Mo‘minov asarlari alohida ahamiyatga molik. Olim o‘z asarlarida o‘tmish va tarixiy merosimizda diniy qarashlar va axloqiy bilimni zamona realliklari nuqtai nazaridan izohlagan, haligacha qimmatini yo‘qotmagan fikr va mulohazalarni bayon qilgan. I.M.Mo‘minov qalamiga mansub «Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixidagi o‘rni va roli»

risolasi tarixiy merosga axloqshunoslik nuqtai nazaridan yondashishning "klassik" namunasidir.

Diniy ta'lim muassasalarida ta'lim olishga umumiy o'rta ta'lim muassasalarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshirilgan umumiy o'rta ta'limdan so'ng ruxsat etiladi. Xususiylar diniy ta'lim berish qonun bilan cheklangan bo'lib, diniy ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasida belgilangan davlat ta'lim standartlari va talablariga muvofiq dunyoviy fanlarni o'qitish lozimligi belgilangan. Jamoatchilik o'rtasida diniy ta'lim olishga bo'lgan intilish yuqori bo'lib, amaldagi diniy ta'lim qamrovi aholi ehtiyojlarini qondira olmaydi. Bu esa yoshlar va turli aholi qatlamlarining ruxsat etilmagan tarzda (hujralarda) diniy ta'lim olish bilan birga xorijiy mamlakatlardagi turli diniy ta'lim muassasalarida ta'lim olish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston xalqaro Islom Akademiyasi tashkil etilib: diniy va dunyoviy bilim berishga ixtisoslashgan islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o'rganish asosida yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish; dini zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadigan buzg'unchi yot g'oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida aholining, ayniqsa, yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish; jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirishdan iborat va hakazo.

Axloqiy – jamiyatdagi axloqning yuksaklik darajasini, fuqarolarning axloqiy saviyasini aks ettiruvchi tushuncha. U shaxsning jamiyatdagi asosiy axloq me'yorlarini egallashi va o'zgalari bilan shu asosda munosabatda bo'lishi, o'zini axloqiy tomondan muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi. Axloqiy aqidalarning eng muhim omillaridan biri – muomala odobi. Insonlar bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, o'zaro ta'sir ko'rsatmasdan yashashi mumkin emas. Binobarin, muloqot, muomala inson uchun asosiy ehtiyoj, zarurat.

Axloqiy tarbiya – jamiyat ma'naviy hayotidagi muhim ijtimoiy hodisa bo'lib, odob-axloq tizimini, axloqiy fazilatlarini zamon talablari asosida har qaysi avlod ongiga singdirish shakli. Axloqiy tarbiya adabiyot, psixologiya, etika va estetika fanlari o'rganadigan ilmiy kategoriyadir. Axloqiy tarbiya deganda o'sib kelayotgan avlodda xulq-odob me'yorlariga mos keladigan, zamon talablariga javob beradigan insoniy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan ilmiy va amaliy harakatlar tizimi tushuniladi. Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq.

Din va axloq o'rtasidagi munosabatlar haqida gapirganda, ularning bir-biriga qanday ta'sir ko'rsatishi va ularning bir-birini qanday qo'llab-quvvatlashi muhimdir. Din va axloq mutanosibligi ko'pincha quyidagi jihatlardan orqali tahlil qilinadi:

1. Axloqiy tamoyillar va qadriyatlar:

Dinlar odatda axloqiy tamoyillar va qadriyatlarni belgilashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, musulmonlik, xristianlik, va yahudiylar kabi dinlarda insonning yaxshi va yomon amallari aniq ko'rsatib beriladi. Bu tamoyillar odatda adolat, halollik, rahmdillik, va boshqalarga hurmat kabi axloqiy qadriyatlarni o'z ichiga oladi.

2. Axloqiy tartib-intizom:

Diniy e'tiqodlar odamlarga ma'lum bir axloqiy tartib-intizomni saqlashda yordam beradi. Masalan, islom dinida kundalik ibodatlar, ro'za tutish, va sadaqa berish kabi amallar odamlarga axloqiy jihatdan yaxshi hayot tarzini saqlashga yordam beradi.

3. Axloqiy muammolarni hal qilish:

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni 5-modda. www.lex.uz
3. Qarang: O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik, to'rtinchi jild. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – B.27
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik, ikkinchi jild. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – B.195
5. Abu Lays Samarqandiy. Bistonul orifiyn. <https://islom.u/>

Dinlar ko'pincha insoniyat oldida turgan axloqiy muammolarni hal qilishda yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Misol uchun, islom dinida Qur'on va hadislardan kelib chiqqan shar'iy hukmlar axloqiy muammolarni hal qilishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

4. Axloqiy tarbiya:

Diniy ta'limotlar axloqiy tarbiya berishda muhim ahamiyatga ega. Oilalar va jamoalar o'z farzandlariga diniy ta'limotlar orqali yaxshi va yomonni ajratishni, boshqalarga hurmat va ehtirom ko'rsatishni o'rgatadilar.

5. Axloqiy mas'uliyat:

Din odamlarga axloqiy mas'uliyatni tushuntiradi va ularga bu mas'uliyatni bajarish uchun motivatsiya beradi. Misol uchun, ko'plab dinlarda qiyomat kuni va oxirat hayoti haqida ta'limotlar mavjud bo'lib, bu dunyoda yaxshi amallar qilishga undaydi.

6. Diniy va axloqiy me'yorlar:

Ko'pincha diniy me'yorlar axloqiy me'yorlar bilan mos keladi. Masalan, yomonlikdan qaytarish, haqiqatni gapirish, va o'zaro yordam kabi tamoyillar ko'pgina dinlarda aks etadi va umumiy axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashadi.

Bu jihatlardan orqali din va axloqning qanday qilib bir-biriga ta'sir ko'rsatishi va qanday qilib ularning bir-birini qo'llab-quvvatlashi ko'rinadi. Diniy e'tiqodlar va amallar insonlarning axloqiy qarorlar qabul qilishida va ularning axloqiy hayot tarzini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa va takliflar. Dinlardagi mazhab va yo'nalishlarning turilligi, ayrim xorijiy mamlakatlarda dindan mafkuraviy maqsadlarda foydalanish holatlarining yuqoriligi, yoshlarning diniy dunyoqarashida azaliy diniy qadriyatlarga yot bo'lgan qarashlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ayni paytda aholi o'rtasida sof diniy qadriyatlarining mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetmaslik, turli yot g'oyalar ta'siriga berilish, jamiyatda dunyo va din munosabatlari balansini tushunmaslik, dinga chuqur berilish orqali jamiyatga qo'shila olmaslik va yolg'izlanish yoki aksincha o'ta zamonaviylashib ketish orqali mavjud qadriyatlarni pisand qilmaslik holatlari uchramoqda.

Din va Moral (axloq) masalasi ko'pgina bahslarga sabab bo'ladigan falsafiy masaladir. Dindor kishilarning ta'kidlashicha insoniyatning axloqini asosida dinlar tomonidan beriladigan ta'limot yotadi, ya'ni din bo'lmasa kishilar o'zlarining axloq chegaralarini yo'qotib qo'yadilar va yomonlik va yaxshilik chegaralarini qayerdaligini bila olmay qoladilar.

Albatta bu savolga umumlashtirib dinni o'zini aybdor qilish ham noto'g'ri tashxis bo'lgan bo'lardi, chunki masala dinning mavjudligida emas, balki dinning siyosiy qurolga aylanib, devosita siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga suqulib kirishganidir. Shunday holda din kishilarni alohida-alohida jamoalarga ajratib o'z doirasidan tashqarida bo'lgan jamoadagi kishilarga o'zlariga teng insonlar sifatida emas, balki insoniylikdan uzoqlashgan, adashgan va johillikka kirib borayotgan kishilar sifatida qaraydilar. Natijada turli xil diniy qarashga ega bo'lgan kishilarda, o'sha diniy qarash asosida turli xil siyosiy kelishmovchiliklar paydo bo'la boshlaydi, jamoalar orasida bir-biriga nisbatan nafrat oshadi va ahloqning asosi bo'lgan insoniylik tamoyillari ham tanlangan va yo'naltirilgan holda bo'ladi.

Zero, jahon ijtimoiy tarmog'iga ulangan, barcha sohalarda dunyo hamjamiyatiga tobora integratsiyalashib borayotgan O'zbekistonda yosh avlodni milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi ruhida tarbiyalash, zamon talablari va aholi ehtiyojlariga mos diniy va dunyoviy ta'lim berish tizimi orqali fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va mamlakat kelajagini ta'minlash mumkin.

6. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni. 9-modda. www.lex.uz
7. O'zbekiston Respublikasining Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonuni 8-modda. www.lex.uz
8. <https://religions.uz/> Ўзбекистон Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo'yicha qumita rasmiy sayti
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 5416-sonli Diniyma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni.
10. www.lex.uz



Shohruh QAYUMOV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti doktranti, PhD
Shohruh_Qayumov@mail.ru

Nukus Davlat pedagogika universiteti dotsenti Niyazov Askar taqrizi asosida

PECULIARITIES OF PEDAGOGICAL STRATEGIES AIMED AT INCREASING SPORTS AND HEALTH IMMUNITY IN STUDENTS THROUGH INNOVATIVE SYSTEMS

Annotation

In the world, importance is being attached to the issue of education and training of young people, their acquisition of suitable professions, reform of the education system and raising national personnel training to the level of modern requirements. In the concept for 2030 adopted at the World Forum on Educational Problems, "Improving the process and means of evaluating the quality of education, and implementing the mechanisms that allow to determine the achieved results" is defined as a priority task. In higher education institutions, it is recommended to carry out systematic work on improving the development of sports and health immunity in students, and to carry out large-scale work on the creation of electronic educational resources in this regard. This gives priority to the practical application of professional-pedagogical orientation of pedagogical strategies to the educational process in eliminating the psychological-pedagogical and didactic problems of the future physical education teacher's preparation for science.

Key words: Healthy lifestyle, innovation, student, sports, immunity, development, pedagogy, strategy, olympics, work, nature

«СПЕЦИФИКА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ РАЗВИТИЯ СПОРТА И ЗДОРОВОГО ИММУНИТЕТА НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ СИСТЕМ»

Анотация

В мире придается большое значение вопросам образования и воспитания молодежи, приобретения ими достойных профессий, реформированию системы образования и повышению подготовки национальных кадров до уровня, требуемого временем. В концепции до 2030 года, принятой на Всемирном форуме по проблемам образования «совершенствование процессов и инструментов оценки качества образования, внедрение в практику механизмов, позволяющих выявить достигнутые результаты» приоритетной задачей определено обеспечение подготовки педагогических кадров в соответствии с требованиями времени, в частности, рекомендовано провести системную работу по повышению развития спортивно-оздоровительного иммунитета в высших учебных заведениях и провести в этой связи масштабную работу по созданию электронных образовательных ресурсов. Это отдает приоритет практическому применению профессионально-педагогической направленности педагогических стратегий в образовательном процессе при устранении психолого-педагогических и дидактических проблем подготовки будущего учителя физической культуры к науке.

Ключевые слова: Здоровый образ жизни, инновации, студент, спорт, иммунитет, развитие, педагогика, стратегия, олимпиада, работа, природа,

INNOVATION TIZIMLAR ASOSIDA TALABALARDA SPORT VA SALOMATLIK IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Anotatsiya

Jahonda yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning munosib kasb egallashlari, ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish va milliy kadrlar tayyorlashni zamon talabi darajasiga ko'tarish masalasiga ahamiyat berilmoqda. Ta'lim muammolari bo'yicha butunjahon forumida qabul qilingan 2030-yilgacha mo'ljallangan konsepsiyada «Ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish» ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi zamon talablariga mos pedagogik kadrlar tayyorlashni, xususan, Oliy ta'lim muassasalarida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishni takomillashtirishga oid tizimli ishlar olib borishni va bu borada elektron ta'lim resurslarini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borishni taqazo qiladi. [1]. Bu esa bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining fanga oid tayyorgarligining psixologik-pedagogik va didaktik muammolarini bartaraf etishda ta'lim jarayoniga pedagogik strategiyalarni kasbiy-pedagogik yo'nalganligini amalda qo'llashda ustuvorlik kasb etadi.

Kalit so'zlar: Sog'lom turmush tarzi, innovatsiya, talaba, sport, иммунитет, rivojlantirish, pedagogika, strategiya, olimpiada, mehnat, tabiat.

Kirish. Inson salomatligini muhofaza qilish (sog'liqni saqlash) - yurtning va butun dunyoning eng muhim vazifalaridan biridir. Dunyo miqyosida inson salomatligini saqlash bilan Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) shug'ullanadi. Salomatlik - har qanday tirik organizmning o'zi va uning barcha a'zolari o'z vazifalarini to'liq bajara oladigan holati. Insonning salomatligi unda nafaqat kasallik yoki jismoniy nuqsonlarning yo'qligi, balki jismoniy va ruhiy xotirjamligi, salomatligini yaxshilash va muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan ham o'lchanadi. Jismoniy tarbiya oilaviy madaniyatning ajralmas qismiga aylanishi lozim. Har kuni ertalab badantarbiya mashqlarini bajarish, kechki ovqatdan so'ng oilaviy tarzda kechki sayrga

chiqishni oila udumi, odatiga aylantirish ham sizga kuch-quvvat, salomatlik bag'ishlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Salomatlik - bu hayot haqiqati. Faxriylar va ularning oila a'zolari kasalliklarning og'riqli oqibatlarini bartaraf etishadi; har besh amerikalikdan biri zo'ravonlikka uchragan; har to'rtidan biri ichkilikbozlik bilan o'sgan; har uch juftlikdan biri jismoniy zo'ravonlik bilan shug'ullangan. Doktor Bessel van der Kolk, sog'lom turmush tarzi bo'yicha dunyodagi eng yirik mutaxassislardan biri, o'ttiz yildan ortiq vaqt davomida salomatligini yo'qotgan va omon qolganlar bilan ishlagan. Bolalar va kattalardagi jarohat va stressni davolashning bir qator usullarini ishlab chiqish va o'rganish uchun birliktirma tadqiqotlarini olib borgan.

2023 yilda u AQShda tinch aholidagi travmatik stressni o'rganish va davolashga bag'ishlangan birinchi klinik/tadqiqot markazlaridan birini tashkil etdi, u travmatik stressni o'rganish va davolashga ixtisoslashgan ko'plab tadqiqotchilar va klinisistlarni tayyorladi. Salomatlikni oshirish va samarali davolash aralashuvining ta'sirini o'rganish uchun doimiy ravishda moliyalashtiriladi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Dunyoda bugungi kunda o'qituvchilar va talabalarda sog'lom turmush tarzini rivojlantirishning pedagogik asoslari hamda pedagogik aspektlari, uni innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish, aynan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari va talabalarining kasbiy sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik shartlari, texnologiyalarni joriy etish muammolari doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarga katta ahamiyat berilmoqda [3]. Rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan mazkur tadqiqotlar o'qituvchi kasbiy kompetentligini rivojlantirish mezonlari, uni tarkib toptirishning ijtimoiy, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, shuningdek, jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik strategiyalari shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishda ilmiy-nazariy hamda metodologik asos vazifasini bajaradi.

Mamlakatimizda "Uchinchi Renessans" poydevori qurilayotgan, ta'lim sohasida islohotlar amalga oshirilayotgan hamda ta'lim tizimi tubdan modernizatsiya qilinayotgan bir davrda ushbu soha mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirish muammosi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [4]. Bu borada Prezidentimiz "Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi Renessans" so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda" deb ta'kidlagan edi. Shu ma'noda oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya daslarini zamon talablari asosida tashkil etish va mazmunan yangilash, pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari tizimini yanada takomillashtirish, salomatlik immunitetini rivojlantirish jamiyat talablarining asosiy yo'nalishlaridan hisoblanmoqda [5]. Yangi O'zbekiston sharoitida mehnat bozori hamda ish beruvchilar talablariga javob beradigan jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash, malakaviy amaliyot jarayonini modernizatsiyalash, uni tashkil etish bo'yicha milliy va hududiy modellarni yaratish hamda amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish muammoning ilmiy jamoatchilik tomonidan chuqur tadqiq qilinishini taqozo etadi.

Tahlil va natijalar. Har qanday shaxsning o'zi tanlagan sohasi bo'yicha yuqori malakali, mahoratga ega mutaxassis sifatida shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, unga ko'p yillik samarali mehnat, ijodiy izlanishlar natijasidagina erishish mumkin [6]. Biroq mazkur sifatning shakllanishi uchun zamin oliy o'quv yurtlaridagi tahsil olish jarayonida yaratiladi. Jumladan, Oliy ta'lim muassasalarida talabalarda sportga qiziqtirish, sport va salomatlikni takomillashtirishda mutaxassislikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bilan bir qatorda pedagogik-psixologik fanlar doirasida nazariy va amaliy bilimdonlikning shakllanishi ham muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizdagi turli sohalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish, dolzarb vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun aynan mazkur salomatlikni rivojlantirishni shakllantirishga pedagogi strategiyalarni olib chiqishga e'tibor qaratishtirish muvofiqdir [7].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020 yildagi PF-6099-son Farmoni ham Jamiyatimizda "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida Sog'lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

har bir oila, mahalla va tuman (shahar)da, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida hamda boshqa tashkilotlarda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug'ullanishga shart-sharoitlar yaratish;

ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha oilalar, sinflar, mehnat jamoalari va hududlar o'rtasida sport musobaqalarini muntazam ravishda o'tkazish;

aholi turli guruhlarining sog'lom ovqatlanishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish, tarkibida tuz, qand va yog' miqdori ko'p bo'lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini iste'mol qilishni qisqartirish, zararli odatlardan, xususan, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishdan voz kechish yo'li bilan kasallikka chalinish, ortiqcha vazn holatlari (semizlik) va bevaqt vafot etishni kamaytirish;

–aholi o'rtasida sog'lom ovqatlanish madaniyatini keng targ'ib qilish, shu jumladan, tartibsiz va kechki uyqu oldidan ovqatlanish odatlaridan voz kechish;

–sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etilishini oilalar, mahallalar, maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalari darajasida sog'lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida targ'ib qilish;

–maktabgacha ta'lim, umumta'lim, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida, korxonalar, tashkilot va boshqa turdagi barcha muassasalarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun zamonaviy moddiy-texnika bazasini shakllantirish.

Buning barchasini qamrab olgan holda Innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalarini amaliyotga tatbiq etish chora-tadbirlari tashkil etildi.

Oliy ta'lim tizimida talabalar o'quv faoliyatini tashkil etish va uni rivojlantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Zero, oliy ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga mos yuqori ilmiy-ijodiy salohiyatga va yuksak ma'naviyatga ega yetuk kadrlarni tayyorlashdir. Shu ma'noda Sog' tunda sog'lom aql, sog'lom hayot uchun bir qadam kabi kasbiy muammolarni hal eta olishga qodir, yuksak salohiyatli yetuk mutaxassislarni tayyorlash oliy pedagogik ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda Zamonaviy ta'limda innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalarining asosiy negizini quyidagi sifat ko'rsatkichlari tashkil etadi: psixologik-pedagogik bilimlari, kasbiy tayyorgarligi, oliy ta'limning me'yoriy huquqiy hujjatlarini mukammal bilishi, mohiyatini tushunib yetgan holda amalda qo'llay olish layoqati shakllanganligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, shuningdek, elektron ta'lim resurslaridan to'liq foydalana olishi kabi sifatlar kasbiy tayyorgarlikda namoyon bo'lishi, shuningdek Talaba qiziqishlari, moyilliklari, layoqati va ta'lim muassasalari ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish kabi kasbiy kompetentlikni takomillashtirish yaxlit pedagogik jarayon asosini tashkil etadi va mazkur jarayonni amalga oshirish talab etiladi.

Innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalarini takomillashtirishda jismoniy tarbiya va ushbu fanni o'qitish metodikasini integratsiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish maqsada muvofiqdir. Har bir talabaning innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida fundamental bilimlarni egallashiga, aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish, har bir talabada shaxsiy va kasbiy kompetentlikni takomillashtirish bo'yicha o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat va qat'iyatlilik hissinini rivojlantiradi [8].

Innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari nafaqat bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi hamda butun oliy ta'lim muassasalaridagi barcha talabalarni kasbiy layoqatligining mazmuni uni tarbiyalash jarayoni doirasida bo'lajak kasbiy faoliyat maqsadlari, vazifalari bilan aniqlanadi. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisini mazkur faoliyatni amalga oshirishda nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorlash va uning bu jarayonga tayyorligi birligidan iborat bo'lib, u moddiy, ijtimoiy, yani, o'quv fanini o'qitish texnologiyasi loyihasida o'z ifodasini topadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori" 2015. 4-b.
2. Bessel van der Kolk. "The body keeps score" New York 2024. 134 b.
3. Sh.M.Mirziyoevning oliy majlisga murojaatnomasi. // «Xalq so'zi» gazetasi. 2020 yil, 25 yanvar, 19(7521)-son.
4. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 fevraldagi 118-son qarori bilan tasdiqlangan "2019-2023 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi" //lex.uz// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.02.2019 y., 09/19/118/2612-son;
6. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son farmoni.
7. Sh.M.Mirziyoevning "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" 2019 yil 27 avgustagi PF-5789-soni farmoni.
8. Sh.A.Qayumov "Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvi" Monografiya. T.: Ziyochashmasi. 2023. 109 b.



UDK:372.8

Zarnigor QO'YCHIYeva,
TDPU mustaqil izlanuvchisi, PhD

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent N.Alimov taqrizi asosida

METHODOLOGICAL CONDITIONS FOR IMPROVING THE METHODOLOGICAL PREPARATION OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS TO DEVELOP STUDENT SPEECH

Annotation

The article aims to reveal the promising directions of development of methodical preparation of future primary school teachers for the development of students' speech, increasing their level of scientific competence aimed at introducing them to new modern technology, and revealing the importance of innovative approaches.

Key words: Speech skills, interdisciplinary communication, integration, elementary school, formation, criteria, indicators, levels.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILARNI NUTQINI O'STIRISHGA METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK SHART-SHAROITLARI

Annotsatsiya

Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilar nutqini o'stirishga metodik tayyorgarligini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari, uning yangi zamonaviy texnologiya bilan tanishtirishga qaratilgan ilmiy kompetensiyaviy darajasini oshirish hamda innovatsion yondashuvning ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Nutqiy malaka, fanlararo aloqa, boshlang'ich sinf, ta'lim metodlari, shakllanish, mezonlar, ko'rsatkichlar, darajalar.

МЕТОДИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К РАЗВИТИЮ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация

Целью статьи является раскрытие перспективных направлений развития методической подготовки будущих учителей начальных классов к развитию речи учащихся, повышению их уровня научной компетентности, направленной на ознакомление их с новыми современными технологиями, раскрытие значимости инновационных подходов.

Ключевые слова: Речевые навыки, межпредметная коммуникация, начальная школа, методы обучения, формирование, критерии, показатели, уровни.

Kirish. Nutqni rivojlantirish metodologiyasining mazmuni ta'lim muassasalarida o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish o'quvchilarni kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish va ma'lumot almashishga o'rgatishdir. O'quvchilar nutqini rivojlantirish bo'yicha ishlar ularning so'z boyligini boyitish bilan bog'liq. Bolaning so'z boyligi qanchalik ko'p bo'lsa, u shunchalik yaxshi gapiradi.

Davlat ta'lim standarti talablari o'quvchilarning o'zgaralar fikrini, matn mazmunini to'liq anglay olish ko'nikmasini, o'z fikrini yozma va og'zaki nutqda aniq va ravon bayon eta olish malakasini oshirishga qaratilgan.

Bolalar nutqini rivojlantirishda folklorlarning roli katta. Shuning uchun ham "O'qish kitob" darsliklarda xalq amaliy san'atining turli janrlarini uchratish mumkin. Bolalarda ezgu tuyg'ular, saxovat, mehnatsevarlik, e'tiborlilik, hayo va shu kabi fazilatlarini shakllantirishda ertaklar, maqollar, matallar, topishmoqlar muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, o'qitish jarayonida o'qituvchi o'quvchilar bilan individual ravishda muloqot qiladi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning nutqidagi kamchiliklarni tanqid qilish ehtiyotkorlikni talab qiladi. Qo'pol tanbeh, noto'g'ri tanqid o'quvchilarning yaxshi xulq-atvorini buzishi, o'quvchini asossiz xafa qilishi mumkin, shuning uchun o'qituvchi pedagogik odob-axloq qoidalariga rioya qilishi kerak.

Hammamizga ma'lumki, nutq fikrni ifodalash vositasi bo'lib, u orqali inson o'z fikr va qarashlarini ifodalaydi. Qolaversa, insonning ichki dunyosiga, uning bilim darajasiga uning nutqiga qarab baho beramiz. Shuning uchun ham erta yoshda nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozimki, u bilimlarni egallashda, tabiat va borliq haqida ma'lumot to'plashda samarali hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishda nafaqat yodlash, so'z ma'nosini tushuntirish yoki ertaklarni qayta

aytib berish kabi usullardan foydalanadi, balki ular uchun qiziqarli mashg'ulot, ayniqsa, ko'zlangan maqsad bo'lgan interfaol metodlardan foydalanish yuqori natijalarga erishishda katta yordam beradi. O'quvchilar soniga qarab interfaol metodlardan ta'limning jamoaviy, guruhli shakllari, kichik guruhlarda ishlash, juftliklarda ishlash va individual (yakka tartibda) ishlash kabi shakllari foydalaniladi.

Jamoaviy ta'lim shaklida vazifalarni bajarish va muhokama qilishda butun sinf ishtirok etadi. Bunda "Ko'tarilgan qo'l qoidasi"ni qo'llash va unga rioya qilish, shuningdek, "Gapirayotganni hurmat qilish" tamoyillariga rioya qilish muhimdir. Bu shakl munozara va bahslar, ochiq muhokamalarga to'g'ri keladi.

Guruhli ta'lim shaklida sinflar 5-6 kishilik guruhlarga, jamoalarga bo'linadi. Bu shakl sinfda va sinfdan tashqari ishlashda, loyiha, tadqiqot va ijodiy faoliyatlarga mos keladi.

Kichik guruhli shaklda o'quvchilar 3-4 kishilik uncha katta bo'lmagan guruhlarga bo'linadi. Bunday shakl ham sinfda va sinfdan tashqari ishlarda, loyiha, tadqiqot va ijodiy faoliyatlarda qo'l keladi. Shuningdek, bu shaklni masala va vazifalarni muhokama qilish, jamoaviy esse va dokladlar yozishda ham qo'llash mumkin.

Juftliklarda ishlash shaklida o'quvchilar ikki kishi bo'lib ishlaydi. Bunda o'quvchilarni "yelkadosh sherik" hamda "yuzma-yuz sherik" tamoyili bo'yicha bo'lib chiqish mumkin.

Individual shaklda esa o'quvchi vazifalarni mustaqil ravishda, boshqalarning ishtirokisiz, o'zi bajaradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqini, ulardagi muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan Ta'lim texnologiyalari, metodlari, o'qitish texnikalarini ko'rib chiqamiz. 1-jadvalga qarang.

№	Metod, texnika, texnologiya	Qo'llanish sohalari
1	Masallar, iqtiboslar, hikmatli so'zlar, maqollar bilan ishlash	Nutqiy-mantiqiy, tahliliy fikrlashni rivojlantirish. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish
2	Klaster yoki mind map	Assosiativ fikrlashni, fikriy operatsiyalarni – sintez va analizni (tahlilni) rivojlantirish
3	Eyler-Venn diagrammasi	Nutqiy-mantiqiy, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish
4	Isikava diagrammasi (fishbone)	Nutqiy-mantiqiy, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish
5	Esse	Nutqiy-mantiqiy, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish
6	Vaziyatlar tahlili (keys-stadi)	Nutqiy-mantiqiy, tahliliy, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish
7	Miya shturmi	Nutqiy-mantiqiy, tahliliy, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish
8	Sinkveyn	Ijodiy, nutqiy-mantiqiy, tahliliy, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish
9	O'zaro so'rovnomalar	Ijodiy, nutqiy-mantiqiy, tahliliy, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish
10	Chalkash mantiqiy zanjirlar	Ijodiy, nutqiy-mantiqiy, tahliliy, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish
11	Qarama-qarshi bahs	Ijodiy, nutqiy-mantiqiy, tahliliy, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

1-jadval. Ta'lim texnologiyalari, metodlari, o'qitish texnikalari.

Esse – bu erkin shakldagi insho bo'lib, u muallifning biror masalaga munosabatini ifodalab, uni asoslab beradi. Essening mazmuni puxta o'ylangan, mantiqan to'g'ri tuzilgan, tarkiblangan (kirish, asosiy qism va xulosadan iborat) bo'lishi kerak. Muallif esseda murojaat qilgan ma'lumotlar, faktlar, raqamlarning manbani ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Esseda ijodiy yondashuv sezilib turishi kerak. Essening tuzilishi: masalani qo'yish – fikrlash – rejalashtirish – yozish – tekshirish – takomillashtirish.

Vaziyatlar tahlili (keys-stadi) – bu faktlar asosida maxsus ishlab chiqilgan va o'quv mashg'ulotlarida tahlil qilinadigan muayyan o'quv vaziyatlari. Vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida bolalar jamoada ishlashni, tahlil qilishni va boshqaruv qarorlarini qabul qilishni o'rganadi. Keysni yechish – bu taklif qilingan vaziyatni (keysni) tadqiq etish, axborotlarni to'plab va tahlil qilish, qilish mumkin bo'lgan harakatlar variantlarini taklif qilish va ularning ichidan eng maqbulini tanlash.

“Tarbiya” darligidan olingan misol

Ona tili darsida nazorat ishi edi. Azamatning qalami sinib qoldi. Uning yonida o'tiradigan Aziza portfelidan qalam o'tkirlagich olib, Azamatga berdi. Azamat qalam o'tkirlagichni indamay olib, qalamini o'tkirlab oldi-da, nazorat ishini yozishda davom etdi.

1. O'quvchilar keysni o'qib chiqishi kerak.
2. Bu vaziyatni tahlil qilishi kerak.
3. Bu vaziyatga nimalar sabab bo'lganini aniqlashi kerak.
4. Vaziyatni hal qilish yoki bunday vaziyat boshqa takrorlanmasligi uchun uning oldini olish variantlarini taklif qilishi kerak.

Azamatning qalami sinib qoldi. Uning qalam o'tkirlagichi uyida qolib ketgan yoki yo'qolgan. Nazorat ishi yozilayotganda esa Azizani chalg'itdi. Azamat rahmat aytmagani uchun Aziza undan xafa bo'ldi.

Yechim. Azamat maktabga bir nechta qalam olib kelishi, qalam o'tkirlagichini doim portfelida olib yurishi kerak. Buning uchun esa bir kun oldin kechqurun portfelini tayyorlashi, darsga qanchalik tayyorligini tekshirishi kerak. Shuningdek, birov yordam bersa, unga “Rahmat!” deyishni ham o'rganishi kerak. Aziza birov rahmat aytmagani uchun xafa bo'lmasligi kerak. Balki Azamat nazorat ishini yozishga berilib ketib, “rahmat” aytilishidan chiqib qolganidir?

Yuqorida keltirilgan ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish

jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi.

O'quvchilarda nutqiy munosabatga kirishish malakasini hosil qilishda o'qituvchining roli kattadir. Bu o'qituvchining erkin va aniq – ravshan nutqi, o'quvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning birinchi darajali muhim shartlaridan hisoblanadi.

O'qituvchi o'z nutqining bolalarga qanday ta'sir etayotganini kuzatishi, tushunarli va qiziqarli bo'lganini hisobga olishi kerak. Agar bolalar darsga e'tiborsiz o'tirsalar, demak, o'qituvchi nutqining ta'siri kuchi sust.

O'qituvchining mahorati shundaki, u o'zining yoqimli nutqi bilan bir butun jamoaga ta'lim-tarbiya beribgina qolmay, balki ularni yuksaklikka intilishga chorlashi kerak.

Asosiy dadaktik tamoyillar: ta'limning ilmiy xarakterga egalik va qulaylik tamoyili, nazariyani amaliyot bilan tizimli o'qitish va bog'lash tamoyili, o'qituvchining yetakchi roli bilan ta'limda talabalarning ongilligi va faolligi usuli, ko'rinish usuli, bilimlarni o'zlashtirishning mustahkamligi va talabaning shaxsini har tomonlama rivojlantirish bilan bog'liqligi usulini o'rganish.

O'quv amaliyotida turli xil maqsadlar qo'yiladi va erishiladi, ko'plab vazifalar turli usullar, texnika va texnologiyalar asosida hal qilinadi.

Xulosa. Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo ta'lim tizimida zamonaviy maktabning pedagoglarga qo'yadigan talablari oliy kasbiy pedagogik ta'lim vazifalarini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Yuqori ilmiy va uslubiy potentsialga ega bo'lgan o'qituvchini shakllantirish vazifasi eng muhim vazifalardan biri sifatida qo'yildi: endi uning kasbiy tayyorgarligini psixologik, pedagogik jihatdan va uslubiy bilim va ko'nikmalar to'planishi bilan bog'lashning o'zi yetarli emas. Zamonaviy maktab nafaqat metodik tavsiyalarni yaxshi biladigan va ulardan qanday foydalanishni biladigan mutaxassisni, balki uning faoliyatini amalga oshirishda tez o'zgarib turadigan sharoitlarga oqilona javob bera oladigan, mavjud ta'lim holatiga munosib baho bera oladigan va o'quvchilarni o'qitish va o'qitish bilan bog'liq ko'plab amaliy muammolarni hal qila oladigan mutaxassisni talab qiladi. Oliy ta'lim mussasalarida bo'lajak o'qituvchining an'anaviy tayyorgarligi, birinchi navbatda, psixologik, pedagogik va fan-uslubiy, zamonaviy kasblarga yetaklovchi bilim va ko'nikmalarni to'plash bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR

1. Abilkhairova Zh.A. Teaching speech culture in connection with other linguistic branches. Elementary school. – No 6, 2009 (6); 62-64.
2. Bepalko V.P. Component Pedagogical Technologies. - M.: Pedagogy, 1989;190.
3. Filin F.P. Some words about language norm and speech culture. Speech culture questions.- No7, 2006; C.44-48.
4. Kharaev Zh.A. Level of cognitive activity. Kazakhstan school, 2004. No3; 67-69.
5. Salmikova T.P. Methods of teaching grammar, spelling and speech development, M., 2001.



Mamlakat LATIPOVA,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy Kommunikatsiyalar universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: sirojiddin@umail.uz

QarMII dotsenti PhD. Ismoilov D.M. taqrizi asosida

MODELING A LITERATURE LESSON FOR STUDENTS IN AN INCLUSIVE LEARNING ENVIRONMENT

Annotation

This article discusses the importance and methods of modeling literature lessons for students in an inclusive education setting. It highlights how effectively utilizing the speech and aesthetic opportunities in introductory literature classes can engage all students in the learning process and meet their diverse needs. The clear, vivid, and impactful speech of the teacher, along with the knowledge of speech formation mechanisms, helps create motivation for subsequent speech activities at the beginning of the lesson. The article examines interactive methods that enhance students' artistic and cognitive activity, such as small group work, collective discussions, and the use of various technological resources to ensure successful communication and the learning process. Modeling literature lessons in an inclusive education setting helps create equal educational opportunities for all students and increases their interest in learning.

Key words: Software tools, electronic resource, animation, software package, software product, professional activity, technology, project, construction.

МОДЕЛИРОВАНИЕ УРОКА ЛИТЕРАТУРЫ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается значение и методы моделирования уроков литературы для студентов в условиях инклюзивного образования. Обсуждается, как эффективно использовать речевые и эстетические возможности на вводных занятиях по литературе для включения всех студентов в учебный процесс и удовлетворения их потребностей. Точный, образный и выразительный язык преподавателя, а также знание механизмов формирования речи позволяют создавать мотивацию для последующей речевой деятельности в начале урока. Рассматриваются интерактивные методы, повышающие художественную и когнитивную активность студентов, такие как работа в малых группах, коллективные обсуждения и использование различных технологических ресурсов для обеспечения успешной коммуникации и учебного процесса. Моделирование уроков литературы в инклюзивном образовании помогает создать равные образовательные возможности для всех студентов и повысить их интерес к обучению.

Ключевые слова: Программных средств, электронный ресурс, анимация, программный пакет, программный продукт, профессиональная деятельность, технология, проектирования, конструкторский.

INKLYUZIV TALIM SHAROITIDA TALABALARGA ADABIYOT DARSINI MODELLASHTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada inkluziv ta'lim sharoitida talabalarga adabiyot darsini modellashtirishning ahamiyati va usullari muhokama qilinadi. Adabiyotga kirish darslarida nutqiy va estetik imkoniyatlardan samarali foydalanish, barcha talabalarni o'quv jarayoniga qo'shish va ularning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur strategiyalar va metodlar ko'rsatib o'tiladi. O'qituvchining aniq, obrazli va ta'sirli nutqi, shuningdek, nutqni shakllantirish mexanizmlarini bilish, darsning boshida keyingi nutq faoliyati uchun motivatsiya yaratish imkonini beradi. Talabalar uchun badiiy va kognitiv faollikni oshiruvchi interaktiv metodlar, jumladan, kichik guruhli ishlash, jamoaviy muhokamalar va turli texnologik resurslardan foydalanish orqali muvaffaqiyatli muloqot va o'quv jarayonini ta'minlash yo'llari ko'rib chiqiladi. Inkluziv ta'limda adabiyot darslarini modellashtirish, barcha talabalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish va ularning qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Innovatsion, elektron resurs, animatsiya, texnologiyalar, dasturiy mahsulot, kasbiy faoliyat, transfer, loyihalash, konstruktorlik.

Kirish. Inkluziv ta'lim zamonaviy pedagogikaning muhim qismidir, chunki u barcha talabalarning ta'lim olish imkoniyatlarini tenglashtirishga qaratilgan. Bu yondashuvda turli qobiliyat va ehtiyojlarga ega talabalar birgalikda ta'lim olishadi, bu esa ularning individual o'sish va rivojlanishiga xizmat qiladi. Adabiyot darslari, ayniqsa, inkluziv ta'limda katta ahamiyat kasb etadi, chunki ular nafaqat bilim doirasini kengaytiradi, balki talabalarning estetik didini shakllantiradi, nutqiy va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Adabiyotga kirish darslarida nutqiy va estetik imkoniyatlardan foydalanish, barcha talabalarning ehtiyojlarini qondirish uchun turli strategiyalar va metodlarni qo'llashni talab etadi. Bu darslar orqali talabalar badiiy va kognitiv faollikni oshiruvchi interaktiv metodlar bilan tanishadi, bu esa muvaffaqiyatli muloqot va o'quv jarayonini ta'minlaydi. O'qituvchining aniq, obrazli va ta'sirli nutqi, shuningdek, nutqni shakllantirish mexanizmlarini bilishi, darsning boshida keyingi nutq faoliyati uchun motivatsiya yaratish imkonini beradi.

Mazkur maqolada inkluziv ta'lim sharoitida talabalarga adabiyot darsini modellashtirishning ahamiyati va usullari muhokama qilinadi. Turli pedagogik yondashuvlar va metodlar yordamida adabiyot darslarini qiziqarli va samarali o'tkazish, har bir talabaga ta'lim olishda teng imkoniyat yaratish va ularning qiziqishini oshirish usullari ko'rib chiqiladi. Inkluziv ta'limda adabiyot darslarini modellashtirish, barcha talabalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish va ularning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi [1].

Talabalarning bilim olish asosi faollik va dialogik yondashuvlariga asoslanadi. Faoliyat quyidagicha amalga oshiriladi: modellashtirish orqali - rejani ishlab chiqish va amalga oshirish - so'ngra ishlab chiqilgan o'quv vaziyatlari va adabiyot darslarining kommunikativ imkoniyatlarini aks ettirish va anglash. Kirish nutqining kommunikativ salohiyati, badiiy asarni tahlil qilish usullari, o'qish va takrorlashning turli turlari, yakuniy darslar amaliyotda ochib berildi: birinchi navbatda auditoriyada

imitatsion modellashtirish, so'ngra maktabda adabiyotni o'qitishning real jarayoni sharoitida.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inkluziv ta'lim va adabiyot darslarini modellashtirish mavzusida bir qator ilmiy maqolalar va tadqiqotlar olib borilgan. Quyida ushbu mavzuga oid muhim adabiyotlarning tahlili keltirilgan.

1. Tomlinson, C. A. (2001). *How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms*. Tomlinsonning asari o'qituvchilarga differensial yondashuvni qanday amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Bu yondashuv inkluziv ta'limda juda muhim, chunki har xil darajadagi qobiliyatlarga ega talabalar bir sinfda o'qishadi. Differensial ta'lim o'quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda material va metodlarni o'zgartirishni o'z ichiga oladi. Bu adabiyot adabiyot darslarini tashkil etishda qo'llanishi mumkin.

2. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Vigotskiyning asari ta'lim jarayonida ijtimoiy va madaniy omillarning roli haqida. Uning fikricha, ta'lim ijtimoiy muloqot orqali amalga oshadi va bu jarayonda tilning o'rni katta. Inkluziv ta'limda o'qituvchilar talabalar bilan interaktiv muloqot qilish orqali ularning kognitiv va nutqiy rivojlanishini ta'minlashlari mumkin.

3. Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*.

Gardnerning ko'p intellekt nazariyasi har bir o'quvchining o'ziga xos intellektual kuchli tomonlari borligini ta'kidlaydi. Inkluziv ta'limda bu nazariya o'quvchilarning turli qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, adabiyot darslarida turli metodlardan foydalanib, o'quvchilarning lingvistik, musiqiy, fazoviy va boshqa intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

4. Booth, T., & Ainscow, M. (2002). *Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools*. Bu asar maktablarda inkluziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha amaliy ko'rsatmalar beradi. Mualliflar inkluziya tamoyillari, ta'lim muhitini yaratish va barcha o'quvchilarni jalb etish usullari haqida so'z yuritadilar. Ushbu qo'llanma o'qituvchilarga adabiyot darslarini shunday tashkil etishga yordam beradi.

5. Tomlinson, C. A., & Imbeau, M. B. (2010). *Leading and Managing a Differentiated Classroom*. Tomlinson va Imbeau differensial yondashuvni boshqarish bo'yicha ko'rsatmalar beradilar. Ularning asari o'qituvchilarga turli qobiliyatlar va ehtiyojlarga ega talabalarni qanday qo'llab-quvvatlash, ularning o'qish jarayoniga jalb etish va muvaffaqiyatli muloqotni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar beradi. Bu adabiyot adabiyot darslarini tashkil etishda katta yordam beradi.

Yuqoridagi adabiyotlar inkluziv ta'lim va adabiyot darslarini modellashtirish bo'yicha qimmatli nazariy va amaliy ma'lumotlar beradi. Ushbu adabiyotlar yordamida o'qituvchilar turli qobiliyat va ehtiyojlarga ega talabalarni o'qitishda samarali yondashuvlarni qo'llashlari mumkin. Differensial ta'lim, ijtimoiy muloqot va ko'p intellekt nazariyalari asosida tashkil etilgan darslar, har bir talabaga ta'lim olishda teng imkoniyat yaratishga yordam beradi va ularning qiziqishini oshiradi.

Navoiyning she'riyatini o'rganish metodikasini tadqiqot pedagogik modellashtirish eksperimenti orqali o'rganish, adabiyot ta'limida talabalar uchun innovatsion va o'ziga xos usullarni rivojlantirishga yordam beradi va o'quvchilar uchun adabiy asarlar va ijodiy qobiliyatlarni tushuntirishning eng yaxshi usullarini ta'lim etish imkoniyatini yaratadi.

Talabalar bilimini yangilash uchun "Adabiyot darslarini modellashtirish muammolari va o'quv muloqoti muammolari" mavzusida seminar o'tkazish mumkin. Bu yerda o'qituvchi ta'sir obyekti bo'lib chiqadi: ma'ruzachilar o'z fikrlarining to'g'riligini unga va boshqa talabalarga isbotlaydilar.

Bunday yangilash quyidagi hisobotlar, savollar va vazifalar mavzulariga asoslanishi mumkin:

1. Ta'limda "model" va "modellash" tushunchalaridan foydalanish imkoniyatlari.

2. Filologik tahlil modellari va ularni maktab amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari (uchtadan ko'p bo'lmagan modellarni ko'rsating).

3. Tematik rejalashtirish muammosi: nimani rejalashtirish kerak va nima uchun. (Mavzuli rejalashtirishni model deb atash mumkinmi? Uning turini qanday aniqlagan bo'lardingiz?) Uslubiy adabiyotlarda berilgan ikki turdagi rejalashtirishni solishtiring.

4. Maktabda qanday dars modellarini eng maqbul deb hisoblaysiz?

Bunday dars natijalarini sarhisob qilishni quyidagi savolga qisqartirish kerak: shoir ijodining uslubiy konsepsiyasini takomillashtirish nuqtai nazaridan siz uchun qaysi bilim ko'proq mos keladi?

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi, ilmiy va ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish va o'rganish jarayonida qo'llaniladigan tizimli va nizomli usullar to'plami hisoblanadi. Bu metodologiya, tadqiqotning maqsadlari, usullari, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va natijalarni ta'kidlash jarayonlarini o'rganishda yordam beradi. Tadqiqot metodologiyasi o'z ichiga matematik, falsafa, ilmiy ma'rifatshunoslik va metodologik prinsiplar to'plamini o'z ichiga oladi.

Asosiy tadqiqot metodologiyalari:

Eksperiment metodologiyasi: Bu metodologiyada to'g'ri amaliyotlar o'tkaziladi va natijalar analiz qilinadi. Eksperiment, shartnomalar tuzish, obyektivlik va ilmiy doimiylikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Deskriptiv metodologiya: Bu metodologiyada hodisalar yoki amaliyotlar haqida to'liq tavsiflovchi ma'lumotlar yig'ilib, ta'riflangan. Bu usul ma'lumotlarni tavsiflash va o'rganishda foydalaniladi.


Teoriya asoslangan metodologiya: Bu metodologiyada amaliyoti to'liq tushuntirish uchun muayyan ilmiy teoriyalar yoki tushunchalar asosida amaliyotlar o'tkaziladi.

Bu metodologiyalar o'zaro bog'liqlik va kombinatsiyalar bilan foydalaniladi va tadqiqotchilar o'zlariga mos keluvchi metodlarni tanlashadi, asosiy maqsad esa ilmiy va ilmiy-amaliy tadqiqotlarining maqsad va ma'lumotlarni o'rganish jarayonida o'z maqsadlari va talablariga mos ravishda foydalanishdir.

Barcha ishlar aloqa xususiyatlarini tushunish bilan o'tadi, ko'rib chiqilayotgan modellarning kommunikativ salohiyati baholanadi.

Dars modellashtirish bo'yicha talabalar faoliyatini retrospektiv tahlil qilishdan iborat diagrammani too'ldirish bilan yakunlanadi (1-rasm).

Vizual ravishda taqdim etilgan modellashtirish jarayoni talabalarga birinchi bosqichda bajarilgan ishlarning o'ziga xos xususiyatlarini tushunishga yordam beradi va ular mustaqil ravishda ular tomonidan taqdim etilgan modellarning izchilligini aniqlash uchun ularni taqqoslash kerak degan xulosaga kelishadi[4].



1-rasm. "Modellashtirish jarayonining mazmuni"

Tahlil va natijalar. "Tahlil va natijalar" deb tasavvur etilganida, tadqiqotning o'ziga xos metodologiyasi va natijalarining yig'ilishi kabi qadimiy ilmiy tushunchalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Tahlil va natijalar, amaliyotning aniq maqsadi va so'ralgan savollarga javob topish uchun ilmiy va metodologik jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Tahlil: Tadqiqotchilar ma'lumotlarni yig'ib olish va uning asosida tahlil qilish uchun turli usullardan foydalanadi. Kvantitativ tadqiqotlarda statistik ma'lumotlarni o'lchash va tahlil qilish odatda amalga oshiriladi, kualitativ tadqiqotlar esa o'zgaruvchan ma'lumotlarni tahlil qilishda ishlatiladi. Tahlil jarayonida, tadqiqotda ko'rib chiqilgan xulosalar, qoidalar va sababli o'zgarishlar tushuntiriladi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish natijasida olingan ilmiy javoblar va o'zgarishlarning aks etishidagi o'zgarishlarni tushuntiradi. Bu natijalar, tadqiqotchilar tomonidan amaliyotning maqsad va muhimliklariga ko'ra ta'kidlangan bo'lib, ular tadqiqotning ilmiy unumdorligi va o'ziga xosliklarini o'z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotda muhim ahamiyatga ega, chunki ular o'quvchilarning ilmiy faolliklari, teorik bilimlari va amaliy qobiliyatlarini ustida katta ta'sir qiladi. Bu jarayonlar ilmiy ilimga katta imkoniyat beradi va yangi bilimni rivojlantirishga olib keladi.

Darslar va o'qitish metodlarini tahlil qilinganda ularning kommunikativ salohiyati baholanadi: sinfda ta'lim o'zaro ta'sirini qo'llash muloqotning muammoli sohalarini darhol ko'rsatadi.

Algoritmik modellashtirish tipik harakatlarni ajratib olish imkonini berdi va bu, o'z navbatida, ulardan ba'zilarini ishlatishdagi muvaffaqiyatsizliklarni tushunishga yordam berdi.

Modellashtirish prognozlash usuli va modellashtirishni o'rgatish vositasi sifatida amalga oshirildi[6].

PowerPoint dasturi talabalarga adabiyotda axborot obyektini modellashtirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bu dastur talabalarga adabiyot darslarida badiiy asarni ta'qib qilish va taqdim etishda keng va samarali foydalanish imkonini beradi. Quyidagi vazifalar PowerPoint dasturi orqali amalga oshirilishi mumkin:

Taqdimot matnini sig'imli qilish: PowerPoint orqali talabalarga taqdimot matnini sig'imli va tuzilgan ravishda taqdim

etishga yordam beradi. Bu, o'quvchilarga badiiy asar yoki shoir ijodining asosiy semantik bosqichlarini tushuntirishda yordam beradi, masalan, qahramonlar, muhim hodisalar va asarning asosiy mavzulari.

Badiiy asar sifatida ko'rish: PowerPoint dasturi o'quvchilarga adabiy asarni badiiy asar sifatida ko'rish va tahlil qilish imkonini beradi. Bu, tasviriy san'at va musiqiy asarlar bilan bog'liq turli xil assotsiatsiyalar yaratish orqali adabiy asarni o'quvchilarga qiziqarli va yaxshi tushuntirilgan ko'rinishda taqdim etishga yordam beradi.

Rangli dizayn: PowerPoint dasturi rangli dizayn yaratishga imkon beradi, bu esa o'quvchilarning taqdimotni tushunarli va qiziqarli ko'rishiga yordam beradi. Asarning mavzusiga mos ranglarni tanlash va o'quvchilarning diqqatini jalb qilish uchun foydalanish mumkin.

Interaktivlik: O'quvchilar bilan interaktiv muloqot yaratish uchun PowerPoint dasturi yaxshi vositadir. Savollar, javoblar va interaktiv elementlar qo'shish orqali o'quvchilarning ishtirok etish darajasini oshirish va adabiy asarni o'rganish jarayonini qiziqarli qilish mumkin.

Shunday qilib, PowerPoint dasturi adabiyot darslarida badiiy asar yoki shoir ijodini tushuntirish va ta'lim olishda keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu dastur o'quvchilarning tushunish va o'zlashtirish darajasini oshirishga yordam beradi va taqdimotning tashqi shaklini kuchaytiradi [7].

Didaktik materialning retseptiv tashkil etilishi vizual, eshitish kabilarni belgilaydi. Didaktik materialning moddiy va texnologik amalga oshirilishi uning bosma, kompyuter va mavzu-model variantlarini farqlash imkonini beradi[8].

Xulosa va takliflar. Didaktik materialni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari ko'p jihatdan u xizmat ko'rsatadigan ta'lim sohasi - gumanitar yoki tabiiy fanlarning semantikasi bilan belgilanadi. Ushbu omillarning kombinatsiyasi didaktik material modelining umumiy tasnifining asosini tashkil qiladi. Shunday qilib, talabalarning ushbu yo'nalishdagi darsdan tashqari mashg'ulotlari axborot texnologiyalarini doimiy ravishda takomillashtirishni hisobga olgan holda adabiyot darslarini modellashtirish ko'nikmalarini oshirishga imkon berdi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.// Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017. Б.39.
2. Покасов В.Ф. Управление качеством образования современной школы (методические материалы) // автор-состав. – Ставрополь. 2012. – 145 с.
3. Гомулина Н.Н. Применение новых информационных и телекоммуникационных технологий в школьном физическом и астрономическом образовании: Дисс. канд. пед. наук: 13.00.02. – М.: МГПУ, 2003.-332 с. РГБ ОД, 61:03-13/1698-6.
4. Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», - Тошкент. 2010, №1, -54-57 б.
5. Шоштаева Е.Б. Интегральная технология обучения как основа повышения качества образовательного процесса: автореф. дис. канд. пед. наук. //Е.Б. Шоштаева. – Карачаевск: 2003. – С. 23.

6. Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», - Тошкент, 2010.
7. Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University: 2019.
8. Смолкин, А.М. Методы активного обучения: [Метод. пособие для преподавателей и организаторов проф. и экон. обучения кадров] / А. М. Смолкин. – М.: Высш. шк.,1991. – с. 175.



UDK 5(075.3)

Go'zal MAMANOVA,

Jizzax shahar Prezident maktabida Biologiya fani o'qituvchisi

E-mail: guzalmamanova01@gmail.com

Xasan JURAEV,

Jizzax shahar Prezident maktabida Tabiiy fanlar o'qituvchisi

JDPU Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya va uni o'qitish metodikasi o'qituvchisi M.Ortiqova taqrizi asosoda

TABIIY FANLAR DARSLARIDA LOYIHA ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

Аннотация

Tabiiy fanlarda o'qitish metodikasining asosiy istiqboli samarali tushunish va esda saqlash maqsadida talabalar bilan amaliy mashg'ulotlarga asoslangan. Shu sababli, loyiha barqarorlik va elektrotexnika tamoyillarini birlashtiradi, talabalarni elektr energiyasi bo'yicha darslarni qo'llashda ekologik toza shaharsozlik amaliyotlarini tadqiq qilish, loyihalash va amalga oshirishga undaydi.

Kalit so'zlar: barqaror shahar rivojlanishi, elektr zanjirlari, qayta tiklanadigan energiya, seriyali sxemalar, parallel sxemalar, amaliy o'rganish, hamkorlik.

МЕТОДОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ПРОЕКТНОГО ОБУЧЕНИЯ НА НАУЧНЫХ КЛАССАХ

Аннотация

Основная перспектива методики преподавания естественных наук основана на практической работе со студентами с целью эффективного понимания и запоминания. Таким образом, проект объединяет принципы устойчивого развития и электротехники, побуждая студентов исследовать, проектировать и внедрять экологически чистые методы городского развития, одновременно применяя уроки, связанные с электричеством.

Ключевые слова: устойчивое городское развитие, электрические цепи, возобновляемая энергия, последовательные цепи, параллельные цепи, практическое обучение, сотрудничество.

METHODOLOGY OF TEACHING BASED ON THE PROJECT BASED LEARNING IN SCIENCE CLASSES

Annotation

The main perspective of teaching methodology in science based on hand-on activities with students in order to understand and remember effectively. Therefore, the project integrates principles of sustainability and electrical engineering, challenging students to research, design, and implement eco-friendly urban development practices while applying lessons on electricity.

Keywords: Sustainable urban development, Electrical circuits, Renewable energy, Series circuits, Parallel circuits, Hands-on learning, Collaboration

Introduction. Project-based learning (PBL) involves students designing, developing, and constructing hands-on solutions to a problem. The educational value of PBL is that it aims to build students' creative capacity to work through difficult or ill-structured problems, commonly in small teams. Typically, PBL takes students through the following phases or steps:

Identifying a problem

Agreeing on or devising a solution and potential solution path to the problem (i.e., how to achieve the solution)

Designing and developing a prototype of the solution

Refining the solution based on feedback from experts, instructors, and/or peers.

Depending on the goals of the instructor, the size and scope of the project can vary greatly. Students may complete the four phases listed above over the course of many weeks, or even several times within a single class period. Because of its focus on creativity and collaboration, PBL is enhanced when students experience opportunities to work across disciplines, employ technologies to make communication and product realization more efficient, or to design solutions to real-world problems posed by outside organizations or corporations. Projects do not need to be highly complex for students to benefit from PBL techniques. Often times, quick and simple projects are enough to provide students with valuable opportunities to make connections across content and practice.

Literature review. Solving problems is an essential skill for the future workforce in many science, technology, engineering, and math (STEM) careers. In the context of higher education, the development of problem solving skills includes a variety of teaching strategies to prepare students for solving new

kinds of problems and provide opportunities for theoretical concepts to become more concrete [1]. It was noticed that students who falter in introductory STEM courses are more likely to develop learning gaps that grow as they tackle more difficult material [2]. The goal of this study is to close such gaps and build a solid foundation for more advanced work in upper level courses. This can be achieved by using PBL strategies in which instruction is delivered through small groups and students are encouraged to collaborate to master concepts. In working with undergraduate students over many years, the authors have experienced countless occasions where students are asked to work in groups to solve a problem, yet, they wait for the instructor or classmates to give them a hint to solve the problem for them. Perhaps, they have never been taught how to find the information required to problem solve. This issue is certainly not unique to the authors' experience; as other educators have noticed that many students are completely dependent on the help of a tutor for the majority of their class projects [3]. Biazus and Mahtari conducted a quasi-experiment using project-based learning and direct instructional learning models and found that the PBL model had a significant impact on the enhancement of creative thinking skills of secondary school students [4]. Over the past few decades, project-based learning has received a lot of attention in the field of education. Many studies have shown that project-based learning can improve students' learning motivation, problem-solving skills, teamwork, and communication skills. However, due to the complexity and diversity of project-based learning, as well as differences in research methods, research findings on its effectiveness and influencing factors vary. By combining the results of multiple independent studies, more accurate and reliable conclusions can

be obtained to further understand the effects of project-based learning. In addition, project-based learning meta-analysis studies can help reveal the factors and mechanisms influencing project-based learning. This can help guide the design and implementation of project-based learning and promote effective student learning. Based on this, this study compensates for the limitations of individual studies by integrating and synthesizing multiple independent studies in order to systematically assess the effects of project-based learning, provide more accurate and reliable evidence, and reduce the chance of research findings. At the same time, project based learning meta-analysis can provide a broader perspective to help researchers and educational policy makers gain a comprehensive understanding of the effects and influencing factors of project-based learning, so that they can develop more effective teaching strategies and policies to promote the improvement and development of project based learning [5]. It is recommended to enhance students' problem-solving particularly in introductory classes where students need to master the basics before moving on to an advanced course[8]. A number of scaffolding strategies have been presented in the literature. Examples of common scaffolds in PBL include but not limited to: using real-case projects grounded in the personal interests[10], projects can be broken into parts to better facilitate collaboration in small groups, hands-on activities can be used to link theory to practice[11], and graphic organizers can be used to visually depict an idea either through writings or charts[9].

Biroq, kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun bir qator muammolarni hal qilish kerak. Resurs cheklovlari, o'zgarishlarga qarshilik va standartlashtirish va moslashuvchanlik o'rtasidagi muvozanat zarurati strategik echimlarni talab qiladigan muhim to'siqlardir. O'qituvchilar ta'limiga yetarli sarmoya kiritish, innovatsiyalar va doimiy takomillashtirish madaniyatini yuksaltirish, kasbiy rivojlanishni muayyan sharoitlarga moslashtirish bu muammolarni yengishda muhim qadamdir.

Xulosa. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish orqali ta'lim samaradorligiga erishish nafaqat muhim maqsad, balki amalga oshirilishi mumkin bo'lgan maqsaddir. O'qituvchilarning keng qamrovli va dinamik ta'lim dasturlariga e'tibor qaratish orqali biz bo'lajak o'qituvchilar zamonaviy sinflar talablariga javob beradigan va ta'limda mukammallikka erishish uchun yaxshi jihatlangan bo'lishini ta'minlashimiz mumkin. O'qituvchilar malakasini oshirishda davom etayotgan izlanishlar, innovatsiyalar va moslashuv ta'lim sifati va samaradorligini saqlab qolish va oshirish, pirovardida talabalar va butun jamiyat uchun foydali bo'lishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Darling-Hammond, L. (2006). *Powerful Teacher Education: Lessons from Exemplary Programs*. Jossey-Bass.
2. Darling-Hammond, L., Chung Wei, R., Andree, A., Richardson, N., & Orphanos, S. (2009). *Professional Learning in the Learning Profession: A Status Report on Teacher Development in the United States and Abroad*. National Staff Development Council.
3. Desimone, L. M., Porter, A. C., Garet, M. S., Yoon, K. S., & Birman, B. F. (2002). Effects of Professional Development on Teachers' Instruction: Results from a Three-Year Longitudinal Study. *Educational Evaluation and Policy Analysis*, 24(2), 81-112.
4. Fullan, M. (2001). *The New Meaning of Educational Change*. Teachers College Press.
5. Hattie, J. (2009). *Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement*. Routledge.
6. Ingersoll, R. M., & Strong, M. (2011). The Impact of Induction and Mentoring Programs for Beginning Teachers: A Critical Review of the Research. *Review of Educational Research*, 81(2), 201-233.
7. Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Prentice Hall.



UDK: 378.2

Sadriddin SINDAROV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: sindarovsadriddin@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent U.Mirsanov tahriri ostida

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ

Аннотация

В данной статье представлены мнения о проблемах и решениях внедрения информационно-коммуникационных технологий в высших учебных заведениях. Также в данной статье представлена концепция педагогических условий и педагогических сфер развития компетентности будущих учителей информационных технологий, а также анализ работы ученых по этим вопросам. На основе разработанных этими учеными педагогических условий в рамках исследования были разработаны три педагогических условия развития компетентности будущих педагогов информационных технологий. При этом в то же время в данной статье освещаются содержание и возможности педагогических условий, разработанных в рамках исследования.

Ключевые слова: информационные технологии, педагогические условия, педагогический программный инструмент, образовательный портал, мобильные технологии, мотивация, творческое мышление, компетентность.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS IN INFORMATION TECHNOLOGY

Annotation

This article presents opinions on the problems and solutions of introducing information and communication technologies in higher education institutions. This article also presents the concept of pedagogical conditions and pedagogical areas for developing the competence of future information technology teachers, as well as an analysis of the work of scientists on these issues. Based on the pedagogical conditions developed by these scientists, three pedagogical conditions for developing the competence of future information technology teachers were developed within the framework of the study. At the same time, this article highlights the content and capabilities of the pedagogical conditions developed as part of the study.

Key words: information technology, pedagogical condition, pedagogical software tool, educational portal, mobile technology, motivation, creative thinking, competence.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish muammolari va yechimlariga oid fikr mulohazalar berilgan. Shuningdek, mazkur maqolada pedagogik shart va bo'lajak o'qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shartlari tushunchasi hamda ushbu masalalar bo'yicha olib borilgan olimlarning ishlari tahlili keltirilgan. Ushbu olimlar tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik shartlar asosida tadqiqot doirasida bo'lajak o'qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishni uchta pedagogik shartlari ishlab chiqilgan. Shu bilan birga ushbu maqolada tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan pedagogik shartlarning mazmuni va imkoniyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiya, pedagogik shart, pedagogik dasturiy vosita, ta'lim portal, mobil texnologiya, motivatsiya, kreativ fikrlash, kompetentlik.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar kun sayin takomillashib borayotganligi tufayli oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan mutaxassislarni, jumladan bo'lajak o'qituvchilarni axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishni zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda [1].

Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak o'qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishni pedagogik shartlarini takomillashtirishni taqozo etadi. Chunki bugungi kunda kompyuterning amaliy va instrumental dasturlari kun sayin takomillashishi va global tarmoqning imkoniyatlari kengayishi hamda mashg'ulotlarni loyihalashga doir ta'lim portallari global tarmoqning manzillarida paydo bo'lishi tufayli bo'lajak o'qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishga yangi talablarni qo'yimoqda.

Adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanib kelinayotgan bo'lajak o'qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishni pedagogik shartlarini takomillashtirish uchun, dastlab sohaga oid olimlarning tadqiqotlarini tahlil etish asosida mavjud pedagogik shartlar bilan

birga qo'shimcha pedagogik shartlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shuning uchun tadqiqot davomida U.M.Mirsanov [1], N.Ippolitova va N.Stepxova [2], Y.K.Babanckiy [3] larning ilmiy-metodik manbalari o'rganildi. Ularning tadqiqotlarida pedagogik shartlarga turlichi ta'riflar berilgan.

Jumladan, U.M.Mirsanovning ta'kidlashicha, pedagogik shartlar – bu o'quv jarayonini turli bosqichlarida va umuman olganda, ta'lim samaradorligiga erishishni belgilab beradigan pedagogik faoliyatni maxsus asoslangan, tashkil etilgan holatlari va yo'nalishlari majmuidir [1]. N.Ippolitova va N.Sterxovanning fikriga ko'ra, pedagogik shartlar pedagogik tizimning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'quv muhiti imkoniyatlarining yig'indisini aks ettiruvchi, ushbu tizimning shaxsiy va protsessual jihatlarga ta'sir qiluvchi, uning samarali ishlashi va rivojlanishini ta'minlashdir [2]. Y.K.Babanskiy pedagogik shart-sharoitlarni ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari (predmet va o'qitish) eng yaxshi o'zaro ta'sirda taqdim etiladigan, o'qituvchiga samarali o'qitish va ta'lim jarayoniga rahbarlik qilish imkonini beradigan, o'quvchilar esa o'quv jarayonini boshqarishga imkon beradigan muhit sifatida belgilaydi [3]. Bu kabi fikrlar N.G.Bajenova [4],

I.V.Xludеyeva [4], V.Kupriyanov [5], S.A.Dinina [5]larning ishlarida ham keltirilgan bo'lib, ular shartlarni turli guruhlarini umumlashtiradi va aniqlaydi. Ushbu olimlarning ta'kidlashicha, ta'sir qilish xususiyatiga ko'ra obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar, ta'sir obyektining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra – umumiy va xususiy sharoitlar, shuningdek, fazoviy va boshqalar mavjuddir. Mualliflar muayyan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishda ma'lum bir xususiyatga ko'ra tizimlashtirilgan shartlar guruhlaridan foydalanishni tavsiya etgan bo'lsa, O.V.Galkina [6], A.V.Lisenko [7], A. V. Sverchkov [8]lar esa pedagogik shartlar quyidagilardan iborat deb biladi:

- pedagogik ta'sir choralari majmuasi;
- ta'lim va tarbiyaning mazmuni, usullari va shakllari;
- muammolarni hal qilishga qaratilgan moddiy va fazoviy muhitning obyektiv shakllari, usullari, vositalari majmui;
- pedagogik jarayonning chora-tadbirlar majmui.

Mazkur olimlarning ishlarida pedagogik shart tushunchasiga turlicha ta'rif berilgan bo'lsa-da, ammo ma'no jihatidan bir xil fikrga kelinadi. Ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning belgilab beradigan pedagogik faoliyatni maxsus asoslangan, tashkil etilgan holatlari va yo'nalishlari majmuidir. Ushbu qoidaga asosan bo'lajak o'qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishni pedagogik shartlarini aniqlashtirish va takomillashtirish lozim. Buning uchun dastlab talabalarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan pedagogik shartlarni o'rganishni taqozo etadi. Shu bois, tadqiqot doirasida S.V.Tolokonnikov [9], T.N.Lukina [10], S.R.Markulis [11], L.V.Maxrova [12], Ye.V.Sidorova [13], M.Ye.Duranov [14], V.I.Jernov [14], N.A.Kachalov [15], YE.M.Shevchenko [16], A.V.Vishnyakova [17], N.V.Xodyakova [18], I.G.Smirnova [19], Y.A.Abramova [20], A.A.Melixova [21]larning ishlari tahlil etildi. Mazkur olimlar talabalarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishni quyidagi pedagogik shartlarini taklif etgan:

1. Pedagogik va psixologik shartlar: ta'lim faoliyatida axborot texnologiyalariga oid kompetentlikni rivojlantirish uchun motivatsiyasini oshirish; shaxsning refleksiv ko'nikmasini rivojlantirish; ta'lim faoliyati jarayonida professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqalarni amalga oshirish.

2. tashkiliy-uslubiy shartlar: bo'lajak mutaxassislarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid ko'nikmalarini rivojlantirish vazifalariga mos keladigan o'qitish usullari majmuasidan foydalanish; axborot-kommunikatsiya faoliyatini tashkil etishning turli shakllarini birlashtirish; talabalarning mustaqil kommunikativ faoliyatini tashkil etish.

Ushbu olimlarning bildirishicha, shartlarning birinchi qismida – pedagogik-psixologik shartlar – kompetentlikni aks ettiruvchi va motivatsion tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi hamda talabalar ta'lim faoliyati va motivatsion sohani aks ettirishga qaratilgan o'quv vazifalari tizimini bajarishda tajriba orttirishlarini nazarda tutadi. Ikkinchi qismida - tashkiliy-uslubiy shartlar – kompetentlikni kognitiv va texnologik tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi va talabalarning ma'lumotni o'zlashtirish jarayonida o'quv va kognitiv vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga hissa qo'shadigan o'quv ma'lumotlarini mantiqiy to'g'ri tuzish, muloqot qobiliyati va taqdim etish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tavsiya etilayotgan pedagogik shartlar bilan birga bo'lajak o'qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda quyidagi pedagogik shartlarga amal qilish lozim:

1. Kompyuterning pedagogik dasturiy vositalaridan samarali foydalanib turli loyihalar ishlab chiqishga oid kreativ fikrlashini rivojlantirish;

2. Ta'lim portallaridan foydalanib onlayn o'qitish muhitlarini ishlab chiqishga oid ijodiy qobiliyatini oshirish;

3. Mobil texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish madaniyatini shakllantirish.

Mazkur tadqiqot doirasida taklif etilayotgan pedagogik shartlarning mazmuni quyidagicha.

Birinchi pedagogik shart. Kompyuterning pedagogik dasturiy vositalardan samarali foydalanib turli loyihalar ishlab chiqishga oid kreativ fikrlashini rivojlantirish. Mazkur pedagogik shartda bo'lajak o'qituvchilarning kompyuterning zamonaviy pedagogik shartlaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Chunki bo'lajak o'qituvchilar kelajakdagi kasbiy faoliyatida darslarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida olib borishda turli dars mashg'ulotlarni loyihalashni taqozo etadi. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarning turli grafik mahsulotlarni, animatsiya effektlarni loyihalovchi dasturiy vositalarni, obyektga va vebga yo'naltirilgan dasturlash tillari yordamida didaktik ta'minotli o'quv vositalarni loyihalashga oid ijodiy qobiliyatini oshirish lozim.

Ikkinchi pedagogik shart. Ta'lim portallaridan foydalanib onlayn o'qitish muhitlarini ishlab chiqishga oid ijodiy qobiliyatini oshirish. Ushbu pedagogik shart bo'lajak o'qituvchilarning kelgusi kasbiy faoliyatida ta'lim portallaridan foydalanib mashg'ulotlarni loyihalashni o'rgatishni nazarda tutadi. Bo'lajak o'qituvchi mashg'ulotlarni ta'lim portallaridan foydalanib mashg'ulotlarni loyihalashni o'rgatishdan maqsad kelgusi kasbiy faoliyatida darslarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida tashkil etishga oid ijodiy qobiliyatini oshirishga erishiladi.

Uchunchi pedagogik shart. Mobil texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish madaniyatini shakllantirish. Mazkur pedagogik shartni taklif etishning asosiy g'oyasi bo'lajak o'qituvchilarning bo'sh vaqtlarida ta'limga oid ma'lumotlarni o'rganish va axborot texnologiyalari sohasida yangiliklardan xabardor bo'lishni nazarda tutadi.

Tahlil va natijalar. Yoqorida taklif etilayotgan pedagogik shartlar asosida quyidagilarga erishish imkonini tug'iladi:

- bo'lajak o'qituvchilarning kompyuterning amaliy va instrumental dasturlari yordamida turli loyihalar ishlab chiqishga oid ijodiy qobiliyatini oshirish;

- bo'lajak o'qituvchilarning o'z mutaxassisligiga oid zamonaviy didaktik ta'minotli o'quv vositalarni ishlab chiqishga doir mantiqiy, algoritmik, kognitiv fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish;

- bo'lajak o'qituvchilarning global tarmoqdan samarali foydalanish madaniyatini oshirish;

- bo'lajak o'qituvchilarning ta'limga oid portallar va ularning imkoniyatlari bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish;

- bo'lajak o'qituvchilarning onlayn muhitlar yordamida turli vektorinalar tashkil etishga oid malakasini oshirish;

- bo'lajak o'qituvchilarning bulutli xizmatlardan samarali foydalanish;

- bo'lajak o'qituvchilarning onlayn o'quv vositalar ishlab chiqish ko'nikmasini shakllantirish;

- bo'lajak o'qituvchilarning onlayn bilimni baholash va nazorat qilishda dasturiy vositalardan foydalanish madaniyatini oshirish;

- bo'lajak o'qituvchilarni mobil ilovalardan maqsadli foydalanishga yo'naltirish;

- bo'lajak o'qituvchilarning mobil ilovalar yordamida elektron ta'lim resurslar tayyorlashga oid ijodiy qobiliyatini oshirish;

- bo'lajak o'qituvchilarning mobil ilovalar yordamida bilimni baholash.

Xulosa. Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarning axborot texnologiyalarga oid kompetentligini rivojlantirishda mavjud pedagogik shartlar bilan birga tadqiqot doirasida taklif etilgan pedagogik shartlarga amal qilish tavsiya etiladi. Tadqiqot doirasida taklif etilayotgan pedagogik shartlar bo'lajak o'qituvchilarning kompyuterning zamonaviy amaliy va instrumental dasturlari bilan ishlash malakasini oshirishga, kelgusi kasbiy faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida darslarni tashkil etishga oid fikrlashini rivojlantirishga, global tarmoqdan va mobil ilovalardan maqsadli foydalanishga erishiladi. Buning natijasida, bo'lajak o'qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Mirsanov U.M. Uzluksiz ta'lim tizimida dasturlash tillarini o'qitish nazariyasi va amaliyoti // Monografiya. – Navoiy, 2023. – 168 b.
2. Ипполитова Н. Анализ понятия «педагогические условия»: сущность, классификация / Н. Ипполитова, Н. Стерхова // General and Professional Education. 2012. – № 1. – P.8-14.
3. Professional Education. 2012. – № 1. – P.8-14.
4. Бабанский Ю.К. Методы обучения в современной общеобразовательной школе : Научное издание / – М. : Просвещение, 1985. – 208 с.
5. Баженова Н. Г. Педагогические условия, ориентированные на развитие: теоретический аспект / Н. Г. Баженова, И. В. Хлудеева // Известия РГПУ им. А. И. Герцена. - 2012. - №151. - С. 217-223.
6. Куприянов Б. В., Дынина С. А. Современные подходы к определению сущности категории «педагогические условия» // Вестник Костромского гос. университета им. Н. А. Некрасова. 2001. – № 2. – С. 101-104.
7. Галкина О.В. Методология исследования понятия «организационно-педагогические условия» как категория управления социально-педагогической организацией // Вестник Самарского государственного педагогического университета. Социальный менеджмент и управление образованием. – 2006. – 2. – Самара: Изд-во СГПУ. – С.39.
8. Лысенко А.В. Психолого-педагогические условия формирования профессионально-ценностных ориентаций будущего учителя музыки // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Майкоп, 2005. – 203 с.
9. Сверчков А. В. Организационно-педагогические условия формирования профессионально- педагогической культуры будущих спортивных педагогов // Молодой ученый. 2009. – № 4. – С. 279-282.
10. Толоконников С.В. ИНФОРМАЦИОННО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ СТУДЕНТОВ-ЭКОНОМИСТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ ВУЗА // Центр научного сотрудничества «Интерактив плюс». <https://interactive-plus.ru/e-articles/499/Action499-471080.pdf>
11. Лукина Т.Н. Педагогические условия формирования информационной компетентности будущих учителей информатики // Дис. канд. пед. наук / Т.Н. Лукина. – Якутск, 2005. – 180 с
12. Маркулис С.Р. Модель повышения информационно- коммуникационной компетентности педагогических работников в условиях ресурсного центра // Дис. канд. пед. наук / С.Р. Маркулис. – М., 2010. – 239 с.
13. Махрова Л.В. Реализация принципа преемственности в процессе формирования информационно-технологической компетентности будущего учителя математики // Дис. канд. пед. наук / Л.В. Махрова. – Екатеринбург, 2005. – 189 с.
14. Сидорова Е.В. Развитие информационной компетентности учителя как условие эффективного решения профессиональных задач // Автореф. дис. канд. пед. наук / Е.В. Сидорова. – Санкт-Петербург, 2006. – 24 с.
15. Дуранов М. Е., Жернов В. И. Информационно-коммуникативный подход в обучении и организации педагогического процесса. – Магнитогорск: Изд-во МаГУ, 2001. – С. 25-37.
16. Качалов Н.А. Информационно-коммуникативная компетентность субъектов образовательного процесса высшей школы // Вестник Томского государственного педагогического университета. – № 6 / 2011. – С. 35-39.
17. Шевченко Е.М. Методическая система формирования информационно-коммуникативной компетентности будущих экономистов в процессе обучения информатическим дисциплинам с применением компьютерных сетей // Дисс. канд. пед. наук. – Волгоград, 2006. – 197 с.
18. Вишнякова А.В. Образовательная среда как условие формирования информационно-коммуникативной компетентности учащихся // Дисс. канд. пед. НАУК. – Оренбург, 2002. – 172 с.
19. Ходякова Н.В. Педагогическое освоение информационной среды учебного заведения / Н.В. Ходякова // Пед. информатика. 2006. – № 5.С. 155-162.
20. Смирнова И.Г. Средства обучения в процессе формирования информационно-коммуникативной компетенции студентов в образовательном процессе вуза / И.Г. Смирнова // Актуальные проблемы и современные технологии преподавания иностранных языков в неспециальных вузах: Материалы 4-ой все-рос. науч.-практ. конф. неязыковых вузов на базе ВГИФК. - Воронеж: Науч. кн., 2011. – С. 121-124.
21. Абрамова Ю.А. Формирование информационно-коммуникативной компетентности учащихся в процессе продуктивной учебно-познавательной деятельности <https://nsportal.ru/shkola/obshchepedagogicheskie-tehnologii/library/2012/12/02/formirovanie-informatsionno>
22. Мелихова А.А. Понятие информационно-коммуникативной компетентности в контексте проблем гуманитаризации процесса подготовки современного специалиста в техническом вузе // Вестник Тюменского государственного университета. 2012. – № 9. – С.101-108.



Aziz TASHPULATOV,
IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
IIBB.info.com

Yuridik fanlar doktori, professor B.Saidov taqrizi asosida

TOSHKENT SHAHRIDA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNI BILVOSITA BELGILOVCHI NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Toshkent shahrida xavfsizlikni ta'minlashni bilvosita belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlari haqida fikr bildirilgan. Har bir davlatda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, avvalo, poytaxtdagi o'zgarishlarga qarab baholanadi. Shu bilan birga, poytaxt o'zining huquqiy maqomi, siyosiy va iqtisodiy hamda madaniy munosabatlarda muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan "Xavfsiz poytaxt" konsepsiyasini joriy etish, ta'minlash va nazorat qilishda xorij tajribalari asosida oshirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Toshkent shahri, xavfsiz poytaxt, jamoat tartibi, huquqbuzarlik, profilaktika, jinoyatchilikka qarshi kurashish.

NORMATIVE LEGAL DOCUMENTS THAT INDIRECTLY DETERMINE THE PROVISION OF SECURITY IN THE CITY OF TASHKENT

Annotation

In this article, an opinion is expressed about the normative and legal documents that indirectly determine the provision of security in the city of Tashkent. The reforms implemented in each country and their results are evaluated, first of all, according to the changes in the capital. At the same time, the capital occupies an important place in its legal status, political, economic and cultural relations. In this regard, proposals were made to improve the implementation, provision and control of the "Safe Capital" concept based on foreign experiences.

Key words: Tashkent city, safe capital, public order, crime prevention, fight against crime.

НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ ДОКУМЕНТЫ, КОСВЕННО ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ БЕЗОПАСНОСТИ В ГОРОДЕ ТАШКЕНТЕ

Аннотация

В данной статье высказано мнение о нормативно-правовых документах, косвенно определяющих обеспечение безопасности в городе Ташкенте. Реформы, проводимые в каждой стране, и их результаты оцениваются, прежде всего, по изменениям в столице. В то же время столица занимает важное место в ее правовом статусе, политических, экономических и культурных отношениях. В связи с этим были внесены предложения по совершенствованию реализации, обеспечения и контроля концепции «Безопасный капитал» на основе зарубежного опыта.

Ключевые слова: Город Ташкент, безопасная столица, общественный порядок, профилактика преступности, борьба с преступностью.

Kirish. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi, "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Qurol to'g'risida"gi, "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi, "Favqulodda holat to'g'risida"gi, "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi gi, "Qo'riqlash faoliyati to'g'risida"gi kabi qonunlari Toshkent shahrida xavfsizlikni ta'minlashni bilvosita belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, "2021-2026 yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6255-son Farmoni, "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son Qarori, "Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2883-son Qarori Toshkent shahrida xavfsizlikni ta'minlashni bilvosita belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yo'l-patrol xizmati stasionar postlarini bosqichma-bosqich qurish, rekonstruksiya va

modernizatsiya qilish tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 862-son Qarori, "Xavfsiz shahar" loyihasi amalga oshirish bo'yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlar va yagona texnologik yondashuvni tashkil qilish to'g'risida"gi 343-son Qarori, «O'zbekiston Respublikasi yo'l xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 377-son Qarori, «Toshkent shahrining jamoat tartibini ta'minlash kuchlari tarkibida xizmatni o'tayotgan xodimlar va harbiy xizmatchilar faoliyatini baholash va ularga bir martalik pul mukofoti to'lash mezonlarini belgilash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 697-son Qarori, «Yo'l harakati xavfsizligi kunini o'tkazish va yo'l-transport hodisalari profilaktikasining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 701-son Qarori, «Yo'l harakati xavfsizligi sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 747-son Qarori, «Yo'l-patrol xizmati xodimlarining yo'l harakati qatnashchilari bilan o'zaro munosabatlari hamda maxsus moslamalardan foydalanishi tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 975-son Qarori, "Ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 251-son Qarori, "Yo'lovchilarni avtobusda tashish xavfsizligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 424-son Qarori, "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 460-son Qarori, "Toshkent shahar yo'lovchi transporti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 157-son Qarori,

“Mahallalarda jamoat tartibini saqlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 588-son Qarori, “Ichki ishlar organlarining patrol-post xizmati saf bo'linmalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 333-son Qarori, “Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 377-son Qarori, “Ichki ishlar organlari patrol-post xizmati faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 399-son Qarori kabi hukumat darajasidagi normativ-huquqiy hujjatlar Toshkent shahrida xavfsizlikni ta'minlashda bilvosita huquqiy asos sifatida alohida o'rin egallaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 28 avgustdagi «Toshkent shahrining jamoat tartibini ta'minlash kuchlari tarkibida xizmatni o'tayotgan xodimlar va harbiy xizmatchilar faoliyatini baholash va ularga bir martalik pul mukofoti to'lash mezonlarini belgilash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 697-son qarori bilan Toshkent shahrining jamoat tartibini ta'minlash kuchlari tarkibida xizmatni o'tayotgan xodimlar va harbiy xizmatchilar faoliyatini baholash va ularga bir martalik pul mukofoti to'lash mezonlari joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 iyundagi «Toshkent shahrining Chilonzor tumanida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 486-son qaroriga binoan Toshkent shahrining Chilonzor tumanida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning ta'sirchan tizimining yaratilishi, qonun buzilishlarining oldini olish hamda ularni bartaraf etishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etilishi belgilab qo'yildi.

Ta'kidlash lozimki, IIO faoliyatiga innovatsion loyihalarni joriy etishning yaxlit huquqiy asoslari mavjud emas. Amaldagi qonunlar va IVning tegishli buyruqlarida IIO faoliyatiga innovatsion loyihalarning ayrim masalalarini joriy etishga oid muayyan normalar bor. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrda qabul qilingan «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonunining 12-moddasida ichki ishlar organlari o'z faoliyatida fan-texnika yutuqlarida foydalanishlari mumkinligi nazarda tutilgan. Ammo ushbu normalar ichki ishlar organlari innovatsion rivojlanishning huquqiy jihatdan tartibga solish uchun yetarli emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 iyundagi PQ-3786-son «Toshkent shahrida jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorida, Toshkent shahrida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligini oshirish, sutkaning kechki va tungi vaqtda jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida ularning yaqin hamkorligini tashkil etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiyasi, Oliy sudi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamda Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashining 2018 yil 1 iyuldan Toshkent shahrida jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimiga quyidagilarni nazarda tutadigan «Xavfsiz poytaxt» konsepsiyasini eksperiment

tariqasida joriy etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin, deb belgilangan.

Lekin, e'tiborli jihati shundaki, eksperiment tariqasida joriy etiladigan «Xavfsiz poytaxt» konsepsiyasining o'zi mavjud emas. YA'ni, ushbu konsepsiya yuqorida qayd etilgan qarorda ham yoki alohida tartibda ham tasdiqlanmagan.

Yuqorida qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlar Toshkent shahrida xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etsada, lekin ular tarqoq holda bo'lib, maxsus huquqiy mexanizmlar yetarli darajada shakllanmagan hamda yaxlit huquqiy konsepsiyaga birlashmagan.

Shu bois tadqiqot ishi doirasida, «Xavfsiz poytaxt» konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, «Xavfsiz poytaxt» konsepsiyasi Toshkent shahrida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, qonun ustuvorligini, shaxslar va poytaxt xavfsizligini ta'minlash, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini amalga oshirish sohasidagi muhim hujjat hisoblanadi («Xavfsiz poytaxt» konsepsiyasi loyihasi dissertatsiya ishiga ilova qilinadi).

Konsepsiya loyihasida quyidagi terminlarning asosiy tushunchalari qayd etildi:

“Xavfsiz shahar” majmuasi -Poytaxtda hayot xavfsizligi sohasidagi muammolarni hal qilish uchun birlashtirilgan respublika, hududiy va idoraviy darajadagi mavjud va ishlab chiqilgan apparat va dasturiy vositalar to'plami.

Integratsiya platformasi - Poytaxtda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida axborotning o'zaro ta'sirining komponentlarini interfeys qilish uchun mo'ljallangan dasturiy va apparat vositalari to'plami.

Xavfsizlik organlari - Poytaxtda xavfsizlikni ta'minlash jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok etuvchi barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, bo'ysunuvchi tashkilotlar.

Vaziyatlar markazi -Kuzatuv va aloqa uskunlari, shuningdek, operatsion xavfsizlik holatini kuzatish, uning o'zgarishlarini kuzatish va javob berish kuchlarini (kerak bo'lsa) bevosita nazorat qilish uchun mo'ljallangan avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan jihozlangan xona.

Favqulodda vaziyat - Muayyan hududdagi avariya, falokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa falokat natijasida odamlarning qurbon bo'lishiga, inson salomatligiga yoki atrof-muhitga zarar yetkazilishiga, katta moddiy yo'qotishlarga va odamlarning turmush sharoitining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan vaziyat.

Xavfsizlik -Rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirishga imkon beruvchi tashqi (obekt yoki subektga nisbatan) shartlar majmuasi.

Shuni ham qayd etish lozimki, Toshkent shahrida xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlardagi yuridik va maxsus atamalar ro'yxati dissertatsiya ishida yanada kengroq tadqiq etilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni qayd etish joizki, yuqorida qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlar Toshkent shahrida xavfsizlikni ishonchli va kafolatli ta'minlashga xizmat qilishi shubhasiz. Raqamli jinoyatlardan himoyalashning eng yaxshi usuli - bu zamonaviy tahdidlardan doimo xabardor bo'lib borishdir. Kiberjinoyatlarga qarshi kurash samaradorligi, ko'p jihatdan ushbu jinoiy tajovuz kriminologik tavsifini to'g'ri tushinishga, uning sabab va shart-sharoitlarini hamda oldini olish choralari o'rganishga bog'liq.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябрдаги “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги Қонуни // <https://www.lex.uz/acts/3027843>
2. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 11 сентябрдаги “Жисмоний ва юридик шахсларнинг муносабатлари тўғрисида”ги Қонуни // <https://lex.uz/docs/3336169>.
3. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 12 апрелдаги “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги Қонуни // <https://lex.uz/docs/3679092>.
4. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 30 июлдаги “Экстремизмга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонуни // <https://lex.uz/docs/3841957>.
5. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 29 июлдаги “Қурол тўғрисида”ги Қонуни // <https://lex.uz/docs/4445288>.

6. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 14 июлдаги “Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида”ги Қонуни // <https://lex.uz/docs/5511879>.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2021-2026 йилларга мўлжалланган экстремизм ва терроризмга қарши курашиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2021 йил 28 июлдаги ПФ–6255-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/5491626>.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 2 апрелдаги “Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5050-сон Қарори // <https://lex.uz/docs/5353841>.



Sevinch TOLIBOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi
E-mail: stolibova@gmail.com

Y.f.n B.Turayev taqrizi asosida

HUQUQIY NORMALAR TURLARI VA SHAKLLANISH TURLARI

Аннотация

Huquq o‘z ichki tuzilmasiga ega. Yaxlit bir tizim sifatidagi huquq tizimi o‘z ichiga huquq tarmoqlarini, huquq institutlarini oladi. Huquq tizimining eng kichik, birlamchi tarkibiy unsuri bo‘lib, huquq normasi hisoblanadi. Huquq ijtimoiy munosabatlarga ta‘sir etuvchi vosita sifatida doim, muayyan xulq-atvor, xatti-harakat qoidasi sifatida o‘zini namoyon etib, u tegishli hayotiy holatlardagi huquq subektlari tomonidan qayta-qayta qo‘llanishi mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: Huquqiy norma, gipoteziya, dispozitsiya, sanksiya, norma, oddiy gipoteziya, murakkab gipoteziya, dispozitsiya turlari.

ВИДЫ ПРАВОВЫХ НОРМ И ВИДЫ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Право имеет свою внутреннюю структуру. Правовая система в единой системе получает свои законные права и правовые институты. Право самое маленькое, первичное ненадёжное, а верховенство закона берёт. Право как средство воздействия на общественные отношения всегда проявляется как установленное правило поведения и действий и предназначено для многократного использования субъектами права в соответствующих жизненных ситуациях.

Ключевые слова: Правовая норма, гипотеза, диспозиция, санкция, норма, простая гипотеза, сложная гипотеза, виды диспозиции.

TYPES OF LEGAL NORMS AND TYPES OF FORMATION

Annotation

Law has its own internal structure. The legal system as a whole system includes legal branches and legal institutes. It is the smallest, primary structural element of the legal system and is considered a legal norm. Law, as a means of influencing social relations, always manifests itself as a rule of certain behavior and behavior, and it is intended to be used repeatedly by legal subjects in relevant life situations.

Key words: Legal norm, hypothesis, disposition, sanction, norm, simple hypothesis, complex hypothesis, types of disposition.

Kirish. Huquqiy tizimini bir bir bino deb qaraydigan bo‘lsak, huquq normasi uning bir g‘ishti sifatida yoki bir jonli organizmning eng kichik hujrasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, unda huquqqa xos bo‘lgan muhim belgilar jamlangan bo‘ladi. Huquq normasi hokimiyat tepasida turgan siyosiy kuchlarning amr-irodasini ifodalaydi; davlat tomonidan o‘rnatilgan o‘rnatilgan yoki sanksiyalangan bo‘ladi; barcha huquq subektlari tomonidan bajarilishi majburiy; aks holda davlatning majburlov kuchi bilan ijrosi ta‘minlanadi; normativ aktlarda va boshqa huquq manbalarida ifodalanadi.

Mavzu dolzarbligi. “Norma” so‘zi lotincha bo‘lib, u o‘zbekchada “qoida”, “namuna” ma‘nolarni anglatadi. Darhaqiqat, har bir norma o‘zida biror-bir xatti-harakat, xulq-atvor qoidasini, muayyan yurish – turish modelini ifodalaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 60-moddasiga binoan, fuqarolar konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdir, -bu huquqiy norma fuqarolarning amaldagi qonunchilikka nisbatan qanday xatti-harakat qilishi to‘g‘risidagi qoidalarni o‘zida mustahkamlaydi.

Huquq normasi – ijtimoiy munosabatlarni boshqarishga yo‘naltirilgan davlatning amr – farmon ko‘rsatmasi, umumijtimoiy qoidadir. Norma – huquqning asosi, uning mutlaqo zarur zarrachasidir. Huquqiy normalarning shakllanish jarayoni uch bosqichdan iborat:

Huquqiy g‘oyaning paydo bo‘lishi. Masalan, ibtidoiy jamoa tuzumi paytlaridayoq shaxs daxlsizligi g‘oyasi pishib yetilgandi. Huquqiy g‘oyalarning tug‘ilishi mexanizmi va shart-sharoitlari huquq nazariyasi fani o‘rganadi.

Huquqiy normani ta‘riflash (ifodalash). Mazkur bosqichda ijtimoiy ongda mavjud huquqiy g‘oyalarni tekshirish va umumlashtirish jarayoni davom etadi, ularni rasmiylashtirish

vositalarini izlash, huquqiy normalarni ishlab chiqish tartibi va tamoyillarini o‘rganish, ularni qabul qilish tadbirlarini belgilash va hokazolar davom etadi.

Huquqiy normani amaliyotga kiritish deganda, real ijtimoiy munosabatlarda shu munosabatlarni boshqarish maqsadida ularning faol qo‘llanishi tushuniladi.

Huquq normasi – davlat tomonidan belgilanadigan, muayyan shaklda ifodalanadigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umumijtimoiy yurish–turish qoidasi. Huquq normasi tegishli normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, huquq manbaining boshqa turlari shaklida namoyon bo‘ladi. Huquq tarmoqlariga bog‘liq holda ma‘muriy-huquqiy, jinoiy-huquqiy huquq normalari, mehnat, ekologiya, xalqaro, konstitutsiyaviy, xo‘jalik va huquqning boshqa tarmoqlariga oid huquq normalari farqlanadi. Amal qilish vaqtiga ko‘ra, doimiy (rasmiy bekor qilingunga qadar amal qiladigan) va vaqtinchalik (faqat muayyan vaqt oralig‘ida amalda bo‘luvchi) huquq normasi bo‘ladi. Huquq normasi amal qilish hududiga qarab, umumiy va mahalliy normalarga bo‘linadi. Bunda birinchisi butun mamlakat hududida amal qilsa, ikkinchisiga kiradigan normalar ma‘lum hududlarda amal qilishi mumkin. Huquq normasi subyektlariga qarab, umumiy va maxsus normalarga ajraladi, bunda birinchisi hamma huquq subyektlari uchun, ikkinchisi esa aholining muayyan guruhi yoki aniq belgilangan doiradagi subyektlar (pensionerlar, nogironlar, ichki ishlar xodimlari va h.k.) uchun taalluqli bo‘ladi.

Huquq normasining tarkibi – uning tarkibiy qismlari demakdir. Har qanday huquqiy norma tarkibi uni tashkil etuvchi qismlarning birligini taqazo etadi. Biroq, ushbu qismlar tabiati huquqiy normalar turiga bog‘liq. Shu munosabat bilan yuridik boshlang‘ich (ta‘sis, tayanch) normalar hamda xulq – atvor qoidalarni o‘rnatgan normalarni ajratib ko‘rsatish kerak.

Asos bo'lgan yuridik normalar tarkibi. Mazkur normalar moddiy yoki prosedura (tadbir) tavsifidagi biron-bir huquqiy qoidalarni qonuniy o'rnatilishi. Bu ish shu qoidalarni so'zlar orqali ifodalash yoki uning muhim belgilarini ta'kidlash yo'li bilan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 2-moddasi bunga misol bo'la oladi. Unda, jumladan, barcha mulkiy boylıklar va ularga egalik huquqi (birinchi belgi), shuningdek, intellektual mulkka egalik huquqi (ikkinchi belgi), foyda olish maqsadida xorijiy investitsiyalardir, deyiladi. Ko'rsatib o'tilgan belgilar yig'indisi aynan shu yuridik norma tarkibini tashkil etadi. Shuning uchun ushbu normalardan faraz (gipoteza), dispozitsiya yoki sanksiya (jazo chorasi)ni izlash behudadir.

Xulq-atvor qoidalari bo'lgan normalar tarkibi. Xulq-atvor qoidalari bo'lgan normalar tarkibi masalasi ko'pdan ko'p huquqshunoslar e'tiborini tortib keladi. Huquqshunoslikda S.A.Golunskiy hamda M.S.Strogovichlarning yuridik normaning uch qismlik tuzilishi to'g'risidagi fikrlari keng e'tirof etilgan: bu qismlar Faraz (Gipoteza), Dispozitsiya, Sanksiyadan iborat. Huquqiy normada eng avvalo, shu norma qo'llanilishi lozim bo'lgan shart-sharoitlarga ishora, so'ng xulq-atvor qoidasining bayoni, nihoyat, ushbu qoidani bajarmaslik oqibatlariga ishora o'z ifodasini topadi. Huquq normasining tarkibiy elementlari o'rtasida o'zaro yuridik-mantiqiy bog'lanish, yuridik-texnika qoidalarga asoslangan holda ifodalangan, mantiqiy izchillik hamda tizimlilik mavjud. Qolaversa, u huquqiy jihatdan umumiy mazmun asosida bir butunlikni, yaxlitlikni hosil qiladi. Biroq ular ayrim huquq sohalarida huquq normasining elementlari sifatida to'liq holatda, birgalikda uchramaydi (Konstitutsiyaning ta'sis etuvchi normalarida dispozitsiya shaklida). Bunday holatlarda normativ-huquqiy hujjatning tegishli moddalari mohiyatini anglab yetish huquqning ichki tuzilishi bilan bog'liq nazariy qoidalar asosida ijobiy hal etilishi mumkin.

Yuridik normaning uch qismli tuzilishi uning mantiqiy yuridik tarkibi hisoblanadi. U fikrlash yo'li bilan tiklanadi va "Agar...bo'lsa, unda..., aks holda esa... bo'ladi" tarzidagi shartli ifodadan iborat bo'ladi. Mantiqiy yuridik tarkibni tiklash uchun mantiq qoidalari va talablardan tashqari qonunchilik, yuridik texnika, huquqiy bog'lanishlarni bilish kerak bo'ladi.

U yoki bu vaziyatda muayyan xulq-atvor andozasini yuzaga keltiruvchi huquq normalari xulq-atvor qoidalari bo'lib, o'z mantiqiy-yuridik tarkibida faraz (gipoteza), dispozitsiya va sanksiyaga ega bo'ladi.

Yuridik norma farazi (gipoteza) – yuridik normaning bir qismi bo'lib, u norma (dispozitsiya) amalga oshiriladigan hayotiy shart-sharoitlarning mavjudligi yoki yo'qligini ko'rsatib beradi. Shuni ham aytib o'tish joizki, huquq normasining dastlabki qismi bo'lgan gipotezada "faraz yordamida xatti-harakatning mavhum varianti konkret "hayotiy" hodisaga, ma'lum bir shaxsga, vaqtga, joyga "bog'lanadi". Farazda mustahkamlangan har bir vaziyat (holat) xulq-atvor qoidasiga "hayot nafasini kiritadi", uni alohida hodisa darajasiga ko'taradi". Shuningdek, gipotezada huquq normasida belgilangan qoida qay sharoitda va qay holatda hamda kim tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatiladi. Gipoteza – huquq normasining bir qismi bo'lib, unda dispozitsiyada ko'rsatilgan qoidaning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan aniq hayotiy holat (voqea, harakat, hodisalar) o'z ifodasini topadi.

Huquq normasi o'z ichki tuzilishiga ega, ya'ni u tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ayni paytda ular bir – biri bilan bog'liqdir.

Shunday qilib, huquqiy norma quydagi 3 unsurdan iborat:
Gipoteza
Dispozitsiya
Sanksiya

Gipotez – Huquq normasining tarkibiy unsuri bo'lib, u ushbu huquqiy normaning qanday sharoitlarda harakatga kirishishi va uning dispozitsiyasi qanday sharoitlarda amalga oshirishini belgilovchi hayotiy sharoit va mavjud holatlarni ko'rsatadi, ya'ni huquq normasida belgilangan xatti-harakat qanday sharoitlarda bajarilishi lozimligini ko'rsatadi. Gipotezada huquq normasida belgilangan qoida qay sharoitda va qay holatda

hamda kim tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatiladi. Gipoteza huquqiy normaning bir qismi bo'lib, unda dispozitsiyada ko'rsatilgan qoidaning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan konkret aniq hayotiy holatlar o'z ifodasini topadi. Masalan, fuqarolik huquqiy normasi fuqarolarning muomala layoqati qaysi holda to'la vujudga kelishini ko'rsatadi.

Huquq normalarining amal qilish bilan bog'liq bo'lgan bitta shart- sharoit aks etgan gipoteza oddiy gipoteza hisoblanadi. Masalan, Prezident O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig'inishida qasamyod qabul qilgan paytdan boshlab o'z lavozimiga kirishgan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 108-moddasi.

Murakkab gipoteza esa huquq normasining amal qilishi ikki yoki undan ortiq holatlarning mavjud yoki mavjud emasligiga bog'liq ekanligi ko'rsatiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylov gacha kamida 10 yil O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 106-moddasi.

Alternative gipoteza esa huquq normalarining amal qilishi sanab o'tilgan shart-sharoitlardan biriga bog'liq ekanligini bayon etadi.

Dispozitsiya – Huquq normasining tarkibiy unsuri bo'lib, unda huquq subyektlarining huquq va majburiyatlarini belgilanadi va ularning bo'lishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlari varinatlarini aniqlanadi. Dispozitsiya huquqiy normaning bir qismi bo'lib, unda gipotezada ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lganda huquq subyektlari rivoya etishlari lozim bo'lgan xatti-harakat qoidasi ifodalangan bo'ladi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80- moddasiga muvofiq, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar, o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar- bunda, demak gipoteziyada ko'rsatilgan holatlar, ya'ni farzandlarining voyaga yetishi va mehnatga layoqatli bo'lishi hollarining mavjudligi dispozitsiyaning amal qilishiga sharoit tug'diradi, ya'ni farzandlarda o'z ota-onalariga g'amxo'rlik qilishga majburiyatini vujudga keltiradi.

Dispozitsiya turlari:

Oddiy dispozitsiya xulq-atvor, yurish-turishning konkret variantini, uning mazmunini to'la ochib bermagan holda ko'rsatib o'tiladi.

Murakkab dispozitsiya huquqiy munosabat subyektlarining subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarining keng doirasini o'z ichiga qamrab oladi, ya'ni bunda huquq subyektlarining huquqlari yoki majburiyatlari sanab o'tiladi.

Muqobil dispozitsiyada xulq-atvor, yurish-turishning bir nechta variantlari ko'rsatib o'tiladi va munosabat ishtirokchilari ulardan biriga amal qilishlari mumkin yoki shart.

Sanksiya- yuridik normaning tarkibiy unsuri bo'lib, u huquqiy norma buzilgan holda huquq buzilgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan davlat majburlov chorasining turini belgilaydi. Sanksiya huquq normasining bir qismi bo'lib, unda dispozitsiyada ko'rsatilgan talablarni bajarmaganlik uchun berilishi mumkin bo'lgan jazoning yoki tavsiya etilgan harakatni sodir etganlik uchun rag'batlantirishning turi va o'leho'i ifodalangan bo'ladi.

Sanksiyalarda ifodalangan salbiy oqibatlarining aniqligiga qarab mutlaq aniq, nisbatan aniq va kumulyativ sanksiyali normalar ajratiladi. Mutlaq aniq sanksiyali huquq normalarida davlatning aniq bitta majburlov chorasi ko'rsatiladi. Masalan, transport vositasini boshqarish vaqtida haydovchilarning telefonidan foydalanishi bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi (O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, 128'-modda).

Xulosa. Huquqiy norma, insonlar to'g'risida qabul qilingan qonun, tartib, qoida yoki odatlar to'plami. Bu norma insonlarga huquq va majburiyatlar, ularning harakatlari va munosabatlari bo'yicha belgilangan Qonunlar va qarorlar orqali aniqlangan. Huquqiy normalar obyektlar, xizmatlar, moliya muomalalari, jinoyatlar, boshqa hukumronlik turlarini ham o'z

ichiga oladi. Huquqiy normalar odatda qonun, nizom, tartib, qaror, farmon va boshqa hukmronlik hujjatlari shaklida ifodalangan.

Huquq o'z ichki tuzilishiga ega. Yaxlit bir tizim sifatidagi huquq tizimi o'z ichki huquq tarmoqlarini, huquq institutlarini oladi. Huquq tizimining eng kichik, birlamchi tarkibiy unsuri bo'lib, huquq normasi hisoblanadi. Agar huquqni, huquq tizimini bir bino deb qaraydigan bo'lsak, huquq normasi uning bir gashti sifatida yoki bir jonli organizmning eng kichik bir hujayrasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, unda huquqqa xos bo'lgan muhim belgilar jamlangan bo'ladi. Huquq normasi hokimiyat tepasida turgan siyosiy kuchlarning amr-irodasini ifodalaydi;

davlat tomonidan o'rnatilgan yoki sanksiyalangan bo'ladi; barcha huquq subyektlari tomonidan bajarilishi majburiy; aks holda davlatning majburlov kuchi bilan ijrosi ta'minlanadi; normativ aktlarda va boshqa huquq manbalarida ifodalanadi.

Ayni paytda, huquq normasiga yaxlit bir tizimning eng kichik bo'lakchasi sifatida o'ziga xos jihatlar ham tegishlidir.

Shunday qilib, huquq normasi – barcha huquq subyektlari uchun majburiy bo'lgan, davlat tomonidan o'rnatilgan va sanksiyalangan xatti-harakat qoidasi, xulq-atvor namunasi bo'lib, unda ijtimoiy munosabat qatnashchilarining huquq va majburiyatlari mustahkamlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. Toshkent: Adolat, 2018. 257-bet
2. Saydullayev Sh. A. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. „Yuridik adabiyotlar publish“. Toshkent: TDYU, 2021. 124b.
3. O'zbekiston Yuridik ensiklopediyasi. Nashr uchun mas'ul R.A. Muhiddinov va boshqalar. Mas'ul muharrir N. To'ychiyev. Toshkent: Adolat-2010. 140-bet
4. Islomov Z., M. Mirhamidov. Huquqshunoslik. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent-2002
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent-2023



Jaxongir TUYCHIBOYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: Jahongirrazamovbillur@gmail.com

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b. I.Safarov taqrizi asosida

YOSH FIZIOLOGIYASI VA GIGIYENASI FANINI ZAMONAVIY O'QITISH METODLARI

Аннотация

Ushbu ilmiy maqolada yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fanini o'qitishning zamonaviy pedagogik metodologiyasini tatbiq etish masalalari muhokama etiladi. Ushbu fanni zamonaviy metodlar orqali tashkil etish natijasida erishiladigan yutuqlar tahlil etiladi. Fanni olib borishda qo'llash mumkin bo'lgan ilg'or metodlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi, metod, ta'lim, texnologiya, pedagogika, dars, fan.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ НАУКИ ФИЗИОЛОГИЯ И ГИГИЕНА МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной научной статье рассматриваются вопросы внедрения современной педагогической методики преподавания науки физиологии и гигиены молодежи. Анализируется прогресс, достигнутый в результате организации этой науки современными методами. Рассмотрены передовые методы, которые можно использовать в ведении науки.

Ключевые слова: Физиология и гигиена молодежи, метод, воспитание, технология, педагогика, урок, наука.

MODERN METHODS OF TEACHING THE SCIENCE OF YOUTH PHYSIOLOGY AND HYGIENE

Annotation

This scientific article discusses the issues of implementing the modern pedagogical methodology of teaching the science of youth physiology and hygiene. The progress achieved as a result of organization of this science through modern methods is analyzed. Advanced methods that can be used in conducting science are considered.

Key words: Youth physiology and hygiene, method, education, technology, pedagogy, lesson, science.

Kirish. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fani talabalarga bo'lajak muallimlarga rivojlanayotgan organizmning o'sish va rivojlanishi, bolalarning yosh xususiyatlari, uning tashqi muhit bilan o'zaro bog'likligi, bolalarda uchraydigan turli kasalliklar va ularni oldini olish yo'llarini o'rgatishda, bilimga ega qilishda katta ahamiyatga ega.

Fiziologiya biologiyaning bir tarmog'i bo'lib, organlar, organlar sistemasini va organizm funksiyalarini hamda hayot jarayonlarini o'rganadi.

Yosh fiziologiyasi fani tibbiyot fanlari bo'lmish odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanining bir tarmog'i bo'lib, yosh organizmning katta odam organizmidan tubdan farq qilishini ko'rsatadi. Demak, bola organizmi faqat katta odamning qolipi emas, balki hajmi, fiziologik xususiyatlari va tashqi muhitga moslanishi bilan farq qiladi.

Yosh fiziologiyasi fani turli yoshdagi bolalar va o'smirlarning organizmlarida kechadigan o'sish va rivojlanish jarayonlarini, organlari, to'qimalari va tizimlarini o'ziga xos yosh xususiyatlarini o'rganadi. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi bir qancha fanlar: tibbiyot, pedagogika psixologiya fanlari bilan chambarchas bog'langandir. Yosh fiziologiyasi bularning ilmiy-nazariy asosi hisoblanadi. Ushbu kompleks fanni talabalarga turli zamonaviy metodlar orqali o'qitish dolzarb ahamiyatga ega [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. X asrning ikkinchi yarmida Abu Bakr ibn Buxoriyning «Hidoyat» (tibbiyotni o'rganuvchilarga qo'llanma) kitobida odam va bolada uchraydigan ko'pgana kasalliklar va ularni davolashda qo'llaniladigan dorilar bayonida ma'lumotlar berilgan. O'sha davrlarda Abu Mansur Buxoriyning «Oddiy dorilar haqida katta to'plam», Abu Sahl Masih Jurjoniyning yuz bobli «Al-kimy» kitobida tibbiyotni o'rganishda darslik sifatida keng qo'llaniladi [2].

Ensiklopedist olim Abu Rayhon Beruniy ham tibbiyot faniga katta hissa qo'shgan. Uning «Saydana» kitobida o'simlik va hayvon mahsulotlaridan hamda mineral moddalardan tayyorlanadigan mingdan ortiq dorilar haqida ma'lumot berilgan.

Jahon ilmiy tafakkur rivojiga katta hissa qo'shgan buyuk alloma Abu Ali Sino juda katga ilmiy meros qoldirgan. U o'zidan oldin o'tgan Sharq mutafakkirlarining asarlarini chuqur o'rganish bilan birga, qadimgi yunon tibbiy-ilmii va falsafiy merosini, xususan, Aristotel, Evklit, Ptolomey, Galen, Gippokrat, Pifagor kabilarning asarlarini qunt bilan o'rganadi. Ibn Sinoning «Kitob al-qonun fittibb» (Tib qonunlari) kitobi beshta katta kitobdan iborat bo'lib, 1956 va 1962 yillarda rus va o'zbek tillarida to'liq nashr etilgan. Bu kitoblarda odam anatomiyasi, fiziologiyasi va gigiyenasi kabi tibbiyotning nazariy fanlariga hamda ichki kasalliklar, jarroxlik, dorishunoslik, yuqumli kasalliklarga taaluqli bilimlar bayon etilgan. Bu kitob 600 yil davomida butun jahondagi shifokorlar uchun asoeiy qo'llanma bo'lib keldi, undagi ko'pgana ma'lumotlar hozir ham o'z ahamiyatini saklab kelmoqda. U 36 marta qayta nashr etilgan [3].

Hozirgi davrda ham tibbiyot sohasida ko'pgana tanikli olimlar yetishib chiqdi. Jumladan, akademik A.Y.Yunusov fiziologiya fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan. Ayniqsa, akademik A.Y.Yunusovning yosh fiziologiyasini o'rganish sohasida olib borgan ilmiy tekshirish ishlari, alohida o'rin tutadi. Yosh fiziologiyasi masalalari Toshkent tibbiyot institutida, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universitetida va Pedagogika ilmiy tekshirish institutida ishlab chiqilmoqda. Professor E.S.Maxmudov, Z.T.Tursunov, R.D.Axmedov, V.D.Xodjimotov va M.G.Xodjimotov va M.G.Mirzakarimova va ularning shogirdlari yosh fiziologiyasi fanini rivojlanishida o'z hissalarini ko'shib kelmoqdalar [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda bayon etilgan qoidalarni amalga oshirish va tayyorlanayotgan yo'nalishlar bo'yicha mutaxassis bakalavr, magistrlar sifatini jahon ta'limi andazalari talablariga mos tushishini taminlash, zamonaviy metodlar yordamida darslarni tashkil etish oliy ta'lim oldiga qo'yilgan eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Aytish lozimki, mazkur masala va muammolarni hal qilish uchun respublikamizda keng ko'lamda talim tarbiya ishlari

va axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan katta tajribaga, o'qishga, tashkiliy va amaliyotga oid ishlar olib borilmoqda. Oliy o'quv yurtlari yangi jihozlar, kompyuter texnikasi, zamonaviy bumlar va vositalar bilan taminlanmoqda, iqtidorli talabalar rivojlangan mamlakatlarga o'qishga yuborilmoqda. Yangi-yangi institutlar, universitetlar, akademik litseyalar, kollejlarda tashkil etilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar bilan qo'shma korxonalar tuzilmoqda. Mazkur olib borilayotgan ko'p qirrali ishlar asosan, tayyorlanayotgan xodimlarning sifatini oshirishga qaratilgan.

Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fanini o'qitish metodikasi fanidan magistratura talabalari mutaxassislik fanlarini o'qitishda [7]:

o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari;

ta'lim mazmunini tanlash mezonlari, o'qitish metod va vositalari;

o'qitishning axborot texnologiyalari, o'quv amaliyotini tashkil etish;

o'qituvchining o'quv me'yoriy hujjatlari va metodik ishlar, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash metodikasi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;

fanni o'qitish jarayonining tuzilishi, qonuniyat va tamoyillari;

talabalarining diqqatini jalb qilish va mashg'ulot samaradorligini oshirish metodlari va vositalari, o'qitish shakllari, ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya, mustaqil ta'lim, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, o'quv amaliyoti, malakaviy ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish metodikasini bilishi va ulardan foydalana olishi;

fanlarni o'qitish jarayonida talabalarining bilimi, ko'nikma va malakalarini tahlil etish turlari, shakl va metodlarini, o'qitishning multimedia va interfaol ta'lim texnologiyalarini bilishi va ulardan foydalana olishi;

didaktik ta'minotni ishlab chiqish, mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash, o'quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqish, o'qitish jarayonida reyting tizimini qo'llash;

o'qitishda mashg'ulotlarning rejasini tuzish va ma'ruza matnini tayyorlash, ochiq mashg'ulotlarni o'tkazish va hujjatlarni rasmiylashtirish, yil, semestr bo'yicha o'quv ishlarining tashkil etilishini rejalashtirish, auditoriyadan tashqari ish shakllariga rahbarlik qilish;

hayotida kompyuterlardan ongli va oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

o'qitish jarayonida axborot texnologiyalari va interfaol texnologiyalarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Tahlil va natijalar. Shunday qilib yosh fiziologiyasi va gigiyenasi darslarida interfaol metodlarni qo'llash samarali yechim deb qarash mumkin. Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi [8]:

ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;

ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiq lashtirilishi;

amalda bajarish orqali o'rganilishi;

ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarining fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarining ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarining bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashtirishiga erishiladi.

Interfaol metodlardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan interfaol metodlardan foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Interfaol metod texnologiyasining mohiyati tahsil oluvchilarning ustuvorligiga tayanib, darsda erkin bahs – munozara sharoitini yaxshilashdan iboratdir. Bu metodga ko'ra darslar bir necha bosqichga bo'linadi [9]:

1. Chaqiriq bosqichi. Bu bosqichda tahsil oluvchilarni faollashtirish, shuningdek mazmun mohiyatiga kirib borish uni anglab yetish jarayoniga tayyorlash maqsadi ko'zda tutiladi.

2. Fikriy hujum. Bu usul darsning boshlanishida yoki istalgan joyida qo'llanilishi mumkin. Bu bosqichda muammo tahsil oluvchilarga aqliy hujum yo'li bilan beriladi va ularning fikrlari orqali olinadi.

3. Anglash bosqichi. Mavzuga oid xulosaviy fikrlar eshitaladi va o'qituvchi tomonidan yangi fikrlar bilan to'ldiriladi.

4. Fikrlash bosqichi. Mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim va tushunchalarni qisqa jummalarda yozma ravishda bayon qilish topshiriladi. Bu topshiriqni bajarish uchun sinf guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh topshiriq bo'yicha o'z fikrini yozadi va har bir guruh vakili bajarilgan topshiriqni boshqalarga ma'lum qiladi. Guruhlar bilan ishlash faqat fikrlar bosqichida emas, balki birinchi bosqichdan boshlab yo'lga qo'yilishi mumkin.

Tahsil oluvchilarni guruhlariga bo'lib ishlash uchun qo'yidagi talablarga amal qilish zarur [10]:

1. Guruhlarga ajratish o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

2. Har bir guruhga rahbar tayinlanadi.

3. Har bir guruhdagi tahsil oluvchilar bilim darajasining teng bo'lishiga erishish kerak.

4. Guruh doira shaklida o'tirishi lozim.

Fikriy hujum metodi. Mazkur metod tahsil oluvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

“6X6X6” Metodi. Ushbu metod yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar tahsil oluvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali muayyan topshiriq yoki masalani hal etishmshuningdek guruhlarining har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. 6x6x6 metodi asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi oltita guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi oltita guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalarni muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar.

“Aqliy hujum” metodi. Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llanadigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma va malakalarni hosil qilishga rag'batlantiriladi.

Xulosa va takliflar. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fani amaliyotga bog'liq bo'lgan nazariy fan bo'lgani uchun bu fan mashg'ulotlarini olib borishda interfaol pedagogik metodlar yuqori samaradorlik ko'rsatishi ayon bo'ldi. Ta'lim dargohlarida yuqorida ko'rsatib o'tilgan va boshqa ilg'or texnologiyalarni qo'llash ham darsning sifatli borishini, ham ta'lim oluvchilarning osonlik bilan qabul qilish ko'nikmasini oshirishini ta'minlab beradi.

ADABIYOTLAR

1. M.V.Antropova «Bolalar va o'smirlar gigiyenasi» M.Meditsina 2012.
2. M.T.Matneshonok «Bolalar maktab o'quvchilarining anatomiya, fiziologiya va gigiyenasi». Minsk «Visshaya shkola». 2018.
3. K.S.Sodikov «O'quvchilar fiziologiyasi va gigiyenasi» T.O'qituvchi 2012.
4. A.G.Xripkova, M.V.Antropova, D.A.Farber, «Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi» M.Prosveshenie 2010.
5. Soglom avlod-yurtimiz kelajagi «O'qituvchi gazetasi». №48. 8.12.2019
6. I.A.Ubaydullaeva Yosh fiziologiyasi asoslari. Toshkent 2004y.
7. Galperin S.N. "Anatomiya i fiziologiya" M."Prosveshenie"2020
8. Markosyan A.A. "Yosh fiziologiyasi masalalari " T.Uqituvchi. 2011.
9. Godikov K.S. O'quvchilar fiziologiyasi va gigiyenasi T.O'qituvchi 2011 yil.
10. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma / M. Aripov; red. Sh. Mansurov. - T. : Noshir, 2019. - 368 b.



Azim TURGUNOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi, PhD

S.f.d, professor A.Muminov taqrizi asosida

AXBOROT VA MEDIA MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH – AXBOROT-MAFKURAVIY TAHIDDLARGA QARSHI KURASHNING SAMARALI YO‘NALISHI SIFATIDA

Аннотация

Maqolada jamiyatda axborot iste‘moli madaniyati va media savodxonlikni rivojlantirish – axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning samarali usuli sifatida ko‘rilishi ilmiy dalillar bilan ko‘rsatilgan. Axborot iste‘moli madaniyati va media savodxonlikni rivojlantirish va o‘rganishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Axborot urushi, axborot qarama-qarshiligi, axborot bosimi, psixologik urush, internet, mafkuraviy tahdid.

РАЗВИТИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ И МЕДИАКУЛЬТУРЫ – КАК ЭФФЕКТИВНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ БОРЬБЫ С ИНФОРМАЦИОННО-ИДЕОЛОГИЧЕСКИМИ УГРОЗАМИ

Аннотация

В статье опубликовано научные развитие культуры потребления информации и медиаграмотности в обществе рассматривается как эффективный способ борьбы с информационными и идеологическими угрозами. На научной основе анализируются социально-философские аспекты культуры потребления информации, развития и обучения медиаграмотности.

Ключевые слова: Информационная война, информационный конфликт, информационное давление, психологическая война, Интернет, идеологическая угроза.

DEVELOPMENT OF INFORMATION AND MEDIA CULTURE - AS AN EFFECTIVE DIRECTION OF FIGHTING AGAINST INFORMATION-IDEOLOGICAL THREATS

Annotation

The article shows with scientific evidence that the development of information consumption culture and media literacy in society is seen as an effective way to fight against informational and ideological threats. Socio-philosophical aspects of information consumption culture and media literacy development and learning are analyzed on a scientific basis.

Key words: Information war, information conflict, information pressure, psychological war, Internet, ideological threat.

Kirish. Zamonaviy dunyoda xalqaro munosabatlarda “axborot urushi”, “axborot qarama-qarshiligi”, “axborot bosimi” kabi tushunchalarning keng iste‘molga kirib kelayotganligi insonlar-insonlarni axborot xurujlaridan muhofaza qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish zaruratining yanada dolzarbligini oshirmoqda. O‘z vaqtida Hindistonning tanikli siyosiy arbobi Maxatma Gandi shunday yozgan edi: “Men uyimning darvoza va eshiklarini mahkam berkitib o‘tira olmayman. Chunki, unga toza havo kirib turishi kerak. Va shu barobarida eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib, xonadonimni ag‘dar-to‘ntar qilib, o‘zimni yiqitib tashlashini ham xohlamayman”[1]. Bu so‘zlarni bugungi axborot tahdidlari va turli xil ma‘lumotlarning xilma-xil yo‘llar bilan mamlakatimizga, umuman, boshqa mamlakatlarga ham kirib kelib, u yoki bu mintaqada asrlar mobaynida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlar, e‘tiqod shakllariga va tarbiya uslublariga salbiy yoki ijobiy ta‘siri jarayonlari ma‘nosida qo‘llash ham mumkin.

Bugun O‘zbekiston ham ana shu yagona axborot tizimining faol subektiga aylandi. Uning dunyo bilan aloqasi, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga ishtiroki, davlatlararo munosabatlar, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va madaniy aloqalari umumjahon axborot tizimi tarkibida amalga oshirilmoqda. Bu bevosita elektron pochta, elektron axborot almashish tizimi orqali ham milliy, ham dunyoviy muammolarni hal etishda faoliyat samaradorligini oshirishda, vaqtni tejashda, moliyaviy harajatlarning keskin kamayishida, qolaversa, zamonaviy axborot almashtirish salohiyatini namoyon qilishda katta samara bermoqda.

Hozirgi zamon axborot tizimi, uning juda keng imkoniyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, O‘zbekistonda axborot olish, saqlash, foydalanish va tarqatishning umummilliy manfaat hamda umummilliy taraqqiyot nuqtai nazaridan

boshqaruv mexanizmini yaratish, uning mohiyati va unsurlarini chuqur anglash zarur bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda axborot urushi “psixologik urush” tushunchasi orqali ham yoritilmoqda. “Psixologik urush”ning ma‘nosini mutaxassislar quyidagicha izohlaydi: u “muayyan bir davlat maxsus organlarining o‘z siyosiy va hatto sof harbiy maqsadlariga erishish uchun boshqa davlatning fuqaro aholisi va harbiy xizmatchilariga psixologik ta‘sir o‘tkazishdan iborat faoliyat mazmunini aks ettiradi”[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotchi olim Sh.Raimovning e‘tirofi etishicha, “qator davlatlar tomonidan qo‘llanilayotgan “psixologik urush” olib borish metodlari aslida eramizdan oldingi VI asrda yashagan xitoy faylasufi va harbiy arbobi sun szi qo‘llanmalarida quyidagi tarzda ifodalab berilgan: dushmaningizning mamlakatidagi hamma yaxshi narsalarni parokanda qiling; dushmanning ko‘zga ko‘ringan arboblarini jinoyatkorona ishlarga jalb qiling; dushman rahbarlarining obro‘sini to‘king va payti kelganda ularni jamoatchilik oldida izza qiling; shu maqsadda eng qabih va razil odamlar bilan hamkorlikdan foydalaning; o‘zingizga dushman mamlakat fuqarolari orasida nizo va to‘qnashuvlar keltirib chiqaring; insonlarni keksalarga qarshi gij-gijlang; hukumatning ishiga barcha vositalar bilan xalal bering; dushman qo‘shinlarining normal ta‘minlanishiga va ularda tartib saqlanishiga barcha usullar bilan to‘sqinlik qiling; dushman qo‘shinlari maylini ashula va musiqalar bilan band qilib qo‘ying; dushmanlaringizning an‘analarini qadrsizlantirish va o‘z xudolariga ishonchini yo‘qotish uchun mumkin bo‘lgan hamma narsani qiling; ma‘naviy buzilishni avj oldirish uchun yengiltabiat ayollarni yuborib turing; axborot va sheriklar sotib olish uchun taklif hamda sovg‘alarga saxiy bo‘ling; umuman pulni ham, va‘dalarni ham ayamang, chunki ular ajoyib natijalar beradi”[3].

Professor M.Quronovning fikricha, “axborot xurujlari – bu mafkuraviy ob’ekt xususiyatlarini hisobga olib ta’sir ko’rsatish: dushman o’zini o’rta yoshli va ma’lumotli o’zbek do’sti bilan gaplashayotgandek, tutadi. Hozir barcha MDH mamlakatlarida bo’lgan o’tish davri iqtisodiy muammolarni “Hammaga kelgan to’y-da, deb emas, balki, aksincha, faqat O’zbekistonda bor” deb aldayapti. O’zbekiston taraqqiyotda MDHning ko’plab davlatlaridan ustun ekanini zinhor-bazinhor aytmaydi. Ana shunday soxta axborot vositasida mafkurasi zaif ayrim yurtdoshlarimizda noto’g’ri, o’tkinchi munosabatni paydo qilishga umid qiladi”[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ommaviy axborot vositalari odamlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvoriga ta’sir ko’rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Aynan, ommaviy axborot vositalari amalga oshiradigan va katta mablag’ talab qilmaydigan g’oyaviy ta’sir va tazyiqning o’ziga xosligi shundaki, u insonlarga sezdirmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarni keltirib chiqarmaydi. Axborot dushmani yo’q qilmagan, katta xarajatni talab qilmagan holda yuqori samara beradi. Bunda g’oyaviy ta’sir yo’naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o’rganilgan holda asosiy diqqat kishilar ongi va dunyoqarashiga ta’sir ko’rsatishga, shakllangan qadriyatlarini o’zgartirishga, ularning regulyatorlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo’qqa chiqarishga qaratiladi.

Ochiq axborot kommunikatsiyasi jarayonida insonlar ongiga ta’sir etayotgan yot g’oyalarga qarshi himoya vositalarini ishlab chiqishdan avval insonlarning ijtimoiy xulqida ko’zga tashlanadigan eng muhim holatlardan biri tashvishlanish, nimadandir cho’chish va shu tufayli ijtimoiy munosabatlardan o’zini olib qochishga intilish hislarini namoyon bo’lishini hisobga olish lozim. Chunki agar, psixologik himoya holatining mohiyatidan kelib chiqilsa, bu shaxs ichki kechinmalarini ifodalovchi shunday holatki, unda odam ichki ruhiy mo’tadillikni asrash uchun o’zidagi xavotirlanish, qo’rquv va xadiksirashlarini bosishga, ulardan xalos bo’lishga intiladi.

“Axborotlashgan jamiyatning ochiq axborot xurujlari vaziyatida insonlarning o’z-o’zini himoya qilishini boshqarishda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor berish lozim:

har bir inson uchun mustaqil fikr zarurligini ta’kidladik. Mustaqil fikrga ega bo’lgan insongina o’ziga nisbatan qaratilgan yaxshi yoki yomon ma’lumotning mohiyatiga yetishi va unga nisbatan adekvat reaksiya ko’rsatishi, himoya mexanizmlarini ishga solishi mumkin. Professor M.Quronov ta’biri bilan aytganda, mustaqil fikrga mustaqil (erkin, ozod; tobe bo’lmagan, alohida) – ixtiyoriy o’zida bo’lgan; tobe, qaram bo’lmagan kabi ma’nolaridan kelib chiqib qarashim lozim. Bunda o’zganing yordamisiz yoki rahbarligisiz, o’zicha fikr yuritish, yashash tushuniladi. Insonlarimiz shunga qodirmi? Uni shunga o’rgatyapmizmi?”[5];

insonlar turli yot va g’ayrushururiy axborot xurujlariga berilmasligi uchun ularda milliy g’ururni tarbiyalash zarur. “Yangi zamonning yangi tushunchalari” tahliliga e’tibor qaratar ekan, M.Quronov milliy g’urur tushunchasining mohiyatini quyidagi tarzda sodda va tushunarli yoritib bergan: “Milliy g’urur – insonlarning yoshiga mos ravishda o’z xalqining qadr-qimmatini bilishi, izzatlashi; uning madaniyati, ma’naviyati, iqtisodiyotida qo’lga kiritgan yutuqlari, xizmatlari, boy merosini bilishi va ana shu yuksak milliy madaniy yutuqlarga mos bo’lishga, ularni boyitishga intilishini o’z ichiga oladi. Biroq, milliy g’urur stixiyali rivojlanib, o’z-o’ziga tanqidiy qarashdan ajratilsa, unda o’z millatini boshqalardan ustun qo’yish, milliy manmanchilik kabi salbiy natijalar berishi mumkin. Shuning uchun ham milliy g’ururni maxsus, ya’ni, yaratuvchan maqsadlarga qaratib, tanqidiylikni kamtarlik bilan uyg’unlashtirgan holda shakllantirish kerak”[6]. “Milliy g’ururning ahamiyati ham ana shunda, bunday fazilatga ega insonlar noto’g’ri g’oyalarga, jumladan, axborot xurujlariga tobe bo’lmaydi;

milliy g’ururi yuksak insonlar shaxsida iymon, insof va diyonat kabi fazilatlarini rivojlantirish mumkin. Chunki, inson qalbi bilan bog’liq bu qadriyatlar Internet va ochiq axborotlar

olamida adashtirmaydigan “kompas” rolini o’ynaydi. “Internet shunday o’rmonki, unda kompassiz yurib bo’lmaydi”. Internetda uyum-uyum “keraksiz” axborotlar mavjudligini e’tirof etish zarur. Garchi, Internet axloqiy jihatdan betaraf vosita sanalsa-da, undan shu vaqtga qadar to’plangan madaniy merosni saqlash maqsadida ham, unga putur yetkazish maqsadida ham foydalanish mumkin”[7].

Alohida ta’kidlash kerak-ki, bugungi kunda nafaqat o’quv dargohlarida, balki radio-televidenie, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlar olinmoqda. Jahon axborot maydoni kengayib borayotgan shunday bir sharoitda insonlarning ongini faqat o’rab-chirmab, uni o’qima, buni ko’rma deb, bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o’rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to’g’ri kelmaydi.

Shuningdek, M.Quronov “Biz angelayotgan haqiqat” nomli kitobida “Diqqat, Internet” sarlavhasi ostida quyidagi fikrlarni bayon yetgan: “Hali Internetning inson hayotidagi o’rni haqida yakdil xulosa qilishga ertaroqqa o’xshaydi. “Texnologiya biznesa. Sonnet” jurnali o’zining 2003-yil 10-sonidagi “Informatsiya + natsiya” maqolasida xavotirli gaplarni yozdi. “Internetdan mustaqil foydalanuvchilarda, – deb yozadi jurnal, – o’zini o’zi barqaror identifikatsiya qilish, o’ziga xoslik yo’qola boradi. Odamning o’zini anglashi xiralashadi yoki beqaror bo’lib qoladi.

Tahlil va natijalar. “Internet – millatsiz, qalbsiz, tarixsiz bepoyon cheksizlik. Unga odam qancha chuqur kirib borsa, miya kataklari shuncha tashqi ma’lumotga to’lib boradi. Begonalik sari qancha chuqur borsangiz, o’zingiznikilardan shuncha uzoqlasha borasiz. Miyangizda 100 ta katak bo’lsa-yu, shundan 70 tasi o’zbekona ma’noga to’la bo’lsa, yaxshi. O’zimiznikisiz. Mabodo 30 tasi o’zbekcha bo’lsa, yomon. Siz o’zingizga, o’zingiznikilarga begonalik tomonidan turib baho bera boshlaysiz. Bundan o’zingiznikilar yutqazadi. Begonalar yutadi...”[8].

N.Umarovanning fikricha, “ayni paytda axborotlashgan jamiyatni o’ziga xos bir jannat sifatida tasavvur qilish noto’g’ri bo’lar edi. Jumladan, axborotlashgan jamiyatda: ommaviy axborot vositalarining jamiyatga ta’siri yanada ortadi; axborot texnologiyalari insonlar va tashkilotlarning shaxsiy, xususiy hayotiga zarar yetkazishi mumkin bo’ladi, masalan, mamlakatning istagan fuqarosi haqida axborot to’plash va uning erkinligini bo’g’ish yo’lida bu ma’lumotlardan foydalanish mumkin bo’ladi; axborot texnologiyalaridan jinoiy maqsadlarda foydalanish imkoniyati ortadi; sifatli va haqqoniy axborotni tanlab olish muammosi yuzaga keladi; ko’pchilik kishilar uchun axborotlashgan jamiyat muhitiga moslashish murakkablik tug’diradi; axborot texnologiyalarini ishlab chiqish bilan shug’ullanadigan kishilar bilan iste’molchilar o’rtasida uzilish yuzaga kelish xavfi tug’iladi; jamiyatning texnologik imkoniyatlari bilan sotsial sohani va madaniyatni rivojlantirish bilan bog’liq imkoniyatlari o’rtasida tafovut paydo bo’ladi”[9].

Muallif o’z fikrini davom ettirib, “axborotlashgan jamiyatdagi tafovutlarni bartaraf etish uchun har bir insonda zamonaviy vositalar va texnologiyalar yordamida katta hajmdagi axborotni tez qabul va qayta ishlash malakasini tarkib toptirishning muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. Axborot iste’moli madaniyati insonning ijtimoiy tabiatiga bog’liq bo’lib, uning ijodiy qobiliyatlari mahsuli sanaladi va texnik qurollar (telefon, kompyuter, axborot tarmoqlari)dan foydalana bilish; o’z faoliyatida ko’p sonli dasturiy mahsulotlar jamlangan kompyuter texnikasini qo’llashga qodir bo’lish; turli manbalar: davriy nashrlar, elektron kommunikatsiyalardan o’zi uchun kerakli axborotni olish, uni tushunarli tarzda taqdim etish va undan samarali tarzda foydalana olish; axborotni tahliliy qayta ishlash ko’nikmalariga ega bo’lish; turli axborotlar bilan ishlash malakasiga ega bo’lish; o’z faoliyat sohasiga aloqador axborot oqimlariga xos xususiyatlarni bilish; informatsion bag’rikenglik va informatsion faollikni talab etadi”[10].

Xulosa va takliflar. Globallashuv sharoitida media ta’sirning ko’lami va tezligi oshib, ommaviy axborot vositalari, Internet va undagi ijtimoiy saytlar, kino sanoati orqali katta

miqdor va miqyosda axborotlar uzatilmoqda. Zamonaviy dunyoni ommaviy axborot vositalari – mediasiz tasavvur etish qiyin. Media – bosma nashr, matbuot, televidenie, kino, radio, ovoz yozish va internet tizimini o'z ichiga olishi asosida turli axborot-mafkuraviy tahdidlarni tarqatuvchi asosi vosita va omilga aylanib ulgurdi.

Media ta'limdan ko'zlangan asosiy maqsad media savodxonlikni shakllantirishdir. Boisi savodxonlikning aynan shu turi insonga axboriy maydonda televidenie, radio, video, kinematograf, matbuot, internet, umuman olganda, media madaniyatning tilini tushunishga, axborotlarni tahlil etish yo'li bilan qabul etishga, axborotlardan faol foydalanishga yordam

beradi. Media savodxon odam sotsiomadaniy, siyosiy kontekstdagi medianing ta'sir imkoniyatlarini tahlil etish, baho berish qobiliyatga ega bo'ladi.

Axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda dini jamiyat hayotidan siqib chiqarishni emas, balki, dini jamiyat hayotining ajralmas qismi sifatida qabul qilib, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan omil sifatida tushuntirishga harakat qilish lozim. Dunyoviy davlatda davlatning din va diniy tashkilotlardan mustaqil ekanligi, qaysidir din yoki mafkuraning majburiyat sifatida o'rnatilmaganligi, ma'lum bir din yoki mafkura ta'sirida hukmron tizimning vujudga kelishiga yo'l qo'yilmasligi alohida xususiyatdir.

ADABIYOTLAR

1. Бегматов А. Глобаллашув, миллий маънавият ва ахборот тизимлари. // Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси жорий архиви, 2006.
2. Криско В. Секреты психологической войны. Цели, задачи, формы, опыт. – Минск: Харвест, 1999. – С. 6.
3. Эшбеков Т. Мафкура майдонида ахборот психологик хавфсизлик. – Тошкент, 2011. – Б.69.
4. Курунов М. Болам бахтли бўлсин, десангиз (Ота-оналар учун). – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 121-122
5. Курунов М. Болам бахтли бўлсин, десангиз (Ота-оналар учун). – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 120.
6. Курунов М. Болам бахтли бўлсин, десангиз (Ота-оналар учун). – Тошкент: Маънавият, 2013. –Б. 153.
7. Умарова Н. Информацион хуружларнинг олдидини олишга қаратилган маънавий-маърифий тарғиботнинг самарали усул ва воситалари. // “Армия – давлат таянчи, тинчлик кафолати”. Қуролли Қучлар тизимидаги тарбиявий ишлар органлари ҳамда тарғиботчилар учун услубий қўлланма. – Т.: “Сано-стандарт” нашриёти, 2013. – Б.107.
8. Курунов М. Биз англаётган ҳақиқат. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 5-6.
9. Умарова Н. Информацион хуружларнинг олдидини олишга қаратилган маънавий-маърифий тарғиботнинг самарали усул ва воситалари. // “Армия – давлат таянчи, тинчлик кафолати”. Қуролли Қуяоар тизимидаги тарбиявий ишлар органлари ҳамда тарғиботчилар учун услубий қўлланма. – Тошкент: Сано-стандарт, 2013. – Б. 103.
10. Умарова Н. Информацион хуружларнинг олдидини олишга қаратилган маънавий-маърифий тарғиботнинг самарали усул ва воситалари. // “Армия – давлат таянчи, тинчлик кафолати”. Қуролли Қуяоар тизимидаги тарбиявий ишлар органлари ҳамда тарғиботчилар учун услубий қўлланма. – Тошкент: Сано-стандарт, 2013. – Б. 104.



UDK:378

Malika TUROBOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
E-mail: malikaturbova04@gmail.com

PhD G'. Otamurodov taqrizi asosida

COMMUNICATIVE APPROACH IN ASSESSING STUDENTS' RIVER SKILLS

Annotation

This article widely covers the approaches and their principles used to increase the verbal richness of students when teaching a foreign language. A future foreign language expert needs to pay special attention to the norms of speech culture and acquire deep knowledge and skills in this regard. Among them, an important task is the acquisition of linguistic and cultural skills, understanding their content and applying them where necessary.

Key words: Communicative approach, communicative competence, foreign language, assessment, competence, assessment of spoken language.

КОММУНИКАТИВНЫЙ ПОДХОД В ОЦЕНКЕ РЕЧНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье широко освещены подходы и их принципы, используемые для повышения речевого богатства учащихся при обучении иностранному языку. Будущему знатоку иностранного языка необходимо уделять особое внимание нормам культуры речи и приобретать глубокие знания и навыки в этом отношении. Среди них важной задачей является приобретение языковых и культурных навыков, понимание их содержания и применение их там, где это необходимо.

Ключевые слова: Коммуникативный подход, коммуникативная компетентность, иностранный язык, оценка, компетентность, оценка разговорной речи.

TALABALARNING GAPIRISH MALAKASINI BAHOLASHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV

Annotatsiya

Mazkur maqolada chet tilini o'qitishda talabalarning nutq boyligini oshirishda foydalaniladigan yondashuvlar va ularning tamoyillari keng yoritilgan. Bo'lajak chet tili mutaxassisi suhbatga kirishish jarayonida nutq madaniyati normalariga alohida e'tibor berishlari va bu borada chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur. Shu jumladan lingvomadaniy ko'nikmalarni egallashlari va uning mazmunini tushunib yetishi va kerakli joyda qo'llashi muhim vazifa sifatida qo'yilgan.

Kalit so'zlar: Kommunikativ yondashuv, kommunikativ kompetensiyasi, chet tili, baholash, malaka, gapirishni baholash.

Kirish. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishga qaratilgan e'tibor xalqaro hamjamiyatda buyuk ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan an'analarni talab darajasida davom ettirish, rivojlantirish yo'lidagi harakatlarini faollashtirayotgani hech kimga sir emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 mayda e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida qayd etilishicha, xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ 3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari, 2018 yil 10 oktyabrdagi VMQ 816-son «Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida»gi[1], O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyuldagi «Innovation faoliyat to'g'risida»gi O'RQ-630-son, 23 sentyabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi «Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4623-son, 31 dekabrda «Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va

mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 4939-son, 2021 yil 19 maydagi «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5117-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Chet tillarni o'qitishning amaliy maqsadi sifatida xorijiy til va adabiyot yo'nalishi bitiruvchi talabalarni chet tilini bilish darajasi xalqaro standartlar bo'yicha madaniyatlararo muloqot qila olish darajasida kasbga yo'naltirilgan mutaxassislar yetishtirib chiqishdan iborat. Albatta, bitiruvchi oldiga qo'yilgan chet tilini yuqori kasbga yo'naltirilgan darajada bilishlik talabi, chet tillarni o'qitishning zamonaviy va samarali o'qitish metodikasini ishlab chiqishni talab etmoqda. Buning uchun filologiya yo'nalishidagi talaba gapirish ko'nikmasini rivojlantirishi, sohaga tegishli bo'lgan vaziyatli va maqsadli gapirish ko'nikmasini rivojlantirishi zarur.

Bo'lajak chet tili mutaxassisi suhbatga kirishish jarayonida nutq madaniyati normalariga alohida e'tibor berishlari va bu borada chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur. Shu jumladan lingvomadaniy ko'nikmalarni egallashlari va uning mazmunini tushunib yetishi va kerakli joyda qo'llashi muhim vazifa sifatida qo'yilgan.

Yurtimizda ingliz tilini chuqur o'qitishga katta e'tibor qaratilib, ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz ta'lim tizimini

yanada takomillashtirishda bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, «Mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo'yicha ilmiy ishlar olib borish, til o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish»[1] kabi vazifalar belgilangan. Bunda pedagog kadrlarning kasb mahoratini uzluksiz yuksaltirish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashda pedagoglarning baholash kompetensiyasini takomillashtirish va ta'lim jarayonida talabalarning malaka va ko'nikmalarini baholashning yangi, xalqaro standartlarga asoslangan tizimini ishlab chiqish kabi muhim vazifalar belgilandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. v Z.I. Saliyeva “Gapirish ko'nikmalarini kommunikativ yondashuv asosida o'rgatishning ahamiyati”, K.Sh. Muradkasimovaning “Ingliz tilini o'qitishda talabalar ko'nikma va malakalarini baholash xususiyatlari” adabiyotlarida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng ma'lumotlar tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Respublikada xalqaro standartlarga muvofiq yuqori malakali chet tillari o'qituvchilarini tayyorlash darajasi va sifatini oshirish masalasi faol ko'rib chiqilmoqda. O'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, chet tillarida pedagogik korpusni shakllantirish butun umumiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning zaruriy sharti sifatida qaraladi. Chet tilida muloqot qilish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish uni o'zlashtirishda muvaffaqiyatning ajralmas omilidir, ammo suhbatni asosan uning turiga qarab belgilanadigan o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan modellashtirish mumkin yemas. Hozirgi vaqtda chet tilini o'rganishda to'rtta asosiy ko'nikma mavjud: gapirish, tinglash, o'qish va yozish[2].

Tahlil va natijalar. Oliy ta'lim muassasasida baholash malakaviy ahamiyatga ega bo'lib, u talabaning kasbiy faoliyatga tayyorligi ko'rsatkichi va mutaxassislar tayyorlash sifati ko'rsatkichidir. Talaba baholarining vaznli yig'indisi, ehtimol, eng ilg'or deb hisoblanishi kerak, chunki o'quv fanlarining e'lon qilingan vaznlari ma'lum darajada talabaga ularning kasbiy tayyorgarlikdagi nisbiy ahamiyatini va ularni tanlash oqibatlarini ko'rsatadi. Bunday baholash tizimidan foydalanilganda, umuman olganda, muayyan talaba egallagan o'rinni aniqlash orqali o'quvchining o'quv guruhi, oqimi, kursidagi o'quv faoliyatining nisbiy muvaffaqiyatini aniqlash mumkin.

Ta'lim jarayonida baho, baholash tizimi va baholash tamoyillari masalasi asosiy tadqiqot ob'ekti sifatida turli davrlarda olimlar (Ch.Brown, T.Hudson, J.Alderson, G.Fulcher, Ch.Coombe, A.Hughes, N.Carr, Ye.Pronina, J.Xasanboyev, K.Muradkasimova[3]) tomonidan tadqiq etilgan. Talabalarning e'zuv malakasini baholash va ushbu jaraenni yanada takomillashtirish borasida olimlar tomonidan ko'plab metod va modellar ishlab chiqilgan. Biroq, baholash tizimi konsepsiyasi taxsil oluvchi egallagan bilim va ta'limga qo'yilgan talab asosida takomillashadi.

Davlat ta'lim standartiga ko'ra, filologiya yo'nalishi talabalari bakalavr darajasini olishda B2 (o'rt) darajasiga ega bo'lishlari kerak[4].

Talabalarning chet tilini o'zlashtirishda erishgan yutuqlarini tahlil qilishning yagona yo'li to'g'ri tuzilgan assesment turidir. Ta'lim berish va ta'lim olish sifatini nazorat qiluvchi asosiy element – baholashdir. To'g'ri va sifatli tuzilgan assesment aniq vazifalarni ro'yobga chiqarishni maqsad qiladi. Bajara olinadigan vazifalarni (yod olish emas, balki malaka va ko'nikmani rivojlantirish va real hayotda qo'llash) kabi vazifalarni yuklaydi. Shu bilan birgalikda, to'g'ri tuzilgan assesment talabalarga o'zo'zini nazorat qilish, amaliy shug'ullanish, qayta shug'ullanish va feedback olish imkoniyatlarini yaratadi. Bir so'z bilan aytganda, to'g'ri

tuzilgan assesment izchil ta'lim tajribasining ajralmas qismi hisoblanadi. Demak, baholashning maqsadi, turlari kursning maqsad va vazifalari bilan chambarchas bog'liq bo'lishi va o'quv yilining boshidanoq aniq belgilanishi zarur[5].

Baholash tushunchasi dunyo hamjamiyatida keng talqin etilib, uning bir necha turlari ta'kidlanib kelinmoqda. Misol uchun, ingliz tili o'qituvchilari orasida keng tanilgan «Assessment» hamda «Evaluation» tushunchalari o'qitish ta'limotida, aksar holda bir hil, «baholash» deya tarjima qilinadi. Ingliz- o'zbek lug'atlarida ikkisi ham huddi shu tartibda tarjima qilingan. Yuqorida keltirilgan fikrlarga ko'ra, birinchi turdagi baholash, ya'ni «Assessment»- ta'lim tizimida talabalarning o'zlashtirish jarayonini tez suratlarida nazorat qilish vositasi ekanligi e'tirof etilgan, ikkinchi turimiz, «Evaluation» esa shakllantirilgan talablar asosida talabalarning o'zlashtirish jarayonidan olingan natijalarni aniqlashni ko'zda tutadi va o'z ahamiyatiga ko'ra hozirgi kunda Respublikamizda talabalarni baholashda qo'llaniladigan usullar asosini tashkil etadi. O'rganilgan manbalarga ko'ra, «Assessment»ni maqsadi- tashhislash bo'lsa, «Evaluation»ni maqsadi esa ko'zda tutilgan natijani aniqlashdir[6].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bo'lajak chet tili o'qituvchilari o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni talab darajasida o'zlashtirishlari, kundalik o'quv jarayonida oldindan yozib olingan test sinovlaridan samarali foydalanishlari davr talabi hisoblanadi. Amaliy testlar chet tili o'qituvchisining zamonaviy metodlar va ulardan foydalanish haqidagi nazariy va amaliy bilimlarining ko'rsatkichidir. Binobarin, ta'lim jarayoniga milliy manfaatlarini ta'minlashning muhim vositasi sifatida qarashimiz kerak.

Chet tili kommunikativ kompetensiyasi - o'rganilayotgan chet tili bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llash qobiliyatidir[7].

Baholash, ta'lim sohasidagi kerakli mezonlar to'plami asosida ob'yektiv xulosa chiqarishga intiladigan ilmiy jarayon xisoblanadi. Ta'lim jarayonini rivojlantirishda o'quv dasturlari, shuningdek, ta'lim tizimidagi barcha xodimlarning ish faoliyatini rivojlantirishga, ta'limni nazorat qilish va boshqarish tizimlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kommunikativ metod (yondashuv)ning paydo bo'lishi XX asrning yetmishinchi yillariga to'g'ri keladi. Uning asosiy maqsadi insonni muloqot qilishga o'rgatish, uning nutqini suhbatdoshga tushunarli qilishdir. Tillarni o'rgatishda kommunikativ usul (yondashuv), eng avvalo, o'quvchilarni chet tili muhitida erkin harakatlanishga, shuningdek, turli til vaziyatlarida adekvat javob bera olishga o'rgatish uchun mo'ljallangan[8].

Talabalarning bilimini mustahkamlash: Bu, shuningdek, o'quvchilarning mukammalligi yoki muvaffaqiyatsizliklaridan xabardor bo'lishlari uchun muntazam ravishda fikr-mulohazalarni bildirishning bir usuli bo'lishi kerak. Bu talabalar uchun juda muhim ahamiyatga ega:

O'zini boshqarish;

Xatolardan o'rganish;

Ularni o'rganishga jiddiy yondashish.

«Assessment» inglizcha «assessment» so'zidan olingan bo'lib, «baho», «baholash» ma'nolarini bildiradi. Assesment metodi talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami bo'lib, u biografik anketa, ta'lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o'quv individual topshirig'i, bahs- munozara, intervyu, ijodiy ish, test, individual keys, taqdimot, ekspert kuzatishi, roli hamda ishbilarmonlik o'yinlari kabilardan tashkil topadi. Bu metod asosan quyidagi uch maqsadga xizmat qiladi:

talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama, xolis baholash;

talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;

talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan istikbol reja (maqsadli dastur)ni shakllantirish.

Baholash sohasida o'quv jarayonida foydaliligi jihatidan to'rt tur mavjud: summativ baholash, formativ baholash, testdan oldingi va testdan keyingi, ularning har biri o'quv jarayonida mavjud bo'lishi kerak, chunki ular vositalarga o'xshaydi. Ayniqsa, to'rt ko'nikmalarini o'rgatish, til o'qitish, talabalarining muvaffaqiyat darajasini topish, aniqlash va izohlash uchun[9].

Bo'lajak chet tili mutaxassisi suhbatga kirishish jarayonida nutq madaniyati normalariga alohida e'tibor berishlari va bu borada chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur. Shu jumladan lingvomadaniy ko'nikmalarni egallashlari va uning mazmunini tushunib yetishi va kerakli joyda qo'llashi muhim vazifa sifatida qo'yilgan.

Respublikamizda chet tilini o'qitish metodikasiga oid juda ko'p o'zgarishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda chet tili ta'limida innovasion pedagogik texnologiyalar qo'llanib kelinmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'qitish maqsadi va mazmuniga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Binobarin, shunday yangicha yondashuvlardan biri-kommunikativ metodikaga asos solindi. Natijada chet tili tizimli strukturada emas, balki muloqot vositasi sifatida o'rganila boshlandi. Talabalar chet tili qoidasini yod olish emas, balki shu qoidani real holatda (amaliyotda) ishlata bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zgarishlarning barchasi talabalarining chet tilidagi bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ma'lumki, bunday o'zgarishlar pedagoglarning pedagogik faoliyatini ham takomillashtirib borishga undaydi. O'qituvchilar nafaqat darsning, ishlatilgan materiallarning, mashqlarning samaradorligiga, balki nazorat turlari va ularning yaroqliligiga (validity) ham alohida e'tibor berishlari talab etiladi. Shuning uchun o'qituvchilarning baholash kompetensiyasini takomillashtirish bugungi talablarning biri desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki talabalarining chet tilidagi bilim, malaka va ko'nikmalari rivojlanib borishini nazorat qilishning yagona yo'li nazorat texnologiyasidir[10].

Amerikalik professor C.Coombe assesment (assessment), nazorat (evaluation) va test (testing) kabi uchta terminga izoh berib, ularning vazifasi hamda farqini tasniflaydi. "Nazorat – ta'lim jarayonidagi barcha axborotlarni yig'ish va baholash uchun keng asosdir. Bridleyning fikriga ko'ra, o'quv rejasi, dastur, va kursning maqsad va vazifalarini, amaldagi o'quv qo'llanma va materiallarining sifatini keng doirada baholashni o'z ichiga oladi. Nazorat – talabaning o'zlashtirishi bilan chegaralanmay, balki ta'lim berish va ta'lim olishning barcha aspektlarini nazorat qilgan holda ta'lim jarayonini takomillashtirishning usulidir". "Assesment – baholashning bir turi bo'lib, talaba va uning bajargan ishlarini baholashdir. Assesmentda turli yo'llar bilan talabaning tildagi qobiliyati va erishgan yutuqlari haqidagi ma'lumot yig'ib boriladi. "Baholab olmoq – narsa, hodisa yoki harakatga baho bermoq, uning ahamiyati, qadr-qimmatini haqida fikr bildirmoq qo'llansa-da, assesment talabalarining ko'nikma va malakalarini, ularning rivojlanish darajasini baholashda barcha o'lchov-mezonlarni qamrab oluvchi atamadir". "Test – assesmentning bir kategoriyasi bo'lib, rasmiy va tizimli jarayon. Asosan (yozma testlar) bir savol va uning to'rtta javobidan iborat"[11].

Chet til o'qitishda yaqin paytlargacha «gapirish» o'rnida «og'zaki nutq», hatto «nutq» terminlari qo'llanilib kelardi. Gapirish, nutq faoliyatining turi sifatida, og'zaki fikr bayon etish demakdir. Gapirishning psixologik mazmuniga kelganda, uning hosilasi tarzida «fikir» (mulohaza) ifodalinishini qayd etish zarur. Sodaroq qilib, «gapirish» metodik tushunchasi qamroviga (1) fikr bayon etish jarayoni, (2) aytish, (3) og'zaki muloqot, (4) fikr izhori natijasini kiritish mumkin. Gapirish oqibatida fikr aytiladi, ushbu fikrni bayon etish niyyati (ichki turtkisi) esa gapirishga sabab bo'ladi. Muloqot kundalik hayotdagi asosiy aloqa vositasidir. U shaxslarni bir biri bilan bog'lashga xizmat qiladi. Jalolovning fikriga ko'ra og'zaki fikr bayon etish malakalari og'zaki shaklda tekshiriladi. Unda talabaning chet tilda fikr bildirishga harakati (o'z-o'zidan gapirib ketishi), nutqida qo'llanmish materialning o'zlashtirilgan darajasi (gapirish tezligi), to'xtab/to'xtamay gapirishi, nutq vaziyatiga muvofiq/nomuvofiq fikr bayon etishi kabilar nazorat qilinadi[12]. Nutq mazmunini qisman yozma shaklda tekshirish ham mumkin[12].

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018 yil 5 martdagi Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani Isoqxon Ibrat nomidagi maktab-internatiga tashrifidagi nutqi. Elektron resurs: <http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-okhon-t-ra-ibrat-mazhm>. Murojaat sanasi: 05.07.2019 y.
2. Saliyeva Z.I. (2015). Говорение и его роль в современном овладении иностранным языком. Проблемы современного образования, (5), 101-107
3. Brown, J. D., & Hudson, T. (2002). Criterion-referenced language testing. Cambridge, England: Cambridge University Press; Alderson, J. C. (1991c) Dis-sport (tahrirlar) 1990-yillarda til testi. London: Zamonaviy ingliz Nashrlar va Britaniya Kengashi, 60-70; Fulcher, G. (2015a). Assessing second language speaking. Lang. teaching 48, 198-216.; Coombe Ch. A Practical Guide to Assessing English Language Learners. The University of Michigan Press. 2013, 231 p; Hughes A. Testing Language Teachers. Cambridge University Press. 2003. 255p; Пронина Е.Н. (2013). КРЕДИТНО-РЕЙТИНГОВАЯ СИСТЕМА ОЦЕНКИ РЕЗУЛЬТАТОВ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ. Научные проблемы водного транспорта, (36), 228-235; Muradkasimova K.Sh. Ingliz tilini o'qitishda talabalar ko'nikma va malakalarini baholash xususiyatlari: Ped. fan. bo'y. fal. d-ri (PhD) diss. –T.: 2019. – 158 b.
4. Saliyeva Z.I. (2019). Gapirish kunikmalarini kommunikativ yondashuv asosida urgatishning ahamiyati. Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan), (11 (84)), 42-48.
5. Muradkasimova K.Sh. Ingliz tilini o'qitishda talabalar ko'nikma va malakalarini baholash xususiyatlari: Ped. fan. bo'y. fal. d-ri (PhD) diss. –T.: 2019. – B.37.
6. Z.A Po'latova, Modulli tizimda yuridik yo'nalish talabalarining yozuv malakasini baholash (B2 darajasi misolida), P.f.f doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan DISSERTATSIYA.
7. J. Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi, 2012, 79-118 b.
8. Axmedova L.T. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. –T.: Fan va texnologiya, 2013–200s.
9. Djwandono, S. (2011). Language test: a guide to learning a language. Jakarta.

10. Muradkasimova K.Sh. Ingliz tilini o'qitishda talabalar ko'nikma va malakalarini baholash xususiyatlari: Ped. fan. bo'y. fal. d-ri (PhD) diss. –T.: 2019.
11. Christine Coombe, Keith Folse, Nancy Hubley. A practical guide to assessing English language learners. – University of Michigan, 2007. – 202 p.
12. J. Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi, 2012, 300-320 b.



UDC: 81'271.2(045)(575.1)

Dildora USAROVA,

*Senior lecturer of Foreign Languages Department, Tashkent state university of law
E-mail: d.usarova@mail.ru*

PhD Z. Q. Teshaboyeva taqrizi asosida

TALABALAR NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada globallashuv davrida xorijiy tillarni biladigan mutaxassislariga bo'lgan talabning ortishi va bu sohadagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Til va lingvistik ta'lim jamiyatning muvaffaqiyatli hayoti uchun muhim vosita sifatida baholanadi, ayniqsa, ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Mutaxassislar o'rtasidagi muloqotni osonlashtirish uchun "Sohaviy ingliz tili" (ESP) kabi maxsus kurslarning ahamiyati ortib bormoqda. Maqolada til kompetensiyasi nazariyasi va amaliyoti, uning tuzilishi, mazmuni va mohiyati haqida batafsil ma'lumot beriladi. Nutqiy kompetensiyani oshirish jarayonining pedagogik jihatlari ko'rib chiqiladi, talabalar o'rtasida bu kompetensiyani shakllantirishning muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Nutqiy kompetensiya, axborot texnologiyalari, zamonaviy metodologiya, ko'nikma va malakalar, lingvistik muloqot.

DEVELOPMENT OF STUDENTS' SPEECH COMPETENCE.

Annotation

This article emphasizes the crucial role of language education in facilitating international communication, enhancing cultural exchange, and supporting professional development. The rise of specialized language courses, such as "English for Special Purposes" (ESP), underscores the growing need for industry-specific linguistic skills. The text highlights the close integration of language training with professional development in countries like the United States, where English programs are tailored to meet industry needs. The article discusses the methodological strategies that enhance language learning, focusing on practical application and real-life communication scenarios.

Key words: Crucial role of language education, close integration of language, linguistic skills, professional development.

РАЗВИТИЕ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ.

Аннотация

В этой статье подчеркивается решающая роль языкового образования в содействии международному общению, расширении культурного обмена и поддержке профессионального развития. Рост специализированных языковых курсов, таких как «Английский для специальных целей» (ESP), подчеркивает растущую потребность в отраслевых языковых навыках. В тексте подчеркивается тесная интеграция языковой подготовки с профессиональным развитием в таких странах, как США, где программы английского языка адаптированы к потребностям отрасли. В статье обсуждаются методические стратегии, которые улучшают изучение языка, уделяя особое внимание практическому применению и реальным сценариям общения.

Ключевые слова: Методические стратегии, изучение языка, роль языкового образования, растущую потребность.

Kirish. Globallashuv davrida yuz berayotgan o'zgarishlar asosida barcha sohalarida xorijiy tillarni biladigan malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada ko'payib bormoqda. Til va lingvistik ta'lim jamiyatning muvaffaqiyatli hayoti uchun eng muhim vositaga, turli mamlakatlar mutaxassislari o'rtasidagi aloqa vositasiga, madaniyatning bir qismiga aylanib ulgurdi. Shunga ko'ra, chet tillari, xususan, ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj, talab ortib bormoqda, uni o'rganishga bo'lgan motivatsiya ortib bormoqda. Tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha aniq ko'nikma va malakalarni shakllantirishda talabalar tomonidan chet tilini bilish alohida ahamiyatga ega. Yosh mutaxassislarining chet tillarini bilishi muvaffaqiyatli ishga joylashish va raqobatbardoshlikni kafolatlaydi. Butun jahonda til o'rgatishning ahamiyatidan kelib chiqib, til kurslarining, xususan, XX-asrning boshlarida Buyuk Britaniya va Amerikada "Sohaviy ingliz tili" (ESP) kabi kursning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada va Avstraliyadagi yetakchi til maktablari keng doiradagi kasblar uchun maxsus lug'at o'rgatish xizmatlarini ochildi va ta'lim jarayonini yo'lga qo'ydi. Bir qancha davlatlarning, xususan, Amerika sohaviy ingliz tili dasturlarining o'ziga xos xususiyati ularning kasbiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liqligidir.

Muloqot holatining muhim elementlari modellashtirilganda, o'quv jarayoni aloqa jarayonining nusxasi sifatida quriladi. Amalda nutq, jonli muloqot va lingvistik muloqotga asoslangan uslubiy strategiyalar majmualari pedagogik vazifalarni hal qilishni osonlashtiradi.

A. A. Shibayev, talaba mutaxassislarining kasbiy muloqotini tartibga solish ularning nutqida aks etishini ta'kidlaydi, ish nutqining odob-axloq formulalarini va uning asosiy janrlarini (har xil turdagi ish hujjatlari, ish suhbat, uchrashuv, ish telefon suhbat) sanab o'tadi. Muallifning ta'kidlashicha, ish faoliyat qanchalik mazmunli bo'lsa, muloqot shunchalik ko'p qirrali va rang-barang bo'ladi, ya'ni nutq san'ati mahorati bilan muloqot qilish chegaralari va usullarini oldindan belgilab beradi. Tadqiqotchining fikricha, mutaxassislarining martabasi ko'p jihatdan uning nutq madaniyatini qay darajada bilishiga, bilimi, tarbiyasi, ziyrakligi, fe'l-atvori, zukkoligiga bog'liq. Ish butunlay talabalarning ingliz tilida muloqotiga bag'ishlangan bo'lib, bu hech qanday tarzda uning qadr-qimmatini kamaytirmaydi, balki talabalarning ishbilarmonlik nutqi madaniyatini shakllantirish jarayoni haqida aytiladi.

Ko'plab olimlar nutqiy kompetensiyaning shakllantirish jarayonini uning mohiyati, mazmuni va tuzilishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqdilar. Tadqiqotchilarning ushbu muammoga turli yondashuvlarini tahlil qilishi bizning tadqiqot muammoimizni tanlash to'g'risida qaror qabul qilish va nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik jarayonining mohiyati, mazmuni va tuzilishi haqidagi nuqtai nazarlarni asoslash imkonini berdi.

Lingvistik kompetensiya til kodini bilishni nazarda tutadi, ya'ni uning grammatikasi va lug'ati, morfologiya, sintaksis, semantika va fonologiya qoidalari.

Ijtimoiy lingvistik kompetensiya bu - sotsial-madaniy foydalanish qoidalarini bilish, ya'ni, tildan to'g'ri foydalanish va unga javob berish qobiliyatidir.

Diskursiv kompetensiya - bu turli shakllardagi og'zaki yoki yozma matnlarni yaratish va tushunish uchun zarur bo'lgan bilimdir.

Strategik kompetensiya - bu aloqa muammolarini ular paydo bo'lishidan oldin, davomida yoki undan keyin bartaraf etish qobiliyatidir.

Tahlillar asosida aytish mumkinki, ingliz tilini bilishda mutaxassislik sohasiga oid nutqiy kompetensiyani takomillashtirish talab qilinadi. Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) xalqaro yoki lokal aloqalar samaradorligini ta'minlash;
b) o'z-o'zini rivojlantirish, kasbiy o'sish, fan va texnika sohasidagi jahon yutuqlariga oid ma'lumot bilan tanishish, faoliyat sohasida ingliz tilini bilish;

v) sohaga oid terminologiyani bilish va mutaxassislik mavzulari bo'yicha muloqot qila olish, suhbatdoshni tushunish qobiliyati.

Pedagogik nuqta nazardan, o'quv jarayonini tashkil etishda "kompetentlik" tushunchasidan foydalanish muhim bo'lib, bu kasbiy faoliyatga eng yuqori darajadagi tayyorgarlikni anglatadi.

«Kompetensiya» tushunchasi ilk bor XX asrning 50–60-yillarida ilmiy adabiyotlarda tilga olingan. Amerikalik olim Noam Xomskiy «Sintaktik strukturalar», «Sintaksis nazariyasining aspektlari» nomli asarlarida kompetensiyani insonning biror faoliyatni amalga oshirish layoqati sifatida talqin etgan.

Ilmiy adabiyotlarda «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalarini ta'riflashda turli qarashlar mavjud. G.A.Asilova dissertatsiya ishida «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari bo'yicha berilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda «kompetensiya» – ma'lum bir sohada faoliyat yuritish jarayonida shaxsiy sifatlar hamda bilim, ko'nikma va malakalarning samarali qo'llanishi; «kompetentlik» muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan layoqatdir deb ta'riflagan.

N.M.Muslimovning ta'kidlashicha "kompetensiya atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi"

D.MakKleland kompetensiyalar o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tartibga solish va ijtimoiy ko'nikmalarni o'z ichiga olgan xulq-atvor fazilatlarini bilan bog'liq deb hisoblaydi. Kompetensiyalar D.MakKlelandning fikricha, har xil turdagi o'qitish va rivojlantirish orqali shakllantirilishi mumkin bo'lgan xulq-atvor sifatlaridir. Samarali faoliyatga olib keladigan yoki namoyon bo'ladigan shaxsiyat, xarakter xususiyatlari, umumiy iste'dodlar, motivatsiya va inson xatti-harakatlarining namunalari kompetensiyalarni tahlil qilishda shaxsiy yondashuvning asosiy yo'nalishi hisoblanadi.

Bir qator ilmiy tadqiqotchilar kompetensiyalarni belgilashda shaxsning shaxsiy xususiyatlariga emas, balki faoliyat atributlariga e'tibor qaratdilar. Shaxsning umumiy belgisi sifatida kompetensiyalar va ishni bajarish jarayonida o'zini namoyon qiladigan individual qobiliyatlar sifatida qaraladi. Tadqiqotlar natijasida, kompetensiyalarni tushunishning bir qator yo'nalishlari paydo bo'lgan.

1) qobiliyatlarni faoliyat muvaffaqiyatini rag'batlantiradigan inson atributlari bilan bog'lash;

2) vazifa tavsiflari va kerakli natijalarga asoslangan "funktional" yondashuvlar.

3) inson faoliyatidagi bilim va harakat o'rtasidagi o'zaro ta'sir sohasi.

Uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy talablari asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, shuningdek, ta'lim xizmatlarining mavjudligi va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri xorijiy tillarni chuqur egallagan kadrlarni tayyorlashni ta'minlashdan iborat. Biroq, kasbiy yo'nalishni hisobga olgan holda ingliz tilida nutqiy ko'nikmalarni o'rgatish hali ham qoniqsiz darajada,

bitiruvchilarning chet tilini professional darajada bilish darajasi past, bu esa jamiyat va mehnat bozorining zamonaviy talablariga javob bermaydi. Bugungi kunda oliy ta'lim oldida talabalarni kasbiy muloqot madaniyatiga eng yuqori maqsadli tayyorlash vazifasi turibdi, chunki u mutaxassisning barcha o'ziga xosligini, ayniqsa uning kasbiy salohiyatini namoyon etadi. Shu nuqta nazardan, turli yo'nalishdagi talabalar o'rtasida nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish alohida ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ta'limdagi o'zaro munosabatlarning tashkiliy jihatlari (xususan, muloqot shakllari, mazmuni, mantiqiyligi va h.k.) ham vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadi. Og'zaki nutq turli sohalardagi mutaxassis faoliyatining eng muhim vositasi sifatida qaralishi kerak. T.A.Ladishenskaya professional nutqni "eng muhim kasbiy mahorat" deb belgilaydi.

Turli holatlarda talabalar muloqoti jarayonida, atrofda voqeiklarni kuzatish va o'rganishda, talabalar kasbiy mavzularda muloqot qilishida muayyan qiyinchiliklarga duch kelishadi:

kasbiy sohaga oid ma'lumotlar bilan ishlashda yetarli darajada tafsilot va mantiqiy nomuvofqlikni ta'minlay olmaydilar;

faol muloqot holatini saqlay olmaydilar;
o'z nuqta nazarini shakllantirishda hamda uni bildirishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelishadi;

muloqot nutqining sekin sur'atiga ega;
muloqot nutqini asossiz pauzalar bilan to'ldiradi;
nutqda noadekvat lug'at qo'llaniladi;

kasbiy terminologiyaga oid so'z va iboralarni muloqot davomida yetarlicha qo'llay olmaydi.

Bu barcha fanlarni o'rganish, xususan, fanlararo aloqalarni o'rnatishga asoslangan nutqni (xususan, kasbiy nutqni) rivojlantirish masalalarini ko'rib chiqishni talab qiladi.

Chet tilini bilish talabaning shaxsiy o'zini o'zi baholashi uchun muhim standartdir, chunki u bo'lajak mutaxassisning ta'lim faoliyati yo'nalishi mezonini, standart sifatida qabul qilinadigan nutqni amaliy o'zlashtirishidir. Talabaning tanlangan profildagi muloqoti bo'yicha og'zaki aloqani saqlab turish qobiliyati ularning ta'lim yutuqlarini aniqlash uchun asos bo'libgina qolmay, balki o'ziga xos baholash turiga aylanadi.

Og'zaki nutqning leksik xilma-xilligi shaxslararo munosabatlar paytida yuzaga keladigan turli kontekstlarning natijasidir. Og'zaki nutq - turli kontekstlarda sodir bo'ladigan, og'zaki va og'zaki bo'lmagan belgilar yordamida amalga oshiriladigan fikr almashish jarayonidir. Shu bilan birga, og'zaki nutqda so'z boyligining xilma-xilligi, so'zlashuv shakllari, frazeologik birliklarning qo'llanilishi va boshqalar amalga oshiriladi.

Ta'limiy o'quv jarayonida og'zaki muloqotni amalga oshirish uchun quyidagi ko'nikmalar talab qilinadi:

- mavzuni tushunish va fikrni rivojlantirish mantiqini tushunish;

- reja tuzish;
- og'zaki yoki yozma manbadan kerakli ma'lumotlarni olish;

- materialni to'plash va tartibga solish.

Tahlillarga ko'ra nutqni muloqot natijasi va uni amalga oshirish uchun zarur vosita sifatida talqin qilish mumkin. Agar biz ushbu hodisani ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi deb hisoblasak, unda dialog jarayonida interaktivlikning paydo bo'lishi shubhasizdir.

Kommunikativ kompetensiya - bu til foydalanuvchisining muloqot qilish uchun tildan foydalanish qobiliyatidir. Bu atama 1966 yilda Dell Xims tomonidan Noam Xomskiyning (1965) "lingvistik kompetensiya" tushunchasiga javoban ishlab chiqilgan. Kommunikativ kompetensiya - bu intuitiv funktsional bilim va tildan foydalanish tamoyillarini o'zlashtirish demakdir. An'anaga ko'ra, kommunikativ kompetensiya quyidagi kompetensiyalarni o'z ichiga oladi: lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar.

Nutqiy kompetensiya tildan foydalangan holda fikrni shakllantirish qobiliyatini anglatadi. Ba'zi tadqiqotchilar nutqda tildan foydalanish bunday kompetensiya egasining nutqni ishlab

chiqarish shartlariga qarab kerakli til shakli va ifoda usulini tanlash qobiliyatini anglatishini ta'kidlaydilar.

Xulosa. Shuningdek tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, nutqiy kompetensiya - bu boshqalarni tushunish va

muloqotning maqsadlari, yo'nalishlari va vaziyatlariga mos keladigan o'z nutqiy xatti-harakatlar dasturlarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlardir.

ADABIYOTLAR

1. Andrew P. Thomas, Peter Bull and Derek Roger. Conversational Exchange Analysis. Journal of Language and Social Psychology. DOI: 10.1177/0261927X8200100204. 1982 1: 141
2. Canale M., M/Swain // theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing / M. Canale, M Swain // Applied Linguistics. – 1980. - № 1. –P. 1-47.
3. Carver D. Some propositions about ESP / D. Carver // The ESP Journal, 1983. –N. 2. – 131-137pp.
4. Celce-Murcia M., Dornyei Z., &Thurrell S. (1995). Communicative Competence: A Pedagogically Motivated Model with Content Specifications. Issues in Applied Linguistics ISSN 1050-4273 C Regents of the University of California VoL 6 No. 2/ P. 25.
5. Fanny Selvia Rosadi, Cicih Nuraeni, Agus Priadi, The use of small group discussion strategy in teaching english speaking. Jurnal Pujangga Volume 6, Nomor 2, Desember 2020. ISSN P 2443-1478. ISSN E 2443-148. P. 134-146.
6. Feng Liu & Yun Ding. Role-play in English Language Teaching. Asian Social Science. October, 2009. Vol. 5, No. 10. P. 140-144.
7. Françoise Delamare Le Deist., Winterton Jonathan. What is Competence? – Human resource development international, – Taylor & Francis Ltd. Vol. 8, No.1, March 2005. – P. 27–46.
8. Gatehoise, K. Key Issues in English for Specific Purposes (ESP)Curriculum Development [Electronic resource] / K.Gatehoise // The Internet TESL Journal. -2001. –Vol. 7, № 10



UDK:681.14:371-3

Mirzaali FAYZIYEV,

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

E-mail: fma@rambler.ru

SamDU professori, p.f.d. N.Shodiyev taqrizi asosida

METHODS OF TEACHING THE “OPERATORS” SECTION IN THE TEACHING OF PASCAL PROGRAMMING LANGUAGE ON THE BASIS OF A LOGICAL SCHEME OF CONCEPTS

Annotation

The article mentions some difficulties in mastering the subject of Pascal programming language and operators in acquiring basic knowledge and skills of programming in the teaching of "Informatics and Information Technologies", and as a solution, it is recommended to use a logical scheme of concepts related to the subject. Concepts related to the operator section of the Pascal programming language were selected, a logical scheme of the concepts was created, and an educational computer simulation model was also created, showing information about each concept. The method of organizing lectures based on the created computer simulation model is explained.

Key words: Education system, information technology, "Informatics and information technology", Pascal programming language, logical scheme of concepts, operator, operator-related concepts, computer simulation model, methodology.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ РАЗДЕЛА «ОПЕРАТОРЫ» НА ЯЗЫКЕ ПРОГРАММИРОВАНИЯ ПАСКАЛЬ НА ОСНОВЕ ЛОГИЧЕСКОЙ СХЕМЫ ПОНЯТИЙ

Аннотация

В статье упоминаются некоторые трудности в освоении предмета языка программирования Паскаль и операторов при приобретении базовых знаний и навыков программирования при преподавании «Информатики и информационных технологий», а в качестве решения рекомендуется использовать логическую схему понятий, связанных к предмету. Были выбраны понятия, относящиеся к операторному разделу языка программирования Паскаль, создана логическая схема понятий, а также создана учебная компьютерная имитационная модель, показывающая информацию о каждом понятии. Объясняется методика организации лекций на основе созданной компьютерной имитационной модели.

Ключевые слова: Образовательная система, информационные технологии, «Информатика и информационные технологии», язык программирования Паскаль, логическая схема понятий, оператор, операторные концепции, компьютерная имитационная модель, методология.

PASKAL DASTURLASH TILIDAGI “OPERATORLAR” BO‘LIMINI TUSHUNCHALARNING MANTIQUIY SXEMASI ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada «Informatika va axborot texnologiyalari» fanini o‘qitishda dasturlashga oid boshlang‘ich bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishdagi Paskal dasturlash tili, undagi operatorlar mavzusini o‘zlashtirishdagi biroz qiyinchiliklar aytilib, buning yechimi sifatida mavzuga oid tushunchalarning mantiqiy sxemasidan foydalanish tavsiya etilgan. Paskal dasturlash tilining operator bo‘limiga doir tushunchalar tanlab olinib, tushunchalarning mantiqiy sxemasi tuzilgan hamda har bir tushuncha haqida ma‘lumotlarni ko‘rsatuvchi, o‘rgatuvchi kompyuter imitatsion modeli ham yaratilgan. Yaratilgan kompyuter imitatsion modeli asosida ma‘ruza darslarini tashkil qilishning metodikasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim tizimi, axborot texnologiyalari, «Informatika va axborot texnologiyalari», Paskal dasturlash tili, tushunchalarning mantiqiy sxemasi, operator, operatorga oid tushunchalar, kompyuter imitatsion modeli, metodika.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda axborotlarning haqiqiy inqilobiy jarayoni kechmoqda. Shu narsani alohida ta‘kidlash lozimki, jamiyatda iqtisodiyotning rivojlanishi ayni vaqtda tovar mahsulotlari, resurslari, materiallarining harakati bilan emas, g‘oya va bilimlarning kuchi bilan amalga oshirilmoqda.

Axborot texnologiyalarini ta‘limda qo‘llash axborotlarni uzatish va elektron vositalarga asoslangan yangi ta‘lim texnologiyalarini hamda ularning o‘ziga xos shakllarini paydo bo‘lishiga olib keldi. Interfaol kompyuter dasturlari va imkoniyati katta bo‘lgan multimedia tizimlari bularga yaqqol misol bo‘la oladi.

O‘quv jarayonida foydalanilayotgan texnik vositalar va texnologiyalar har xil bo‘lishiga qaramasdan, o‘quv materialini taqdim etish shakli va vositalariga bog‘liq ravishda o‘qitish sifati yuqori yoki qoniqarli darajada bo‘lishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta‘lim tizimida axborot texnologiyalarini tatbiq etish sohasida (yo‘nalishida) yaratilayotgan dasturiy vositalar tahlil qilinganda shu narsani guvohi bo‘lamizki, kompyuterda o‘quv dasturi yaratayotgan ko‘pgina mualliflar bir-birlariga bog‘liq bo‘lmagan holda, parallel

ravishda o‘quv-ilmiiy materiallarni axborot texnologiyalari asosida taqdim etishning original uslublarini yaratmoqdalar [1].

Dasturiy vositalarni o‘quv jarayoniga qo‘llash bo‘yicha mavjud ilmiy nashrlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta‘lim jarayonida dasturiy vositalardan foydalanish masalasiga jahon miqyosida katta e‘tibor berilgan. Rossiyalik olimlardan M.V.Sosedko yangi axborot texnologiyalari asosida talabalarning o‘quv faoliyatidagi faolligi to‘g‘risida izlanishlar olib borgan, L.S.Zauyer axborot texnologiyalarini tatbiq etishning didaktik shart-sharoitlarini aniqlagan. A.N.Burov, M.N.Maryukov, M.I.Ragulina, O.P.Solobuto, A.V.Yudakov va boshqalarning dissertatsiya ishlarida matematika fanini o‘qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari qaralgan [2].

O‘zbekiston olimlaridan S.S.G‘ulomov, A.X.Abdullayev [3] va M.X.Lutfillayev [1]larning ishlarida virtual stend yaratish va ularni o‘quv jarayoniga qo‘llash bugungi kunning dolzarb masalalardan biri ekanligi ko‘rsatilgan. A.M.Po‘lotov [4] talabalarning «Informatika va informasion texnologiya» fanidan o‘zlashtirgan bilimi asosida kelajakda o‘zlashtiradigan bilimi

darajasini prognoz qiluvchi imitatsion model va undan foydalanish metodikasi ustida ilmiy izlanishlar olib borgan.

Keyingi vaqtlarda kompyuterli o'quv vositalariga bag'ishlangan juda ko'p adabiyotlar paydo bo'la boshladiki, bu adabiyotlarning ko'pchiligida mualliflar asosan masalaning metodik va didaktik xususiyatlariga e'tibor berib, uning elektron o'quv vositalarini o'quv jarayonida foydalanishni tahliliga deyarli e'tibor bermaydi.

Ushbu maqolada «Informatika va axborot texnologiyalari» fani bo'yicha tushunchalarning mantiqiy sxemasi asosida har bir tushunchaning mazmun mohiyatini ochib bera oladigan kompyuter imitatsion modelini (animasiya) yaratish va tajriba-sinovdan o'tkazish muammosi qo'yilgan.

Maqsad «Informatika va axborot texnologiyalari» fanini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'rganishda tushunchalarning mantiqiy sxemasi kompyuter imitatsion modeli yordamida amalga oshirilishini metodik muammo sifatida ishlab chiqishdan iborat.


Tadqiqot metodologiyasi. «Informatika va axborot texnologiyalari» fanini o'qitishda dasturlashga oid boshlang'ich bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun Paskal dasturlash tili o'rgatiladi. Paskal dasturlash tilini o'rganishda asosiy e'tibor operatorlar mavzusiga qaratiladi. Operatorlar mavzusini

o'zlashtirish boshqa mavzularga nisbatan biroz murakkabroq hisoblanadi. Buning boisi operatorlar dasturda ma'lum bir jarayonni bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni bajaradi. Bu jarayonlar odatda dinamik tarzda bajarilishi munosabati bilan ularning mazmunini talabalar hamma vaqt ham to'g'ri anglay olmaydilar.

Ko'p yillik tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarga tushunchalar orqali taqdim etilayotgan o'quv materialining ma'no mazmuni tushunchalarning belgilarini sanab o'tish bilan emas, balki unga qo'shimcha ravishda boshqa tushunchalar bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsata olish katta samara beradi va tushunchalarning mantiqiy sxemasining paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday ko'rinishdagi tushunchalarning o'zaro bog'liqligi tushunchalarning mantiqiy sxemasi (TMS) deb yuritiladi [5].

Shu bois paskal dasturlash tilining operatorlar bo'limiga doir tushunchalarning mantiqiy sxemasini ishlab chiqish hamda ularning mazmunini talabalarga yetkazish uchun kompyuter imitatsion modelini yaratish masalasi dolzarbligini ko'rsatadi.

Biz tomonimizdan paskal dasturlash tilining operator bo'limiga doir tushunchalar tanlab olinib, tushunchalarning mantiqiy sxemasi tuzilgan hamda har bir tushuncha haqida ma'lumotlarni ko'rsatuvchi, o'rgatuvchi kompyuter imitatsion modeli ham yaratilgan (1-rasm) [6].




1-rasm. Operatorga oid tushunchalarning mantiqiy sxemasi.

Bu mantiqiy sxemada operatorga oid tushunchalar berilgan bo'lib, har bir tushunchaga kompyuter imitatsion modeli yaratilgan. Masalan, "Murakkab operator" bo'limida "Tarmoqlanish operatori" va unda "Shartli operator" va "Tanlash operatori"lari mavjud. "Shartli operator"ning o'zi "To'liq shartli operator" va "To'liqmas shartli operator"ga bo'linadi.

Misol.

$$y = \begin{cases} ax + b & \text{agar } x > 0 \\ cx + d & \text{agar } x \leq 0 \end{cases}$$

funksiyaning qiymatini hisoblash dasturini tuzish. Bu yerda, $a=1.5$, $b=4$, $c=3.7$, $d=-4.2$



2-rasm. To'liq shartli operator imitatsion modelining bajarilish jarayoni.


Yuqorida berilgan misolda to'liq shartli operatorning ishlash prinsipi imitatsion model yordamida ko'rsatib boriladi. Bu jarayon 2-rasmning o'ng tomonida tasvirlangan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, aniq berilgan misolda to'liq shartli operatorning ishlashi har bir band uchun ko'rsatiladi. Bunday tarzda to'liq Misol.

$$y = \begin{cases} ax + b & \text{agar } x > 0 \\ cx + d & \text{agar } x \leq 0 \end{cases}$$

funksiyaning qiymatini hisoblash dasturini tuzish. Bu yerda, a=1.5, b=4, c=3.7, d=-4.2

shartli operatorni talabalarga tushuntirish bu operatorning ishlash prinsipini to'liq o'zlashtirish uchun asos bo'ladi.

To'liqmas shartli operatorni talabalarga tushuntirish aniq misollarda uning imitatsion modeli yordamida amalga oshiriladi (3-rasm).



3-rasm. To'liqmas shartli operator imitatsion modelining bajarilish jarayoni.

Bu yerda ham to'liqmas shartli operatorning ishlash prinsipi imitatsion model yordamida ko'rsatib boriladi. Bu jarayon 3-rasmning o'ng tomonida tasvirlangan.

Xuddi shunday operator bo'limiga doir tushunchalarning mantiqiy sxemasida har bir tushunchani o'rgatuvchi kompyuter imitatsion modeli yaratilgan.

«Informatika va axborot texnologiyalari» fanining operator bo'limiga doir tushunchalarning mantiqiy sxemasi bo'yicha yaratilgan kompyuter imitatsion modeli asosida ma'ruza darslarini tashkil qilishning metodikasi yoritilgan. Bu metodikada tanlangan mavzuning mazmunini ochib berishda kompyuter imitatsion modelining ishlash jarayoni va uning yordamida ma'ruza darsini tushuntirish mexanizmi ko'rsatilgan.

Tahlil va natijalar. Nazariy izlanishlar va amaliy ishlanmalar asosida o'qitish metodlaridan foydalanishni tasdiqlash uchun pedagogik tajriba-sinov ishi tashkil etildi.

Samarqand davlat universitetining biologiya fakultetida tajriba-sinov tashkil qilindi. Biologiya fakultetida (101-, 102-guruh) tajriba-sinov va (105-, 106-guruh) nazorat guruhlarida tanlab olindi. Tajriba-sinov guruhlarida mashg'ulotlar kompyuter imitatsion modeli asosida, nazorat guruhlarida esa an'anaviy metodika bilan olib borildi.


«Informatika va axborot texnologiyalari» fanining nazariy va amaliy mashg'ulotlarida operator mavzusi bo'yicha o'tkazilgan nazoratlar quyidagi natijani berdi.

Fan nomi	Soat		Tajriba guruhi			Soat		Nazorat guruhi		
	Ma'ruza	Amal. Lab.	Kurs, guruh	Tal. soni	Natija	Ma'ruza	Amal. Lab.	Kurs, guruh	Tal. soni	Natija
Informatika va axborot texnologiyalari	8	22	101	35	80	8	22	105	23	67
	8	22	102	35	79	8	22	106	23	65

O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalarini tahlil qilishda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining talabalar bilimini nazorat qilish reyting Nizomi asos qilib olindi [7].

$$Z_{яб} = \sum_{i=1}^M K_i / M$$

bu yerda, M – talabalar soni, K_i – i -chi talabaning nazoratdan olgan bali, $i = \overline{1, M}$; Z – nazorat bo'yicha o'rtacha ball.



4-rasm. «Informatika va axborot texnologiyalari» fanidan o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari.

Natijadan ko'rinib turibdiki, «Informatika va axborot texnologiyalari» fanining operator mavzusi bo'yicha o'tkazilgan nazoratlar talabalarning o'zlashtirishini 11-14 foizgacha o'sishiga olib keldi.

Xulosa va takliflar. Kompyuter imitatsion modelini o'quv jarayoniga tatbiq etib dars berishda talabalarning faol ishtirok etishlari kuzatildi. Bu kompyuter imitatsion modeli bo'yicha ma'ruza va amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda yaqqol namoyon bo'ldi. Bundan tashqari talabalar kompyuter sinflarida kompyuter imitatsion modeli bo'yicha mustaqil shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa ularning ma'ruza va amaliy darslarga tayyorgarlik ko'rish imkoniyatini ta'minladi. Buning oqibatida talabalarni har doim o'tilgan mavzu bo'yicha o'qituvchilar bilan savol-javob qilishga harakat qilayotganliklari ko'rindi.

Tajriba natijalari kompyuter imitatsion modeli asosida dars o'tishda faqat o'quv materiallarini o'zlashtirish emas, balki yaxshi o'zlashtira olmaydigan talabalarning yangi bilim olishga bo'lgan intilishi o'sganligini ko'rsatdi. Kompyuter imitatsion modeli asosida o'qitish talabalarning faolligini, ularning o'zlashtirishining sifat ko'rsatgichini oshirdi.

Xulosa qilib aytganda, operatorga doir tushunchalarni kompyuter imitatsion modeli yordamida o'quvchilarga yetkazish ularning mazmun, mohiyatini ochib berishda katta imkoniyat yaratadi. Bu kompyuter imitatsion modelidan foydalanganda o'quvchilar o'rganayotgan o'quv materialini takror o'qishi, uning namoyish etish tezligini o'zgartirishi, ya'ni o'zlarining qabul qilish qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kerakli rejimni tanlashlari mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Lutfillayev M.H. Oliy ta'lim o'quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalari integratsiyasi (Informatika va tabiiy fanlar misolida): Dis. dokt. ped. nauk. -Toshkent: O'zDPITI, 2006. –212 b.
2. Дьяченко С.А. Использование интегрированной символьной системы Mathematica при изучении курса высшей математики в вузе: Дис. ... канд. пед. наук. – Орел, 2000. – 164 с.
3. Ғуломов С.С., Абдуллаев А.Х. Виртуальные стенды для имитации функций учебных мастерских и лабораторных установок. –Ташкент: МВИССО, 2002. -23 с.
4. Po'lotov A.M. Talabalar bilimi darajasini prognoz qilish va undan foydalanish metodikasi («Informatika va informasion texnologiya» fanini o'qitish misolida). Dis. ... kand. ped. nauk. -Toshkent: TDPU, 2006. -139 b.
5. Полат Е.С., Моисеева М.В., Бухаркина М.Ю. Теория и практика дистанционного обучения. Учебное пособие для студ. высш. учеб. заведений. –Москва: Академия, 2004. – 416 с.
6. Fayziyev M.A. Talabalar bilim va ko'nikmalarini kompyuter imitatsion modeli asosida shakllantirish metodikasi («Informatika va axborot texnologiyalari» fani misolida): Dis. ... kand. ped. nauk. -Toshkent: TDPU, 2008. –137 b.
7. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-son buyrug'i.



Oksana FOTINA,

Perm State Agro-Technological University named after Academician D.N. Pryanishnikov, Perm, Russia

E-mail:oksanafotina@gmail.com

Denis PONOMARYOV,

Perm State Agro-Technological University named after Academician D.N. Pryanishnikov, Perm, Russia

Based on the review of B.Rakhimov, professor of the GulSU

КВАНТОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

Технологии, в основе которых лежит квантовая физика, существуют уже почти 80 лет. Понимание квантовой физики твердого тела послужило толчком к изобретению в 1947 году знакомого всем транзистора, а понимание квантовой оптики – лазера. Человечество научилось манипулировать сложными квантовыми системами на основе их индивидуальных компонент: ионов, фотонов и атомов. Можно отдельно контролировать квантовое состояние каждого компонента квантовой системы, а также изменять и измерять их состояния. В статье описаны возможные области применения квантовых технологий в образовательных целях.

Ключевые слова: Кубиты, высокая точность, доступность, квантовые системы, криптография, интерактивная квантовая симуляция, обучение.

TA'LIMDA KVANT TEXNOLOGIYALARI

Kvant fizikasiga asoslangan texnologiyalar deyarli 80 yildan beri mavjud. Kvant qattiq jism fizikasini tushunish 1947 yilda tanish tranzistorni ixtiro qilishga turtki bo'ldi. Insoniyat murakkab kvant tizimlarini ularning individual komponentlari: ionlar, fotonlar va atomlar asosida boshqarishni o'rgandi. Kvant tizimining har bir komponentining kvant holatini alohida nazorat qilish, shuningdek, ularning holatlarini o'zgartirish va o'lchash mumkin. Maqolada ta'lim maqsadlarida kvant texnologiyalarini qo'llashning mumkin bo'lgan sohalari tasvirlangan.

Kalit so'zlar: Kubitlar, yuqori aniqlik, mavjudlik, kvant tizimlari, kriptografiya, interaktiv kvant simulyatsiyasi, trening.

QUANTUM TECHNOLOGIES IN EDUCATION

Annotation

Technologies based on quantum physics have been around for almost 80 years. The understanding of quantum solid state physics was the impetus for the invention in 1947 of transistor, and the understanding of quantum optics led to the invention of laser. Humanity has learned to manipulate complex quantum systems based on their individual components: ions, photons and atoms. It is possible to separately control the quantum state of each component of a quantum system, as well as to change and measure their states. The article describes the possible areas of application of quantum technologies for educational purposes.

Key words: Qubits, high-precision, accessibility, quantum systems, cryptography, interactive quantum simulations, learning.

Quantum technologies are a rapidly developing field in science and technology, based on the laws of quantum mechanics. They allow us to work with quantum states of systems that can be described by quantum bits (qubits). Quantum technologies can be used to solve complex problems that cannot be solved by classical methods. In recent years, there has been significant progress in the development of quantum technologies, including quantum computers, quantum sensors, and quantum teleportation.

Quantum technologies consist of three main components:

- Quantum bits (qubits)
- Quantum gates – the analogs of classical logic gates in quantum computers. They are used to manipulate the qubits.
- Quantum algorithms – programs written to perform tasks on a quantum computer. They use quantum properties to solve problems much faster than classical algorithms.

Key concepts of quantum technologies. Quantum technologies are based on the laws of quantum mechanics and quantum physics. The key concepts in this field are quantum systems, cryptography, quantum computing, qubits, quantum teleportation, quantum sensors, quantum optics, and quantum information theory. Quantum computing uses qubits, which can be in multiple states simultaneously. Unlike classical bits,

which can only be 0 or 1, qubits can take on any value between 0 and 1, making quantum computing much faster and more efficient in solving certain problems. This superposition of qubits allows for solving problems with more variables in much shorter periods of time than classical methods. Qubits can be used to create quantum networks that can provide a more secure transfer of information in the form of quantum states, which makes it impossible to intercept without distortion. Cryptography also becomes particularly important in light of the emergence of quantum computers, which can crack classical ciphers. Quantum teleportation allows for the transmission of quantum information between remote quantum systems, while quantum sensors use quantum phenomena to measure various physical quantities. Quantum optics studies the interaction of light and quantum systems, and quantum information theory explores the use of quantum phenomena for the transmission and processing of information.

Using quantum technologies. Quantum technologies have a wide range of applications, including the development of new drugs, optimization of transportation systems, improvement of cryptography, and the advancement of artificial intelligence. Some examples of the use of quantum technologies include quantum computing for solving complex

problems, quantum cryptography for protecting confidential information, and the use of quantum sensors for increasing the precision of measurements in various fields, from medicine to materials science.

For example, in a city with a population of one million, each resident has a name up to 10 characters long and a 7-digit phone number. The phone book consists of 17 million entries and takes up about 17 megabytes of data. This is a lot of data. It is possible to record all of this using quantum mechanical methods in just 17 qubits. These qubits will contain the names and phone numbers of all the city residents in an entangled superposition.

Advantages of using quantum technologies in education. The use of quantum technologies in education has numerous advantages, such as increasing the efficiency of learning, creating interactive quantum simulations, improving the visualization of complex concepts and theories, and the potential to reduce learning time. Additionally, the use of quantum technologies in education provides students with the opportunity to acquire new skills and knowledge in the forefront of science and technology, which can enhance their competitiveness in the job market.

Examples of quantum technology applications in education. There are numerous examples of quantum technology applications in education. One of them is the use of quantum computing for modeling and analyzing quantum systems, which can help students better understand the principles of quantum mechanics. Additionally, virtual and augmented realities built with the help of quantum technologies can create unique and interactive learning environments that allow students to gain a deeper understanding of complex concepts and phenomena. Quantum technologies can also be used for processing large amounts of data, which can help in the education of artificial intelligence and machine learning.

Challenges and prospects of applying quantum technologies in education. The use of quantum technologies in education faces challenges such as technical complexity, high cost, and the need for integration with existing systems. In addition, the use of such technologies requires training of educational personnel. However, the use of quantum technologies can lead to new opportunities in creating educational materials, modeling systems, analyzing data, and creating more accurate sensors.

REFERENCES

1. Злобин А.Д. Квантово-виртуальный метод дистанционного обучения. Современные исследования социальных проблем, 3(03) (2010): 28-33
2. Preskill, John. Quantum Computing in the NISQ era and beyond. Quantum 2 (2018): 79.
3. McGeoch, Catherine C. "Adiabatic quantum computing and quantum annealing: Theory and practice." Synthesis Lectures on Quantum Computing 5.2 (2014): 1-93.
4. Harrow, Aram W., Avinatan Hassidim, and Seth Lloyd. Quantum algorithm for solving linear systems of equations. Physical Review Letters 103.15 (2009): 150502.



UDK:391(575.1)

Zilola XAITOVA,

K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti "Libos dizayni" kafedrasini mudiri

TTESI professori, f.f.n. U.Raxmatullayeva taqrizi asosida

O'ZBEK MILLIY LIBOSLARINING SHAKLLANISH TARIXI VA ULARNING DIZAYN XUSUSIYATLARI (KECHA VA BUGUN)

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek milliy liboslarining shakllanishi va rivojlanish ta'rixi borasidagi bajarilgan tadqiqot ishlari to'g'risida fikr yuritilgan. Bundan tashqari urf-odatlar ta'sirida milliy liboslarining kelib chiqishining o'ziga xos usullari hamda fasllar ta'sirida o'zgarishlari bayon etilgan. Libos turlari va undagi rang munosabatlari turli ko'rsatmalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Mato, uyg'unlik, uslub, san'at, naqsh, ramz, milliy liboslar, tarixiy liboslar

ИСТОРИЯ И ОСОБЕННОСТИ ДИЗАЙНА ФОРМИРОВАНИЯ УЗБЕКСКИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ КОСТЮМОВ (ВЧЕРА И СЕГОДНЯ)

Аннотация

В данной статье рассматривается исследовательская работа по истории становления и развития узбекского национального костюма. Кроме того, описаны уникальные способы возникновения национальных костюмов под влиянием обычаев и их изменения под влиянием времен года. Типы одежды и их цветовые соотношения были проанализированы на основе разных принципов.

Ключевые слова: Ткань, гармония, стиль, искусство, узор, символ, национальные костюмы, исторические костюмы.

THE HISTORY OF THE FORMATION OF UZBEK NATIONAL DRESSES AND THEIR DESIGN CHARACTERISTICS (YESTERDAY AND TODAY)

Annotation

This article discusses the research work on the history of the formation and development of Uzbek national costumes. In addition, the unique methods of the origin of national costumes under the influence of customs and their changes under the influence of the seasons are described. The types of clothes and their color relationships were analyzed based on different guidelines.

Key words: Fabric, harmony, style, art, pattern, symbol, national costumes, historical costumes

Kirish. Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin yurtimiz, xalqimiz tarixini chuqur o'rganish, uni ilmiy asosda haqqoniy tadqiq etish, qadimiy manbalarni xolislik bilan asl holida tiklash, davlatchilik tarixining ildizlarini ochib berish respublikamiz madaniy, ma'naviy hayotidagi asosiy masalalardan biriga aylandi.

Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir[1] deb O'zbekiston Respublikasining milliy qomusida keltirilgan ma'naviy va ma'rifiy obidalar, milliy madaniyatimizni asrab avaylash, rivojlantirish, yurtimizdagi tarixiy obida va yodgorliklarni qayta tiklash, o'rganish va kelajak avlodlarga bus-butun yetkazish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada milliy va madaniy boyliklarimizni asrab avaylash, ularni muhofazalash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bunda muhim dasturilamal bo'lmoqda[2].

Tarixiy haqiqatni tiklash davlat siyosati darajasida belgilandi. Bu hayotiy zarurat edi. Chunki o'z ozodligini, erkini qo'lga kiritgan xalq ko'p asrlar davomida bosib o'tgan tarixiy yo'lini aniq bilishi, buyuk ajdodlari merosidan to'la bahramand bo'lishi kerak edi. Bu millatimizning o'zligini anglab yetishi, istibdod davrida toptalgan g'ururini tiklashi, yuksaltirishi, mamlakatimizning kelajak istiqbolini dunyo davlatlari qatorida namoyon bo'lishiga zamin yaratadi.

An'anaviy kiyimlarimiz moddiy madaniyatimizning asosiy ko'rinishlaridan birini tashkil etishi bilan birga unda xalqimizning o'tmishi, milliy xususiyatlari va madaniy qadriyatlari namoyon bo'ladi. Ayni paytda milliy madaniyatining

boshqa ko'rinishlari singari uning turmush tarzi, estetik didi va milliy o'zligining ko'zguvidir[3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlilini boshlashdan avval shuni takidlab o'tish kerakki, eng qadimgi yozma merosimiz durdonasi - "Avesto"[4] da, shuningdek, o'rta asrlarda M.Koshg'ariy, qomusiy olim A.Beruniy va davlat arbobi Zaxiriddin Muhammad Bobur asarlarida xalqimizning qadimiy kiyimlari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan[5]. O'zbekiston amaliy-bezak san'ati alohida janr va ko'rinishlarga bo'lib o'rganilgan. Masalan, A.S.Morozovanning tadqiqotlarida ijodlariga katta e'tibor beriladi va atroflicha sharh beriladi. Bu bilan bir qatorda ularning tasviriy xususiyatlari borasida ham ayrim fikr-mulohazalar bildiriladi. A.S.Morozovanning tadqiqotlarida asosan asrimizning 30- yillariga qadar yig'ilgan materiallar tahlil etilgani uchun undagi liboslardagi naqshlarning ma'nolariga katta e'tibor berilib, 30-yillardan to 80-yillar oralig'ida amaliy-bezak san'atiga endigina kirib kelayotgan va keyinchalik keng tarqalgan tematik mavzular esa qisman izohlanadi.

Hozirgi kungacha fanda o'zbek milliy kiyimlari borasida o'nlab tadqiqotlar va ilmiy ishlar bajarilgan. N.Sodiqovanning "O'zbek milliy kiyimlari (XIX-XX asrlar)" nomli tadqiqotida XIX asr oxiri va XX asrda urf bo'lgan an'anaviy kiyimlar turli viloyatlar kesimida atroflicha o'rganilgan. Mazkur tadqiqotda etnolog, o'lkashunos, arxeolog, san'atshunos mutaxassislar tomonidan Respublikamizning turli mintaqalariga xos kiyimlarning mahalliy-lokal xususiyatlari, tikilishi va kiyilishidagi o'ziga xoslik, shuningdek kiyimlar evolyutsiyasi turli manbalar materiallari asosida tahlil etilgan[6]. Shu bois, biz bu o'rinda o'zbek milliy liboslarining qo'llanilishi va sinflanishi nomli mavzuning tarkibiy tuzilishi va unda ko'riladigan masalalar mohiyatidan kelib chiqib, mavzuga aloqador bo'lgan adabiyotlarni tahlil qilishda o'zbek milliy kiyimlarining

shakllanish tarixi va evolyutsiyasiga bag'ishlangan barcha tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishga harakat qildi.

Bundan tashqari XIX asr oxiri - XX boshlari o'zbek milliy liboslari etnografik nuqtayi nazaridan o'rganilgan adabiyotlarga I. Jabborov, T.A.Abdullaev, S.A.Xasanova, O.A.Suxareva, G.K. Zunnunovalar[7] ham o'z hissalarini qo'shishgan.

San'atshunoslik, dizayn, muzeylardagi kiyim-kechak, libos kolleksiyalarini tadqiq qilish nuqtayi nazaridan o'rganilgan adabiyot va ilmiy tadqiqotlarga G.A. Pugachenkova[8], S.M.Maxkamova, N.Sodikova, Z.I.Raximova, R.Ya. Rassudova, G. K. Yo'ldasheva, K. Jumaev, A. Ashirov, L. Levteeva, I. Bogoslavskaya, K.Tursunaliev, G. K. Xasanbaeva, B.P.Torebaev, D. A. Faxretdinova[9] ilmiy izlanishlarini sanab o'tish mumkin[10].

Tahlil va natijalar. Milliy libos – millat qiyofasi, inson ko'rki, milliy iftixor ifodasi. Milliy libosimizda xalqimizning ming asrlik o'tmishi, qadimiy urf-odat va an'analari, didi, estetik qarashlari shuningdek, o'ziga xos xususiyatlari mujassam. Milliy liboslarimizda qizlarimizga mos ibo va hayo aks etgan[11].

Milliy kiyimlarning zamonaviy ko'rinishi yoki bo'lmasa zamonaviy kiyimlarga milliy rux berishda bir necha o'ziga xos uslublar mavjud bo'lib, bularga - milliy bichimlardan foydalanilgan holda, yoki milliy amaliy bezak turlaridan foydalangan holda ornamentli liboslar yaratish mumkin. Milliy ornamentlarning liboslarda bezak sifatidagi o'rni muhim bo'lib, ularning qo'llanilishi tobora rivojlanib, kishilar didining muttasil o'sib borishi va xalqlar orasidagi etnomadaniy aloqalarning kuchayishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Pirovardida kiyimlar taraqqiyotida jadal o'zgarishlar ro'y berishiga olib kelmoqda.

Kiyim-kechaklarda qo'llanilgan badiiy bezaklar o'zbek xalqi tarixi bilan uzviy bog'lik bo'lib, u moddiy-madaniy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilari bilan ajralib turuvchi uziga xos mezondir. Ularda ajdodlarimiz tarixiga borib taqaladigan urf-odatlar, an'analar, ijtimoiy munosabatlar, ma'rifiy, diniy e'tiqod, nafasat va estetik shakllarning ayrim unsurlari ifodalanadi. Jamiyat turmushi, iqtisodiyoti va siyosatida uzgarishlar bo'lib turishi bilan bir vaqtda libos shakllari xam o'zgarib boradi, unda xalqning moddiy ahvoli, kishilarning didi, go'zallik tug'risidagi ideallari, xo'jalik yuritishning o'ziga xos jihatlari hamda oilaviy turmushning ba'zi tomonlari ham ko'zga yaqqol tashlanadi.

O'zbek xalqining kiyim kechaklari juda xilma-xil, rang-barang va jozibalidir. Milliy marosimlarida alohida kiyiniladi. Nikoh yoki xatna tuyida kelin-kuyovlar liboslari, tuy bolaning kiyimi, dafn marosimida marxumni yodlash davrida kiyiladigan liboslar, yana bayram, tantanalarda, kundalik turmushda kiyiladigan, korjoma kabi turlarga bo'linadi.

O'zbekiston hududida yashagan eng qadimgi ajdodlarimizning liboslari ham dunyoning boshqa mintaqalaridagi qadimgi kishilar kiyimlari kabi iqlim, turmush sharoiti va urug' qabila an'analari asosida shakllangan. O'tmish ajdodlarimizning kiyim-kechagi, ularning shakllari va tarixi hamda mahalliy xususiyatlari to'g'risida respublika hududida topilgan arxeologik yodgorliklar, devoriy rasmlar, haykalchalar, mayda naqshlar,

to'revtika, yozma manbalar, qo'lyozma kitoblarga ishlangan mo'jaz tasvirlar bir qadar tasavvur beradi[12].

Eng qadimgi davrlardan boshlab odamlardan kiyimga ehtiyoj tug'ilgan. Dastlab ibtidoiy davrda yashagan odamlar uchun ovlangan hayvonlar terisi yoki daraxt po'stlogi kiyim vazifasini bajargan. Keyinroq iqlim o'zgarishlari natijasida (havo sovushi yoki isishi) kiyimlarga talab orta boradi. Birinchi navbatda uni tikish uchun foydalanilayotgan materialga bog'liq bo'la boshlaydi. Dastlab eng oddiy to'qima mato yoki o'simlik poyalaridan qo'pol to'qilgan soddamato kiyim uchun material bo'lib xizmat qilgan. Tolalardan to'qib mato ishlash kishilik jamiyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri hisoblanib, bugungi kunga qadar ba'zi o'zgarishlar bilan bizagacha etib keldi.

Qadimgi davr kiyim-kechaklarining bichimlari va qaysi matodan qanday shaklda tikilganini tasavvur qilishda arxeolog olimlarning ma'lumotlaridan, qadimgi yer ostida qolib ketgan qasrlar va yodgorliklardan – Afrosiyob, Varaxsha, Panjikent, Bolalikepa, Xolchayon, Ayritom kabilardan topilgan devoriy rasmlar, haykallar, mato parchalari, o'ymakorlik namunalari aks etgan tasvirlardan bilib olamiz.

Baqtriya libosida erkaklar va ayollarning choponlari, oldi yopiq, etagi burmali yoki to'liqni yaktaklar, yoqasi qiyiq ochilib, tasma bilan bog'langan ko'ylaklar uchraydi. Ayollar ko'ylagining yoqa omizi chuqur uchburchak shaklda bo'lgan, oldi ochiq mo'ynadan tikilgan shuba qirgimi ham juda chuqur. Ayollar va erkaklar ustki libosida ham kalta, endor yengli va uzun yengli ichki kiyimlar chatishib ketgan. Erkaklarning choponi ko'pincha ko'krak ustida to'qa bilan mahkamlangan, etaklari esa har tomonga yoyilib turgan. Erkak libosida "ko'ylak"ni matolar bilan bezash rasm bo'lgan, u uchburchak to'qalar qatoridan vujudga kelgan. Liboslarning rangida ko'proq oq va qizil ustunlik qilgan[13].

O'rta asrlarda yashagan ajdodlarimizning kiyim-boshlari, uning shakllari, mahalliy xususiyatlari hamda bu davrga oid mato turlari ilk o'rta asrlarga oid devoriy rangtasvirda aks etgan. Jumladan, Bolalikepadan topilgan suratlarda erkaklarning ustida yaktagi borligi aniqlangan. VI-VIII asrlarga oid Kultegin yodnomasida avra-astarli qilib tikilgan to'n-chopon erkaklarning ustki kiyimi ekanligi eslatilgan[14].

Xulosa. Hozirgi kunda kiyinish madaniyati-ma'naviyatimizni aks ettiruvchi omillardan biri hisoblanib, yoshlarning, ayniqsa, qizlarning kiyinish madaniyati ko'pchilik e'tiborida. Shunday ekan, ularning qalbida milliy urf-odat, an'analar mexr uyg'otish, qizlarni "zamonaviy" deb atalmish ochiq-sochiq kiyinishdan asrash, ya'ni kiyinish odobiga rioya qilishga o'rgatish, ularning estetik didini o'stirish dolzarb mavzulardan xisoblanadi. Milliy liboslarimizni qadrlash va targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning to'ng'ich qizi Saida Mirziyoyeva o'zbek va qoraqalpoq tarixiga oid an'anaviy milliy etno-liboslarda tushgan fotolavhalarini namoyish etdi.

Milliy libosimizda xalqimizning ming asrlik o'tmishi, qadimiy urf-odat va an'analari, didi, estetik qarashlari shuningdek o'ziga xos xususiyatlari mujassam. Milliy liboslarimizda yoshlarga xos ibo va hayo aks etgan. Ayniqsa, ayollarimizning milliy liboslari masalasida biz hech ikkilanmasdan o'z milliylik xususiyatlarimizni targ'ib etishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 49-modda.
2. Karimova Nodira Qaxramon Qizi Milliy va zamonaviy libos dizaynini yaratishda o'zbekiston tarixiy – me'moriy obidalarining o'rni // Interpretation and researches. 2023. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/milliy-va-zamonaviy-libos-dizaynini-yaratishda-zbekiston-tarixiy-memoriy-obidalarining-rni> (дара обращения: 29.04.2023).
3. D. Raupova "XIX asr oxiri XX asr boshlari uzbek milliy liboslari mintakaviy tiplari" magistrlik dissertatsiyasi T-2018, 6-b
4. Koshg'ariy M. Devoni lug'otit turk. Uch tomlik (A.Mutalibov tarjimai). -T.: Fan, 1960-1963-yillar. 3 tomlik. 3-tom. - 467 b
5. Jabborov I. Uzbek xalki etnografiyasi. - T.: O'qituvchi, 2018. -149 b
6. Avesto. Albom-monografiya (SO'zboshi T.Maxmudovniki). -T.:Sharq., 2021.
7. Zunnunova G.K. Maxallada yashovchi uzbeklarning an'anaviy va zamonaviy kiyimlari//Toshkent maxallalari: an'analar va zamonaviylik. Toshkent, 2020.
8. Пугаченкова Г.А. К Истории паранджи // СЭ. 1962. № 3. С. 191-195. Пугаченкова Г.А. К истории костюма Средней Азии и Ирана XV - первой половины XVI вв. по данным миниатюр// Тр. САГУ. Т. XXXI, 2016.
9. Турсуналиев К. Все цвета радуги. (Тубетейки и головные уборы узбеков XIX -XX вв.). -T.:Фан, 2018

10. Торебаев Б.П. Основы дизайна текстильных изделий. - Т.: Tafakkur qanoti, 2016
11. <https://jizzax.uz/5646-milliy-libos-millat-iefasi.html>.
12. Davlatova S. O'zbek xalqi liboslari tarixidan // Moziydan sado. – Toshkent, 2016. – № 3-4. – В. 6.
13. Orifjonov O. Kushon davri liboslari // Moziydan sado. – Toshkent, 2019. – № 2-3. – В. 13
14. Davlatova S. O'zbek xalqi liboslari tarixidan // Moziydan sado. – Toshkent, 2016. – № 3-4. – В. 6.



УДК 343.2.7 ББК 67

Шарофиддин ХАСАНОВ,

Заместитель заведующего факультетом по административно-организационной деятельности Академии МВД Республики Узбекистан, доктор философии (PhD), доцент.

E.mail: alimjan.matchanov@gmail.com

На основании отзыва начальника отдела Национального центра Республики Узбекистан по правам человека, к.ю.н., доцента Хаитбоева Ф.П.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ И ПРАВОВЫХ КОНФЛИКТОВ В БОРЬБЕ С ПРЕСТУПНОСТЬЮ: МЕХАНИЗМ ИХ РАЗРЕШЕНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются возникновение политических и правовых конфликтов в борьбе с преступностью, а также механизм их разрешения, возникающих между сторонами обвинения и защиты при расследовании преступлений связанных с обеспечением политических прав человека в расследовании преступлений, связанных с имеющимися международными стандартами. С целью повышения эффективности борьбы с преступлениями в статье обосновываются положения об обеспечении единства и непротиворечивости уголовного и уголовно-процессуального законодательства со следственной практикой применения права в разрешении возникающих конфликтных ситуаций.

Ключевые слова: конфликт, политические права человека, уголовное и уголовно-процессуальное законодательство, стороны обвинения и защиты, разрешение конфликта органами следствия и суда, расследование преступлений, конфликтные ситуации, конфликт расследования.

JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA SIYOSIY VA HUQUQIY ZIDDIYATLARNI PAYDO BO'LISHI: ULARNI HAL QILISH MEKANIZMLARI

Аннотация

Maqolada jinoyatlarga qarshi kurashda siyosiy va huquqiy ziddiyatlarning paydo bo'lishi, shuningdek, jinoyatlarni tergov qilishda siyosiy inson huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda ayblov va himoya tomonlari o'rtasida yuzaga keladigan ularni hal qilish mexanizmi ko'rib chiqiladi. Maqolada jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining yuzaga kelgan ziddiyatli vaziyatlarni hal qilishda qonunni qo'llash bo'yicha tergov amaliyoti bilan birligi va izchilligini ta'minlashga doir qoidalar asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ziddiyat, inson huquqlarining siyosiy huquqlari, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilik, ayblov va himoya taraflari, tergov va sud organlari tomonidan ziddiyatlarni hal qilish, jinoyatlarni tergov qilish, ziddiyatli vaziyatlar, tergov ziddiyati.

THE EMERGENCE OF POLITICAL AND LEGAL CONFLICTS IN THE FIGHT OF CRIME: A MECHANISM FOR THEIR RESOLUTION

Annotation

The article examines the emergence of political and legal conflicts in the fight against crime, as well as the mechanism for resolving them that arise between the parties of prosecution and defense in the investigation of crimes related to ensuring political human rights in the investigation of crimes related to existing international standards. In order to increase the effectiveness of the fight against crime, the article substantiates the provisions on ensuring the unity and consistency of criminal and criminal procedural legislation with the investigative practice of applying the law in resolving emerging conflict situations.

Keywords: conflict, political human rights, criminal and criminal procedural legislation, prosecution and defense, conflict resolution by investigative and judicial authorities, crime investigation, conflict situations, conflict investigation.

Введение. В новой редакции Конституции Республики Узбекистан 2023 года имеется отдельная глава VIII. Политические права, где в статьях 36-40 определено, что граждане Республики Узбекистан имеют право участвовать в управлении делами общества и государства как непосредственно, так и через своих представителей. Такое участие осуществляется посредством самоуправления, проведения референдумов и демократического формирования государственных органов, а также общественного контроля над деятельностью государственных органов. Также они имеют право осуществлять свою общественную активность в форме митингов, собраний и демонстраций в соответствии с законами Республики Узбекистан, имеют право объединяться в профессиональные союзы, политические партии и другие общественные объединения, участвовать в массовых движениях. Каждый имеет право, как отдельно, так и совместно с другими лицами обращаться с заявлениями, предложениями и жалобами в государственные органы и организации, органы самоуправления граждан, к должностным лицам или народным представителям [1].

Обеспечение вышеуказанных политических прав предполагают их защиту при которой могут возникать конфликты в различных сторонах жизни общества, которые рассматриваются отдельной наукой «конфликтология». Это предполагает определение сути конфликта, его универсальный характер непосредственно направленный на разрешение конфликта в правоприменительной деятельности.

Следует признать, что в Узбекистане проводятся коренные реформы, связанные с различными сторонам жизни общества, в том числе и с деятельностью правоохранительных органов, осуществляющих защиту политических прав и свобод, охрану общественной безопасности, которые, по мнению главы государства, призваны служить интересам народа. Конфликты имеют регулярный характер, так как в человеческом обществе совершаются преступления и в возникающей при этом ситуации имеются две обязательные конфликтующие стороны, а именно обвинение и защита. Проблемы разрешения этих конфликтов возлагаются на государственные следственные органы, которые основываясь на предоставленных полномочиях, действующем уголовном и

уголовно-процессуальном законодательстве принимают необходимые законные решения.

Обзор литературы по теме исследования. Вопросам связанными с особенностями общей характеристики конфликтологии, которые имеют отношения и к возникновению политических и правовых конфликтов в борьбе с преступностью, а также механизм их разрешения посвятили свои работы такие ученые как Н.И.Леонов[2], А.Я.Анцупов, А.И.Шипилов [3], С.Л.Прошанов[4], А.В.Лопарев[5]. Особенности юридической конфликтологии были рассмотрены Р.А.Рамашов[6]. Исторический анализ конфликтологии были рассмотрены Е.А. Тершиной[7]

Фундаментальные исследования относительно проблем правовой конфликтологии провел В.С. Жеребин определив особенности данного вида общественных отношений[8].

В Республике Узбекистан аспекты конфликтологии были исследованы и проанализированы такими учеными как Б.Алиев[9], Р. Жумаев, Н. Жўраев, А. Мўминов, Ш. Мамадалиев[10], Ш. Пахрутдинов[11], Р. Самаров[12], И. Саифназаров, Б. Тўйчиев[13], У. Убайдуллаев, Б. Умаров[14], М. Куронов, Н. Шермухамедова[15], Б. Хўжанов[16].

Конфликты в ретроспективном аспекте представляли собой жизненные ситуации, имеющие под собой правовую, юридическую подоплеку, и в начальный период не исследовались, не некоторые стороны были затронуты в исторических источниках. Происходящие в мире глобальные изменения оказывали влияние и на сущность общественных отношений, связанных с конфликтами в правовой сфере.

Например, в античный период происходящие в обществе правовые реформы и зарождающиеся правоотношения продемонстрировала нам различные конфликтные ситуации между аристократией и демосом, а также рабовладением. В средние века также имелись различного рода правовые коллизии, которые вызвали конфликтные ситуации. Последующие периоды истории показали, что в новое время ученые высказывали свои представления о правовых конфликтах и необходимости их цивилизационного решения. Л.Г.Агеева определяет противоречие как философию конфликта, связанного с его универсальностью. По ее мнению, которую разделяют многие ученые, указывая, что противоречия закладывают основу конфликта, который является одним из состояний или свойств противоречия[17].

Методология исследования. Решения поставленных задач в процессе исследования возникновения политических и правовых конфликтов в борьбе с преступностью, а также механизм их разрешения особенностей возникновения и разрешения правовых конфликтов в расследовании преступлений были использованы такие философские методы как теоретический анализ и синтез, моделирование правового механизма международного сотрудничества государств по защите прав и свобод человека в правоприменительной деятельности органов следствия. Также были использованы методы, связанные с изучением и анализом научной литературы, проведения экспертных опросов, моделирование ситуаций, формирование статистических выборок, расчеты средних выборочных величин, определение статистической значимости результата и другие.

Анализ и результаты исследований. Проблема конфликта и в частности возникновения политических и правовых конфликтов в борьбе с преступностью, а также механизм их разрешения правовых конфликтов в процессе расследования преступлений всегда была актуальна в общественной жизни. Различного рода конфликтные ситуации, связанные с социальными формами, направленными на борьбу с преступностью, межличностные и межгрупповые конфликты в общественной жизни, бытовые конфликты, суицид как способы разрешения конфликтов имеют актуальный характер.

Длительность исследования наукой проблемы конфликта влияет на качество и количество полученных знаний. Начало изучения конфликта в рамках конкретной дисциплины определялось по времени опубликования первых работ, посвященных данной проблеме[18].

В то же время юридическая конфликтология развивалась комплексно включая в себя элементы социального конфликта, которые являются не только выраженное внешне поведение людей, но и их внутренние установки, ценности, взгляды и чувства, потребности и интересы участников уголовно-процессуальных правоотношений, то есть их индивидуальная и корпоративная психология.

Возникающие проблемы возникновения политических и правовых конфликтов в борьбе с преступностью, а также механизм их разрешения всегда были актуальными в жизни человеческого общества. Данные конфликтные ситуации является радикальным способом их разрешения, влияющим на безопасность общества и граждан. Быстрый рост количества возникающих и требующих своего разрешения конфликтов в расследовании преступлений свидетельствует о том, что эти проблемы должны быть оперативно разрешены и должен быть создан действенный механизм их своевременного рассмотрения и принятия законного решения. В сущности, происходит формирование возможностей конструктивного разрешения конфликтов.

Такое понимание особенностей возникновения и разрешения правовых конфликтов в расследовании преступлений невозможно без помощи науки. Для того чтобы оценивать принимаемые решения и предупреждать возникновение и разрешения правовых конфликтов в расследовании преступлений каждый человек, и особенно следователь как лицо ответственное за расследование преступлений, должен обладать необходимыми знаниями об этом явлении и знать особенности механизма конфликтной ситуации. В Узбекистане особенности возникновения и разрешения правовых конфликтов в расследовании преступлений связаны со степенью понимания данного вида конфликта еще не позволяет получить знания, которые можно было бы эффективно использовать для объяснения и их регулирования.

По своей сути юридическая конфликтология имеет важное значение в процессе расследования преступлений и вносит весомый вклад в изучение данного вида конфликта. В данном случае объектом выступают общественные отношения, возникающие при разрешении конфликта противостоящими сторонами в лице участников уголовно-процессуальных правоотношений. При этом предметом юридической конфликтологии является деятельность следователя, дознавателя, органа, осуществляющего доследственную проверку как представителей государства, наделенных полномочиями разрешить возникшую конфликтную ситуацию.

Н.С. Железняк отмечает, что выявление неразрешенных конфликтных ситуаций в законодательстве, описание в связи с этим возможного развития нештатных ситуаций в практике представляется полезным и актуальным. Обнаружение и анализ пробелов в законе позволяет сгруппировать их, отнести либо к «белым пятнам», либо к «черным дырам» [19].

Именно правовые нормы определяют наличие или отсутствие совокупности процессуальных гарантий, определяющих конфликтность складывающихся ситуаций при производстве по уголовному делу.

Уголовно-процессуальные гарантии, по мнению С.И. Гирько представляют собой установленные законом средства, создающие условия для достижения целей уголовного процесса. В более узком понимании процессуальные гарантии при разрешении конфликтных ситуаций это способы обеспечения прав и обязанностей участников уголовно-процессуальных правоотношений. Таким образом, реальные гарантии в уголовном процессе можно разделить на

две группы: гарантии осуществления гражданами своих прав и гарантии-обязанности государственных органов действовать определенным образом[20].

Конфликтную ситуацию, по мнению некоторых учёных можно воспринимать как обобщенное понимание закономерностей и механизмов включения правовых норм в процессы саморегуляции правового поведения личности должно основываться на реальной оценке их регулятивных возможностей[21].

Особенности возникновения и разрешения правовых конфликтов в расследовании преступлений выражаются в рассмотрении действий следователя и иных должностных лиц ответственных за расследование уголовных дел посредством правовых норм на личностном, собственно психологическом уровне. Из этого следует, что в качестве важнейшей предпосылки в рассматриваемой ситуации является то, что сами по себе, независимо от личностных условий и вне процессов саморегуляции поведения личности, правовые нормы никакого регулятивного потенциала не несут.

Выводы. Исходя из вышеизложенного можно с уверенностью сказать, что конфликты, возникающие при расследовании преступлений, являются отражением правовой действительности, возникающей в конфликтной ситуации при расследовании преступлений. Это выявляет пробелы и вскрывает несовершенство уголовного или уголовно-процессуального законодательства, а также следственной практики, обуславливает необходимость внесения изменений в действующее уголовно-процессуальное законодательство и

иные нормативные правовые акты, направленные на совершенствование уголовно-процессуальной деятельности и правового положения всех участников расследования преступления. Это в свою очередь свидетельствует о наличии в уголовном и уголовно-процессуальном законодательствах норм, требующих уточнения и разъяснения со стороны Пленума Верховного Суда Республики Узбекистан.

Таким образом, для юридической конфликтологии, можно предложить следующий вариант понятийно-категориальной схемы его описания. Она включает в себя такие категории как: сущность, структура, классификация, функции, динамика, эволюция, генезис, системно-информационное описание, предупреждение, диагностика, исследование и завершение конфликта.

Возрастающий интерес к конфликту и конфликтологии при расследовании преступлений имеет под собой два основания. Во-первых, особенности возникшей конфликтной ситуации между сторонами обвинения и защиты в сфере юриспруденции. Отсутствие взаимопонимания между участниками уголовно-процессуальных отношений т.е. постоянное усложнение самой проблемы конфликта в ходе расследования преступлений, делают юридическую конфликтологию важной и актуальной. Во-вторых, мы сегодня оказались в новых реалиях развития информационно-коммуникационных технологий, что накладывает отпечаток на взаимоотношения между различными участниками уголовно-процессуальных правоотношений.

ЛИТЕРАТУРА

1. <http://old.lex.uz/docs/6445147>
2. Леонов Н. И. Конфликтология. Учеб. пособие. М.: Юрайт, 2019. 396 с.
3. Анцупов А. Я., Шипилов А. И. Конфликтология. М.: Питер, 2020. 560 с.
4. Анцупов А. Я., Прошанов С. Л. История отечественной конфликтологии. М.: Проспект, 2018. 448 с.
5. Лопарев А. В., Знаменский Д. Ю. Конфликтология. Учебник. М.: Юрайт, 2017. 290 с.
6. Ромашов Р. А. Юридическая конфликтология. Учебник. М.: КноРус, 2021. 280 с.; Самыгин С. И., Коновалов В. Н. Конфликтология в социальной работе. Учебное пособие. М.: Дашков и Ко, 2019. 300 с.
7. Терешина Е. А. История конфликтологии. Учебное пособие. М.: Проспект, 2018. 238 с.;
8. Жеребин В. С. Проблемы правовой конфликтологии: диссертация... доктора юридических наук: Нижний Новгород, 2001. – 395 с.
9. Б.Алиев, А.Рахмонов фуқаролик жамияти қуришининг сиёсий-ҳуқуқий жиҳатлари. – Т.:IQTISOD-MOLIYA, 2013. – Б. 9
10. Мамадалиев Ш. О. Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт. – Т.: ИИВ Академияси, 2003. – Б. 25-47.
11. Пахрутдинов Ш.И. Угрозоустойчивое общество в качестве фактора развития государства и общества. Журнал. Конфликтология, Издательство. Фонд Развития Конфликтологии. Т.4. – Санкт-Петербург, 2016. – С. 67–83.
12. Самаров Р.С. Куролли Кучлар феминизациялашувининг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари. Монография. – Тошкент: Зиё, 2005. – Б. 168.
13. Туйчиев Б.Т. Роль информатизации общества в развитии политической культуры. Мустақил Ўзбекистон: фалсафанинг долзарб муаммолари. – Тошкент, 1997.
14. Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари. – Тошкент: Маънавият. – 2006.
15. Шермухамедова Н. Фалсафа. – Тошкент, 2018.-
16. Жумаев Р.З. Конфликтология асослари / Р. З. Жумаев, У. А. Убайдуллаев, Б. А. Хўжанов. – Тошкент, «Академия» нашриёти. 2000. – 207 б.
17. Агеева Л. Г. Конфликтология: краткий теоретический курс: Учебное пособие. – Ульяновск, 2010. – 200 с.
18. Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология: Учебник для вузов. — М., 2000. – 551 с.
19. Железняк Н.С. О путях совершенствования некоторых положений главы 1 ФЗ «Об оперативно-розыскной деятельности» // Проблемы совершенствования оперативно-розыскного законодательства: Матер. «круглого стола», посвящ. 10-летию принятия Федерального закона «Об оперативно-розыскной деятельности» / Под ред. В.И. Елинского. М.: ВНИИ МВД России, 2004. С. 74.
20. Гирько С.И. Вопросы совершенствования дознания, проводимого органами внутренних дел, с учетом последних изменений в уголовно-процессуальном законодательстве // Совершенствование деятельности органов внутренних дел, других субъектов системы профилактики по предупреждению безнадзорности и правонарушений несовершеннолетних в Чеченской Республике: Матер. науч.-практ. конф. (6 октября 2007 г.). М.: ВНИИ МВД России, 2008. С. 15.
21. Чернова Г. Р., Сергеева М. В., Беляева А. А. Конфликтология. Учебное пособие для СПО. М.: Юрайт. 2019. 204 с.; Власова Н.А. Теоретические предпосылки введения сокращенного досудебного производства // Проблемы предварительного следствия и дознания: Сб. науч. тр. М.: ВНИИ МВД России, 2006. С. 16.



Kudrat XUDAYBERGANOV,

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasida boshlig'i, PhD., dotsent
E-mail: shixnazarmadiyorov@gmail.com

UrDU PhD. Q.Olloyorov taqrizi asosida

KURSANTLARDA HARBIY VATANPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISHDA BOBUR MEROSINING O'RNI

Аннотация

Ushbu maqolada buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Boburning bo'lajak ofitserlarni tarbiyalashda o'rnak bo'ladigan amallari va o'zining vatanga bo'lgan muhabbati ifodalangan. Undan tashqari kursantlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk etib tarbiyalash, ularning harbiy vatanparvarligini mustahkamlashda Zahiriddin Muhammad Bobur va uning merosini o'rganishning ahamiyatini asosiy xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Sadoqat, ishonch, vatanparvarlik, harbiy san'at, harbiy mahorat, qomusiy bilim, adolat mezonlari, mustahkam iroda

THE ROLE OF BABUR'S LEGACY IN THE FORMATION OF MILITARY PATRIOTISM AMONG CADETS

Annotation

This article expresses the actions of our great ancestor Zahiruddin Muhammad Babur, who will serve as an example in the education of future officers, and his love for the country. In addition, the importance of studying Zahiruddin Muhammad Babur and his legacy in raising cadets to be spiritually and morally mature and strengthening their military patriotism is revealed.

Key words: Loyalty, trust, patriotism, military art, military skill, encyclopedic knowledge, criteria of justice, strong will.

РОЛЬ НАСЛЕДИЯ БАБУРА В ФОРМИРОВАНИИ ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА У КУРСАНТОВ

Аннотация

В этой статье выражены действия нашего великого предка Захируддина Мухаммада Бабура, который послужит примером в воспитании будущих офицеров, и его любовь к стране. Кроме того, раскрыта важность изучения Захируддина Мухаммада Бабура и его наследия в воспитании курсантов духовно и нравственно зрелыми, укреплении их военного патриотизма.

Ключевые слова: Лояльность, доверие, патриотизм, военное искусство, военное мастерство, энциклопедические знания, критерии справедливости, сильная воля.

Kirish. Mamlakatimizda keyingi yillarda harbiy sohaga qaratilayotgan e'tibor zamirida mamlakat xavfsizligini yanada mustahkamlash va barqaror taraqqiyotni mustahkamlash yotadi. Harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashni yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda xalqimizning qadimiy tarixi, buyuk ajdodlarimiz merosi va ularning harbiy san'atni rivojlantirishga qo'shgan hissasini chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu haqda fikr yuritganda O'zbekiston Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...shaxsiy tarkib ma'naviy jihatdan zaif bo'lsa, ya'ni, askar va ofitserlarimizda jangovar ruh, Vatanga mehr va sadoqat, uning taqdiri uchun mas'uliyat bo'lmasa yoki ularning o'rtasida beparvolik hukm sursa, bunday holat nihoyatda noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin"[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Adiblar xiyoboni"ning ochilish marosimida, "...adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz", - deb ta'kidlagani zamirida, ajdodlar merosining yangi qirralarini bugungi avlod uchun zarur va qulay vositalar orqali yetkazish hamda yosh avlodning iymon-e'tiqodini yanada yuksaltirish, faxr va g'ururga to'la hissiyotlarni ongiga singdirish masalasi yotadi [2].

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati, harbiy mahorati, ilmiy va ma'naviy merosi, xususan "Boburnoma" asarini chuqur o'rganish orqali kursantlar harbiy vatanparvarligini mustahkamlash muhim masalalardan biri sanaladi.

Adabiyotlar tahlili. Tarixiy asarlarda Boburning mustahkam irodaga ega bo'lganligi xususida ma'lumotlar berilgan. Uning zamonida qishning sovuq kunlarida ham harbiy

harakatlar uchun safarlarda qiyinchiliklarga duch kelinardi. U esa chiniquqan bahodirlikni hatto kundalik odatlarda ham isbotlab kelgan. "Boburnoma"da qayd etilishicha, "...havo shu darajada sovuq ediki, o'sha ikki-uch kun orasida ikki-uch kishi sovuqning shiddatidan o'lgan edi. Menda g'uslga ehtiyoj bor edi. Yoqalarini qalin muz qoplagan, suvning tezligi bois o'rtasi muzlamagan bir ariqdagi suvga kirib g'usl qildim. O'n olti marotaba suvga sho'ng'idim. Suvning sovuqligi xiyla ta'sir qildi"[6].

Sabr-toqat, matonat harbiylar kundalik hayotining muhim jihati aylanishi lozimligini Bobur hayotida duch kelgan mashaqqatlar, ularda bir tanu-jon bo'lib qilingan harakatlar samara berganligi oydinlashadi. Harbiy harakatlar uchun safar chog'ida "... bir haftaga yaqin qor tepib, kunda bir-bir yarim shar'iydan ortiq ko'chilmadi edi. Qor tepar kishi men edim, o'n-o'n besh ichki yaqinlar va Qosimbek edi. Ushbu kishilar yayov yurib qor tepar edik. Har qadam qo'yganda beligacha, qo'ksigacha bota-bota qor tepar edi"[6].

Qayd etilganidek, Bobur qo'l ostidagilar bilan birga bo'lishga, ularni qo'llab-quvvatlashga harakat qilgan. Yana bir ma'lumot keladiki, "Injukon degan yerdan uch-to'rt kunda Zarrin dovonining tubiga Havoli Qutiy degan joyga keldik. Ana shu kuni qattiq bo'ron bo'lib qor yog'ardi. Barcha o'lim vahimasiga tushdi. U el tog'dagi g'or va kovaklarni havol deydi. Shu g'orga yetganda, qor quyuni tezlashdi. Ushbu g'or qoshida to'xtadik. Qor - ko'p, yo'l - so'qmoq, tepilgan-bosilgan yo'l bilan ham ot zo'rg'a yuradi. Kunlar g'oyat qisqaligidan oldindagilar yorug' payti g'or oldiga keldilar, namozshom, xufton namozigacha qolganlar yetib keldi. Ulardan keyingilar to'xtagan yeridayoq tushdi. Ko'plar ot ustida tong ottirdi, g'or torroq ko'rindi. Men g'orning og'zida kurak olib, qor kuradim, qorni ko'ksimgacha qazidim, sira yerga yetmasdi. Biroz shamoldan pana bo'ldi, o'sha yerga o'tirdim. Har qancha "G'orga kiring" deyishsa ham kirmadim. Barcha el qorda va bo'ronda, men issiq uйда va istirohatda o'tiramanmi deb o'yladim. Munda barcha el tashvish

bilan mashaqqatda, men bunda uyqu bilan farog'atda bo'laymi?! Bu muruvvat va hamjihatlikdan yiroq ishdur. Men ham har tashvish va mashaqqat bo'lsa ko'rayin, har nechuk el toqat qilib tursa turayin. Bir forsiiy maqol bor: "Do'stlar bilan birga bo'lgan o'lim to'ydir". Yuqoridagi misol haqiqiy elparvarlik, insonparvarlik namunasi bo'lib, mazkur holat ham harbiylar uchun yuksak namuna bo'lib xizmat qiladi [7].

Harbiy xizmatchilar uchun yana bir o'rnak bo'ladigan jihatlardan biri, ko'pchilik janglarda Boburning qo'shini dushman qo'shiniga nisbatan ozchilikni tashkil etganidir. Qo'shimcha qiyinchiliklarga qaramasdan, Bobur ushbu janglarda ham g'alaba qozonishni uddalaganligi tahsinga sazovor. Albatta ushbu g'alabalar yaxshi niyat hamda mukammal tayyorgarlik evaziga amalga oshadi. "Boburnoma"da ma'lumot beriladiki, "...o'sha yili Dehli va Hinduston yerlari uning (Ibrohim Lo'diy afg'on) taxti tasarrufida edi. Hozirda uning lashkarini bir lak (yuz ming kishi) deyishardi. O'zi va beklaridagi fillarning hisobi mingtaga yaqinlashardi. Biz unga qarab yurdik" [6]. Lekin ayrim hind va xorij tarixchilari boshqa raqamlarni ham keltiradi. Masalan, ayrim manbalarda Ibrohim Lo'diy qo'shinining soni qirq ming, Boburniki esa sakkiz ming atrofida bo'lgan, deyiladi [7].

"Tarixi Rashidii" keltirilishicha, "...u Qandahorni fath qilgandan keyin Kobulda bo'ldi. Xusravshohning uch mingtacha qolgan mo'g'ullari Ulug'bek Kobuliyning o'g'li Abdurazzoq mirzoni podshoh qilib ko'tarishdi va Bobur podshohga qarshi qo'shin tortishdi, shu paytda Bobur Podshoh qo'lida besh yuzta odam qolgan edi. Ana shu besh yuz kishi bilan u dushmanga qarshi chiqib jang qildi. Bu eng qonli janglardan biri bo'ldi. Ko'p to'qnashuv va olishuvlardan keyin u dushmani tor-mor qildi. O'sha jangda shaxsan uning o'zi dushmanning beshta bahodiri – Ali Said, Ali Sino va yana uch tasi bilan urishdi. U jasurlik bilan qilich chopib ularni qochirdi. O'sha jangda Abdurazzoq mirzo Bobur Podshohning qo'lga tushdi. Podshoh muruvvat qilib, uni qo'yib yubordi" [8]. Demak bu kabi hollar Bobur uchun doimiy ahamiyatga ega bo'lib, hukmdor vaziyatga oldindan baho bergan holda unga doim tayyor bo'lishga harakat qilgan. Harbiy xizmatchilar har qanday holatda ham vaziyatni oldindan to'g'ri baholagan holda unga muntazam shay turishi muhim jihatlardan sanaladi.

Natijalar va muhokama. Kursantlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk etib tarbiyalash, ularning harbiy vatanparvarligini mustahkamlashda Zahiriddin Muhammad Bobur va uning merosini o'rganishning ahamiyatini quyidagi xususiyatlar belgilanishi maqsadga muvofiq sanaladi:

- Zahiriddin Muhammad Boburning kursantlar uchun har bir fazilati – vatanparvarligi, iymon e'tiqodi, yuksak ma'naviyati, sadoqat va ishonchi barcha uchun o'ziga xos namuna bo'lib xizmat qiladi, ayniqsa, harbiy xizmatchilarni kundalik hayotda har tomonlama mukammal bo'lib tarbiyalanishlariga ko'mak beradi;

- Bobur, harbiy xizmatchilar uchun juda zarur hisoblanadigan mustahkam iroda sohibi bo'lib, tarixiy manbalarda bunga oid juda ko'p voqealar yozib qoldirilgan, ya'ni har qanday vaziyatda ham, oxirgi umid qolguncha kurashish xususiyati unda yuksak darajada bo'lganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin;

- Bobur sarkarda yoki saltanat boshlig'i sifatida gavdalanadi, ammo shu bilan bir vaqtning o'zida jangu-jadallardan juda oz vaqt ortib qolgan kezlarda ilm-fan, ma'rifat bilan mashg'ul bo'ldiki, u tomonidan yaratilgan meros necha yillardan buyon qiziqib o'rganiladi. Hattoki dunyo miqyosida muhim ilmiy tadqiqot sohasiga aylangan boburshunoslik yo'nalishi vujudga kelgan bo'lib dunyo mamlakatlarida mazkur yo'nalishda faol tadqiqotlar olib borilmoqda. Yana bir jihati, Bobur qoldirgan meros qomusiy ahamiyatga ega bo'lib, harbiy xizmatchilar kundalik hayotida asosiy kasbidan tashqari, ilmu hunarni ham egallashlari lozimligini anglatadi;

- harbiy xizmatchilar kundalik hayoti uchun zaruriy xususiyatlardan biri bu – muntazam ravishda g'alaba ruhiyatiga egalik hisoblanadi. Bunday xarakter Boburda yuqori darajaga ega bo'lib, doimiy ravishda jang maydonida buni isbotlashga harakat qilgan, shu bilan birga aksariyat hollarda, xoh qamalda bo'lsin,

xoh jangda u askarlar bilan birga bo'lishga harakat qilgan. Bunday holat harbiylar kundalik hayotida ularning ruhiyatini mustahkamlashga yordam beradi;

- har qanday vaziyatda ham Bobur kundalik hayotida adolat mezonlarini ustun qo'yadiki, harbiylar kundalik hayotida bu jihati bilan ham munosib o'rnak bo'la oladi.

Kursantlar harbiy vatanparvarligini mustahkamlash orqali ajdodlar ma'naviy merosini o'rganishda "Boburnoma" asarining ahamiyati, harbiy xizmatchilarning qomusiy bilimlarga ega bo'lishlari uchun yordam berishi bilan xarakterlanadi. "Boburnoma"da tarixiy shaxslar, ularning nasl-nasablari, hududlar toponimik nomlari va rivojlangan yo'nalishlari, xalqlarning urf-odat va an'analari, qo'shin tuzilishi, harbiy qurol-aslahalar, jangovor taktikalar va ularni amalga oshirish mexanizmlari, qo'shinlarning harbiy harakatlar davomida boshqarish va rag'batlantirishga oid ma'lumotlar mavjud. "Boburnoma", mana, salkam 500 yildirki, tarix, geografiya, etnografiya, lingvistik, zoologiya, botanika, san'atshunoslik va bog'lar yaratish bilimlari bo'yicha eng qimmatli manba hisoblanib kelinmoqda. Ushbu memuar asardan O'rta Osiyo, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston tarixi, xalqlari hayoti, urf-odatlari, ijtimoiy tuzumi, diniy e'tiqodlari va hayotning turli-tuman boshqa sohalari haqida favqulodda qimmatli ma'lumotlar olish mumkin [5]. Harbiy xizmatchilar mazkur asarni kundalik hayotda mutolaa qilishlari orqali o'z kasbiy faoliyatlar uchun muhim ma'lumotlarni olishlari bilan birga, dunyo xalqlari madaniyati va shaharlari haqida bilishlari mumkin bo'ladi.

Dunyo miqyosida boburshunoslik sohasida amalga oshirishgan tadqiqotlar natijasida jahonning ellikdan ziyod mamlakatida maxsus ilmiy yo'nalishlar vujudga keldi va ularning tadqiqotlari bugungi kunda ham faol davom ettirilmoqda. Mazkur asarlarda Bobur shaxsi va "Boburnoma" asariga oid barcha jihatlarni sinchiklab o'rganishga, zarur o'rinlarda qiyosiy tadqiqotlar olib borishga harakat qilingan va ularda Bobur yuqori darajada e'tirof etilganligi ko'zga tashlanadi. Shunday olimlardan birining e'tiroficha, "...har qanday sinovga bardosh bera oluvchi, iroda va matonatni mujassamlashtirgan bu zot o'zida harbiy hiyla va jasoratni uyg'unlashtira oladi. Zarur bo'lganda jazolashga ham, avf etishga ham qodir edi. U iste'dodli harbiy arbob va ishning ko'zini biladigan, qo'shinlarni mohirlik bilan boshqara oladigan, ularni ishonchini qozona olgan sarkarda edi. Ehtiyotkor davlat arbobi bo'laturib, u har qanday mayda narsaga ham e'tibor berar edi. Bu shoh faqat fotih bo'libgina qolmay, yaratuvchi – bunyodkor ham edi" [4].

Xulosa. Xulosa o'rnida qayd etish kerakki, kursantlarda Bobur hayoti va faoliyati, harbiy mahorati, ilmiy va ma'naviy merosini faol o'rganishlari orqali mamlakat xavfsizligini mustahkamlashga hissa qo'shishga, har sohada faol, bilimlari va qobiliyatli bo'lishga harakat qilishlari darkor. Shundan kelib chiqqan holda, harbiylar kundalik hayotida Bobur va uning asarlarini o'rganishni yanada jadallashtirishga oid quyidagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Boburning hayot yo'li davomida mashaqqatli sinovlarni boshdan kechirgani, ularni sabr-matonat, sabot bilan yengib o'tgani harbiylar uchun namuna bo'lishini inobatga olgan holda, ularning tizimli ravishda Bobur asarlari va u haqda dunyo olimlari tomonidan yaratilgan kitoblarni o'qishlarini tashkil etish;

- bugun shiddat bilan o'zgarayotgan murakkab zamonda odamlarning qalbiga yo'l topish va ularni yuksak maqsadlar sari ilhomlantirishda adabiyot va san'atning ta'sirchan kuchini e'tirof etgan holda Bobur g'azallarini kursantlar hayotida faol targ'ib etish;

- Bobur hayoti va ijodi, "Boburnoma" asari asosida harbiy xizmatchilar, ayniqsa harbiy ta'lim muassasalari kursantlari o'rtasida ko'rik-tanlovlar, intellektual o'yinlar, mahorat darslarini tashkil qilish;

- Bobur hayoti va faoliyatini OAVda faol yoritish orqali yoshlar ongida vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari yanada mustahkamlash zarur.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Qurolli kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig'ilishida so'zlangan nutq. 2018 yil 10 yanvar. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. Toshkent – “O'zbekiston” – 2018. B.162.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqi. 2020 yil 10 yanvar. Xalq so'zi. 2020 yil 11 yanvar.
3. Vatanimiz oltin ostonasi Toshkent tobora chiroy ochmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 20 may kunidagi Adiblar xiyoboniga tashrifidagi nutqidan. Xalq so'zi 2020 yil 21 may.
4. Bobur memuari. Chig'atoy tilidan fransuz tiliga Pave de Kurteyl tomonidan tarjima qilingan. Parij. 1871. B. 8-9.
5. Jalilov S. Bobur haqida o'ylar. T.: “Sharq”, 2006. 116 b.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: “O'qituvchi” 2008. 287 b.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. T.: “Sharq”, 2007. 688 b.
8. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. T.: “Sharq”, 2010. 719 b.



UDK: (797.011.1:012.2)

Nodir XUDAYBERDIYEV,
Oriental universiteti Jismoniy tarbiya fakulteti dekani
E-mail: nodirbek09101988@gmail.com

O'zMU dotsenti v.b., PhD K.Murodov taqrizi ostida

KURASHCHILARNING HUJUM VA XIMOYA DARAJASINI ANIQLASH ASOSIDA MUSOBAQA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Аннотация

Maskur maqolada Chirchiq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi kurash bo'limida o'quv-mashg'ulot guruhidagi kurashchilarni hujum va ximoya darajasini aniqlash asosida musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyalari bo'yicha tavsiyalar berilgan va tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kurash, hujum, himoya, musobaqa, meyorlash, sport turlari, komponentlar, texnologiyalar.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ОПРЕДЕЛЕНИЯ УРОВНЯ АТАКИ И ЗАЩИТЫ БОРЦОВ

Аннотация

В статье представлены рекомендации по технологиям повышения эффективности соревновательной деятельности на основе определения уровня атаки и защиты борцов тренировочной группы отделения борьбы Центра олимпийской и паралимпийской спортивной подготовки «Чирчик» и представлены результаты исследования.

Ключевые слова: Борьба, нападение, защита, соревнование, регулирование, спорт, компоненты, технологии.

INCREASING THE EFFICIENCY OF COMPETITIVE ACTIVITY BASED ON DETERMINING THE LEVEL OF ATTACK AND DEFENSE OF WRESTLERS

Annotation

The article presents recommendations on technologies for increasing the effectiveness of competitive activity based on determining the level of attack and defense of wrestlers in the training group of the wrestling department of the Chirchik Olympic and Paralympic Sports Training Center and presents the results of the study.

Key words: Wrestling, attack, defense, competition, regulation, sports, components, technologies.

Dolzarbliqi. Respublikamizda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ayniqsa jismoniy salomatligini saqlash va mustahkamlash, Vatan mudofaasi va mehnat faoliyatiga tayyorlash jismoniy sifatlarni tarbiyalash ustuvor muammolari biri sifatida e'tirof etiladi.

Sport faoliyati jarayonida, turmushda kuch va kuch chidamkorligi eng ko'p ahamiyatga ega. Kuchning bu turlari ruyobga chiqishi bilan inson xar qadamda tuqnash keladi (masalan: Dzyudo, Sambo, Yunon-rum va Kurash hamda kurash turlarini barchasida, ogir atletikada, va boshqalar) maksimal kuchni mushaklar kisqarishlarining yuqori tezligi bilan birga qo'shib olib borishda (uloqtirish, greble va boshqalar) bajarilishi vaqtida foydalaniladi. Insonni absolyut va nisbiy kuchni farqlash kerak. Ya'ni shaxsiy og'irligining 1 kg ga to'g'ri keladigan kuchni miqdori u tayyorgarligi bir xilda bo'lgan, ammo xar xil og'irlikdagi atletikachilarning kuchlarini taqqoslash uchun aniqlanadi.

Sportchilarimiz Osiyo hamda jahon miqyosidagi musobaqalarda yaxshi natijalarga erishib, O'zbekiston bayrog'ini yuqori ko'tarishmoqda. Sportchilarimizning xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatli ishtiroki fikrimiz dalilidir. Mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish, vatan ravnaqini ta'minlaydigan, yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish masalalariga jiddiy e'tibor berilmoqda. Bu borada muhim qadamlardan biri O'zbekistonda ilk bor "Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur" hamda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi katta ahamiyatga ega. Kurashchilarining texnik tayyorgarligida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyatini tadbir etish.

So'nggi yillarda respublikada jismoniy tarbiya va sport sohalarini yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb qilish, jamiyatda sog'lom turmush

tarzining keng targ'ib qilish, mamlakatda yaratilgan jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport infratuzilmasidan to'laqonli va samarali foydalanishni ta'minlash, shuningdek, sport sohasidagi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924 sonli "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida, 2021 yil 5 noyabrdagi PQ-5281-sonli "2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi Qarorlari imzolandi.

Tadqiqot maqsadi. Kurashda sportchilarning hujum va ximoya darajasini aniqlash va musobaqa samaradorligini oshirish.

Tadqiqot vazifalari. Kurashda sportchilarning xujum va ximoya darajasini aniqlash asosida musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyalari aniqlash;

Tatqiqot usullari ilmiy uslubiy adabiyotlar taxlili, pedagogik kuzatuv, matematik statistik usullar.

Tatqiqotning tashkil qilinishi.

Kurashchilarda mashg'ulot yuklamalarini me'yorlash va samaradorligini oshirish omillarini aniqlash;

Kurashchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishni nazorat va tahlil qilish;

Ish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilindi:

1. Kurashchilarni texnik harakatlarga o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rganish.

2. Kurashchilarni texnik harakatlarga o'rgatishda multimedion va slaydlardan foydalanish uslubiyatini ishlab chiqish.

3. Kurashchilarining texnik tayyorgarligida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyatini tajriba orqali asoslab berish.

Himoya – hujumni amalga oshiruvchining bajarayotgan usulini xujumni qabul qiluvchi tomonidan to'xtatib qolishga qaratilgan texnik harakat.

Kurashchilarning texnikasini namoyon qilish darajasining pedagogik nazorati uslubiyatini ishlab chiqilishi va amaliyotga tadbiiq etilishi sportchilarni musobaqa jarayonidagi harakatlar samaradorligini oshiradi, hamda jismoniy tayyargarlik ko'rsatkichlariga nisbatan o'zining texnik harakatlari natijalari haqida axborot olish sharoitlarida ancha yuqori bo'ladi.

Kurashchilarni texnikasini namoyon qilishi darajasini pedagogik nazorat qilib borish uchun barqaror hamda axborotli testlar majmui belgilandi, ushbu testlarning me'yoriy qiymatlari aniqlandi.

Kurashchilarni texnik xarakatlarga o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish asosida trenirovka nagruzkalarini boshqarish uslubiyati ishlab chiqildi va tajribada asoslab berildi.

Bajarilayotgan tadqiqot ishini amalga oshirish uchun qo'yilgan vazifalarni hal qilishda quyidagi tadqiqot uslublari

Tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhlarida o'tkazilgan pedagogik tajriba testlari

1-jadval

№	Nazorat test mashqlari	Nazorat guruxi		Tajriba guruxi		tsr	R
		σ	V%	σ	V%		
1	Hujum uchun o'rtacha ball	3,2	0,60	3,3	0,65	0,9	>0,05
2	Hujum oralig'i	20,61	1,41	19,81	1,52	0,75	>0,05
3	Hujum samaradorligi	0,54	0,08	0,55	0,07	1,1	>0,05
4	Himoya samaradorligi	0,57	0,09	0,58	0,08	0,79	>0,05
5	Muvaffaqiyatli hujum oralig'i	26,2	1,32	25,5	1,29	1,26	>0,05

Tadqiqot oxirida tajriba va nazorat guruhlarida o'tkazilgan pedagogik tajriba testlari

2-jadval

t№	Nazorat test mashqlari	Nazorat guruxi		Tajriba guruxi		tsr	R
		σ	V%	σ	V%		
1	Hujum uchun o'rtacha ball	4,3	0,80	3,8	0,70	1,1	<0,05
2	Hujum oralig'i	17,61	0,6	18,65	0,7	0,42	<0,05
3	Hujum samaradorligi	0,68	0,05	0,61	0,06	1,1	<0,05
4	Himoya samaradorligi	0,69	0,04	0,60	0,07	0,79	<0,05
5	Muvaffaqiyatli hujum oralig'i	22,4	1,15	24,5	1,29	1,26	<0,05

Adabiyotlar tahlili va ilg'or amaliy tajribani umumlashtirish shuni ko'rsatdiki, hozirga qadar kurashchilarining texnik tayyargarligida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyati yetarlicha ilmiy asoslab berilmagan.

Kurashchi faoliyatida texnik harakatlarini namoyon qilish darajasini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida nazorat qilish ustivor masalalar qatoriga mansub bo'lib, ushbu jarayonni samarali effektiv vosita va usullar asosida tashkil etish, sportchi mahoratining tez o'sishiga xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida kurashchilar texnik harakatlarini tezkor, joriy va bosqichli pedagogik nazorat qilish asosida ularning mashg'ulot jarayonlarini tezkor, joriy hamda bosqichli boshqarish uslubiyatini asoslab berildi.

Muskullar ishtirokida bajariladigan ish yurak-tomir va nafas olish tizimlarining ancha aktivlashuvi bilan bog'lik emas. Bunday ishda charchoqning sababi, aftidan, nerv-muskul apparatining xarakat bajarilishini bevosita ta'minlaydigan zvenolarda aks ettirilgan.

Faoliyat turlarining spetsifikasiga qarab charchoqning bir necha tiplari mavjuddir. Bular aqliy, sensor (xis-tuyg'u organlariga tushadigan yuklama bilan bog'liq), emo-tsional va jismoniy charchoqdan iborat bo'ladi. Xar qanday faoliyatda charchoqning aytib o'tilgan barcha tiplarining komponentlari ishtirok etsada, jismoniy tarbiya sohasi uchun muskul faoliyati tufayli xosil bo'lgan jismoniy charchoq ko'proq ahamiyatga egadir. Bundan buyon gap charchoqning mana shu tipiga nisbatan bo'ladigan chidamlilik xaqida boradi.

qo'llanildi. Adabiyotlar va davriy nashriyotda chop etilgan materiallarni umumlashtirish va tahlil qilish;

pedagogik kuzatish;

Pedagogik testlar;

pedagogik tadqiqot;

matematik – statistika uslublari.

Tadqiqotning birinchi bosqichida (2022 – yilning dekabr oyigacha) ilmiy – uslubiy adabiyotlar va davriy nashriyotda chop etilgan materiallar umumlashtirildi va tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqichi asosiy pedagogik tadqiqotda Kurashchilarda umumiy jismoniy tayyargarlik hamda hujum va ximoya darajasini rivojlantirish maqsadida o'quv – mashg'ulot va musobaqa jarayonlari 2022 – yil sentabr oyidan 2022 – yil dekabr oyigacha Chirchiq olimpiya va parolimpiya sport turlariga tayyorlash markazida o'tkazildi. Tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqqan holda tajriba va nazorat guruhlari tashkil etildi. Kurashchilarning 12 nafaridan tajriba guruhi, 12 nafaridan nazorat guruhi tashkil etildi.

Kishi faoliyatining, belgilangan intensivligini qachongacha saqlay olishini kursatadigan vaqt chidamlilikning asosiy o'lchovidir. Chidamlilik bevosita va bilvosita usullar bilan o'lchanadi. Bevosita o'lchash usulida tekshirilayotganlarga biror bir topshiriqni bajarish tavsiya etiladi va ish qancha vaqtgacha berilgan intensivlikda bajarilishi aniqlanadi.

Gavda muskullarining 2/3 qismidan ko'prog'i qatnashadigan ishda, odatda, energiya ko'p sarf bo'ladi. Bu energetik metabolismm tizimlariga, jumladan, nafas olish va qon aylanish organlariga katta talablar kuyadi. Ko'pincha organizmning aynan mana shu tizimlari funksional imkoniyatlarining yetarlicha bo'lmasligi ish qobiliyatini cheklab qo'yadi. Shuning uchun ma'lum bir joydagi mashklarda ko'rsatiladigan chidamlilik barcha muskullarga ta'sir etadigan mashqlardagi yuksak chidamlilikdan dalolat bermaydi. Inson organizmning jismoniy fazilatlarini tarbiyalashda bu kishilarning xolati ancha o'zgariganligini ko'rish mumkin. Bu o'zgarishni mimika muskullari kuchlanishida, ter paydo bulishida ko'rish mumkin. Ayni vaqtda uning organizmida bir muncha jiddiy fiziologik o'zgarishlar xam ro'y beradi.

Xulosa. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish hamda amaliyotda Kurashchilarning tayyargarligi jarayonini kuzatish natijasida olib borilayotgan mashg'ulotlarda aynan musobaqa faoliyatiga xos bo'lgan taktik harakatlarini rivojlantirishga yetarli darajada e'tibor berilmasligi hamda tayyargarlik davrining bosqichlarida mana shunday harakatlarga oid metodik jihatdan yondoshuvning yetishmasligi yosh sportchilarda hujum va himoyadagi taktik harakatlarni rivojlantirishni samarali tashkil etish imkonini bermay kelayotganligi ma'lum bo'ldi.

Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasi shakllangandan so'ng, mashg'ulot jarayonlarini musobaqa usuli orqali tashkil etilishi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda nazariy jihatdan musobaqa oldi tayyorgarlik davrida Kurashchilarning hujum va

himoyadagi taktik tayyorgarligini amalga oshirishda yuqoridagi tavsiya etilgan taktik usullarni musobaqa usulidagi mashg'ulotlarda bajarilishi taktik harakatlarni o'zlashtirish, mustahkamlash va takomillashtirish jarayonlari tez va samarali hal etiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5924 sonli "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2020 yil 24 yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5281-sonli "2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi Qarori. 2021 yil 5 noyabr.
3. Adilov, S. (2022). INCREASING BASICS OF THE EFFICIENCY OF COMPETITION ACTIVITY AND DEVELOPING TECHNICAL AND TACTICAL PREPARATION. Журнал иностранных языков и лингвистики, 6(6), 51-64.
4. Qaxramonovich Adilov Sarvar. "TECHNOLOGY OF INCREASE IN EFFICIENCY OF DEVELOPMENT OF COORDINATION ABILITIES AND TECHNICAL AND TACTICAL ACTIONS OF ATHLETES IN FREE-STYLE WRESTLING." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.10 (2019).
5. Adilov, S. Q. (2019). Importance of Developing Technical–Tactical Preparing and Improving Coordination Skills Freestyle Wrestlers (based on Questionnaire Results). Eastern European Scientific Journal, (1).
6. Adilov, S. Q., Berdiyev, F. O., Jumaqulov, A. B., & Anarbayev, T. R. (2021). KURASHCHILARINI MASHG'ULOT JARAYONLARIDA MODELLASHTIRISHNI ASOSIY TARKIBIY QISMLARINI O'RGANISH. Academic research in educational sciences, 2(4), 1717-1722.
7. Xolmatov, A. I., Tashnazarov, D. Y., & Kurganov, O. N. (2021). Yunon-rim kurashchilariga texnik usullarni o'rgatishda modellashtirish usulining samaradorligi. Academic research in educational sciences, 2(4), 1708-1716.
8. Mavlon O'g'li Q. X., Risbekovich A. T., Baxriddinovich A. A. KURASHCHI QIZLARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 223-229.
9. Adilov S. Q., Anarbayev T. R., Qayumov X. M. O. G. L. SPORT KURASHLARIDA CHIDAMLILIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN AYLANMA MASHQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 846-851.
10. Yuldashevich, Tashnazarov Djasur, Lyulina Ekaterina Sergeevna, and Shagiyev Ilduz Ilyasovich. "Method of Preparation for Technical Actions of Greco-Roman Wrestlers." Eurasian Scientific Herald 8 (2022): 157-162.
11. Yuldashevich, Tashnazarov Djasur, Lyulina Ekaterina Sergeevna, and Shagiyev Ilduz Ilyasovich. "Method of Preparation for Technical Actions of Greco-Roman Wrestlers." Eurasian Scientific Herald 8 (2022): 157-162.
12. Раджапов, М. А., Анарбаев, М. А., Қаяумов, Х. М. Ў., & Усмонова, И. З. Қ. (2021). СПОРТЧИНИНГ УМУМИЙ ВА МАХСУС ТАЙЁРГАРЛИГИ БИРЛИГИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(4), 133-139.



Dilnoz XUDAYBERDIYEVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

E-mail: Dilnoz@mail.ru

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori M. Boltayeva taqrizi asosida

THE ROLE OF THE SOCIOLINGUISTIC APPROACH IN IMPROVING THE READING SKILLS OF NON-PHILOLOGY STUDENTS

Annotation

The main goal of teaching non-philology students a foreign language is to expand their knowledge, to become mature staff in their field and, if necessary, to use language units correctly when communicate with representatives of that language. Reading skill as a type of speech activity which is the basic tool for increasing students' knowledge in professional, cultural, socio-political spheres. Improving reading comprehension skills will increase their knowledge levels not only professionally, but also scientifically; in this, we will try to prove that the sociolinguistic approach is effective, relying on the works of scientists who have conducted their research in this field

Key words: Non-philological direction, approach, sociolinguistic approach, professionally-oriented text.

РОЛЬ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ПОДХОДА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЙ

Аннотация

Основная цель обучения студентов-нефилологов иностранному языку – расширить их знания, стать зрелыми специалистами в своей области и при необходимости использовать языковые единицы с представителями этого языка когда вступить в общение. Навык чтения как вид речевой деятельности является основным инструментом повышения знаний учащихся в профессиональной, культурной, общественно-политической сферах. Улучшение навыков понимания прочитанного повысит уровень их знаний не только в профессиональном, но и в научном плане; при этом мы попытаемся доказать эффективность социолингвистического подхода, опираясь на работы ученых, проводивших свои исследования в этой области

Ключевые слова: Нефилологическое направление, подход, социолингвистический подход, профессионально-ориентированный текст.

SOTSIOLINGVISTIK YONDASHUVNING NOFILOLG'LIK YO'NALISH TALABALARINING O'QISH KO'NIKMASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI O'RNI

Аннотация

Nofilologik yo'nalish talabalariga xorijiy chet tilini o'qitishdan asosiy maqsad ularning bilim doirasini kengaytirish, o'z sohalarida yetuk kadr bo'lib yetishishi va zarurat bo'lganda o'sha til vakillari bilan til birliklarini to'g'ri qo'llagan holda muloqotga kirishishidir. O'qish ko'nikmasi nutq faoliyati turida sifatida talabalarining kasbiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida bilimlarini oshiruvchi asosiy vositadir. O'qib tushunish ko'nikmasini takomillashtirish ularning nafaqat kasbiy balki ilmiy jihatdan ham bilim darajalarini oshiradi; bunda biz sotsiolingvistik yondashuvni samarali ekanligini isbotlashga harakat qilamiz shu sohada o'z tadqiqotlarini olib borgan olimlarning ishlariga tayangan holda.

Kalit so'zlar: Nofilologik yo'nalish, yondashuv, sotsiolingvistik yondashuv, kasbiy yo'naltirilgan matn.

Kirish. Nofilologik yo'nalish talabalaridan ham o'rganilgan chet tilida sohaviy va kundalik suhbatlarda til birliklarini to'g'ri qo'llay olishi talab qilinadi. Muloqot ko'nikmasini ya'ni productive ko'nikmani rivojlantirish retseptiv ko'nikmalarini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. O'qish ko'nikmasini takomillashtirish hozirgi zamon chet tili o'rganuvchilarining eng asosiy muammolaridan biri deb hisoblash mumkin va bu o'z o'rnida metodistlardan bu ko'nikmani takomillashtirishga turlicha yondashuvlar va metodlar asosida yechim topishni talab qiladi. Har qanday nutq faoliyati turi aspektini o'qitishdan asosiy maqsad ma'lum bir bilimlarni shakllantirish va borlarini rivojlantirishdan iboratdir. Globallashtirish jarayoni hayotning har bir sohasida tubdan islohotlar talab qiladi, nofilologik yo'nalish talabalarini o'qitishda ham turlicha yondashuvlar tadbiq etishni talab qiladi va bunday samarali yondashuvlardan biri sotsiolingvistik yondashuv deb hisoblaymiz, bu fikrimizni quyida maqolada olimlarning fikriga tayangan holda yoritib beramiz. Nofilologik yo'nalish talabalarining o'qish ko'nikmasini takomillashtirish ularning berilgan matnini o'qib tushunishlari bilan izohlaymiz va bunda ulardan asosiy talab qilinadigan narsa o'rganilgan bilimni keyinchalik real hayotda qo'llay olishlaridir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hozirgi kunning talabalaridan biri o'z kasbini mukammal bilish va qo'shimcha chet

tilini ham bilish kerak, chunki biz doimiy boshqa davlatlar bilan savdo-iqtisodiy, siyosiy, ta'lim sohalarida hamkorlikda ish olib boramiz. Avvalo yondashuv so'zini tub mohiyatini tushunib yetishimiz zarur va biz unga ba'zi bir olimlarning bergan izoh va ta'riflarini o'rganib chiqamiz. J. Richards va T. Rojersning ta'rifiga ko'ra yondashuvlar til tabiati va tilni o'rganishga qaratilgan nazariyalarning til o'rganish jarayonida ishlatiladigan tajribalar manbai va prinsiplaridir. Yondashuv biror muammoni hal qilish usulidir [8]. Avtorning fikriga ko'ra yondashuvning asosiy vazifasi muloqotni o'rgatishdan iboratdir [6]. Sotsiolingvistik yondashuvga asosiy ta'rifni T. Elaine o'zining taqdiqot ishida beradi va u quyidagicha: bu yondashuv ijtimoiy faktorlarning yangi til sistemasini o'zlashtirishdagi kognitiv jarayonga ta'sirining natijasidir [3]. Kasbiy yo'naltirilgan muloqotni o'rgatayotgan o'qituvchi tili o'rganilayotgan mamlakatning milliy-madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish zarur deydi avtorlar [4]. Avtor fikriga ko'ra chet tilini nofilologik oliy ta'lim muassasida kasbiy va ijtimoiy yo'nalishni topishda chet tili samarali vositadir. Avtorlarning fikriga ko'ra kasbiy yo'naltirilgan o'qitish natijasi o'laroq kasbiy yo'naltirilgan chet tili kompetensiyasi o'z ichiga sotsiolingvistik ya'ni holatga mos til materiallarini topib qo'llay olish qobiliyatini oladi va mamlakatshunoslik-madaniyatshunoslik kabi jabhalarni ham o'z ichiga oladi. Aynan shu jihatlarni hisobga olgan holda chet tilini

o'qitish nafaqat kasbiy kompetensiyasini oshirib qolmay balki kasbiy madaniyat va etika qoidalarini ham o'rgatadi. Tilni o'rganishda sotsiologik yondashuv aynan nofilologik yo'nalish talabari uchun juda muhim hisoblanib ularning kasbiy yetuklikka erishishida va o'sishida muhim o'rin tutadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra o'qish malakasini lisoniy leksik ko'nikma asosida rivojlantirilib, u nutq birligining ko'rish tamoyili, nutq harakatlari timsoli va mazmundan tashkil bo'ladi. O.Dovgerning fikriga ko'ra chet tilini bilish hozirgi kundagi asosiy talablardan biri va u iqtisod yo'nalishi talabalaridan amaliy ko'nikmalar, og'zaki va yozma ravishda chet tilida biznes aloqalari qoidalarini bilish, professional sohada xorijiy nutq so'zlashuvdan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish shart-sharoitlarini yaratish kerakligi ta'kilanadi[2]. Ya'ni yuqorida keltirilgan ko'nikmalarga ega bo'lish uchun biz ko'p o'qib o'rganishimiz kerak va bunga bizga o'qish ko'nikmasini takomillashtirish orqali erishishimiz mumkin. A.Chunixinaga ingliz tilidagi muloqot strategiyalarini o'qitish jarayonini iqtisodiyot sohasi mutaxassislariga xos bo'lgan faoliyat turlarida strategiyalarning ishlashini hisobga olish asosida amalga oshirilishi deb hisoblaydi. Shuning uchun u mutaxassisligi "Iqtisod" yo'nalishi talabalariga o'zaro kommunikativ kompetensiyalar asosida o'qitish uslubiy model ya'ni maqsad, nazariya, texnologiya, baholash va samaradan iborat komponentlar blokini ishlab chiqqan. Olimning fikriga ko'ra o'zaro muloqot strategiyalarini rivojlantirish quyidagi mezon va ko'rsatkichlar bilan belgilanadi:

1 kommunikativ strategiyalarning lingvistik jihatlariga ega bo'lish;

2 kommunikativ strategiyalarning lingvokulturaviy jihatlariga ega bo'lish[1].

Shuningdek A.Chunixinaga iqtisodiyot sohasida kommunikativ hamkorlikni o'rnatishning maxsus usullariga quyidagicha ko'rsatkichlarni keltiradi:1. kommunikativ strategiyalarning pragmatik jihatlariga ega bo'lish; 2. kommunikativ strategiyalarning ijtimoiy jihatlariga ega bo'lish. G.Irmuhammedova o'z dissertatsiyasida kasbiy yo'naltirilgan til o'qitish ta'limiy akademik va kasbiy maqsadlarga mos bo'lishini nazarda tutadi va u o'rgangan bilimlarni ma'lum bir kasbiy yo'naltirilgan vaziyatlarda qo'llay olishini nazarda tutadi. Avtorning fikriga ko'ra ESP barcha muloqot ko'nikmalarini va shaxsiy xususiyatlarni va hayotiy haqiqiy muhitga moslashishni o'rgatishni ta'minlamasligini aytgan [5]. Avtorning fikriga ko'ra iqtisod yo'nalishi talabari faqat tilni mukammal bilish bilan cheklanmasdan tili o'rganilayotgan mamlakatning madaniyatga oid verbal va noverbal vaziyatlarda madaniyatlararo muloqot qoidalarini hisobga olgan holatda gapirishni nazarda tutadi. Hozirda davlatlararo aloqalar rivojlanib borayotgan bir vaqtda nofilologik yo'nalish talabari uchun til bilan bir qatorda davlatning ijtimoiy-madaniy, siyosiy hayotiga oid bilimlarni ham egallab borishi juda zarur ko'nikmadir. Olima Mamadouning fikriga tayangan holda "rivojlantiruvchi maqsadlar" yondashuvini nazarda tutadi va bu yondashuvning asosiy maqsadi ESPning bir qismi sifatida o'rganuvchilarning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanishlarini o'z ichiga oladi. Aynan bu yondashuv asosida esa talabalar kerakli ko'nikmalarga o'zaro bir birini tushunish uchun shaxslararo qobiliyatlarni, madaniyatlararo hamkorlik tanlangan sohalar kesimida, jamiyatda va guruhlarda mehnat qila olish qobiliyati, va psixologik jihatdan biznes aloqalariga kirisha olishga tayyorlashlarni ko'zda tutadi[5]. Bir qancha olimlar nofilologik yo'nalish talabalarining o'qish ko'nikmasini takomillashtirish mavzusida qilingan ishlarida uni bir qancha turlarga bo'lishadi: S.Folomkina- o'rganuvchi, tanishtiruvchi, umumiy ma'no uchun o'qish (skimming), aniq bir ma'lumot uchun o'qish(scanning) kabi turlarga bo'ladi. Avtor bu o'qish turlarini bajariladigan operatsiyalar turlariga qarab bo'ladi va o'qish maqsadiga qarab tavsiflanadi ko'rib qabul qilingan ma'lumotlarni semantik va perseptiv qayta ishlash deya ta'rif beradi. S.Shatilov o'z navbatida o'qishni kommunikativ va

nokommunikativ kabi turlarga bo'ladi. Kommunikativ turida ma'lumot olishni nazarda tutsa; nokommunikativda barcha o'qish mashqlari va va boshqa nutq faoliyati turlarini o'qitishdagi vosita sifatida talqin etadi. Bir qancha olimlar nofilologik otmalarda o'qishni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini talqin qilishgan va o'z ishlarida ularning ahamiyatiga to'xtalishgan. Yu.Gapon o'z ishida kasbiy yo'naltirilgan o'yinlar orqali talabalarni maxsus adabiyotlarni tushunib o'qishning psixologik-ijtimoiy xususiyatlarini ko'rsatib bergan: a)kasbiy yo'naltirilgan o'yinlarni yordamchi birlik sifatida o'qishga kiritish b) qayta tashkil qilingan faoliyat turining kollektivlik xususiyati c) o'qishdagi vaziyatning shartligi va o'zgaruvchanligi d) maxsus adabiyotlarni mustaqil o'qiy olish. M.Bagdasaryan esa o'z ishida urg'uni o'qish kommunikatsiyani rivojlantirishga asos bo'lishi kerak deya hisoblaydi va ilmiy-ommabop yozma matnlarni asos qilib oladi va uning samaradorligini asoslashga harakat qiladi[5]. A.Voinova informatsion-dinamik o'qish turini taklif qiladi va bu o'qish turi tez o'qish va tushunishga qaratilgan. S. Radetskaya o'z ishida iqtisod yo'nalishi talabari uchun matnlar va leksik materiallar tanlash prinsiplarini kompyuterga asoslangan holda kasbiy yo'naltirilgan holatda tanlash prinsiplarini beradi. I. Kanunnikova o'z ishida esa kasbiy-ijtimoiy chet tili kompetensiyasini rivojlantirish uchun asos yaratgan va u shunday deydi: lingvistik va maxsus bilimlar yig'indisi o'z ichiga quyidagilarni oladi: obyektlararo kasbiy-muloqot qila olish qobiliyati, qaysikim turli-xil vaziyatlarda kasbiy muloqotga kirishishga tayyorlik va qobiliyati; dialog olib boriladigan madaniyatni ijtimoiy normalariga va madaniyatiga joylashgan hududni hisobga olgan holda o'qitish. Avtor matni nutq materialini tashkil qilish va tadqim etish deya talqin qiladi. Ko'plab adabiyotlarda aytiladiki o'qish bu vaqtning o'zida ham o'qib tushinib ham nutq taqdim eta olish qobiliyatidir [5]. Yana bir rus olimi Romanova Mariya o'z ishida small talk yani kichik suhbat xalqaro muloqot ko'nikmasini rivojlantirishda asosiy komponentlarda biri deb oladi. Aynan bu ingliz millatiga xos bu suhbat turi muloqotni boshlash va uni to'g'ri davom ettira olish uchun kerakli kirish qism desak ham bo'ladi. Olim muloqot qiluvchilarning ijtimoiy o'zaro munosabatalarini quyidagicha tavsiflaydi: qisman-rasmiy, demokratik-iyerarxik, rasmiy, rolli-norasmiy, simmetrik, assimetrik, diniy marosim suhbatlari[9]. Sobinova Lyubov fikriga ko'ra chet tilini o'qitishda aynan kasbiy yo'naltirilgan matnlarni o'qitishda chet tilidagi yaqqol real misolini ko'rsata oladigan audio va video ma'lumotlardan iborat bo'lishi kerak. Avtorning fikriga ko'ra kasbiy-yo'naltirilgan matn strategiyalari quyidagilarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim: 1. maqsad qo'yish; 2. matn turini aqilash 3. chet tilida kichik kasbiy-yo'naltirilgan matnlar asosida mashqlar bajara olish. U o'z ishida kasbiy-texnikaviy matnlarni tanlashda 3 ta kriteriyani sanab o'tadi va ular quyidagilardir[10]:

1. o'z kasbida ishlata olish muhim

2. zamonaviy kasb egasining hozirgi kundagi muloqot qoidalariga mos kelishi

3. autentlik

Avtor o'z tadqiqot ishida kasbiy-yo'naltirilgan matnlarni o'qiy olish esa 2 turga bo'linadi:1. matndagi til materialni tushunish 2. Matni ma'noviy qayta ishlab tushuna olish ko'nikmalari. Nofilologik yo'nalish talabalarining o'qish ko'nikmasini takomillashtirishda kasbiy yo'naltirilgan matnlar ahamiyatli bo'lib ular yosh mutaxassilarning o'z sohalaridagi bilim darajasini oshirib qolmay ,balki, muloqot qila olish qobiliyatiga ham foydalidir.Har bir matn o'zida nutq faoliyatida zarur bo'ladigan sotsiologik elementlarni oladi va ular keyinchalik muloqot ko'nikmasini rivojlantirishda asos bo'ladi. Sotsiologik yondashuvga asoslangan o'qish ko'nikmasiga oid mashqlar faqat o'qib tushunishni emas, balki muloqot ko'nikmasini ham rivojlantiradi. 21 asrda o'qish ko'nikmasini rivojlantirmasdan yetuk kadrlar tayyorlab bo'lmaydi va uni o'qitish zamon metodlari, yondashuvlari zamon talabiga mos holatda o'zgarib borishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. Chunixina A.A Iqtisod yo'nalishi mutaxassislariga chet tilini o'qitishda kommunikativ vaziyatalar metodikasi Чунихина АМ. 2013.- С. 40.
2. Dogver O.P "Sog'liqni saqlash yo'nalishi va iqtisod yo 'nalishi mutaxassislarini tayyorlashda shaxsga yo 'naltirilgan texnologiyalarni kommunikativ vaziyatlar asosida loyihalashtirish 2004.- 190 c.
3. Elaine T. Sociolinguistic approaches to second language acquisition research-1997-2007
4. Gramma D.V, Kuznetsova S.V " Texnika mutaxasisligi aspirantlariga kasbiy-yo'naltirigan chet tili o'qitish"
5. Irmuhammedova G.N Iqtisod OTMlarining yuqori kurslarida 3-4 kurslarga tanqidiy o 'qishni autentik matnlar asosida o 'qitishning lingvodidaktik asoslari 2008.-c.15
6. Ishak,S.Pd. "Til o'qitishdagi yondashuv va metodlar",2011- .p3
7. Ivanova I.A Elektron resurslar yordamida iqtisod fakultetlariga rasmiy muloqotni o'qitish metodikasi, 2009.- 233 c.
8. Richard J and Rodgers T " Til o'qitishdagi yondashuv va metodlar "(New York: Cambridge University Press, 2001)p19.
9. Romanova M.V Iqtisod OTM larida ingliz tilida ijtimoiy suhbatlar qila olish qobiliyatini shakllantirish ijtimoiy madaniy kompetensiyaning komponenti sifatida 2012 198c
10. Sobinova L.A Elektron o'quv qo'llanmalar bilan kasbiy yo'naltirigan chet tilida o'qishni o 'rgatish 2016.- 211. c



UDK:519.101

Feruz XUSANOVA,
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail-feruz.xusanova81@mail.com

NamDU dotsenti, PhD M.Qo'ldasheva taqrizi asosida

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В КРУГАХ В ВУЗАХ

Аннотация

В данной статье затронуты вопросы развития творческой активности студентов через клубы в вузах. Кроме того, большое внимание этому уделяли и восточные мыслители.

Ключевые слова: Совершенное поколение, юридически грамотные, творческое мышление, творец, творческое воображение.

ISSUES OF DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY THROUGH CIRCLES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

In this article, the issues of developing students' creative activity through clubs in higher education are mentioned. In addition, Eastern thinkers also paid great attention to it.

Key words: Perfect generation, legally literate, creative thinking, creator, creative imagination.

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI TO'GARAKLAR ORQALI IJODIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Аннотация

Ushbu maqolada oliy ta'limda talabalarni to'garaklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirish masalalari keltirib o'tilgan. Bundan tashqari Sharq mutafakkirlari ham katta e'tibor berganlikri to'g'risida fikrlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Barkamol avlod, xuquqiy savodxon, ijodiy fikrlash, ijodkor, ijodiy tasavvur.

Kirish. Mamlakatimiz yoshlarining sog'lom, barkamol avlod, ijodiy va intellektual salohiyatga ega, har tomonlama rivojlangan shaxs, xuquqiy savodxon, ma'nan va jismonan sog'lom, ziyoli, madaniyatli va XXI asrga mos kadrlar qilib tarbiyalash - davlat siyosatida ustivor vazifalardan biri etib belgilandi [1].

Oliy ta'lim sifat va samaradorligini yanada oshirish, yoshlarda yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ijodiy faollikka yo'naltirish orqali mustaqil hayotga tayyorlash, intellektual barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida, talabalarni to'garaklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo bo'lib kelmoqda [2].

Oliy ta'lim muassasalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning ijodiy fikrlash, mustaqillik, faollik munosabatlarining boyib borishi, dunyoqarashlarining o'sib borishi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bu esa oliy ta'lim tizimida talabalarni mustaqil izlanishga va ishlashga, kasbiy hamda hayotiy muammolarni mustaqil yechib unga ijodiy yondashishga o'rgatish zaruriyatini tug'diradi. Shuning uchun ham bugungi kunda mustaqil fikrlovchi erkin shaxs konsepsiyasini amalga oshirish uzluksiz ta'lim tizimining bosh vazifasi bo'lib, bunda talabalarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini to'garaklar asosida rivojlantirish muhim omil hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ilmiy adabiyotlar tahlili ta'kidlashga imkon beradiki, ushbu masalaga sharq mutafakkirlari ham katta e'tibor berganlar. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi ma'rifatparvarlarning asarlarida insonparvarlik masalalari alohida ta'kidlanadi. Bu yo'nalishda falsafa, pedagogika, psixologiya, adabiyot, tarix, milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari kabi ijtimoiy fanlar sohasidagi olimlar bir qancha ilmiy tadqiqot ishlarini bajarganlar. I.Muminov, T.Mahmudov, J.Tulenov, S.Shermuhamedov,

E.Yusupov, Z.G'afurov, X.Shayxova, M.Xolmetova, F.Ismoilov, M.Imomnazarov kabi faylasuf olimlar inson faolligini shakllantirish va tarbiyalash muamolarini ilmiy nazariy jihatdan ishlab chiqqanlar.

Pedagogika nazariyasini takomillashtirishga hissa qo'shgan olimlardan M.Ochilov, M.Quronov, U.Mahkamov, O.U.Xasanboeva, Munavvarov, S.Radjabov, A.Avloniy, V.A.Flacionin, I.I.Podlansi, G.Anartaeva, psixologlardan, N.G.Davletshin, E.G'oziev, faylasuflardan, J.Tulenov, K.Yusupov, S.Komilovlar izlanishlari asos qilib olindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarda to'garaklar orqali ijodiy faollikni rivojlantirishni quyidagicha ta'riflaymiz:

Talabalarda ijodiy-faollikni rivojlantirishni ta'minlash muammosi quyidagi sabablarga ko'ra dolzarblik kasb etadi:

Talabalarda to'garaklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarining pedagogik roli va ahamiyati kundan-kun ortib boradi;

Talabalarda to'garaklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirishda pedagogik jarayon eng muhim va ahamiyatli bo'g'inlardan biriga aylanadi;

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarda to'garaklar orqali ijodiy faollikni rivojlantirish masalalari zamonaviy davrning dolzarb pedagogik talablardan biriga aylanadi.

Talabalarda to'garaklar orqali ijodiy faollikni rivojlantirishni quyidagicha ta'riflaymiz:

Talabalarda ijodiy-faollikni rivojlantirishni ta'minlash muammosi quyidagi sabablarga ko'ra dolzarblik kasb etadi:

Ijodiy faollik ijtimoiy muhitda shakllantiriladi. Ijtimoiy muhitis ushbu maqsadni amalga oshirish murakkab jarayon hisoblanadi. Talabalarda to'garaklar orqali ijodiy faollikni rivojlantirish esa talaba ijtimoiylashuvining uzviy tarkibiy qismi sanaladi.

Hozirgi globallashuv jarayonida intizomli, mas'uliyatli, sabr-bardoshli, diyonatli, vijdonli, iymonli, e'tiqodli, bag'rikeng, insonparvar, ijtimoiy faol va qobiliyatli va shu kabi oliyjanob fazilatlar egasi bo'lgan yoshlarga yashash uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklarni vujudga keltirishga qodir bo'la oladilar.

Ijtimoiy taraqqiyotning demokratik rivojlanish jarayoni shaxsning o'z-o'zini anglashi, qadr-qimmatini qay darajada e'zozlashi, jamiyat uchun xizmat qila olish imkoniyati va harakatlariga ham bevosita bog'liq. Bularning barchasi shaxsning ijtimoiy faolligi bilan bog'liq. Yoshlarning ijodiy faollashuvi, deganda ularning ijtimoiy jarayonlarda ongli ravishda, mustaqil ishtirok etishlari, zarur bo'lganida, ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirishga tashqaridan bo'ladigan bosimsiz ko'maklashishga intilishlari tushuniladi. Mas'uliyat ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning yetukligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan sanaladi. Ijtimoiylashuvning mas'uliyat hissiga bog'liq yo'nalishlaridan yana biri shaxsda shakllanadigan maqsad va ideallardir. Ular shaxsni kelajakni bashorat qilish, ertangi kunini tasavvur qilish va uzoq-yaqin mo'ljallangan rejalarni amalga oshirishga tayyorligini ta'minlaydi. Bu maqsad doimo o'zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadi. Ularning shakllanishi va ongda o'rinishida ma'lum ma'noda ideal ham rol o'ynaydi[6].

Inson shaxsi taraqqiyoti bo'yicha jahon ilmida to'plangan nazariy qarashlar hamda O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, birinchidan, inson shaxsining ijodiy faolligi, eng avvalo, jamoada, ma'lum faoliyat turlarida shakllanadi. Ikkinchidan, talabalik davri ijodiy faollik uchun keng imkoniyatlar davri bo'lgani sababli, yoshlar orasida ustuvor faoliyat hisoblangan ta'lim jarayoni muhim omil hisoblanadi. Uchinchidan, ijodiy tasavvurlar ijtimoiy borliq mazmunini individual borliq bilan bog'lovchi ko'priq vazifasini o'taydi.

Faollik va uning ifodalanish darajalari temperamentning kategoriyasi hisoblanib, insonni tug'ilgan paytidan to yetuklik davrigacha bo'lgan oraliq vaqt davomida ekzo va endo omillarning ta'siri asosida turli dinamik ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Faollikning manbai ehtiyoj va motivlar hisoblanib, shaxsning faolligi tufayli oliy maqsad va yuksak orzular real dunyoda ob'ektivlashadi. Faollik, ijtimoiy va ilmiy bilim, huquqiy me'yorlar va majburiyatning mujassamlashuvi natijasi shaxsda ifodalanadi. Bu tarkiblarning sifati, ya'ni bilimlarni qay darajada o'zlashtirilganligi, ularning odatga aylantirilganligi faollikning namoyon etish darajasini belgilaydi. Pedagogik -psixologik nuqtai nazardan faollik:

- yorqin ifodalangan faollik;
- shunchaki ifodalangan faollik;

- ifodalanmagan faollik kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Faollikni mazkur tarzda baholash, yoshlarning faollik darajasini individual tarzda oshirishni ta'minlaydiki, buni amaliy jihat deb ko'rsatish mumkin. Chunki, ehtiyoj va motivlar shaxsni harakatga, bizning nazarimizda, faollikka undaydi. Masalan, faollikning muhim komponenti hisoblanmish bilim, nafaqat maishiy bilim, balki hudud va mintaqaning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir, millat va uning madaniyatiga oid, milliy va umuminsoniy yoki kasbiy qadriyatlar hamda diniy va dunyoviy bilimlarni o'zlashtirishni taqozo etadi. Ta'lim amaliyotida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bilan bir qatorda, ularda siyosiy, madaniy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik

kabi kompetensiyalarni shakllantirishga e'tibor qaratishni taqozo etadi. Shu sababli, ta'lim-tarbiya tizimida axborot yoki tayyor bilim beradigan ta'limiy manbalarni yaratishdan ko'ra, axborotni bilim shakliga keltirishga yo'naltirilgan manbalarni yaratish lozim bo'ladi. Shunda, yoshlarimiz fuqarolik mas'uliyati va jamiyat oldidagi burchining mazmunini anglay boshlaydi. Aynan anglash jarayonida ularda kechayotgan jarayonlarga nisbatan fuqarolik munosabati shakllanadi. Bu munosabat tarzi esa faollikning mazmunini ta'minlaydi. Jamiyat hayotining barqaror tarzda kechishini ta'minlashda tashabbus ko'rsata oladigan yoshlar – kadrlar sinfi shakllanadi. Bu murakkab ichki struktura, faollik komponentlarining funksional aloqadorligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, psixodiagnostika va psixokorreksiya qilishni taqozo etadi.

Tahlil va natijalar. Buning uchun birinchi bosqichda (diagnostika bosqichida) ijodiy faollikning darajalarini aniqlab olish lozim bo'ladi. Agarda faollik samarasiz mujassamlashgan bo'lsa, uning korreksiyasini amalga oshirish lozim.

Faollikni ifoda etishni nazariy jihatdan quyidagilarga ajratish mumkin:

reproduktiv o'xshatuvchi-faollik (shaxsiy tajriba etarli emasligi natijasida, tajriba orttiruvchi vosita sifatida ifodalanadi);

izlanuvchi-ta'minlovchi faollik (amaliyotda yuqori faollik va erkinlik kuzatiladi);

ijodiy faollik (bilish faolligining oliy darajasi). Fikrimizcha, faollik darajalari tizimida qadriyatlariga yo'naltirilganlik, ijodiy faoliyatga ehtiyojlarning yaqqol ifodalanganligi hamda ularga oid bilim va ko'nikmalar, aniq faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun maqsadning shakllanganligi muhim hisoblanadi.

Shaxsning (shu jumladan, talabalar) faolligini pedagogik-psixologik jihatdan baholashda ko'rsatilgan darajalar, talabalar o'ziga ishonchi, muloqot ko'nikmasiga ega ekanligi, tashqi ijtimoiy qo'zg'atuvchilarga munosabat (reaksiya) bildiradi, muhitga emosional bog'liqligini ko'rsata oladi. Faollikning muayyan darajada ifodalanishi Vatanda va uning tarixi hamda madaniyatiga bo'lgan qiziqish, ular bilan g'ururlanish, milliy qadriyat, milliy madaniyat va an'analarga ehtirom ko'rsata olish, madaniy va moddiy boyliklarga bo'lgan munosabat, shu Vatanda istiqomat qilayotganligini sharaf bilan namoyon eta olishi, yashayotgan hudud va uning tabiatini saqlashda bevosita ishtiroki bilan belgilanadi [3].

Xulosa va takliflar. Bizningcha, bu tarkiblarning qatorida burchni his etish, millat va Vatanga mansublik, vatanparvar-sodiqlik, hudud va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida qatnashish istagi, o'zining fuqarolik haq-huquqini anglash hamda ijtimoiy-madaniy faoliyat turi bilan shug'ullanish, fidoyilik ko'rsata olishga tayyor turish kabilar faollik fenomenining muhim tarkiblari hisoblanadi. Ta'kidlangan holatlarning barchasi shaxsning jamiyat hayotiga integratsiyasi, ya'ni faol yashashini ta'minlovchi mezonlardir. Pedagogikada shaxsning ijtimoiy shakllanishi jarayoni, uning shart-sharoitlari hamda ta'minlanishi, namoyon bo'lishi va natijalari bilan uzviy bog'lanadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonlari.
3. Andreev V.I. Oliy ta'lim pedagogikasi. - Qozon, 2006 yil, 499 be
4. Kudryavtsev V.T. O'quv va ta'lim sohasidagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari. - M. 2008 yil
5. Stolyrenko I. Pedagogik psixologiya.-, 2008., 591 p
6. Markova A.K. Talabalarda bilim olishga qiziqishni shakllantirish.-B.17. - saytning elektron resursi http://www.koob.ru/age_psychology/
7. Г.Н.Ибрагимова. Олий таълим тизимида интерфаол технологиялар воситасида талабалардаги ижодий фикрлашни ривожлантириш // Замонавий таълим. 2017.№4. — Б. 30-35.



UDK: 378.048.2

O'ral XUSHVAQTOV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
<https://orcid.org/0009-0008-6173-3685>
E-mail: ural_xushvaqtoV@mail.ru,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, p.f.f.d., PhD A.Tillaboyev taqrizi asosida

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA QATTIQ JISMLAR FIZIKASINING RIVOJLANISH METODOLOGIYASI METODOLOGIK ASOSLARI

Аннотация

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida qattiq jismlar fizikasining paydo bo'lishi, rivojlanishi va asosiy nazariyalari bayon etilgan. Bundan tashqari, Respublikamizda ushbu soha bo'yicha qilingan va qilinayotgan tadqiqot ishlari bo'yicha qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: qattiq jism, fizika, nazariya, metodologiya, fizik bilimlar, fizik xossalar, umumiy o'rta ta'lim, moddalar, gipoteza.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ФИЗИКИ ТВЕРДОГО ТЕЛА В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация

В этой статье описывается возникновение, развитие и основные теории физики твердого тела в средних общеобразовательных школах. Кроме того, в нашей республике представлены краткие сведения о проделанной и проводимой исследовательской работе в данной области.

Ключевые слова: твердое тело, физика, теория, методология, физические знания, физические свойства, общее среднее образование, вещества, гипотеза.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF SOLID STATE PHYSICS IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Annotation

This article describes the emergence, development and basic theories of solid state physics in secondary schools. In addition, brief information on the research work done and ongoing in this area is presented in our republic.

Keywords: solid, physics, theory, methodology, physical knowledge, physical properties, general secondary education, substances, hypothesis.

Kirish. Umumiy o'rta ta'lim maktablari va o'rta maxsus ta'lim tizimida molekulyar – kinetik nazariya (MKN) ning asosiy uchta qonuni o'rganiladi. Bularga a) moddalar zarrachalardan tashkil topgan qonuni - bu atomizm g'oyasidir, b) Zarrachalar tartibsiz xotik harakat qiladi – bu xossa statistik metod g'oyalari, c) bu zarrachalar har doim bir-biri bilan o'zaro ta'sirlashadilar. Yana uzluksiz ta'lim tizimida moddalarning tuzilishi hamda harakatini va boshqa fizik parametrlarini tadqiq qiluvchi nazariyalardan biri klassik elektron nazariyadir. Bu nazariya orqali ta'lim tizimining har bir bosqichida moddalarning tuzilishi, issiqlik o'tkazuvchanligi, elektr o'tkazuvchanligi, moddalarda to'lqin hodisalari, magnit xossalari kabi hodisa va jarayonlar o'rganiladi. Klassik nazariya soddalagi va tushunariligi bilan ajralib tursada uni har doim ham qo'llab bo'lmaydi, chunki yuqorida aytilgan fikrlar ma'lum bir temperaturalardagina o'rinli ekanligi bizga ma'lum. Moddalardagi, ayniqsa qattiq jismlardagi fizik jarayonlarni o'rganuvchi mukammal nazariya bu kvant nazariyadir. "Kvant nazariya XX asrning boshlarida paydo bo'lgan. Hozirgi davrga qadar zamonaviy fizika va texnika rivojlanishining asosi hisoblanadi, chunki kvant nazariya klassik nazariyani rad qilmaydi balki uning kamchiligini to'ldiradi"[1].

Metodologiya tushunchasi – faoliyatda qo'llaniladigan ma'lum usullar tizimi (fanda, siyosatda, san'atda va h.k.) va tizim haqidagi ta'limot yoki metod nazariyasi. Metodologiya faqat metodlarni emas, balki tadqiqotni ta'minlovchi boshqa vositalarni ham o'rganadi.

Ixtiyoriy fanning asosi metodologiyadir. Metodologiya termini orqali faoliyatning metodlari, strukturasi, mantiqiy shakllanishi va vositalarini o'rgatuvchi ta'limot tushuniladi.

Metodologiya – o'rganilayotgan masalani xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tadqiqot metodlarini tanlash va qo'llash imkonini yaratib beruvchi fandır.

Adabiyotlar tahlili. Nazariy va metodologik darajadagi ta'lim mazmuni muammosi taniqli didaktlari (V.V. Davidov, L.V. Zankov, L.Ya. Zorina, B.C. Lednev, I.Ya. Lerner, V.V. Kraevskiy, D.B. Elkonin va boshqalar) va metodistlar (G.M. Golin, N.S.Purishcheva va boshqalar). An'anaga ko'ra, metodologik bilimlar ta'lim mazmunida ikki ma'noda ishlatilgan: "bilim haqidagi bilim" va bilish metodlari, asosan, xususiy ilmiy va umumiy ilmiy bilimlar. L.Ya. Zorina fikriga ko'ra metodologik bilimlar qatoriga kiradi: umumiy ilmiy atamalar, bilim tuzilishi haqidagi bilimlar, ilmiy bilish usullari haqidagi bilimlar.

"Har qanday o'quv fani turli xil maqsadlarni amalga oshirishga imkon beradi. Biroq, har bir o'quv fanida yetakchi funktsiya ajralib turadi - u o'quv dasturiga kiritilgan asosiy maqsad hisoblanadi. Ushbu funktsiya fanning yetakchi tarkibiy qismini belgilashni o'z ichiga oladi. O'quv fanlari ularning yetakchi komponenti turiga qarab uchta guruhni tashkil qiladi:


- 1) fan ilmiy bilimlari (fizika, kimyo, geografiya va boshqalar);
- 2) faoliyat usullari (chet tili, chizmachilik, mehnat va boshqalar);

3) aniq, masalan, majoziy, dunyoni ko'rish (tasviriy san'at, musiqa va boshqalar)" [2].

Fizika fanida qattiq jismlar fizikasiga oid ilmiy bilimlar yoki fanlarning asoslari yetakchi tarkibiy qism

hisoblanadi, shuning uchun ushbu fanning yetakchi vazifasi o'quvchilarda ilmiy bilimlar tizimini shakllantirishdir.

"Fan ilmiy bilimlari" yetakchi tarkibiy qismiga ega bo'lgan fan modeli 1-sxemada keltirilgan.



1-sxema. Darsni tashkil etish modeli

1-sxemadan ko'rinib turibdiki, tarkibiy blok ma'lum bir tarzda tuzilgan fan ilmiy bilimlaridan iborat.

Ta'lim mazmuni nazariyasida "ta'lim mazmuni birligi" atamasi kiritiladi, bu uning shakllanishining har bir darajasida tarkibning tuzilishi uchun muhim bo'lgan ilmiy bilimning elementi sifatida tushuniladi. Mazmuning asosiy birliklari tarkibning yetakchi tarkibiy qismining elementlari hisoblanadi. "Ilmiy bilimlar"ning yetakchi tarkibiy qismiga ega bo'lgan o'quv fanlarida ilmiy nazariyalar, qonunlar, tushunchalar tizimlari, ilmiy metodlari, faktlar mavjud. Ular bunday ob'ektlarning (qattiq jismlar fizikasi) mazmuniga to'g'ridan-to'g'ri bilim tizimi shaklida kiritiladi.

XVIII asrda mineralogistlar tomonidan muhim kashfiyot qilingan. Ma'lum bo'lishicha, har qanday kristall yuzining fazodagi o'rnini belgilovchi indekslar mohiyatan butun sonlardir. Gayoki buni kosmosda vaqti-vaqti bilan takrorlanadigan qatorlarda bir xil zarralarning joylashishi bilan izohlash mumkinligini ko'rsatdi. 1824-yilda frayburglik Siyeber kristallarning yelemantar komponentlari ("g'ishtchalar", atomlar) kichik sferalardir, deb taklif qildi. U kristall panjaraning bir xil atomlar tizimining barqaror muvozanat holati bo'lishi uchun zarur bo'lgan atomlar orasidagi jozibali va itaruvchi kuchlarni ham hisobga olgan holda interatomik kuchning yempirik qonunini taklif qildi.

В этом случае основное внимание, которое уделяется подготовке, уделяется вопросам правильного и рационального планирования подготовительных нагрузок на этапах многолетнего подготовительного процесса, обеспечения возраста, пола и уровня подготовки тех, кто ими занимается.

Другой вид основан на характеристиках соревновательной деятельности и зафиксированных в ней результатах (показателях), рационально планируя тренировочные нагрузки, специалисты отрасли отмечают, что управление тренировками обладает важными качествами.

Среди факторов, обеспечивающих эффективность соревновательной деятельности, экспертами также признается, что инструменты и методы, используемые на тренировках, во многом зависят от периода и этапов

подготовки, а направления нагрузок зависят от последовательности выполнения задач подготовки.

Современный гандбол характеризуется тем, что предъявляет высокие требования к подготовке спортсменов.

Напряженная работа в условиях соревнований, требование, чтобы технико-тактические действия, выполняемые спортсменами, выполнялись на скорости, в короткие сроки и в условиях активного сопротивления игроков соперника, также предъявляют самые высокие требования к подготовке к соревнованиям.

В связи с этим эксперты в данной области отмечают, что, прежде всего, знание структуры соревновательной деятельности, четкое представление о специфических особенностях в ней рассматривается как фактор, позволяющий более эффективно контролировать процессы дальнейшей подготовки.

Многолетняя спортивная подготовка – единая организационная система, обеспечивающая преемственность задач, средств, методов, форм подготовки спортсменов всех возрастных групп. Она предусматривает оптимальное соотношение процессов освоения материала, формирования различных сторон подготовленности и формирование личностных характеристик спортсмена:

умения использовать разнообразные формы физкультурной деятельности для организации здорового образа жизни;

владения технологиями укрепления и сохранения здоровья, поддержания работоспособности, предупреждения заболеваний, связанных с учебной и спортивной деятельностью;

владения основными способами самоконтроля здоровья, умственной и физической работоспособности;

владения физическими упражнениями разной функциональной направленности, использование их в режиме учебной и производственной деятельности с целью профилактики переутомления и сохранения высокой работоспособности;

владения техническими приёмами и двигательными действиями гандбола, с активным применением их в учебно-тренировочной и соревновательной деятельности;

готовности к саморазвитию;

высокой мотивации к спортивному совершенствованию и целенаправленной познавательной деятельности;

способности ставить цели и строить жизненные планы.

Тренировочный этап (спортивной специализации) формируется на конкурсной основе из спортсменов, прошедших подготовку не менее 1 года и выполнивших приемные нормативы по общефизической и специальной подготовке.

Достижение намеченной цели зависит от оптимального уровня отобранных в группы совершенствования молодых гандболистов, профессиональной подготовленности тренеров, наличия материальнотехнической базы и от высокого качества организации всего тренировочного процесса. Процесс подготовки рассматривается с учетом единства тренировки, соревнований и усиливающих их эффект восстановительных воздействий.

Для успешной организации тренировочного процесса тренер обязан постоянно совершенствовать себя в соответствии с необходимыми функциями своей деятельности: прогностической, проектировочной,

конструктивной, организаторской, оценочной, коммуникативной и гностической.

Прогностическая функция – это умение определять тенденции развития гандбола, перспективные цели подготовки, перспективность своих учеников в деятельности определенного амплуа.

Проектировочная функция – это умение построить многолетний процесс подготовки гандболистов на всех этапах совершенствования. Организаторская функция – это умение организовать и успешно реализовать запланированные мероприятия. Оценочная функция – это умение тренера оценивать физическое и психическое состояние своих учеников, результативность методов и средств подготовки, собственную деятельность.

Коммуникативная функция – это умение устанавливать хорошие отношения со спортсменами, руководящими работниками, родителями игроков, находить спонсоров для решения профессионально значимых вопросов. Конструктивная функция обязывает специалиста постоянно повышать собственный уровень знаний, чтобы дать спортсмену широкие знания в гандболе, научить его принимать самостоятельные решения в игре и в процессе тренировки. Гностическая функция предполагает умение тренера пользоваться в своей работе данными литературы, передового опыта, анализом собственного труда.

Цель исследования. Изучить структуру соревновательной деятельности гандболистов тренировочной группы и определить их особенности.

Методы исследовательской работы: анализ научно-методической литературы, относящейся к теме, методы педагогического наблюдения и фиксации процесса соревновательной деятельности, методы математического и статистического анализа накопленных результатов. Результаты научно-исследовательской работы.

В то же время стоит сказать, что вопросы подготовки юных гандболистов в Узбекистане до настоящего времени не получили должного внимания, и исследовательская работа, направленная на повышение эффективности подготовительного процесса в этом плане, была показана анализом специальных источников.

Показатели, отражающие соревновательную активность высококвалифицированных и юных гандболистов, значительно отличаются друг от друга, согласно результатам ряда соответствующих исследований.

Известно, что юные гандболисты (в возрасте 13 лет) выполняют больше двигательных действий по сравнению со взрослыми. Было обнаружено, что молодые люди выполняют действия, равные тем, которые они выполняют за 60 минут, отведенных взрослым, в течение 40-минутного соревновательного времени, отведенного для участия в соревнованиях.

У молодых людей треть клеток соответствует соотношению чрезвычайно быстрых движений клеток. Но показатели эффективности движений будут иметь более низкие проявления, чем у квалифицированных спортсменов. По этой причине специалисты отмечают, что именно в работе с молодежью следует уделять внимание такого рода упражнениям.

Из исследований известно, что у девочек ударные движения ворот в базовом положении во время выполнения клеточных движений фиксируются в пропорции 33-34% от общего количества ударов, а к 15-16 годам этот показатель снижается до 25%. Однако у мальчиков скорость попадания по воротам из базовой позиции в условиях соревнований остается относительно

стабильной (около 30-35%), при этом доля таких ударов к 15 годам составляет 24% от общего числа.

В случае прыжка удар по воротам выполняется в 43-60% случаев по сравнению с общим количеством ударов. У девочек этот показатель составил 50-65%. Другой тип ударов ногами, более сложный на вид, представляет собой удар по воротам в положении прыжка и падения. У девочек доля этих движений составляет 4-15% от общего количества ударов, по сравнению с 10-23% у мальчиков. Было обнаружено, что в возрасте 13-14 лет доля таких ударов у мальчиков увеличивается на 25%. Этот период, по мнению эксперта, относится именно к чувствительному периоду в формировании сложных шоковых проявлений.

Исследования соревновательной деятельности позволили получить данные о случаях потери мяча. В частности, обстоятельства, при которых 16-летние гандболисты теряли мяч в различных ситуациях в условиях соревнований, приводили к следующим проявлениям:

- потеря мяча в результате нажатия на линию – 20 %;
- удаление - 16 %;
- из-за того, что он получил красную карточку-6 %;
- из-за ошибок при подаче мяча-6% ;
- пробейка-12 %;
- ошибка при захвате мяча -10 %;
- ошибка при передаче мяча - 20 %;
- при переносе мяча двумя руками-6 %;
- в других случаях - 4 %.

По результатам педагогического наблюдения и анализа, проведенного отдельными лицами, не был соблюден достаточный уровень пропорциональности между подготовительными нагрузками юных гандболистов 1-й тренировочной группы специализированной детско-юношеской спортивной школы и структурами соревновательной деятельности.

Эксперты признают, что наблюдение за таким состоянием является негативным. Планируемые нагрузки в отношении развития технических и тактических движений спортсменов в сложных игровых ситуациях не в полной мере отражают особенности соревновательной деятельности, то есть пропорции движений,

зафиксированные спортсменами во время соревновательной деятельности, проявляются в других пропорциях на тренировках. В большинстве случаев оно разрабатывается в неадекватных пропорциях, то есть выделяется недостаточно времени. Это условие, в свою очередь, снижает эффективность обучения.

В программе планирования нагрузки 40% времени отводится на совершенствование движения при передаче мяча в активных фазах организации ячеек и только 5% времени в фазах завершения ячеек организуется тренировка.

Но из педагогических наблюдений за гандболистами этого возраста, проведенных в соревновательной деятельности, выяснилось, что использование движений для передачи мяча в заключительных фазах ходжумов в течение некоторого времени было преобладающим. Это является основанием для нашего вывода о том, что распределение часов, запланированных для загрузки во время обучения, не является рациональным.

Выводы. В настоящее время в стране проводится подготовка к проведению гандбольного турнира, например, к чемпионату мира по гандболу. По данным Министерства юстиции Республики Татарстан, в настоящее время ведутся работы по повышению уровня воды в бассейне реки Душанбе.

Гандбол-это разновидность гандбола. Особенно сложными были действия министров, атакующих боевиков и якунловцев фазаларида пушки узатиша, техник-тактик по обеспечению эффективности передвижения и низкой интенсивности.

В ходе боя техник-тактик атакующих отрядов или якунловцев фазаларида техник-тактик атакующих отрядов самонаводящихся войск потребовала этанола. В то же время, как и в случае с другими странами, в этом году, как и в случае с другими странами, в этом году, так и в случае с другими странами, в этом году, так и в случае с другими странами, в этом году, так и в случае с другими странами.

В то же время, как и в случае с другими видами спорта, такие как спорт, вы можете помочь в развитии движения, специализируясь на подготовке специалистов в области спорта.

ЛИТЕРАТУРА

1. Баландин Г.А. Урок физкультуры в современной школе. Методические рекомендации для учителей. Вып. 5. Ручной мяч. – М.: Советский спорт, 2005. – 108 с.: ил.
2. Волков Л.В. Теория и методика детского и юношеского спорта: Учебник для студентов вузов физической культуры. – Киев, Олимпийская литература, 2002. – 293 с.
3. Зайцев Ю.Г. Подготовка юных гандболистов /Зайцев Ю.Г., Драчев А.Н., Воронин Л.Г., Кириленко В.В., Шкробот И.Ф./ – М.: Спорт, 2020. – 192 с.
4. Игнатъева В.Я. Гандбол. Пособие для ин-тов физ. культ. – М., Физкультура и спорт, 1983, 200 с., ил.
5. Игнатъева В.Я. Юный гандболист: практическое пособие. – М.: Союз Гандболистов России, 1991.- 218 с.
6. Игнатъева В.Я., Портнов Ю.М. Гандбол. Учебник для физкультурных вузов. – М: ФОН, 1996. – 314 с., ил.
7. Игнатъева В.Я. Гандбол. – М.: Физкультура и спорт, 2001. – 192с., ил. (Азбука спорта).



Anvar SHIRINOV,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: anvarsh@yahoo.com

Falsafa fanlari doktori, prof. B.Namozov taqrizi ostida

INSON TARAQQIYOTI KONSEPSIYASINI O'RGANISHNING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada XXI asrga kelib inson taraqqiyoti konsepsiyasining nazariy-falsafiy asoslari shakllanishining dolzarblashuvi hamda uning o'ziga xos xususiyatlari falsafiy-metodologik va retrospektiv jihatdan tahlil etilgan. Inson taraqqiyoti to'g'risidagi turli yondashuvlar, inson kapitali, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va uning inson taraqqiyoti bilan dialektik aloqadorligi, ijtimoiy elastiklik, ijtimoiy himoya, Palma nisbati, inson erkinliklari va va aholining jamoat ishlarida qatnashishi, gender omillarini qamrab olgan rivojlanish indeksleri tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Inson taraqqiyoti, inson kapitali, ijtimoiy, samarali boshqaruv, ekologik, salomatlik, ta'lim, barqaror rivojlanish

ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ КОНЦЕПЦИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация

В данной статье проанализированы специфические особенности формирования теоретико-философских основ концепции человеческого развития и их актуализация в XXI веке с философско-методологической и ретроспективной точки зрения. Изучены различные подходы к человеческому развитию, человеческий капитал, социально-экономическое развитие и её диалектическая взаимосвязь с человеческим развитием, социальная эластичность, социальная защита, соотношение Пальма, свободы человека и участие населения в общественных работах, индексы развития с учетом гендерного аспекта.

Ключевые слова: Человеческое развитие, человеческий капитал, социальный, эффективное управление, экологическое, здоровье, образование, устойчивое развитие

PHILOSOPHICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY OF THE CONCEPT OF HUMAN DEVELOPMENT

Annotation

This article analyzes the specific features of the formation of the theoretical and philosophical foundations of the concept of human development and their actualization in the 21st century from a philosophical, methodological and retrospective point of view. Various approaches to human development, human capital, socio-economic development and its dialectical relationship with human development, social elasticity, social protection, Palm ratio, human freedoms and public participation in public works, development indices with a gender perspective are studied.

Key words: Human development, human capital, social, effective management, environmental, health, education, sustainable development

Kirish. Hozirgi kunda inson, inson taraqqiyoti, inson kapitali va inson taraqqiyoti konsepsiyasi ijtimoiy falsafa tadqiq etadigan dolzarb mazulardan biridir. Mazkur tushunchalarni aniqlab olsak. Falsafa qomusiy lug'atida inson tushunchasiga "har qanday falsafiy ta'limotning asosini tashkil etuvchi fundamental falsafiy kategoriya. Inson o'z turmushi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish malakasiga egadir. Mehnat tufayli inson o'zi yashayotgan tabiiy muhitni o'zgartiradi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadi, o'z-o'zini o'zgartiradi" deb ta'rif berilgan [1]. Inson ijtimoiy sifatlariga ega bo'lgan kategoriyadir. Inson falsafasi insonni jismoniy, antropologik, biologik va ijtimoiy jihatlarida o'rganadi. Falsafada inson taraqqiyotiga kishilarning erkinliklari va imkoniyatlarini kengaytirish va ularning farovonligini oshirish deb ta'rif keltiriladi. Inson taraqqiyoti bu oddiy kishilarning kim bo'lishlari, nima qilishlari va qanday yashay olishlarida haqiqiy erkinlikdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek olimasi N.Shermuhamedova inson individi nafaqat ijtimoiy, balki biologik mavjudot sifatida ham o'ziga xos xususiyat kasb etishini, insonning kamoli jamiyatda va faqat jamiyatda yuz berishini qayd etadi. Olima "insonning kamol topish jarayonida doim ham subyekt, ham obyekt hisoblanishi, bu shaxsning o'z imkoniyatlarini royobga chiqarish va hayot mazmunini izlashi bilan bog'liq bo'lgan yana muhim bir falsafiy muammo yuzaga kelishini belgilaydi deb ta'kidlaydi" [2]. XX asrga kelib inson taraqqiyoti konsepsiya sifatida paydo bo'ldi. 1980-1989 yillarda inson taraqqiyoti konsepsiyasining nazariy asoslari shakllandi. Bu

davrda inson taraqqiyoti omili A. Sen, M. Haq, A. Smit, L. Turou, U. Kirdar, K. Griffin, J. Nayt va S.Fukuda-Parr kabi olimlarning tadqiqot obyektiga aylangan. P.Frankopanning qayd etishicha, "inson taraqqiyoti konsepsiyasi strategiyalarining falsafiy asosida inson taraqqiyotning obyekt deb bilinadi. Bu tushuncha kishilarning o'z salohiyatlarini amalga oshirishlari uchun ularning imkoniyatlarini kengaytirish, ularni o'z taraqqiyotlari yo'lida faol ishtirok etishlarining ta'minlanishini o'z ichiga oladi. Inson taraqqiyoti malaka, bilim va ijodkorlikni rivojlantirishni qamrab oladi" [3]. A. Senning ta'kidlashicha, "inson taraqqiyoti tovarlarga yoki ma'lum bir ishlab chiqarishga asoslangan strategiya bo'lmay, balki insonlarni diqqat markazida tutgan strategiyadir" [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Amerikalik olim G.Bekker inson kapitaliga qilingan investitsiyalarga o'rta va kasb-hunar ta'limiga qilingan xarajatlar, sog'liqni saqlash, axborot qidirish, ishni almashtirish, bolalar tarbiyasi va insonning ishlab chiqarish kuchlari rivojiga olib keluvchi boshqa xarajatlarni kiritadi. A. Marshal insonni "boylikning asosiy vositasi" deb ataydi. Iqtisodiy o'sish va inson kapitali nazariyasida inson ishlab chiqarishning omili deb e'tirof etiladi. G'arb olimlari bu muammoni falsafiy o'rganishga harakat qilishayotgan bo'lsalar-da, bunda individual tafakkur tarzi hukmron. Sharqda insonning yashab turgan muhitidagi ijtimoiy mavqeyi, mahallaning inson taraqqiyotidagi o'rniga alohida e'tibor qaratiladi[5]. Hind olimi S. Mexrotraning fikricha, "inson taraqqiyoti bo'yicha hisobotlar inson taraqqiyotining bir necha indekslarini o'z ichiga oladi. Inson

taraqqiyoti indeksi o'z ichiga uzoq umr ko'rish, bilim va daromadlarni (umr ko'rish uzoqligi, katta yoshdagi kishilarning savodxonligi, maktabga qatnagan yillari uzoqligi va xarid qilish qobiliyatidan kelib chiqib daromadlarini hisobga olgan holda hisoblanadi) nazarda tutadi"[6].

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy himoya va samarali boshqaruv (1997-2024 yillar) masalasi mintaqamamlakatlarida inson manfaatlarini himoya qilishning boshlanishi, O'zbekistonda ijtimoiy muhofaza qilish tamoyillarining strategik maqsad sifatida belgilanishi, Tojikistonda fuqarolar urushining nihoyasiga yetishi va Qirg'izistonda ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning yomonlasha boshlashi bilan aloqadordir. N.Bredli va G.Greyner uni guruh va turlarning ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar va stresslarni "moslashuvchan strategiyalar"ga tayanib o'tkazishlari, ularga nisbatan qanday munosabatda bo'lish qobiliyati deb ta'rif berishgan[7]. A. Senning fikricha, inson taraqqiyoti bu kishilarda mavjud bo'lgan erkinliklar doirasini kengaytirish jarayonidir. Barqaror rivojlanishning asosiy komponentlari inson taraqqiyotining gumanitar va ijtimoiy rivojlanishning parametri bo'lishi lozimligi ta'kidlangan[8].

M.Haqqing tahliliga ko'ra: "Taraqqiyotning asosiy maqsadi kishilarning imkoniyatlarini kengaytirishdir. Bu imkoniyatlar cheksiz va vaqt davomida o'zgarishi mumkin. Taraqqiyotning maqsadi insonlarga uzoq muddatli, sog'lom va ijodkor muhitni ta'minlab beradigan sharoitni yaratishdir"[9]. Globallashtirish davrining inson taraqqiyoti salohiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan omillari sifatida quyidagilarni falsafiy jihatdan ko'rsatish mumkin: "kishilar o'rtasidagi madaniy, milliy farqlarni yumshatishga qaratilgan va biznesning taraqqiyotiga yo'l ochadigan chuqur va intensiv aloqalar muhim ahamiyat kasb etishi; inson taraqqiyoti uchun ilmiy-texnikaviy axborotlar, texnologiyalar, ilmiy-texnik yutuqlarni almashinish orqali ulkan imkoniyatlarning yaratilishi"; globallashtirishning katta imkoniyatlari va natijalaridan foydalanadigan mamlakatlar, kishilar o'rtasida ularni teng taqsimlash, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot yutuqlarini rivojlanmagan mamlakatlarga olib kirish dolzarb muammodir.

O'zbekistonda o'tish davrining islohotlarini quyidagi qismlarga bo'lishimiz mumkin: 1) 1991-1995 yillar iqtisodiy krizis davri va hukumatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotga maksimum darajada aralashuvi; 2) 1996-1997 yillarni ijtimoiy-iqtisodiy hayotda jonlanish davri deb ataymiz va bunda davlat mulkining xususiy lashtirilishi, iqtisodiy hayotda erkinlashtirish; 3) 1998-2024 yillarda makroiqtisodiy barqarorlik, mo'tadil iqtisodiy o'sish va faol ijtimoiy siyosatni kuzatamiz. Bu davrda Respublika hukumati makroiqtisodiyot va sohalaridagi yirik korxonalarining faoliyatini yaqindan nazorat qilib, xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga zamin hozirladi[10].

Mintaqada suv va havoning zaharlanishi natijasida katta miqdorda sanoat chiqindilari to'plangan. O'zbekistonda 2021 yilda atmosferaga 909 ming tonna ifloslantiruvchi moddalar chiqarilgan, holbuki 2011 yilda 788 ming tonnani tashkil qilgan[11]. Qirg'izistonda bu raqam 2021 yilda 54,5 ming tonnani tashkil qilgan[12]. Qozog'istonda 20 mlrd. tonnadan ko'proq chiqindi to'planib, uning har yili 85 mln tonnaga ko'payayotganligi salbiy omildir.

BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari qashshoqlik, savodsizlikni yo'qotish, ta'lim va gender tengligiga yo'naltirilgan. Quyidagilar mamlakatdagi inson taraqqiyoti darajalarining asosidir: 1) Inson Taraqqiyoti Indeksi (ITI); 2) Iqtisodiy Erkinliklar Indeksi (IEI); 3) Gender omilini hisobga olgan holda taraqqiyot indeksi. Hindistonlik olim A. Sen 1998 yilda inson taraqqiyoti masalalarida qilgan tadqiqotlari va global qashshoqlik muammolaridagi yondashuvi uchun Nobel mukofotini olishga muvaffaq bo'lgan. 2020 yilgi tinchlik bo'yicha Nobel mukofotining Jahon Oziq-ovqat dasturiga (WFP) berilishida BRMLarning Covid-19 pandemiyasi sharoitida har qachongidan ham dolzarblashganligini ko'ramiz. Dastur 2019 yilda 88 mamlakatdagi ocharchilikdan aziyat chekkan 100 million nafarga yaqin kishiga ko'mak ko'rsatgan. 2015 yilda ocharchilikni bartaraf etish BRMLardan biri sifatida belgilangan[13].

Markaziy Osiyoning tarixan shakllangan an'analari va mentalitetiga ko'ra jinslar tengligi muhim rol o'ynaydi. Shu xususiyatlarni hisobga olgan holda "Gender omillarini qamrab olgan holdagi rivojlanish indeksi" ishlab chiqilgan. Mintaqa davlatlaridagi reproduktiv salomatlik va oilaning rejalashtirilishi masalalari Markaziy Osiyo davlatlari uchun hal qilinishi kerak bo'lgan muammolardan hisoblanadi.

J.Astrupning ta'kidlashicha "bu hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar keskin bo'lib, ulardagi inson taraqqiyoti ko'rsatkichlarining pastligi 2023 yilgacha bo'lgan davrda tegishli mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy keskinliklarni keltirib chiqargan". Mintaqa mamlakatlaridagi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarini kamaytirish muhim hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish inson taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib o'rtacha umr uzoqligi, savodxonlik darajasi, kishi boshiga YaIM miqdori kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Inson Taraqqiyoti Indeksi, Gender omilini hisobga olgan inson taraqqiyoti indeksi (Gender-related Development Index-GDI) va Aholining qashshoqligi indeksleri keng muomalaga kiritilgan. 2014 yildan boshlab Gender Taraqqiyoti Indeksi (GDI) ishlatilmoqda. Jahon aholisining 2022 yil 15 noyabrda 8 milliardga yetganligi insoniyat oldida hal etilishi kerak bo'lgan katta muammolar turganligini ko'rsatmoqda. BMTning Jahon Oziq-Ovqat Dasturi ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yilda El-Nino ta'sirida Malavi, Zimbabvedda 40 mln.dan ziyod kishi qurg'oqchilikdan aziyat chekdi. 2023 yil fevralda esa Turkiya va Suriyada halokatli zilzila 50 mingdan ziyod kishining hayotiga zomin bo'ldi.

Inson taraqqiyoti bo'yicha butunjahon ma'ruzalarida quyidagilar tahlil qilinadi: Inson taraqqiyoti indeksi; Inson taraqqiyoti indeksleri trendlari; Rivojlanayotgan davlatlarda inson va daromad qashshoqligi; Inson va daromad qashshoqligi: Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti), Markaziy va Sharqiy Yevropa, MDH davlatlari; Demografik trendlar; Sog'liqni saqlash: zahiralalar, ta'minlanganlik va xizmatlar; Suv, sanitariya va oziqlanish statusi; Onalar va bolalar salomatligida tengsizliklar; Eng katta xavf tug'diruvchi kasalliklar va tahlikalar; Hayot davomiyligi: taraqqiyot va tushkunliklar; Ta'im davomiyligini ta'minlash: davlat tomonidan xarajatlar; Savodxonlik va maktabga qatnash; Texnologiya: tarqalish va yaratish; Iqtisodiy ko'rsatkichlari; Daromad va xarajatdagi tengsizlik; Tashqi savdo strukturasi; Boy mamlakatlarning majburiyatlari: ko'mak; Ko'mak, xususiy kapital va qarzdorlik oqimlari; Davlat xarajatlaridagi ustuvor yo'nalishlar; OECD – mamlakatlaridagi ishsizlik; Energiya va atrof-muhit; Muhojirlar va qurol-yarog'lar; Jinoyat qurbonlari; Genderga aloqali rivojlanish indeksi; Genderni qo'llab-quvvatlash choralari; Ta'limda genderga bog'liq tengsizlik; Iqtisodiy faol aholi o'rtasidagi gender tengsizligi.

Hozirgi kunda jahon aholisi bundan o'n yil oldingidan yaxshiroq yashamoqda. 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida o'limi darajasi har ming tug'ilishdan 106 tadan 2016 yilda 41 ga tushib, kutiladigan umr o'rtacha 3 yilga uzaygan. Ocharchilikdan qiynalayotgan aholi soni 2015 yilgi 777 mln.dan 2017 yilda 821 mln.ga oshgan. 150 mln. bola esa rivojlanishdan orqada qolgan. Dunyo miqyosida savodxonlik darajasi oshib, boshlang'ich maktabni yakunlaganlar soni 1999 yilgi 83%dan 2015 yilda 90%ga yetgan. 1970-2023 yillarda o'rtacha umr davomiyligi 59 dan 73 yilga, aholining boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olinganligi darajasi 55 %dan 70 %gacha oshgan.

Ekologiya muammolarining XXI asrda dolzarblashganligini 2017 yilda Tinchlik bo'yicha Nobel mukofotining tabiiy ofatlarga nisbatan e'tibori uchun Yadro qurolini yo'qotish uchun xalqaro kampaniyaga (ICAN) berilganligi orqali bilishimiz mumkin. Iqlim o'zgarishining oldini olish maqsadida NASA (National air and space administration) tadqiqotchisi J. Xansen 2030 yilga kelib insoniyat ko'mir yoqishni to'xtatishi kerak degan xulosaga kelgan.

Hozirgi kunda jahonda suv tovar sifatidagi xususiyatini o'zida ifoda etmoqda. 2019 yilda dunyoda suv savdosi 5432 mlrd kub metrni tashkil qilgan. Jahon Iqtisodiy Forumi loyihasida 2030 yilda ko'ra suvga bo'lgan kutiladigan talab va taklif o'rtasida 40% kamayish qayd etiladi. Jahon banki Direktorlar kengashi 2012 yil

13 dekabrda "Buxoro viloyatining Qorako'l va Olot tumanlarini ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilash" loyihasi asosida O'zbekistonga Xalqaro taraqqiyot uyushmasining imtiyozli 53.2 mln SDRga teng kreditni ma'qulladi. Loyiha 2013-2021 yillarda amalga oshirilib, jami 139021,51 mln. AQSh doll.ni tashkil etdi.

QS Supplies Yale universitetining Ekologik samaradorlik indeksiga asosan (Environmental Performance index) mintaqa mamlakatlaridagi inson xavfsizligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan ichimlik suvi sifat ko'rsatkichlariga ko'ra O'zbekiston 54, Qozog'iston 56, Turkmaniston 47,7, Tojikiston 31,7, Qirg'iziston 47 ballga ega bo'lgan. Tojikistonning global sherikchilikni ta'minlash borasidagi tashabbuslari BMT Bosh Assambleyasini tegishli rezolyusiyalarni ishlab chiqishga undadi. Tojikiston tomonidan 2005-2015 yillarni "Suv hayot uchun" xalqaro faoliyat o'n yilligi sifatida o'tkazish borasidagi tashabbuslar jahon hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston mamlakatda inson taraqqiyotini ta'minlab berishda, unga keng imkoniyatlar yaratishda, muammolarni ijobiy hal etishda jahon tajribasiga qo'shimcha ravishda mahalla tizimining afzalliklaridan foydalanmoqda. Bu inson

taraqqiyotidagi yana bir ijobiy tendensiyadir. Inson taraqqiyoti konsepsiyasi va stretegiyasining ijtimoiy-falsafiy yondashuvlari, ularning amalga oshirilishi determinizmni anglashga imkon yaratuvchi kategoriyalar: sabab va oqibat, imkoniyat va voqealik kategoriyalari asosida rivojlanib borib pirovard natijada islohotlarning inson kapitaliga aylanib borishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Inson taraqqiyotida fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishi davlatning roli kamayishini talab qilmaydi. Inson taraqqiyoti muammolari barcha mamlakatlarda davlat xarajatlarining qayta ko'rib chiqilishi va inson resurslariga ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini yo'lga qo'yishni taqozo qiladi. Dunyodagi muvozanatni va barqarorlikni ta'minlashda barcha davlatlar – boy davlatlar bo'ladimi yoki kambag'al davlatlar bo'ladimi, qo'yilgan maqsadga erishishda har bir insonga imkoniyatlarning keng diapazonini taklif etadigan xohishni namoyon qilmoqdalar. Bu jarayonda xalqaro hamjamiyat, investorlar, nodavlat-notijorat tashkilotlari, hamkor tashkilotlar, erkin ommaviy axborot vositalarining, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining inson taraqqiyotidagi uzviy hamkorligi talab etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Фалсафа комусий луғати.– Тошкент: "Шарк", 2004. – Б. 161.
2. Shermuhammedova N.A. Inson falsafasi. –Toshkent: Innovatsiya Ziyo, 2020. –B. 42-43.
3. Frankopan P. The new Silk Roads. The present and future of the world. –London: Bloomsbury, 2018. –P. 126.
4. Sen A. Commodities and capabilities. – Oxford: OUP, 2008. – P.87.
5. Haq M. The Human Development Paradigm. –New Delhi: Oxford University Press, 1995. – P.27.
6. Mehrotra S. Seizing the Demographic Dividend. Policies to Achieve Inclusive Growth in India. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015. – 422 p.
7. Бредли Н., Грейнджер Г. Глобальные изменения, социальная устойчивость и опустынивание. –Париж: Мангейт VI. MEDIAS. 2015. –С. 134.
8. Sen A. Development as freedom. –New York: Oxford University Press, 1999. –2-3 pp.
9. Haq M. Watkins K. Human Development Report 2006. Beyond scarcity: Power, poverty and the global water crisis. UNDP.–New York, Palgrave Macmillan, 2006. –260-263 pp.
10. Khalid M. Human Development Report 2014. Sustaining Human Progress: Reducing Vulnerability and Building Resilience. – New York: PBM Graphics, an RR Donnelley, 2014. –P. 221.
11. Barrat J., Ferro C., Wong Ch. Geopolitique de l'Ouzbekistan. –Paris: Editions SPM, 2010. –P. 112.
12. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/ecology-2> Ekologiya
13. <https://www.nobelprize.org/prizes/peace/2020/press-release/> The Nobel Peace Prize for 2020



Aziza EGAMBERDIYEVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti

ITSBMOITMOI Samarqand filiali dotsenti F.Eshnazarova taqrizi asosida

ALTRUIZM TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqola altruizm tushunchasining ijtimoiy-falsafiy tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda altruizm tushunchasining falsafiy tahlili, altruizm tamoyillari, altruizمنىning mohiyati kabi masalalar yoritib berilgan. Shuningdek, altruizمنىning mohiyatini ochib beradigan yondashuvlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Altruizm, altruizm tushunchasi, ijtimoiy-falsafiy tahlil, empatiya, axloqiy fikrlash.

СОЦИО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПЦИИ АЛЬТРУИЗМА

Аннотация

Данная статья посвящена социально-философскому анализу понятия альтруизм, в котором освещены такие вопросы, как философский анализ понятия альтруизма, принципы альтруизма, сущность альтруизма. Также анализируются подходы, раскрывающие сущность альтруизма.

Ключевые слова: Альтруизм, концепция альтруизма, социально-философский анализ, сопереживание, моральное мышление.

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF ALTRUISM

Annotation

This article is devoted to the socio-philosophical analysis of the concept of altruism, in which issues such as the philosophical analysis of the concept of altruism, the principles of altruism, the essence of altruism are highlighted. Approaches that reveal the essence of altruism are also analyzed.

Key words: Altruism, concept of altruism, socio-philosophical analysis, empathy, moral thinking.

Kirish. Ilmiy adabiyotlardan ma'lumki altruizm, mukofot kutmasdan, boshqalarning farovonligi uchun fidokorona g'amxo'rlik qilish ma'nosini bildiradigan tushunchadir. Altruizm - bu bir odam boshqa odamlarning farovonligiga g'amxo'rlik qiladigan yaxshi ishlarni bajaradigan xatti-harakatlar tamoyilini anglatadi. Aslini olganda, altruizm tamoyili "boshqalar uchun yashash"dir. Altruizm tushunchasining tarixiy tahlillariga e'tibor beradigan bo'lsak, bu fidoiylilik, axloqiylik tushunchalari mazmunini anglatadi. Altruizm ko'pincha o'ziga xos yoki shaxsiy xususiyat sifatida qabul qilinadi. Biroq, sotsiologik nuqtai nazardan, altruizmga ijtimoiy tuzilmalar va madaniy me'yorlar ham chuqur ta'sir ko'rsatadi. Dialektik nuqtai nazarni qabul qilish ijtimoiy ta'sirlarning altruistik xatti-harakatlarning qanday shakllanishini va ular tomonidan shakllantirishini chuqur tahlil qilishni taklif qilishi mumkin, bu individual va ijtimoiylik o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirni ochib beradi.

Adabiyotlar tahlili. Altruizm atamasi faylasuf Kont tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan, uning fikricha, altruizm boshqalar uchun yashash, me'yorining timsolidir, insoniyat jamiyatini yanada insonparvarlashtirish sari o'zgartirishning harakatlantiruvchi kuchidir. Kont altruizمنىning ikki turini aniqladi: hayvonlarga xos (instinktiv altruizm) va insonga xos bo'lgan, sivilizatsiya ta'sirida rivojlanib, tug'ma bo'lib qolgan hissiyot turidir. Kontdan ancha oldin, altruizm axloqiy tamoyil sifatida tushunilgan. Axloqiy ongning shakli sifatida altruizm tushunchasi Shaftesberi, A.Smit, D.Yum, Leybnits, I.Kant, L.Feyerbax kabi olimlar tahlil qilgan. Falsafa va axloqda altruizm hodisasi odamlar jamoasiga xos bo'lgan bir-biriga nisbatan tabiiy moyillikni qabul qilishga asoslangan axloqiy talabni ifodalash shakli bilan bog'liq. Sotsiologiyaning asoschilaridan biri E.Dyurkgeym altruizمنى shaxsning jamiyat tomonidan to'liq

o'zlashtirishi, uning intilishlari bilan to'g'ri kelmaydigan shaxsiy intilishlarni rad etishi, jamiyat me'yorlarini to'liq qabul qilishi deb tushunadi.

Psixologik nuqtai nazardan, altruizm ko'pincha sadoqat, hamdardlik, rahm-shafqatga asoslangan mazmunli, erkin va boshqalarga hech qanday foyda keltirmaydigan xizmat sifatida ta'riflanadi, altruist esa o'z xohish-istaklaridan voz kechishi, farovonligini qurbon qilishi mumkin.

Shuningdek, ko'pgina psixolog olimlar tomonidan altruizمنىning psixologik mexanizmlari tadqiq etilib, tahlil qilib berilgan. Jumladan, Dj.Aronfrid va V.Paskallar altruizمنى bolalardagi empatiyani namoyon bo'lishi bilan bog'lab o'rgangan bo'lsalar, B.Mur ijobiy emotsiyalar altruistik xatti-harakatlarga sabab bo'lishini isbotlab bergan, S.Staub esa o'z tadqiqotlari davomida altruistik xulq-atvor motivlarini ko'rsatib o'tgan. Bundan tashqari, xorij olimlarining ilmiy izlanishlarida altruizمنىning turli jihatlarini ham tahlil etilgan. Jumladan altruizمنى D.Beytson vaqt omiliga, D.Mak-Millen, Dj.Ostin aybdorlik hissiga, D.Kenrik, D.Baumann kayfiyatga, E.Igli, M.Krouli shaxsning individual xususiyatlariga bog'liqlik jihatlarini tadqiq etgan.

Muhokama. Pedagogika lug'atida altruizm tushuncha-siga quyidagicha tariff beriladi: "Altruizm - axloqiy tushuncha, insonning o'z manfaatlaridan voz kechib, boshqalar manfaati, baxt-saodati yo'lida beg'araz xizmat qilishini anglatadi. Bu tushuncha Sharqda jo'mardlik atamasi bilan bir necha asr avval qo'llanilgan. O'rta asrlarda Sharq xalqlarida jo'mardlik, insonparvarlik va vatanparvarlikni targ'ib qiluvchi tasavvuf tariqatlaridan biri sifatida o'zining falsafiy, tarbiyaviy asosiga ega bo'lgan. Altruizm shaxsning ma'naviy jihatdan o'z-o'zini baholashi, xudbinlikdan voz kechishini bildiradi" [1].

Falsafa qomusiy lug'atda altruizm tushunchasi "(frans. Altruisme, lot. Alter- boshqa) - egoizmga qarshi axloqiy prinsip bo'lib, u boshqa kishilarga beg'araz xizmat qilishdan, ularning baxt-saodati uchun o'z shaxsiy manfaatlarini qurbon etish" [2] sifatida ta'riflanadi. Shuningdek, yana "altruizm tushunchasi, odatda, yaqinlarga, mehruhahbat bilan qarash, odamlarning xatolarini kechirish, o'zining qadr-qimmatini chetlab o'tib, o'y-fikr va xatti-harakatini boshqalar hayotiga bag'ishlash, o'zini tamomila unutishni anglatadi". Altruizmga ko'ra, "boshqalar uchun yasha" - bu ibora kelajakda axloqiy talabning epigrafi bo'lib qolmog'i kerak" [2].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, altruistik ishlarni qilish ham insonni baxtli his qiladi. Tadqiqotchilar altruistning bir nechta asosiy belgilarini aniqladilar: saxiylik, olijanoblik, fidoyilik, xayrixohlik, befarqlik, rahm-shafqat, mehribonlik. Bu xususiyatlarni bir narsa birlashtiradi - ularning "o'zlaridan" yo'nalishi. Oddiy qilib aytganda, altruist - olishdan ko'ra berishga tayyor odam. Altruist-bu burch hissi, ijtimoiy bosim yoki diniy mulohazalar bilan emas, balki yordam berish istagi tufayli harakat qiladigan manfaatdor bo'lmagan shaxsdir. Egoizm esa bu hodisaning aksi. Biroq, altruizmning ba'zi nazariyalari altruist tomonidan amalga oshirilmasligi mumkin bo'lgan vaziyatlar mavjudligini istisno qilmaydi. Bu esa altruizm tamoyillarida o'z aksini topadi.

Altruizmning mohiyatini ochib beradigan uch xil yondashuv mavjud, bular: Psixologik yondashuv.

Jamiyatda har qanday shaxslararo munosabatlar zamirida o'zaro manfaatdorlik yotadiki, shunga muvofiq altruizm - bu mehr-muhabbat, hurmat, g'amxo'rlik kabi psixologik hissiyot va ijtimoiy-psixologik qadriyatlarini o'zaro almashinishdir. Bunda kishilardagi empatiya va egoizm hislarining namoyon bo'lish darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy yondashuv.

Shaxs va jamiyat hayotida ijtimoiy ta'sirlarning roli beqiyosdir. Aynan ijtimoiy ta'sirlar, ya'ni ijtimoiy norma, sanksiya, ijtimoiy ma'suliyat hissi va ijtimoiy rollarning o'zaro ta'siri natijasida kishilar altruistik xatti-harakatlarni sodir etadilar.

Biologik yondashuv.

Ushbu yondashuvda altruizm biologik ehtiyoj sifatida ko'rib chiqiladi va altruizm kishilar xulq-atvorida instinktiv ravishda namoyon bo'ladi deb qaraladi. Altruizmning asl mohiyati kishilarning o'z naslini saqlashga qaratilgan bo'ladi, ya'ni ota-onaning o'z farzandiga nisbatan altruistik xatti-harakati negizida o'z naslini saqlab qolishga bo'lgan biologik ehtiyoj yotadi deb tushuntiriladi.

Altruizm turlari quyidagi turlarga bo'linadi:

-ota-ona altruizmi - oila doirasida, masalan, ona tomonidan bolani himoya qilish jarayonida o'zini namoyon qiladi. Bunday altruizmga moyil bo'lgan ota-onalar o'zlarining ambitsiyalarini amalga oshirishga harakat qilishdan ko'ra, bolaning shaxsiy xohish-istaklarini hisobga olishadi.

-o'zaro altruizm - do'stlar, sevishganlar bilan munosabatlarda sodir bo'ladi va o'zaro harakatlarning ishonchiga asoslanadi. Ushbu turdagi altruizm o'zaro munosabat normasiga asoslanadi va ijtimoiy o'zaro ta'sirning universal tamoyilidir.

-ko'rgazmali altruizm - "ommaviylik bilan xayriya", masalan, o'zining imkoniyati bor odamlarning xayr-ehsonlari. Yana: avtobusda chaqaloqli onaga yo'l bering, keksa odamga yo'lni kesib o'tishga yordam bering va hokazo.

-axloqiy altruizm - bu ko'ngillilik, odam empatiya ko'rsatsa va fidokorona harakatlar qilsa. Altruizm o'zini aybdor his qilishni yoki ruhiy xotirjamlikni buzishni istamaslikka asoslanadi.

-vaziyatli altruizm - hayotning muayyan daqiqalarida, din ta'sirida, guruhga taqlid qilishda yuzaga keladi. Shaxs o'zini fido qiladi, psixologik ta'sirga tushadi (diniy va'z, sevgan kishining malomati, kimningdir ko'z yoshlari talabi va hokazo) yoki boshqa odamga taqlid qiladi. Bu omillar bo'lmasa, ehtimol, altruizm harakati amalga oshirilmaydi - odam bu haqda o'ylamasligi ham mumkin.

-ijtimoiy altruizm - Altruist yaqin atrofdagi odamlarga (do'stlar, qarindoshlar, hamkasblar va boshqalar) bepul yordam beradi. Bunday altruizmni ijtimoiy mexanizm deb atash mumkin - bu guruhdagi qulay va ishonchli munosabatlar uchun turki. Shuni hisobga olish kerakki, keyingi manipulyatsiyalar uchun ko'rsatilgan yordam noto'g'ri ravishda altruizm deb nomlanadi.

-hamdard altruizm (rahmdil): Mehribonlik va shaxsiy niyatlar rahm-shafqatning asosiy asosiga aylanadi. Bu ko'proq oilaviy aloqalarda, shuningdek, do'stlar, sevishganlar o'rtasidagi munosabatlarda uchraydi. Inson sevgi va mehr tuyg'usi bilan yordam berish kerakligini his qiladi.

Altruistning boshqa xususiyatlari:

1. Ustuvorlik. Altruist o'z manfaatlarini ikkinchi o'ringa qo'yadi, bironing ehtiyojlarini birinchi o'ringa qo'yadi va bundan o'zini noqulay his etmaydi.

2. Mas'uliyat. O'z harakatlaridan to'liq xabardor bo'lgan shaxs, ular uchun javobgarlikni o'zi olishi kerakligini tushunadi.

3. Tanlash erkinligi. Altruizm yordam bosim ostida yoki talab bilan kelgan holatlarni o'z ichiga olmaydi. Altruistning o'zi bu masalada ishtirok etish istagini bildiradi, bu faqat uning shaxsiy tanlovi haqida.

4. Qoniqish. Kimgadir yordam berib, haqiqiy altruist shaxsiy vaqtini behuda o'tkazganidan afsuslanmaydi. Boshqaga yordam berish uchun o'z xohish-istaklari va ehtiyojlaridan voz kechib, u qoniqish hosil qiladi va o'zini foydalanilgan yoki buzilgan deb hisoblamaydi.

5. Qurbonlik qilish. Altruist, shubhasiz, shaxsiy vaqtini sarflaydi, boshqasiga yordam berish uchun jismoniy yoki ma'naviy harakatlar qiladi. Moddiy resurslardan ham foydalanish mumkin.

Alohida tur qahramonlik altruizmi sifatida ajralib turadi - bu ekstremal vaziyatlarda (masalan, harbiy harakatlar, tabiiy ofatlar paytida) odamda o'zini namoyon qiladigan xatti-harakatlardir. Ko'pincha jamiyatda empatiyaga asoslangan empatik altruizm namoyon bo'ladi. Altruizmning situatsion turi ham keng tarqalgan bo'lib, muayyan harakatlarda odam o'zini guruhga tegishli ekanligini his qilishni xohlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, altruizm - bu o'zga insonlar ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan xulq-atvor shakli bo'lib, uning asosida hech qanday manfaat kutmaslik yotadi. Bu insonlarga beg'araz yordam ko'rsatishga tayyorlik demakdir. Altruistik xulq egasi boshqalarga har doim, har qanday sharoitda xatto buning evaziga hech narsa olmasligini bilsa ham, boshqalarga qilgan yordami uchun o'zi jabr ko'rsa ham baribir boshqalarga yordam beraveradi.

Altruizm - bu o'zga odamning yoki ijtimoiy guruhning qiziqishlariga yo'naltirilgan va hech qanday manfaat ko'zlanmaydigan shaxs xulq-atvoridir. Bizga ma'lumki, Sharqning buyuk siymolari o'zlarining asarlari, ilmiy izlanishlari davomida ko'pgina ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy masalalarning nazariy va amaliy asoslarini yaratib berganlar [3]. Ayniqsa, bola tarbiyasi va uning kamoloti borasida o'zlarining qator pedagogik-psixologik fikrlarini bildirib o'tganlar. Shu jumladan, altruizm muammosining tahlili ham Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham o'z aksini topgan. Biroq, bu muammo ularning asarlarida altruizm tushunchasi orqali emas, balki, ezgulik, muruvvat, yaxshilik, sahovat kabi tushunchalar negizida yoritib berilgan. Bizga

ma'lumki, mana shu oliy sifatlar zamirida o'zgalarning manfaatlari, qarashlari yotadi.

Shunga ko'ra, allomalarimiz asarlarida keltirilgan mana shu kabi shaxs ijobiy sifatlarini aynan altruizmning sharqona tavsifi deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari bu tushuncha muqaddas dinimiz islomda ham keng o'rin olgan. Agar inson kimningdir koriga yaramasa, u haqiqiy mo'min bo'la olmasligi muqaddas kitoblarimizda aytilgan. Hozirgi jamiyatdagi eng og'ir muammo bu yosh avlod tarbiyasidir. Bu

tarbiya zamirida altruizm kabi g'oyalarning o'rni benihoya katta. Xulosa qilib aytganda, jamiyatning ma'naviy hayoti shaxsning ma'naviy qiyofasiga bog'liqdir. Shaxs ma'naviy qiyofasida esa altruizm kabi g'oyalar o'rni salmoqli ekanini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Insonlar o'rtasidagi munosabatlarning manfaat ustida qurilishi, jamiyatni chokchokidan yemiradigan illatdir. Shu bois bu illatdan qutulmoq kerak. Buning uchun esa insonda altruistik dunyoqarash shakllangan bo'lishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Pedagogika. Ensiklopediya. 1-jild. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. –B. 54.
2. Falsafa qomusiy lug'at. Toshkent.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2004, -B. 54.
3. Атабаева Н., Исмоилова Н. Болада Альтруизм шаклланишига таъсир этувчи омиллар // Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборотлари. –Тошкент, 2017. -№3(12). –Б.139-144.
4. Nurmuhammad, Ahmadjanov; "CHARACTERISTICS AND DEVELOPMENT OF COGNITIVE PROCESSES SUCH AS PERCEPTION, MEMORY, IMAGINATION IN STUDENTS OF JUNIOR SCHOOL AGE",PEDAGOG,6,4,693-698,2023.
5. Samitjonovich, N. R. (2020). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE USE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE DAILY LIFE OF CHILDREN. INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION, 1, 65-67



Oydinoy ERGASHEVA,
Toshkent shahar PDP Universiteti o'qituvchisi
E-mail: ergashevaoydinoy94@gmail.com

P.f.d, professor T.Egamberdiyev taqrizi asosida

PEDAGOGICAL MECHANISMS OF THE PROCESS OF LANGUAGE ACQUISITION IN BILINGUAL CHILDREN

Аннотация

This article explores the pedagogical mechanisms that facilitate effective language learning in bilingual environments. Emphasizing both theoretical perspectives and practical strategies, the paper aims to provide a comprehensive understanding of how children acquire multiple languages simultaneously and the role educators play in this complex process.

Key words: bilingualism, language acquisition, dual language programs, scaffolding techniques, code-switching, cultural integration, cognitive development, language proficiency.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПРОЦЕССА ОВЛАДЕНИЯ ЯЗЫКОМ У ДЕТЕЙ-БИЛИНГВОВ

Аннотация

В этой статье исследуются педагогические механизмы, которые способствуют эффективному изучению языка в двуязычной среде. Подчеркивая как теоретические перспективы, так и практические стратегии, статья призвана обеспечить всестороннее понимание того, как дети осваивают несколько языков одновременно, и роль педагогов в этом сложном процессе.

Ключевые слова: двуязычие, овладение языком, двуязычные программы, методы построения лесов, переключение кода, культурная интеграция, когнитивное развитие, владение языком.

IKKI TILLI BOLALARDA TILNI O'ZLASHTIRISH JARAYONINING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Аннотация

Ushbu maqola ikki tili muhitda samarali til o'rganishni osonlashtiradigan pedagogik mexanizmlarni o'rganadi. Nazariy istiqbollarni ham, amaliy strategiyalarni ham ta'kidlagan holda, maqola bolalar bir vaqtning o'zida bir nechta tillarni qanday o'zlashtirishi va bu murakkab jarayonda o'qituvchilarning roli haqida har tomonlama tushuncha berishga qaratilgan.

